

4 2021

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


**ILMIY  
AXBOROTLARI  
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC BULLETIN**

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ILMIY-NAZARIY JURNAL  
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL



ANIQ FANLAR  
TABIIY FANLAR  
FALSAFA  
PEDAGOGIKA  
PSIXOLOGIYA  
IJTIMOIY-GUMANITAR  
FANLAR

**ISSN 2181-9580**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTLARI  
ILMIY-NAZARIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК  
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN  
OF THE TASHKENT  
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

**2021**

**4-son**

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

**MUNDARIJA**

<b>Umarov A.Yu.</b> Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati	4
<b>G'aniyev G.A.</b> Fizika fanini o'qitish jarayonida “ijodiy fikrlash” ko'nikmalarini rivojlantirishda “muammoli ta'lim”	13
<b>Nasirov A. N.</b> Romaniy tafakkurda ijodiy matn va badiiy mantiq	20
<b>Kadirova Y.B.</b> Maktab o'quvchilarida huquqiy immunitetni shakllantirishda “davlat va huquq asoslari” fanining ahamiyati	25
<b>Xojanazarova R.M., Jo'raev B.B.</b> Pedagogik oliy ta'lim muassasasida optikani izchillik tamoyilini qo'llab o'qitish	31
<b>Ashurov M.A.</b> Oliy ta'lim muassasalari talabalariga dasturlash tillari fanini o'qitishda python dasturlash tilining imkoniyatlari	40
<b>Muhammadiyev A.M., Toshmanov N.J., Toshmanov N.I.</b> Pedagog mahoratini aniqlashning uch jihatni	48
<b>Hasanova M.T.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	59
<b>Bobojonova Sh.Sh.</b> O'zbek tilida “axloq” umumiy semali atov birliklarining kognitiv mundarijasi	65
<b>Djurakulova E.S.</b> Hayotni badiiy talqin etishda ijodkor mahorati	70
<b>Nabiiev O.A.</b> Xitoy-O'zbek to'y va motam marosimlarining lingvokulturologik tahlili	76
<b>Abdukarimov S.S.</b> Dasturlashga oid fanlarni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari	85
<b>Abdullayev D.N.</b> Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim omillari – rag'batlantirish va mukofot tushunchalari talqini	91
<b>Ruxsatov A.Q.</b> Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkillashtirishda foydalaniladigan asosiy manbalar	100
<b>Egamov M.X., Xudoyqulov J.X.</b> To'g'ri burchakli sferik uchburchak masalalarini ms excel dasturi yordamida yechish	104
<b>Ubaydullayeva M.A.</b> Lirik va dramatik turga oid adabiyotshunoslik terminlarining o'zbek va qirg'iz maktab darsliklaridagi tadqiqi	112
<b>Berdiyev A.A.</b> XVIII - XIX asrlarda Buxoro amirligining xalqaro munosabatlardagi o'rni	121
<b>Пардаева Д.Т.</b> Развитие лексических компетенций студентов в направлениях esp	130
<b>Xolmurodova D.X.</b> Oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	137
<b>Toshtemirova A.S.</b> Translation problems of paralinguistic means used in	145

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI 2021/4 - SON**

uzbek belles-lettres texts into english	
<b>Rashidov Sh.T.</b> O'zbekiston SSR davlat boshqaruvida deputatlarning ishtiroki (XX asr 50 -yillari)	154
<b>Allayarova Z.B.</b> Termin o'zlashtirish tamoyillari (agrar soha terminlogiyasi misolida)	160
<b>Jalilov N.A.</b> Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik samaradorligini oshirishda modulli texnologiyalardan foydalanish	170
<b>Qo'chqarov D.U.</b> Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish	177
<b>Mamatqulova M.V.</b> Zamonaviy nazariya va amaliyotda shaxsning ijodkorlik qobiliyatlari muammosi	183

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY – INTELLEKTUAL  
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY HAMKORLIKNING  
AHAMIYATI**

**Umarov A.Yu. - Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori, fizika-  
matematika fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliv ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati, pedagog kadrlar tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik ta’sir vositalari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, ijtimoiy hamkorlik, pedagogika, innovatsion pedagogika, integratsiya, integrallashish, intellekt, qobiliyat, innovatsion ta’lim

Ma’lumki hozirgi vaqtida mamlakatimiz ta’lim – tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘lib, ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq kasbiy bilimlar bilan qurollantirish mexanizmlarini joriy etish asosida uzluksiz kadrlar tayyorlashni amalga oshirish ta’lim bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

2019-yil 8-oktabrdagi №PF-5847-sonli qarori asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlish to‘g‘risida” gi Farmonda, O‘zbekiston Respublikasida oliv ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy – axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliv ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy sohani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan [1]. Ushbu Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliv ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rtta va uzoq muddatli istiqbolidagi rivojlanish bosqichlarni belgilab, sohaga oid fan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida [2]”gi Qarorida quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

- Oliy va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hakozo.

Ushbu qaror ijrosini ta’minlashda bevosita ko‘lajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, tizimda samarali islohatlar olib borish muhim. Xususan, o‘qituvchining kasbiy - intellektual qobiyatlarini rivojlantirish modelini yaratish pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogikada o‘qituvchining kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Modelga pedagogik ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan real jarayonlarning ideal aksi sifatida qarash mumkin. Bunda tamoyillar (ta’kidlanadigan umumiyy didaktik va uslubiy tamoyillardan tashqari) - modelning umumiyy xususiyatlarini to‘ldiruvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan oltita o‘ziga xos jihatlar majmuuni aks ettiradi.



**1-rasm. O‘qituvchilarning kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillari**

O'qituvchilarning kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda maqsadli komponent motivatsion komponent bilan chambarchas bog'liq, chunki maqsadlarni qabul qilish, ularning ahamiyatini anglash talabaning o'quv faoliyati motivatsiyasiga va ayniqsa, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tayyorgarlik ko'rishga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining ushbu faoliyatga tayyorligini shakllantirish, avvalo, shaxsda amalga oshadigan jarayon bo'lib, natijada ong, motivlar rivojlanadi, tajriba orttiriladi. Motivatsion komponentni hisobga olgan holda ilgari surilgan maqsadlar o'qitish mazmunini modellashtirish yo'naliшlarini belgilaydi. Ta'lim maqsadlari va o'rganilayotgan mavzuning mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik qanchalik aniq va qanchalik mukammal bo'lsa, o'quv jarayoni shunchalik samarali bo'ladi.

Shuningdek, o'qituvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tayyorgarlik jarayonini tashkil etishda modeldag'i shaxsiy – faoliyatga oid komponentni loyihalash, o'qituvchilarning o'quvchilar va hamkasblar o'rtasida o'zaro pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatish bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga olganligini yodda tutish kerak. Ushbu komponent tufayli birgalikdagi faoliyat olib boriladigan, hissiy, psixologik va kasbiy munosabatlar rivojlanadigan va qadriyatlar yo'naliшlari shakllanadigan ta'lim muhiti yaratiladi. Talabalarning mustaqil ishlariga alohida e'tibor beriladi, bu esa ularning ijodiy qobiliyatları rivojlantirilishini ta'minlaydi.

Jarayonli komponentni o'quv faoliyatining maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida ko'rib chiqishda o'quv mashg'ulotlarining guruh shakllariga, birgalikdagi faoliyatga yo'nalanligi talab qilinadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonida kattalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, avvalambor, o'qitish uchun ijobjiy motivatsiya yaratish, o'qituvchining uzluksiz ta'limga bo'lgan ehtiyoji va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish uchun zarur va yetarli sifatlarni, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

An'anaviy dars mashg'ulotlari (ma'ruzalar, seminarlar) bilan bir qatorda, amaliy vaziyatlarni modellashtirish va tahlil qilish, ishlab chiqarish muammolarini hal qilish, vaziyatli o'yinlar va boshqalar tobora keng tarqalgan bo'lib, ular o'qituvchi shaxsini shakllantirishga, namoyon etishga, uning qobiliyatları va moyilligini rivojlantirishga yordam beradi.

O'qituvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda tayyorgarlik jarayonini optimal ravishda tashkil etish uchun har bir nazorat harakatini qo'llashni boshlashdan oldin bo'lajak o'qituvchi tayyorgarlik darajasining dastlabki holati to'g'risida, oldingi harakatni qayta ishlash jarayonida uning holati (tayyorligi)ni o'zgartirish natijalari borasida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Shunga ko'ra, taklif qilingan modelni amalga oshirishning muhim sharti – turli tayyorgarlik darajasiga

ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarga mo‘ljallangan diagnostik materiallar to‘plamlarini ishlab chiqishdir.

Baholovchi-samarali komponent tegishli mezon va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq taklif etilayotgan model samaradorligini belgilaydi. V.G.Voronsova pedagog kadrlar tayyorlashda qator muammolarni aniqlagan bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli hal etilishi mazkur tizimning samaradorligiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4; 421-b.]. Ularga quyidagilar kiradi:

- differensiallash va uzlusizlik prinsipini amalga oshirish;
- ijodiy salohiyatni, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish va zaxira tayyorlash.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonining mazmuni ularni imkon qadar nazariy tushunchalar bilan qurollantirish emas, balki ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirishdan, tegishli kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishdan iborat bo‘lishi zarur.

O‘rganilayotgan jarayon, ya’ni o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni pedagogik faoliyatining barcha bosqichlarida o‘zlarining kasbiy tajribalarini anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek, o‘zini-o‘zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi. Mazkur jarayonda shaxsning ma’naviy takomillashuvi hamda ijodiy salohiyatining rivojlanishi uchun imkoniyat vujudga keladi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarda mazkur jarayonga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning uch bosqichi mavjud: tayyorgarlik bosqichi, integratsiya bosqichi va ijodiy bosqich.

Tayyorgarlik bosqichida ta’limning prognostik va diagnostik darajasiga o‘z-o‘zini baholash, o‘zini o‘zi aniqlash, o‘qitishning mazmuni va uslublarini faol rivojlantirishga tayyorgarlikni shakllantirish asosida erishish ta’minlanadi. Vazifaning mazmuni asosan o‘qituvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi faoliyatida kutiladigan muammoli-rivojlantiruvchi ta’lim sharoiti aniqlashtiriladi. Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilarda muayyan jarayonga tayyorgarlik va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risida tushuncha rivojlantiriladi, takomillashuv va o‘zini o‘zi rivojlantirish maqsadlari belgilab olinadi, kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatga kognitiv qiziqish uyg‘otiladi, o‘zini o‘zi baholash darjasasi me’yorlashtiriladi, maqsadlarni belgilash, o‘z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rivojlantiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar mustaqil o‘quv-bilish faoliyatining ratsional usullarini o‘zlashtiradilar, berilgan vazifalarni hal qilishning samarali usullarini tanlashni o‘rganadilar. Regulyativ harakatlarni takomillashtirish va o‘qitishning boshlang‘ich darajasiga erishish bilish jarayonida tashabbusni

rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish, kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos fazilatlarni, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim.

Integratsiya bosqichining vazifasi – o‘qituvchining pedagogik faoliyatda o‘quvchilar bilan ijobiy munosabat yuzaga keltira olish, rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadigan faoliyat usullarini faol o‘zlashtirish darajasiga erishishlarini ta’minlaydi. Ishning mazmuni kasbiy yo‘naltirilgan muammoli- rivojlantiruvchi ta’lim sharoitida ham individual, ham guruh faoliyatida amalga oshiriladigan harakatlarni qamrab oladi. Ushbu bosqichda o‘z faoliyatini o‘zi tashkillashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish va muayyan qobiliyatlarni yanada rivojlantirish rag‘batlantiriladi, mustaqil faoliyatning turli shakllarida shaxs ijodkorligi rivojlanadi. Guruhda ishslash jarayonida kommunikativ qobiliyatlar takomillashadi, kognitiv va tarbiyaviy-rolli qiziqishlar faollashadi.

Ijodiy bosqichning vazifasi – bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishi bo‘yicha tayyorligining eng yuqori darajasiga erishishini ta’minlashdir. Ishning mazmuni individual va jamoaviy kasbiy yo‘naltirilgan, ijodiy, bilim faoliyatida amalga oshiriladigan harakatlarni qamrab oladi. Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy salohiyati, imkoniyatlari namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’limda pedagog xodimlarini tayyorlashda ta’lim muassasalarining ichki imkoniyatlarining ta’sir doirasi ham mavjud bo‘lib, boshqaruvning direktiv xususiyatga ega ekanligi, boshqaruv faoliyatida pedagoglar jamoasining ishtirok etmasligi, innovatsiyalarning muassasa imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olmagan holda joriy etilishi kabi holatlar ta’lim sifatini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga murakkab tarkibga ega bo‘lgan ijtimoiy tizim sifatida qarab, undagi ta’lim sifati deyilganda iste’molchilarining talablariga muvofiqlikni tushunish mumkin.


Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy, intellektual qibiliyatlarini rivojlantirishda ta’lim sifatining asosiy tashkil etuvchilari:

ta’lim muhitining tashkil etilishi sifati (kadrlar, axborot, texnika, o‘quv-metodik ta’minot);

ta’lim jarayoni sifati (ta’lim mazmuni, ta’limning shakllari, metodlari va texnologiyalari);

natija (qo‘ylgan maqsadlarga erishish, fikrlash va faoliyat yuritishning yangi usullarini egallash, kasbiy kompetensiyaning oshishi).

Pedagogika oliy ta’lim muassalaridagi ta’lim jarayoni uning sifatini baholashni tizimli tashkil etish, ya’ni monitoringni joriy etish zaruriyatini talab etadi.



## 2.rasm. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim sifatini boshqarishning asosiy funksiyalari

Pedagog kadrlarni tayyorlshda ularning shaxs sifatida umumiy rivojlanishi, shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy – intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ham uning shaxs sifatida rivojlanganligi muhim o'rinn tutadi. Bunda ularni kasbiy faoliyatda ijtimoiy – hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatib berish asosida amalga oshiriladi. Agar pedagogda shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo'lsa, u barcha o'zgarishlarga o'z munosabatini oson bildiradi, ularni to'g'ri baholaydi, boshqaradi va o'z kasbiy sohasida ularni amalga oshiradi. Agarda yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv yaxshi shakllanmagan bo'lsa, u shaxs sifatida ko'proq konservativizmga moyil bo'ladi va bunda maxsus tashkil etilgan ta'lim zarur bo'ladi.

G.S.Suxobskaya o'z tadqiqotlarida [5; 651-b.], ijtimoiy-shaxsiy moslashuv ongning quyidagi sifatlarini rivojlanganligini nazarda tutadi: divergentlik, haqiqiylik, moslashuvchanlik, tanqidiylik. Bular analiz va sintez kabi fikrlash usullari bilan birgalikda o'qituvchining tadqiqiy fikrlashini tashkil etadi.

S.Turg'unov fikricha, asosiy tashqi omil ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro ta'siri amalga oshuvchi muhit hisoblanadi. Bunday ta'lim-tarbiyaviy muhitda, refleksiv jarayonlar davomida va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ishtirokchilarning suhbatи asosida shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirish, professionalning rivojlanish jarayonlari vujudga keladi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ahamiyatini har bir shaxsning muhim ahamiyat kasb etuvchi mo'ljalini anglash va qayta tashkil etish amalga oshadi [6].

N.V.Kuzminaning fikriga ko'ra, omillar – bu kasbiy faoliyatning yuqori cho'qqisiga erishish uchun bo'lgan individual, mustaqil harakatlarni ifodalovchi obyektiv sabablar. Rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi omillar ta'lim jarayonining

rivojlanish yo‘nalishini to‘g‘ri tanlashga hamda mazkur jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishga yordam beradi [7; 112-b.].

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, quyidagi omillar mavjud:

- natijaga erishish uchun yo‘naltirilgan mavjud tizim va xatti-harakatlar izchilligi bilan bog‘liq bo‘lgan obyektiv omillar;
- kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish choralarining subyektiv asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

A.V.Mudrik o‘z tadqiqotida[8; 6-b.], ushbu omillar pedagoglarning shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sir ko‘rsatishga tayyorgarligini ta’minlaydi, refleksiya yo‘nalishidagi qobiliyatlarini rivojlanishiga yordam ko‘rsatadi. Mazkur omillarning ta’sir ko‘rsatish darajasi jamiyatning, ma’lum bir xalqning, ijtimoiy munosabatlar va insonni o‘rab turgan muhitning, jamoaning rivojlanish darajasi orqali ifodalanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlikdagi ijodiy faoliyat qulay psixologik muhitni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda vujudga keluvchi savollarga hamkorlikda javob izlash, o‘zaro ta’sir uslublarini takomillashtirish vujudga keladi. Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni mazkur jarayonning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi qator omillar orqali ifodalanadi.

Tashkil etilgan ta’lim-tarbiyaviy muhitda o‘quv faoliyatini tashkil etishning loyihalashtirish, tadqiqotchilik va suhbat uslublari maqsadga muvofiq uslublar hisoblanadi. Bunday sharoitlarda avvalgi tajribalar takomillashadi, pedagogik faoliyatni qayta anglash vujudga keladi, uni kuzatish yordamida yangi munosabatlar yo‘nalishi belgilanadi.

Psixologik omillardan biri o‘qituvchilarni ta’lim jarayonida ijodiy ta’sir ko‘rsatishga motivlashtirish hisoblanadi. Olimlarning ta’kidlashiga ko‘ra, insonning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi va bu mustaqil ta’lim jarayonida, ya’ni o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan an’anaviy ravishda o‘rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonida vujudga keladi, mazkur jarayonda muhokama qilinayotgan muammoning mazmun va mohiyati tushuniladi va tahlil qilinadi, refleksiv faoliyat amalga oshadi [9; 32-37-b.].

Subyektlarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faolligi deganda anglashning refleksiv darajasining o‘sishi, o‘zining va boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini, hissiyotlarini tahlil qilish va o‘zini-o‘zi tahlil qilish qobiliyatlarining rivojlanishi tushuniladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta’lim mazmunini, o‘qitish metodlari va vositalarini tanlash hamda ulardan foydalanishda zamonaviy ta’lim paradigmasiga, insonning individualligini anglash, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish, psixologik xususiyatlarini bilish hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda shu jihatlarning barchasini hisobga olish muhim sanaladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagog kadrlarni-da o‘qitish texnologiyasi izchillikni, loyihalashni, o‘qitish barcha komponentlarining o‘zaro aloqasini va ularning mantiqiy izchilligini nazarda tutuvchi o‘quv jarayonini strukturaviy-mantiqiy tashkil etishdir. Bularga axborot-texnologiyalari, ishchan o‘yin, suhbat, trening, guruhlar bo‘yicha ta’lim, modulli-differensiyalashtirilgan, tadqiqiy, tashxis, refleksiv va boshqa shakldagi texnologiyalar kiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonining samaradorligini ta’minlashda quyidagilarga e’tibor qaratilishi zarur:

- o‘qitishda (dars berishda) kasbiy layoqat va mahoratni shakllantirish va rivojlantirib borish;
- psixologik-pedagogik tayyorlash hamda kasbiy muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish;
- mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish va o‘z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, Internet global tarmog‘i bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ilmiy-pedagogik ijodkorlik metodologiyasi hamda pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarni singdirish;
- o‘quv-tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy ishlarni amalga oshirish, nazorat qilish va ta’lim oluvchilar bilimlarini xolisona baholash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ta’lim jarayonining yuqori samaradorligini ta’minlash, tinglovchilarning tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag‘batlantirish.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida o‘qitish texnologiyasiga yangicha yondashuvlar ularni kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvini tezlashtirish va refleksiyanı rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Faqatgina refleksiv ta’lim jarayonidagina shaxsiy tushunchalarni rivojlantirish, boshqaruv va o‘quv faoliyatining ahamiyatini yetarli darajada yoritish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘qituvchining kasbiy – intellektual qobilyatlarini rivojlantirishda faoliyatga tayyorligini shakllantirish modeli quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maqsadni belgilash (faoliyatga o‘qituvchi tayyorligini shakllantirish); umumiy tamoyillar (ilmiy xarakter, faollik, izchillik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni, o‘zgaruvchanlik, kognitiv faollik, muammolilik, refleksivlik, kurslarni blok-modulli tashkil etish); o‘ziga xos tamoyillar (motivatsion qo‘llab-quvvatlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish va ta’limni individuallashtirish, mustaqillik, ijodkorlikka yo‘nalganlik, subyektlararo faoliyatni faollashtirish); funksiyalar (axboriy-gnoseologik, baholovchi-prognostik, regulativ-korreksion, kasbiy-insonparvarlik, tashkiliy-kommunikativ, ta’limiy-texnologik, shaxsiy-tarbiyaviy va ijodiy rivojlantiruvchi); bosqichlar (tayyorgarlik, integratsiya, ijodiy);

tarkibiy qismlar (maqsadli, motivatsion, mazmuniy, shaxsiy-faoliyatga oid, boshqaruvga doir va baholovchi-samarali); tizimni shakllantiruvchi asosiy bo‘g‘inlar: modellashtirish (o‘qitish)ning turli darajalari va bosqichlarida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan insonparvarlashtirish, integratsiya va shaxsiy faollik jarayonlarini birlashtirish; pedagog kadrlar tayyorlash ta’limi mazmunida ifodalanadigan professionallashuv va ijtimoiylashuv jarayoni muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy shakllaridan biri bo‘lib, uning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, androgogik ta’lim tabiatiga ko‘ra uni tashkil etishda katta yoshdagi shaxslarning individual-psixologik va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish zarur. Mazkur jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini-o‘zi rivojlantirish, shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

## **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // PF-5847-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // PQ-4391-son
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–Toshkent: O‘zbekiston, 2018.–252-b.
4. Воронсова В.Г. Гуманитарно-аксиологические основы постдипломного образования педагога: Монография.Псков: ОИПКРО,1997.421с.
5. Сухобская Г.С. Диалог с директором школы. – СПб.: РИО СГУПМ, 1990.– 51с
6. Turg‘unov S. T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2007.
7. Кузмина Н.В. Методы системного педагогического исследования: Учебное пособие. – Л.: ЛГУ, 1986. – С. 112.
8. Мудрик А.В. Сотсиализация и воспитания // Теория и практика гуманистических воспитательных систем. – Владимир, 1987. – С. 6.
9. Никитин Е.П. Харламенкова Н.Е. Самоутверждение человека // Воп. философии. – М., 1990. – № 9. – С. 32-37.

**FIZIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA "IJODIY FIKRLASH"  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA "MUAMMOLI TA'LIM"**

**G'aniyev G.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali direktori, fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent**

**"Yaxshi ta'riflangan muammo, yarim hal etilgan masala demakdir".  
(Charlz Ketter)**

**Annotatsiya.** Fan va texnikaning taraqqiyoti ta'limga jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo qilishi asoslangan. Bunday pedagogik texnologiya o'quvchilarda "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon berishi lozim. Bu ishni tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, bunda "muammoli ta'limga" dan foydalanish yaxshi natija beradi. Agar bu maqsadda, "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli "intellekt xarita" dan foydalanib "Termodinamikaning I-qonuni" o'rganish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** taraqqiyot, ko'nikma, fikrlash, tasavvur, qobiliyat, ijodiy, muammo, termodinamika, issiqlik, energiya, ish, konvensiya, massa, animatsiya, qizdirish.

**«ПРОБЛЕМНОЕ ОБУЧЕНИЕ» В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ  
«ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ» В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ  
ФИЗИКИ**

**"Четко определенная проблема - это проблема наполовину решенная".  
(Чарльз Кеттер)**

**Ганиев А.Г. - директор Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат физико-математических наук, доцент**

**Аннотация.** Развитие науки и техники обусловлена необходимостью внедрения в образовательный процесс новых педагогических технологий. Такая педагогическая технология должна позволять развивать у учащихся навыки «творческого мышления». Эту работу желательно проводить в процессе преподавания естественных наук, где применение проблемного обучения дает хороший результат. Если для этого используется эффективный метод развития

навыков «творческого мышления», то целесообразность изучения I-го закона термодинамики с помощью «Интеллект карты» обоснована.

**Ключевые слова:** прогресс, навык, мышление, воображение, способность, креативность, проблема, термодинамика, тепло, энергия, работа, соглашение, масса, анимация, нагрев.

## **“PROBLEM-BASED LEARNING” IN THE DEVELOPMENT OF “CREATIVE THINKING” SKILLS IN THE TEACHING OF PHYSICS.**

**Ganiev A.G. - Director of Shahrisabz branch of Tashkent State  
Pedagogical University, Candidate of Physical and Mathematical Sciences,  
Associate Professor**

**“A well-defined problem is a half-solved problem”.**  
**(Charls Ketter)**

**Annotation.** The development of science and technology are based on the need to introduce new pedagogical technologies in the educational process. Such pedagogical technology should give opportunity students to develop “creative thinking” skills. It is advisable to do this in the teaching of natural sciences, where the use of “problem-based learning” gives good results. For this purpose, an effective way to develop “creative thinking” skills is based on the expediency of studying the “I - Law of Thermodynamics” using a “mind map”.

**Key words:** Development, skill, thinking, imagination, ability, creativity, problem, thermodynamics, heat, energy, work, convention, mass, animation, heating.

Fan va texnika taraqqiyoti ta’lim jarayoni oldiga yangi vazifa ishlab chiqarish texnologiyalarining doimiy yangilanib borishiga tayyor turadigan, ijodkor, kutilayotgan yangiliklarni ancha oldindan bila oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Bunday ta’lim jarayoni o‘zida intellektual va psixolog rivojlanish sistemasini mujassamlashtirgan yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi. U shaxsga doimiy ravishda “ijodiy fikrlash” ko‘nikmasini shakllantira olishi lozim. Bunday ko‘nikmaga ega bo‘lgan shaxs istalgan muammoni analiz qila olish, muammolar orasidagi sistemali aloqalar va qarama-qarshiliklarni aniqlash, ularning ideal yechimlarini topish, bu yechimlar vujudga keltiradigan holatlarni oldindan bilish va boshqa qobiliyatlarga ega bo‘lmog‘i kerak.

Ta’lim oluvchilarga ijodiy fikrlash xususiyatlarini shakllantirish ta’lim beruvchining o‘z faoliyatiga o‘zgartirishlar kiritishini taqozo qiladi. Endi u o‘rganishga, bilim olishga yordam beruvchi shaxs bo‘lib qolmay, o‘quvchilarda

fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi, fikrlash faoliyatining tashkil etuvchisi ham bo‘lmog‘i kerak. Demak, o‘qituvchining o‘zida ham ijodiy fikrlash ko‘nikmalari shakllangan va o‘quvchilarda fikrlash faoliyatini shakllantirish metodlarini egallagan bo‘lmog‘i lozim.[1] Ta’limda esa yangi pedagogik texnologiya, “ijodiy fikrlashni shakllantirish texnologiyalari” zarur. Uning asosida fikrlash jarayoni elementlarini mustahkamlash va rivojlantirish yotadi [2].

O‘quvchilarda fikrlash va tasavvurni rivojlantirishning asosiy usullaridan biri muammoli savollarni qo‘yishdir. Savollar obyektning nafaqat belgilari va xossalarni ifodalashga qaratilgan bo‘lmay, o‘rab turgan obyektiv olamga aloqador va o‘quvchi uchun qiziqarli bo‘lmog‘i lozim. Shunday savollargina javob topish jarayonida o‘quvchini fikrlashga, tasavvur qilishga va ijod qilishga undaydi. Albatta, o‘quvchilarda fikrlash, tasavvur qilish qobiliyati va ijodkorlikni maktabgacha, umumta’lim muassasalaridayoq shakllantira borish maqsadga muvofiqdir. Lekin buni ta’lim jarayonida 10,11-sinf o‘quvchilarida ham amalga oshirish mumkin.

O‘spirinlar o‘z intellektual rivojlanishiga ko‘ra kattalardan ko‘p farq qilmaydilar. Shu bilan birga, ularni yarim bola, yarim katta sifatida qarash mumkin. Shuning uchun ham ular turli sinovlarga uncha bo‘yin tovlamaydilar. Bu esa ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, tasavvurlarini boshqarishda ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi [3].

10,11- sind o‘quvchilariga tabiiy fanlar asosan ikki xil maqsadda o‘qitiladi.

1) Tabiatda ro‘y beradigan jarayonlarni tushunish maqsadida uning fundamental qonunlarini o‘rgatish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va falsafiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, kundalik hayotda foydalaniladigan uskuna va jihozlarning ishlash prinsipida foydalaniladigan va ro‘y beradigan jarayonlar, qonunlar haqida tasavvurga ega bo‘lishga erishish;

2) Ta‘lim olishni davom ettirish, olgan bilimlarni chuqurlashtirish va ilmiy izlanishlarni davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratishdir.[4]

Fikrlash muammoli vaziyatdan boshlanadi.[5]

**Muammo** - ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shakli. U bilish va bilmaslik o‘rtasida obyektiv ravishda vujudga keladi. Muammo hozirgi paytda kun tartibida turgan, yechish uchun qilingan oldingi urinishlar muvaffaqiyatsiz bo‘lgan, murakkab va yechilishi kutilayogan ilmiy yoki amaliy savol.

**Muammoli vaziyat** ma’lum vazifalarni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatlarni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida yangi bilimlarni izlash, fikrlash ehtiyojini tug‘diradi [6-8].

**Muammoli ta’lim** o‘quv materialini muammolarni vujudga keltirish va ularni yechish tarzida o‘rgatish uslubidir. Qo‘yilgan muammoni yechish uchun o‘quvchi izlanishga, fikrlashga va mantiqiy-ilmiy xulosalar chiqarishga majbur bo‘ladi.

Muammoli ta’lim o‘quvchilarni faol izlanish, o‘z bilimini orttirishi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishiga yo‘naltirilgan. Ijodiy fikrlash natijasida mashg‘ulotlarda «kashfiyotlar» qilinadi va ular xotirada umr bo‘yi saqlanadi.

Muammoli ta’lim o‘qituvchi oldiga ma’lum vazifalarni ham qo‘yadi. Endi u:

- mantiqiy fikrlashga undovchi muammolar qo‘yishi;
- fikrlashga undovchi savollar berishi;
- bir savolga turli nuqtayi-nazar bilan qarashni o‘rgatishi;
- voqealarga turli vaziyatlardan yondashishni taklif qilishi;
- o‘quvchilarni faktlarni solishtirishga, g‘oyalarni umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga da’vat qilishi;
- muammolar yechimlarini asoslashga unday olishi lozim.
- Shuni alohida ta’kidlash lozimki, muammoni to‘g‘ri qo‘yish juda muhim ahamiyatga ega. Muammoning tahlilini esa quyidagi savollardan boshlash maqsadga muvofiq:

- muammoning asosiy mohiyati nimada?
- muammo qay tariqa yuzaga kelgan?
- muammoni hal qilishning eng qulay usullari?
- siz qanday yechimlarni tavsiya etardingiz?

Muammoli mashg‘ulotni quyidagi ketma-ketlikda o‘tkazish tavsiya qilinadi:

- muammoni qo‘yish;
- qo‘yilgan muammoni hal qilish;
- muammoning yechimini topish jarayonida yangi bilimlarni egallash;
- topilgan yechimning to‘g‘riligini asoslash;
- yechimning yanada maqbul variantlarini izlash.

**Natijalar. Termodinamika asoslari mavzusini o‘tishda «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantirish.**

Ta’lim shaxsga bilim berish, olingen bilimlardan oqilona foydalanish, istalgan sohadagi muammolar haqida chuqur mulohaza yuritish va ularni yechishga yo‘nalgan fikrlash usulini shakllantirishga qaratilmog‘i lozim. Fikrlashni o‘rgatish uchun esa mavzularni oddiy tavsiflardan iborat emas, balki savollardan tashkil topgandek bayon qilish kerak.

Ta’limning bunday tashkil etilishi o‘rganish jarayonini beixtiyorlikdan ongi ravishda amalga oshirilishiga, o‘quvchilarda “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Bizgacha ma’lum bo‘lgan barcha bilimlar: g‘ildirak, kompyuter,  $E=mc^2$  va hokazolar kimlardir tomonidan yaratilgan. Bilim harakatsiz

emas. U doim harakatda. Biz kimlardir yaratgan bilimlarga tayanib yangi bilimlarni yaratamiz.

Qo‘yilgan muammoni yechishda fizik jarayonlarni tasavvur qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu ayniqsa, ro‘y berishini oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lmagan, ya’ni «bilvosita» o‘rganiladigan jarayonlar uchun o‘ta muhimdir. Shu bilan birga bunday jarayonlarni o‘rganish o‘quvchilarning «tasavvur» qilish va «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham imkon beradi. Bunga o‘rta ta’lim muassasalarining 10,11-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darsliklarning – “Termodinamika”, “Elektrodinamika”, “Atom va yadro fizikasi” bo‘limlarida o‘rganiladigan fizik jarayonlar yaxshi misol bo‘ladi.[9] Hozircha bu mavzularni o‘rganishga intellekt xaritadan keng foydalanilmagan. Quyida “Termodinamikaning I-qonuni” mavzusini “intellekt xarita” yordamida tahlil qilaylik. Bu qonun termodinamik jarayonda “energiyaning saqlanish va aylanish qonuni” ni ifodalaydi:

**termodinamik sistemaga beriladigan issiqlik miqdori ( $Q$ )-sistema ichki energiyasining o‘zgarishi ( $\Delta U$ ) va tashqi kuchlarga qarshi bajariladigan ish ( $A$ ) larning yig‘indisiga teng.**

$$Q = \Delta U + A.$$


Q-issiqlik almashinuvi jarayonida sistema oladigan yoki beradigan energiya bilan aniqlanadi. Issiqlik miqdori va ish energiyaning ko‘rinishi emas, balki uning uzatilish shakllari bo‘lib, energiya uzatilish jarayonlaridagina namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bo‘ladigan termodinamik jarayonlarni to‘la ifodalashi uchun inttelekt xaritaning markaziy obrazi sifatida «ichki energiya» ning o‘zgarishi  $\Delta U$  ni olish maqsadga muvofiqdir. [10-14]

Agar sistemaga issiqlik miqdori berilayotgan bo‘lsa  $Q$  musbat, agar sistemadan issiqlik miqdori olinayotgan bo‘lsa  $Q$  manfiy ishora bilan olinadi. Shuningdek, agar sistema tashqi kuchlarga qarshi ish berayotgan bo‘lsa  $A$  ish musbat, tashqi kuchlar sistema ustida ish bajarayotgan bo‘lsa  $A$  ish manfiy bo‘ladi.

Bo‘layotgan jarayonlarni tasavvur qilish uchun qizdirilayotgan choynakni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bunda choynak atrof-muhit bilan issiqlik almashmaydi va berilayotgan  $Q$  issiqlik miqdori faqatgina choynakdagagi suvgaga beriladi deb hisoblaymiz.

Demak, beriladigan issiqlik miqdori  $Q$  suvning ichki energiyasining o‘zgarishi  $\Delta U$  va suv bug‘lari choynak qopqog‘ini ko‘targanda tashqi kuchlarga (qopqoqning og‘irlik kuchi) qarshi bajariladigan  $A$  ishga sarflanadi.

Intellekt xaritada: T-harorat, p-bosim, v-hajm, m-massa, M-molyarmassa, c-solishtirma issiqlik sig‘imi, R-universal gaz doimiysi, k-issiqlik o‘tkazuvchanlik, i-molekulaning erkinlik darajasini ko‘rsatadi.



Intellekt xaritada quyidagi ma’lumotlar mujassamlashgan: sistemaning ichki energiyasi unga issiqlik miqdori berish (yoki olish) va tashqi kuchlarga qarshi ish bajarish (yoki tashqi kuchlar ish bajarishi) natijasida o‘zgarishi mumkin.

- Sistemaga  $Q=cm\Delta T$  issiqlik miqdori bersih (yoki olish);
- Issiqlik o‘tkazuvchanlik ( $K_q > K_s > K_g$ ) qattiq jismlarda yaxshi, gazlarda yomon;
- Konveksiya (erkin yoki majburiy);
- Nurli almashinuv energiya nurlanish ( $T>OK$ ) yoki yutilish jrayonlari orqali ro‘y beradi). Sistemaning  $A=p\Delta V$  ish bajarishi (yoki teskarisi);
- Izoxorik jarayonda ( $V = \text{const}$ )  $A=0$ ;
- Izobarik jarayonda ( $P = \text{const}$ ):  $A=\frac{m}{M}R\Delta T$ ;
- Izotermik jarayonda ( $T=\text{const}$ ):  $A=Q=\frac{m}{M}RT\frac{\Delta V}{V}$ ;
- Adiabatik jarayonda ( $Q=0$ )  $A=-\Delta U = -\frac{1}{2}\frac{m}{M}RT$  ro‘y berishi mumkin.

Mazkur intellekt xarita termodinamikaning birinchi qonunida qaralayotgan muammoni aniq tasavvur qilishga, uni tushuntirish uchun zarur bo‘lgan jarayonlarni batartib joylashtirishga va ularni tasavvur qilishga, barcha ma’lumotlarni tartibli saqlashga imkon beradi. U o‘quvchilarda qaralayotgan qonunga aloqador jarayonlarni tasavvur qilishga yordam bermasdan, ularning tasavvur qilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham ko‘maklashadi.

Bu esa o‘z navbatida, ularda shakllangan tasavvurlar yordamida shunga o‘xhash muammolar uchun «intellekt xaritalarni» tuzishni va «ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini» rivojlantirishlariga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, o‘quvchilar intellekt xaritada keltirilgan jarayonlarni tasavvur qilishga undovchi ko‘plab savollarni qo‘yishi mumkin: qattiq jismlarning issiqlik o‘tkazuvchanligining suyuqliklar va gazlarnikidan yaxshiligini qanday tushuntirasiz?

Erkin va majburiy konveksiyalarga misollar keltiring.

Sistema qachon issiqlik nurlanadi , qachon yutadi?

Izojarayonlarga misollar keltiring va hakozolar.

Eng maqbul variant, albatta, o‘quvchilarning «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularning o‘zlariga yuqorida keltirilganga o‘xhash intellekt xaritani tuzishga erishishdir. Lekin buning uchun ishni soddarоq, ya’ni xususiy hollar qaraladigan masalalarni «intellekt xaritalar» yordamida yechishga o‘rgatishni tavsiya qilamiz. Masalan: **massasi 1 kg bo‘lgan azot 1 K ga izobarik qizdirilganda qancha ish bajaradi?**

Bunday usul kelgusida ularga bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarining shakllanishiga ham yordam beradi.

«Intellekt xarita» larni kompyuter yordamida tuzilishiga erishish esa o‘quvchilarning nafaqat «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki informatsion texnologiyalar sohasidagi bilimlarining ortishiga ham olib keladi.

Fizik jarayonlarni «animatsion intellekt xaritalar» yordamida o‘rgatish o‘quvchilarda «tasavvur» va «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan bo‘ldi. Shubhasiz, tez orada «Animatsion intellekt xaritalar» tabiiy fanlar sohasidagi ta’limning eng sermahsul usuliga aylanadi.

- Fan va texnikaning bugungi holati muammolarni yechish layoqatga ega mutaxassislarini tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Buning uchun esa o‘quvchilarda «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metodlarni takomillashtirish lozim.

- O‘quvchilarda «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullardan biri «muammoli ta’limdir». Muammolarni yechish jarayonida o‘quvchida «tasavvur» qilish, fikrlash va demak «ijodiy fikrlash»ga ehtiyoj vujudga keladi.

- Muammolarni yechish uchun «tasavvur»ni rivojlantirmoq zarur. Bu ayniqsa 10,11-sinf o‘quvchilariga fizikaning «Elektrodinamika» va «Termodinamika» bo‘limlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Muammoni yechishda «tasavvur»ni rivojlantirishning sermahsul usuli sifatida «Intellekt xarita»dan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

- «Termodinamikaning I-qonuni» intellekt xaritasi yordamida termodinamik jarayonlardagi «energiyaning saqlanish qonuni» doirasida ro‘y beradigan jarayonlar vizual ravishda ko‘rsatilgan.

## **Adabiyotlar**

1. Меерович М. И., Шрагина Л. И. Технология творческого мышления. ХАРВЕСТ. Минск, 2003 12-19 стр.
2. G‘aniyev A.G. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Kasb-hunar ta’limi. 2012
3. Болденко О.А., Палаткина Г. В. Особенности развития творческой активности старших подростков. Человек и образование. №1(34) 2013 г. 61-66 с.
4. G‘aniyev A.G. va boshqalar. Fizika – I qism. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun darslik. 2016-yil. 14 nashr. T. «O‘qituvchi» 3-bet
5. Рубинштейн С.Л. и др Основы общей психологии. Москва «Педагогика» 1989 г.
6. Дьюи Джон. Психология и педагогика мышления. М. Мир 1919 г. стр 202.
7. Махмутов М.М. Организация проблемного обучения. М. Педагогика 1977 г.
8. Оконь В. Основы проблемного обучения. М. Просвещение. 1988г. 208 стр.
9. G‘aniyev A.G. va boshqalar. Fizika 10. T. «Niso Poligraf» 2017. (47-54)
10. Patrik Fullich Physics., Heinemann Advanced Science 1994 у (p 64-70)
11. Платунов Е. и.др. физика. Словарь справочник. ПИТЕР.2005 г.
12. Барашенников В. С. Кварки, протоны, вселенная М. «Знание» 1987 (с - 9)
13. Бальва О.П. Справочник школьника. Физика 5-11 классы. М. Ees.Edu. 2008 г.(84-86 стр)
14. Фейнман Р. и др. Фейнмановские лекции по Физике. М. «МИР» 1977 г. (стр 72-75)

## **ROMANIY TAFAKKURDA IJODIY MATN VA BADIY MANTIQ**

**Nasirov A.N. - Samarqand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori**

**Annatatsiya.** Odil Yoqubovning romanlarida hayotiy haqiqatning badiiy talqini, poetik mushohada va romaniy tafakkurning ijodkor mahorati orqali ifodasi haqida mulohaza yuritilgan. Bu qarashlar adibning “Diyonat” romani misolida tahlil etilish jarayonida ijodkor badiiy mahorati tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** roman, badiiy tafakkur, talqin, ijodkor evolutsiyasi, mahorat, falsafiy qarash.

## **ТВОРЧЕСКИЙ ТЕКСТ РУМЫНСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЛОГИКА**

**Насиров А.Н. - доцент Самарканского государственного  
университета, доктор филологических наук**

**Аннотация.** Романы Одила Якубова отражают художественное осмысление жизни, поэтическую наблюдательность и выражение новаторского мышления через творческие способности. В процессе анализа этих взглядов на примере авторского романа «Религия» анализируются художественные способности художника.

**Ключевые слова:** роман, художественное мышление, интерпретация, творческая эволюция, мастерство, философское видение.

## **CREATIVE TEXT IN ROMANIAN THINKING AND ARTISTIC LOGIC**

**Nasirov A.N. - Associate Professor of Samarkand State University, Doctor  
of Philology**

**Annotation:** Odil Yakubov's novels reflect artistic comprehension of life, poetic observation and expression of innovative thinking through creativity. In the process of analyzing these views on the example of the author's novel "Religion", the artistic abilities of the artist are analyzed.

**Key words:** novel, artistic thinking, interpretation, creative evolution, skill, philosophical vision

Bir asrlik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek romanchiligi yillar davomida turfa xil poetik talqiniy o‘zgarishlarni o‘z tarkibiga singdirib kelmoqda. Shuning uchun romaniy tafakkurning epik istiqboli, ong va tuyg‘uda namoyon bo‘lib, sifat o‘zgarishlari hosilasi tarzida murakkab ichki uyg‘unlikka intiladi. Badiiy matnda voqelikning xronologik davomiyligi muayyan ma’noda badiiylik darajasining imkoniyatlarni kengaytiradi. Bu holat bir tomondan uslubiy izlanishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan kitobxon idroki va muallif nuqtayi nazarining o‘zaro munosabatiga borib taqaladi. Hozirgi roman materiali makonda emas, zamonda tig‘izlashmoqda. Romanbop voqealar tasviri turli vaqt o‘lchamlari xronotopi bilan

boyib bormoqda. Adabiyotshunos U. Jo‘raqulov o‘z tarjima asarlarida qayd qilib o‘tganidek: “Shuningdek, xronotop janr, kompozitsiya, obraz, badiiy asar tili va uslubi, muallif, o‘quvchi singari eng muhim birliklar potensiyasi va tabiatini belgilaydi. Bu xronotop shakllari asar tarkibida yagona tizim bo‘lib, uzviy munosabatda yashaydi va harakatdagi badiiyat fonemenini hosil qiladi” (1, 40-bet). Darhaqiqat, roman tarkibidagi poetik o‘zgarishlar ijodkor mahorati bilan bilan bir qatorda, romaniy tafakkurning o‘ziga xos qirralarini ham namoyon qilmoqda. Bu esa voqealarni chuqurroq ochish, qahramonlar psixologiyasini yanada teran tahlil qilish imkonini yaratdi. Shuning uchun ham bir kunlik voqeа butun romanga voqeа material bo‘la olmaydi, degan qarashlar endilikda, hech bo‘lmaganda, eskirib qoldi. Hozirgi roman, jumladan, o‘zbek roman ni tajribasi bunday xulosalarining asossizligini ko‘rsatmoqda.

Avvalo shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir davrda inkishof etilgan badiiy talqin olam va odamni yangicha idrok etib, o‘z dunyosini bunyod etayotgan yangi ijodiy-mantiqiy tasavvurlarni ilgari suradi. Zотан, badiiy mohiyat o‘ziga xosligi, birinchi navbatda, mushohadaning ong va tuyg‘uda qayta ijodiy shakllantirilgan tizimiga asoslanadi. Chunki qahramon konsepsiyasida davr va jamiyatning butun borlig‘i – taraqqiyoti, zamon evrilishlari silsilasida tug‘ilayotgan ziddiyatlar, real muammolar, real manzara ifodasini topadi.

Sof adabiyotning gumanistik mohiyati va yo‘nalishi, avvalo, insonni badiiy aks ettiruvchi falsafiy-estetik prinsiplarida, shaxsning o‘tmishi, buguni va kelajak hayotiga nisbatan insonparvar nuqtayi nazarida, maqsad va intilishlarining ruhiy-intellektual mundarijasida, jamiyataro tutgan mavqeyida, odamlar bilan muloqot-munosabatlarda o‘z ifodasini topadi. Aynan shu omillar mushtarakligi haqiqiy ijodkor shaxsiyatida jamiyat va olam munosabatlarining badiiy talqiniga aylanadi. “Insoniyat tarixida XX asr ijtimoiy va siyosiy ixtiloflar, fan-texnika taraqqiyoti asri bo‘lishi bilan birga, estetik-intellektual tafakkur xilma-xilligini namoyon qilgan asr hamdir. Shu ma’noda adabiyot olamida kechgan evrilishlar badiiy-estetik taraqqiyot mezonlari va tamoyillarini belgiladi” (2; 26-bet).

Odil Yoqubov o‘z romanlarida olamning go‘zalligi, insoniyatning shu go‘zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to‘qimalariga yoyilib ketgan milliy ma’naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo‘nalishi adib dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo‘lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo‘lsin, diyonat,adolat, haqiqat, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy o‘rinni egallaydi.

Odil Yoqubov asarlarida doimo davrning ilg‘or ma’naviy-axloqiy intilishlari badiiy tasviri yetakchilik qiladi. Chunki ijodkor nuqtayi nazarida jamiyatning ana shu

muammolari poetik mushohada – muhokamasi teran estetik qiymat kasb etadi. To‘g‘rirog‘i, adib poetik izlanishlarning mag‘zini inson borlig‘ini ijtimoiy-psixologik takomilda tasvirlash tashkil etadi. Adib romanlarida ifodalangan ma’no-mohiyat xalq manfaat va intilishlariga vobastadir. Poetik talqinda mujassam muallif konsepsiysi qahramon tiynatini oydinlashtiradi, yetakchi obraz dinamik tadriji tasavvur chiziqlarini markazlashtiradi, tasvir tamoyillari uzvi esa epik maydon falsafiy teranliklarini badiiy umumlashtirishga xizmat qiladi:

Jumladan, “Diyonat” romanida muallif Otaqo‘zi obraqi poetik talqiniga alohida e’tibor qaratadi: “Otaqo‘zi yuragining tagidan daf’atan vulqonday qaynab kelgan g‘azabni zo‘r-bazo‘r to‘xtatib qoldi. Zum o‘tmay bu g‘azab, tog‘asiga qarshi dilida jo‘sh urgan bu isyon qandaydir alamli bir tuyg‘u bilan almashdiyu, uzoq mum tishlab qoldi. U cholning nega bunday qilayotganini yaxshi bilardi-hammasiga uning eski raqibi professor Mirobidov sababchi! Yo tavba! Tug‘ishgan tog‘a bo‘lsa-yu, eski raqibiga pand berish uchun o‘z jigarining farzandini ham ayamasa!.. Insofuadolat qani? Tog‘asining shu odati sabab, o‘g‘li Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi. Bir yilda bir marta yo kelishadi, yo kelishmaydi! Otaqo‘zi bo‘lsa... yaxshi bo‘lsin, yomon bo‘lsin, tug‘ishgan tog‘am-ku, befarzand, ko‘ngli nozik odam-ku, deb cholning qiliqlari jonidan o‘tib ketgan chog‘larida ham shaharga kelsa kirmay ketmaydi! Chol-kampir kishloqqa borishsa boshiga ko‘taradi, uyining to‘rini shularga bo‘shatib beradi. Bu odam bo‘lsa... Otaqo‘zi bir nima desa nuqlu prinsipdan keladi! Ammo... tashakkur! Otaqo‘zi bunaqa haqgo‘ylikni tushunmaydi va tushunishni ham istamaydi” (3; 20-21-betlar).

Ko‘rinadiki, “Diyonat” romani epik borlig‘ida Otaqo‘zi siymosi qabarib turadi. Ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarni birlashtirib turadigan qahramon ham xotira, ham muhokama, ham faoliyat davomiyligida turg‘unlik davri rahbarlarining umumlashma tipini ifoda etadi. Rais hayoti solnomasi o‘zligi va xarakterda namoyon. U turfa qarama-qarshiliklardan iborat. Tog‘a tabiatida mavjud “haqgo‘ylikni tushunmaydigan va tushunishni istamaydigan” jiyan murakkab fe'l-atvor egasi. “Nuqlu prinsipdan keladigan” Normurod Shomurodov dunyoqarashi uning xunobini chiqaradi. Aslida, domla xarakterida hukmron diyonat tuyg‘usi hayotning jiddiy sinovlaridan o‘tgan. Muallif tayyor holatda berilgan xarakterlararo to‘qnashuvni ijtimoiy sahnaga chiqaradi. Mashhur raisadolat tamoyillarini “eski raqiblar orasidagi ziddiyat” sifatida tushunadi. Ammo odatiy injiqlik,-deya baholangan e’tiqod butunligi va maslak musaffoligi olim ma’naviy olamining bezagi. Umri halollik va ezgulikka yo‘g‘irilgan kishi hamisha mashaqqatlarga duch keladi. Nurafshon tuyg‘ularga eltadigan a’mol insonning saodatga erishuviga hayotiy zamin hozirlaydi. Aslida Otaqo‘zi yomon odam emas. Unda oqibat, e’tiqod va bag‘rikenglik xislatlari mavjud. Biroq qahramon hayotda aslo qoqilishni istamaydi. Murosa-yu madora bilan zamonga moslashuvchanlik uning xarakterli xususiyati. Zotan, o‘z mavqeyini saqlash uchun,

davrda davron surish uchun ijtimoiy adaptatsiya zarurligini yaxshi bilgan Otaqo‘zi ruhiy olamida ham moslashuv, tashqi muhit bilan hisoblashuv yetakchilik qiladi. Ayniqsa, so‘nggi paytlarda rais bosar-tusarini bilmay qolgan. Bundan Normurod Shomurodov ham, tuman rahbari Shukurov ham jiddiy xavotirlanishadi. Qahramonga salbiy ta’sir qilayotgan ijtimoiy nuqsonlar (buyruqbozlik, izzattalablik, shaxsga sig‘inish oqibatlari) xarakter ma’naviyatini izdan chiqaradi. Aynan tuman rahbari va tog‘a qo‘rqayotgan holat asar oxirida yuzaga keladi. Bir qarashda, Shukurov va Vohid Mirobidov o‘rtasida paydo bo‘lgan jarlik bu shaxslarning dunyoni anglash tarzi turfaligi bilan real salmoq kasb etadi. Qaynota bilan kuyov orasida kuzatilgan ziddiyat keskinlashmaydi. San’atkor ijtimoiy tahdid natijasi o‘laroq muammolarini yo‘l-yo‘lakay hal qiladi. Vohid Mirobidov hayoti xato hamda achchiq kechinmalarga boy. Unda e’tiqod sobitligining yo‘qligi turli nizolar kelib chiqishiga olib keladi. Roman intihosida taqdir fojialari chiziqlarining tutashuvi asarning muvaffaqiyatini ta’minlovchi yetakchi atribut darajasiga ko‘tarilgan.

To‘g‘rirog‘i, sog‘lom e’tiqod qahramon xarakterining asosiy mohiyatiga aylanadi. Tasvirdagi aniqlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchliligi bilan izohlanadi. O‘z navbatida yozuvchi g‘oyaviy munosabati xalq ruhiyati, millat istiqbolini atroficha tahlil qilish vositasida oydinlashadi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan mantiqiy yaxlitlik kasb etadi. Aslida ijodiy mantiqning asl mazmuni ham millat irodasi va maqsad-intilishlarini chuqur o‘zlashtirishga borib taqaladi. Chunki mazkur tushuncha xarakterli belgini axtarish va unga urg‘u berish mushtarakligidan oziqlanadi.

Bunday o‘rinlarda kitobxon personajning o‘tmish hayoti bilangina emas, ularning tuyg‘u va kechinmalari bilan ham tanishadi. Personajlar bevosita ishtirotkida sodir bo‘lgan voqealar ular nigohi bilan tasvirlanadi. Sodir bo‘layotgan jarayonlarni nigohi bilan kamrab olishning iloji bo‘lmagan, epizod va manzaralarning almashinushi tezlashgan va ularni baholashi lozim bo‘lgan nigohlar ko‘payib ketgan shiddatli o‘rinlarda hikoyachilik tashabbusini avtor o‘z “qo‘liga” oladi. Chunki bunday o‘rinlarda hodisalarga aniq bir munosabatni tanlab olishning imkoniyati yo‘qoladi.

Odil Yoqubov romanlarida shaxs psixologiyasini jamiyat, tabiat hodisalari bilan omuxta badiiy-psixologik tadqiq etish tamoyili ko‘zga tashlanadi. “Inson ongida jonlanadigan har qanday in’ikos, garchand, moddiylikning to‘liq mazmunini qamrab olsa-da, baribir aniqlikda asliyat darajasiga ko‘tarila olmaydi, ayni paytda, “tasvir”, “nusxa” imkon qadar obyektiv voqelikka yaqinlashishga intiladi. Ong predmetning tub mohiyati, haqqoniy qiyofasini yoritishga qodir”. Badiiy talqin doimiy holda inson dunyoqarashida namoyon bo‘lishi bilan bir qatorda, inson sir-sinoatlarini poetik kashf etishda, ko‘ngil izhori va ruh talpinishlarini anglashda, mantiqiy tafakkur bilan hissiy sezimlar ham faol ishtirot etadi.

## **Adabiyotlar**

1. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar (Rus tilidan Uzoq Jo‘raqulov tarjimasi) . – Toshkent, “Akademnashr”, 2015. – 288-bet.
2. Rahimov A. O‘zbek romani poetikasi. Dok. diss. avtoreferati. 1993. – 32-b.
3. Yoqubov O. Diyonat. Roman. –Toshkent, “Sharq”, 1998. – 320 b.
4. Дремов А.Н. О художественном образе. – Москва, 1956. – 228 С.

## **МАКТАВ О‘QUVCHILARIDA HUQUQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA “DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI” FANINING AHAMIYATI**

**Kadirova Y.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Maqola umumta’lim muassasalari tizimida mifik tab o‘quvchilarining huquqiy immunitetini shakllantirishda davlat va huquq asoslari, shuningdek ijtimoiy gumanitar fanlarning roli, hozirgi holati, muammolari va dars jarayonlarini tashkil etishning ayrim jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** umumta’lim muassasalari, davlat ramzlari, erkinlik, ta’lim-tarbiya, o‘quvchilar, mashg‘ulot, mas’uliyat, jamoat birlashmalar, fuqarolik jamiyati, fuqarolik, huquqiy immunitet, huquqiy bilim.

## **ЗНАЧЕНИЕ ПРЕДМЕТА «ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА» В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОГО ИММУНИТЕТА У ШКОЛЬНИКОВ**

**Кадырова Я.Б. - исследователь Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** Статья посвящена основам государства и права, а также роли социальных и гуманитарных наук в формировании правовой неприкосновенности школьников в системе общеобразовательных учреждений, современной ситуации, проблемам и некоторым аспектам организации образования, образовательным процессам.

**Ключевые слова:** общеобразовательные учреждения, государственные символы, свобода, образование, школьники, обучение, ответственность, общественные объединения, гражданское общество, гражданство, правовой иммунитет, юридические знания.

## **THE SIGNIFICANCE OF THE SUBJECT "FOUNDATIONS OF STATE AND LAW" IN THE FORMATION OF LEGAL IMMUNITY OF PUPILS**

**Kadirova Y.B. – Researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article is devoted to the foundations of state and law, as well as the role of social and humanitarian sciences in the formation of the legal immunity of schoolchildren in the system of educational institutions, the current situation, problems and some aspects of the organization of education. educational processes.

**Key words:** educational institutions, state symbols, freedom, education, schoolchildren, learning, responsibility, learning, public associations, civil society, citizenship, legal immunity, legal knowledge.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sodan qarorida o‘quvchilarning siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burchi va mas’uliyat hislari shakllangantirish masalalari belgilab qo‘yildi [1].

Qarorga asosan umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasiga asosan umumta’lim maktablarida “Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitish belgilangan. O‘quvchilar “Davlat va huquq asoslari” o‘quv fanini o‘rganish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan O‘zbekiston davlatining asosiy tavsiflari, inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari o‘rganiladi. O‘zbekistonda davlat organlari, jamoat birlashmalari faoliyatii, sud tizimi va uning asosiy funksiyalari ochib beriladi.

Mazkur fanning deyarli har bir mavzusi (“Huquq shaxs va davlat munosabatlarining mustahkam asosi”, “Xalqaro huquqiy munosabatlar va ularning prinsiplari”, “Fuqarolarning huquqiy holati”, “Inson huquq va erkinliklarini himoyalash mexanizmi”, “Konstitutsiyaviy huquq asoslari”, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asoslari”, “Insonparvarlik prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosi” va b.q.) fuqarolik savodxonligining kognitiv komponenti mazmunini tashkil qiluvchi bilimlardan tashkil topgan (fuqarolik savodxonligining kognitiv komponent); o‘quvchilarni mas’uliyat, insonparvarlik, burch, qadr-qimmat, fikrlar va qarashlarning xilma-xilligi, qonun oldida tenglik, erkinlik,adolat, bag‘rikenglik, hurmat, sharaf, qadriyatlariga yo‘naltiradi (fuqarolik savodxonligining motivatsion-qadriyatli komponenti); insonlar bilan o‘zaro munosabatlarda ularning huquqlarini tan olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi (fuqarolik savodxonligining xulqiy komponenti).

“Huquq shaxs va davlat munosabatlarining mustahkam asosi” mavzusidagi dars mashg‘ulotida o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini anglaydilar.

Mazkur mashg‘ulotda o‘qituvchi tomonidan “g‘oyaga yo‘naltiruvchi ma’lumot”, “ma’lumot - asos” va “ma’lumot - mulohaza” g‘oyalaridan foydalanishi o‘quvchilarga nafaqat shaxs huquq va erkinliklari ro‘yxatini tuzishlariga, balki ularni tasniflashlariga imkon berdi. Natijada o‘quvchilarda “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining huquq va erkinliklari” jadvali hosil bo‘ldi (1-jadval).

*1-jadval. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining huquq va erkinliklari*

<b>Huquq va erkinlik</b>	<b>Vazifasi</b>	<b>Mazmuni</b>
Fuqarolik (shaxsiy)	jamiyat hayotining insonparvarlik asoslarini ifodalaydi, inson shaxsiy hayoti huquqlarini, tashqaridan aralashuvdan individual erkinligini	erkinlikk va shaxsiy daxlsizlik huquqi; qadr-qimmati va sha’nini himoyalash huquqi; adolatli, mustaqil va ommaviy sud huquqi; harakatlanish va yashash joyini tanlash huquqi va boshqalar
Siyosiy	fuqarolarning jamiyat ishlarida faol ishtirokini ta’minlaydi	hukumat organlariga saylash va saylanish huquqi; fikr, qarashlar, so‘z, vijdon erkinligi; uyushmalar va assotsatsiyalar erkinligi va boshqalar
Iqtisodiy	insonga o‘z qobiliyatları va mulkidan ixtiyoriy qonun bilan ta’qilangan holatda faoliyat yuritish imkonini beradi	xususiy mulq huquqi; tadbirkorlik faoliyati huquqi; o‘z ishchi kuchidan erkin foydalanish huquqi va boshqalar
Ijtimoiy	mos hayot sharoitlarini ta’minalashga imkon beradi	mehnat va ijtimoiy ta’minot huquqi; qulay uy-joy huquqi; sog‘likni saqlash huquqi va boshqalar
Madaniy	insonga o‘zining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va amalga oshirishga imkon beradi	ta’lim olishga va madaniy qadriyatlardan foydalanish huquqi; adabiy, badiiy, ilmiy erkinlik va boshqa ijod turlaridan foydalanish huquqi

Muammoli vaziyatlar shaklida o'tkazilgan "Huquq shaxs va davlat munosabatlарining mustahкам asosi" mavzusidagi dars mashg'ulotida o'quvchilarning bir qismi yuzaga kelgan vaziyatda o'qituvchi dars mashg'ulotida "Biz va ular" rolli o'yinini o'tkazishga qaror qildi.

Mazkur mashg'ulotlarda o'quvchilarni "mehr-shafqat", "adolat", "bag'rikenglik", "hurmat" kabi qadriyatlarga o'rgatish, shuningdek insonlarga yordam ko'rsatish, insonlarning ular bilan o'zaro munosabatlaridagi huquqlarini anglash, insonlarni tushunish va uning o'rniga o'zini qo'yish (empatiyani ifodalash) ko'nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

Dars mashg'ulotida o'quvchilarining huquqiy immunitetini shakllantirish jarayoni, birinchidan, ularni huquqiy immunitetini shakllantirishning motivatsion-qadriyatli komponentiga mos bo'lgan aksiologik mazmun bilan boyitishni, ikkinchidan, o'quvchilarga insonlar bilan o'zaro aloqalarda huquqiy immunitetini shakllantirishning xulqiy komponenti mazmunini hosil qiluvchi ko'nikmalarni amalga oshirishga imkon beradigan vaziyatlarni ta'minlashni talab etadi. Bunga quyidagi topshiriqlar yordam beradi:

1. Amaliyot davrida sizning faoliyatizingizda "foyda" (ijtimoiy), "sodiqlik", "insonparvarlik", "burch", "qadr-qimmat", "mehr-shafqat", "mustaqillik", "mas'uliyat", "vatanparvarlik", "qarashlar va fikrlarning xilma-xilligi", "haqiqat", "qonun oldida tenglik", "vijdon", "erkinlik", "adolat", "tolerantlik", "hurmat", "qadr-qimmat" qadriyatlari qanday amalga oshirilishini aniq misollarda ko'rsating.

2. Huquqiy immunitetini shakillantirilgan inson sifatida o'z faoliyatizingiz natijalarini qaysi qadriyatli mezonlar bo'yicha baholagan bo'lar edingiz?

3. Sizningcha, huquqiy immunitetini shakillantirilgan inson o'z faoliyatida qanday qadriyatlarga asoslanishi kerak?

4. Ma'lum tashkilotda ishlaydigan yurist faoliyatida (prokuratura, sud va b.q.) o'z qarashlarini ifodalash, qarashlar va fikrlarning xilma-xilligi sharoitlarida o'ylab ish tutish, tanqidiy fikrlash, insonlar bilan muloqot qilish, insonlarga yordam ko'rsatish, turli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish, o'zaro aloqalarda o'zining va o'zgalarning erkinlik chegaralarini anglash, o'z fikrlarini himoyalash, insonlarni tushunish va uning o'rniga o'zini qo'yish (empatiya) ko'nikmalari qanday amalga oshirilishini tahlil qiling;

5. Mazkur ko'nikmalarni siz qanday amalga oshirishingizni aniq misollarda ko'rsating.

O'quvchilarining mazkur vazifalarni bajarishlarining tahlili, ko'pgina o'quvchilarda fuqaro sifatida o'z faoliyati natijalarini baholash qadriyatli mezonlari orasida huquqiy immunitetini shakllantirish, motivatsion-qadriyatli komponenti mazmunini hosil qiluvchi qadriyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

O‘quvchilar bajargan topshiriqlarining tahlili o‘quvchilarning nafaqat huquqiy immunitetini shakllantirish, balki ularning hayot faoliyatlarida vaziyatlarni to‘g‘ri baholash, qaror qabul qilish imkonini beradi.

Dars mashg‘uloti jarayonida o‘quvchilarga quyidagi savolga javob berish so‘raladi: “Siz huquqiy immunitetini shakillantirgan inson sifatida qarorlar qabul qilishda nimaga asoslanasiz?” (bir variantni tanlang):

- jamiyat foydasi to‘g‘risida o‘yayman;
- insonlar guruhi foydasi to‘g‘risida o‘yayman;
- aniq bir inson foydasini ko‘zlayman;
- o‘z foydamni o‘yayman.

O‘quvchilarda huquqiy immunitetini shakllantirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- məktəb o‘quvchilarida boshlang‘ich sinfdan boshlab siyosiy mədəniyyətga eynilik, fuqarolik burchi və mas’uliyati hislərini shakllantirish;
- o‘quvchilar ongiga halollik və poklik, huquq və burch təshunchalarını hamda odob-axloq normalarını chuar singdirib borish, Konstitutsiyanın mühim jihatlarını ulara boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘rgatış;
- məktəb o‘quvchilarning huquqiy bilimlərini müntazam oshırıb borish və o‘z ustida ishlashga o‘rgatış;
- umumtalı məktəblərda davlat hökimiyyəti və boshqaruvi organları, huquqni mühofəzə qılувchi organları hamda fuqarolik jamiyatı institutları və mahallalar bilən birgalıkda huquqiy targ‘ibot ishalarını amalga oshırıb borasıdagı o‘zaro hamkorligini yoldaşlıqda qo‘yish;
- məktəb o‘quvchiləri orasında huquqiy immunitetini shakllantirish borasıda müntazam rəvashda huquqiy-ma’rifiy tədbirlərini təşkil etish; - bu kabi tədbirlərni xalqımız dini, milliy qadriyatlari, tarixini o‘rgatış bilən uygun holda təşkil qilish;
- o‘quvchilarda davlat ramzlari bilən faxrlanış tuyğularını shakllantirish orqali mamlakatga daxildorlik, vatanparvarlıq hissini kuchaytirish;
- o‘quvchilarning fuqarolik huquqiy immunitetini shakllantirishda, davlat tərkibiy tuzilishi bilən birgalıkda uning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi xüsusiyyətləri haqidagi bilimlərə ega bo‘lish, xalqaro voqeə və muammolarnı təshuna olish və boshqalar.

O‘quvchilarda fuqarolik huquqiy immunitetini shakllantirishda erkinlik g‘oyasi mühim təshunchalardan biri hisoblanadi. Erkinlik haqida təshuntirilganda – şəxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, şəxsiy rivojlanış erkinligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Insonning erkinligi va qadr-qimmat qadriyati to‘g‘risidagi fikrlar A.S.Arsenev [4], V.P.Bezduxov [5], X.B.Kadirova [6], N.N.Lebedeva [7], O.K.Pozdnyakova [10]

va boshqa olimlarning taddiqotlarida “ma’naviylik” va “axloq” tushunchalari bilan ifodalangan.

Faylasuf I.Kant erkinlik va zarurat to‘g‘risidagi fikrlarida erkinlikni narsalar olamiga, zaruratni esa – hodisalar olamiga joylashtirgan.

Bundun kelib chiqadiki, shaxsiy erkinlik davlat tomonidan himoyalanadigan shaxs qadr-qimmati bilan ifodalansa, shaxsiy daxlsizlik esa sud qarorisiz ushlanish, hibsga olish va ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlashga yo‘l qo‘ylmasligi bilan ta’milnadi.

Shaxsiy erkinlikning uchinchi jihat shaxsiy hayotning, shaxsiy va oilaviy sirning daxlsizligini ta’minalash, o‘z qadr-qimmati va nomini himoyalash hisoblanadi. Shaxsning shaxsiy hayotidagi harakatlar turlicha bo‘lib, ulardan alohida tomonlari (yozishmalar, telefon so‘zlashuvlari, pochta, telegraf va boshqa xabarlar) qonuniy ravishda himoyalangan.

Agar shaxsiy erkinlik umuman inson erkinligining asosi hisoblanishini inobatga olsak, unda aynan uning mavjudligi hayot faoliyatining turli sohalarida shaxs ifodasining boyligining o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsning siyosiy erkinliklari fikr va so‘z erkinliklarini ta’minalashdan boshlanadi. Huquqiy davlatda shaxsga fikr va so‘z erkinligini ta’minalash masalasi insonning haqiqiy erkinligini asosiy ko‘rsatkichi sifatida qaraladi.

Iqtisodiy erkinlik hozirgi vaqtida insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarda alohida o‘rin egallaydi. Ularning kafolatlari alohida qonunlar, masalan “Fuqarolik kodeksi” va boshqalar bilan ta’milanishi kerak” [11, 148].

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning huquqiy immunitetini shakllantirish jarayonida avvalo insonlar bilan muloqot qilish ko‘nikmasi, insonga yordam ko‘rsatish, hayotiy vaziyatda o‘zini to‘g‘ri tutish ko‘nikmasi, insonlar bilan o‘zaro aloqalarda o‘z erkinligi chegaralarini hamda ularning huquqini anglash ko‘nikmasi, insonlarni tushunish va anglash, ularning o‘rniga o‘zini qo‘ya olish (empatiya) kabi ko‘nikmalarni shakllantirish lozim.

## **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sod qarori

2. Abdullaev D. Science, Culture Sponsorship—This Leads to the Development and Well-Being of the People of the Country //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2020. – T. 20. – №. 1. – C. 279-281.

3. Turgunova A.T.Main Indicators of Social Danger Elimination //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 2.

4. Арсеньев А.С. Философские основания понимания личности: учебное пособие для студентов вузов. - М.: Академия, 2001. - 592 с.
5. Бездухов В.П. Культура и образование // Кулюткин Ю.Н., Бездухов В.П. Ценностные ориентиры и когнитивные структуры в деятельности учителя - Самара: СГПУ, 2002. - С. 66-173.
6. Кадирова Х.Б. Главная духовная ценность и личность человека // Фэн-наука 2015. №. 1(40) – С. 29-32.
7. Лебедева Н.Н. Гармонизация педагогической системы ценностного самоопределения старших школьников. - М.: Наука: Флинта, 2005. - 352
8. Лекторский В.А. Идеалы и реальность гуманизма // Вопросы философии. - 1994. -№ 6. - С. 22-28.
9. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. -T.: 2009. -117-b;
10. Позднякова О.К. Теоретические основы формирования нравственного сознания будущего учителя: монография. - М.: МПСИ, 2006. - 168 с.
11. To'ychiyeva X.N. Karmova O.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rghanish uchun zarur bo'lgan dasturlar, kurslar, metodik ko'rsatmalar, didaktik vositalarga quyiladishan talablar. O'quv qo'llanma. –Tashkent: 2001. 24 b.t.
12. To'ychiyeva X.N. Huquqiy ta'lif-tarbiyani takomillashtirishning ba'zi masalalari. TDPU. Ilmiy ishlar to'plami. –Tashkent: 1998. 61-67-b.

## **PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASASIDA OPTIKANI IZCHILLIK TAMOYILINI QO'LLAB O'QITISH**

**Xojanazarova R.M. - Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti katta o'qituvchisi**

**Jo'raev B.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti**

**Annotatsiya.** O'quvchi va talabalarning bilim olishi, olgan bilimlarini tartibga solishda izchillik tamoyili o'ziga xos o'rin egallaydi. Izchillik tamoyili bilimlar, qobilyatlar va ko'nikmalarning bir tizimda, belgili tartibda shakllanishini talab qiladi. Ta'lifdagi izchillik tamoyili kelgusida o'rganiladigan materiallarni dastlab o'rganilgan materiallardan kelib chiqishi, yangi bilimlarni oldingi bilimlarga tayanishi, fanning kelgusi bo'limlarining dastlabki bo'limlaridan keyin o'tilishini mantiqiy izchilligini nazarda tutadi.

**Kalit so'zlar:** tizimlilik va izchillik tamoyillari, bilim va ilm, qobilyat va ko'nikmalar, didaktik tamoyillar, tizimlilik, izchillik.

## **ОБУЧЕНИЕ ОПТИКЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ВУЗЕ ПО ПРИНЦИПУ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ**

**Ходжаназарова Р.М. - старший преподаватель Каракалпакского  
государственного университета имени Бердаха**

**Жураев Б.Б. - Магистрант Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** Приведение в систему и преемственность полученных знаний и их систематизация занимает особое место, поэтому для этого используются соответствующие принципы систематизации и преемственность. Например, преемственность подразумевает выход новых знаний из старых на основе логики и подразумевает их логическую взаимосвязь.

**Ключевые слова:** принципы систематизации и преемственности, знание и наука, навыки и умения, дидактические принципы, систематичность, преемственность.

## **TEACHING OPTICS IN A PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTION USING THE PRINCIPLE OF CONSISTENCY**

**Khojanazarova R.M. - senior lecturer at Karakalpak State University  
named after Berdakh**

**Juraev B.B. - Master student of the Tashkent State Pedagogical  
University**

**Annotation.** Bringing into the system and continuity of the knowledge gained and their systematization occupies a special place, therefore, for this, the corresponding principles of systematization and continuity are used. For example, continuity implies the release of new knowledge from old knowledge on the basis of logic and implies their logical relationship.

**Key words:** principles of systematization of continuity, science and knowledge, skill and ability, didactic principles, systematicity and continuity.

Talabalarning bilim olishi, ularning olgan bilimlarini tartibga solishda didaktik tizimlilik va izchillik tamoyillari o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ushbu tamoyilga bog‘liq bir qator tushunchalarni keltiramiz.

Pedagogika fanida tizim haqida gap ketganda o‘zlarining funksiyasiga aniq javob beradigan, mantiqiy jihatdan tartib bilan joylashgan tashkil etuvchilarning yig‘indisi bilan ular orasidagi bog‘lanishlar tushuniladi. [3; 320-б.].

Izchilllik tamoyilini fizikaga 1918-yili Kvant nazariyaning asoschilaridan biri bo‘lgan daniyalik fizik N.Bor kiritgan bo‘lib, unga moslik tamoyili deb nom bergan [1; 280-b.]. Aniq fanlarda u moslik tamoyili deyilsa, o‘qitish metodikasida izchilllik tamoyili deyiladi. Unga ko‘ra izchilllik tamoyilini quyidagicha ta’riflash mumkin: Unga ko‘ra izchilllik o‘quv materialini o‘qitish bosqichlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlashni va ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va ularni rivojlanishini ko‘rsatadi. Bunday holatda o‘quv materialining har bir elementi, ya’ni o‘rganiladigan materiallar oldingi o‘rganilgan materiallar bilan mantiqiy jihatdan bog‘lanishda va o‘quvchini yangi bilimlarni olishga tayyorlaydi.

Ta’limdagi tizimlilik talabalarining, boshqa o‘rganuvchilarning ilmiy bilimlarga qat’iy turda aniqlangan tartibga ega bo‘lishini, shu sistemaning faqat tashqaridan qaraganda ko‘rinishini emas, ammo ta’lim oluvchilarning ruhiyatida yaratilishini talab qiladi.

Ta’limdagi izchilllik kelgusi o‘rganiladigan materialarning dastlab o‘rganilgan materiallardan kelib chiqadigan, endi olinadigan bilimlar egallangan bilimlarga tayanadigan tartibda fanning kelgusi bo‘limlarining dastlabkidan keyingiga o‘tilishining mantiqiy izchillligini nazarda tutadi. Ushbu atama falsafiy tavsifga ega bo‘lib, unga (преемственность) deyiladi. O‘zining mazmuniga ko‘ra ushbu tamoyil o‘qitishning turli bosqichlari orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashni, ularning rivojlanishini ko‘rsatadi. Natijada bilim oluvchilarni keyingi bosqichda o‘qitishga tayyorlaydi. Tizimlilik va izchilllik didaktik tamoyillari o‘quv rejalarini bilan dasturlarining asosini tashkil etadi. Shu tamoyilga mos o‘rganiladigan predmetlar o‘quv rejalarida mantiqiy izchilllikda joylashtiradi. Biroq, to‘plangan tajribalar, birinchidan, ilm bilan texnikaning rivojlangan davridagi ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanib borayotgan jamiyatdagi ta’lim tizimida bu tamoyildan foydalanilish paydo bo‘lgan yangi talablarga mos kelishini, ikkinchidan, dunyoga qarashlarning yuqori templarda o‘zgarishi borasida, o‘tiladigan mavzular orasidagi organik izchilllikning saqlanishini, ilmiy-metodik jihatdan asoslash va amalga oshirishni talab qiladi. Shuning uchun ta’limdagi tizimlilik va izchilllik tushunchalari o‘zgarmaydigan turda qabul etilgan deb hisoblash mumkin emas. Hayotda bo‘lib turgan o‘zgarishlarga bog‘liq ravishda tizimlilik bilan izchilllikning paydo bo‘lishi shart. Natijada izchilllik tamoyili ta’limdagi uzluksizlik tamoyili bilan o‘zining chuqur birligini va ajralmasligini namoyon qiladi. Hozirgi vaqtda insonning shakllanishi O‘zbekitonda, shuning bilan birga butun dunyodagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish sharoitida yuzaga keldi. Shuning uchun, berilgan bilimning sifati masalasiga qo‘yiladigan e’tibor oldingi o‘rnlarga chiqmoqda. Sababi, bugungi kundagi bilim berish xizmati bozori juda yuqori darajadagi konkurensianing o‘rin olishi bilan ta’riflanadi. AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi rivojlangan

davlatlarning ta’lim sohasidagi to‘plangan tajribalari bu konkurensiyaning asta-sekin keskinlashishini ko‘rsatadi.

Albatda, maktab bilan jamiyatni, ta’lim bilan davlatni bir biridan ajratib bo‘lmaydi. Ular jamiyatning rivojlanishida pedagogika bilan birga ko‘p asrlik yo‘lni bosib o‘tdi. Shu davrda pedagogik g‘oyalalar bilan konsepsiyalarning yig‘indisidan ilmga aylandi. Tarixiy ma’lumotlar ko‘p sonli ijobiy pedagogik g‘oyalarni yo‘qolishining o‘rin olganligini, biroq, ularning ketidan butunlay boshqa turga ega bo‘lib qaytadan tug‘ilganligini aniq ko‘rsatadi. Konkurensiyaga chidamlilik bilan har qanday xizmatning, shuning ichida bilim berish xizmatining sifati orasida to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zaro bog‘lanish bor ekanligini turmush ko‘rsatib qo‘ydi. Sifat – xizmatning bozordagi konkurensiyaga chidamlilagini asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

Fizika bo‘yicha bilim berishning sifatini ta’minlaydigan bosh omil uning mazmuni, pedagoglarning kvalifikatsiyasi, bilim olayotgan o‘quvchi va talabalarning sifati, o‘quv o‘rni bilan dars jarayonini optimal tashkillashtirish bilan boshqarish, ta’lim ishlariga beriladigan investitsiyalarning hajmi bo‘lib topiladi. Albatta, o‘quv o‘rnining moddiy-texnikaviy bazasi katta ahamiyatga ega. Bu baza bilim berish jarayonini ta’minlaydigan asosiy jihozlarning bahosi va mos ilmiy tadqiqot ishlarining yuritilishi bilan ta’riflanadi. Odatda, bilim berishning sifati haqida gap ketganda, uning quyidagi uchta xususiyatini aytib o‘tamiz [5; 49,57-b.]:

1. Maqsadga erishish potensialining sifati. Bu sifat bilim berishning maqsadi, ta’lim standarti, ta’lim dasturi, ta’lim jarayonining moddiy texnikaviy bazasi, pedagogik jamiyatning tarkibi, informatsion metodik bazasi, talabalarning sifati bo‘yicha aniqlanadi.

2. Kasbiy tayyorgarlikning shakllanish jarayonining sifati. U ta’lim texnologiyasining sifatini, ta’lim jarayonini nazorat qilishni, o‘qituvchilarining ijodiy ishlariga bo‘lgan motivatsiyalarini va pedagogik ishning natijaviyligini, o‘quvchilarining bilim olishga munosabatining sifatini, ta’lim jarayonining intensivligini, ta’limni boshqarishni, bilim berishning usullarini o‘z ichiga oladi.

3. Ta’lim natijalarining sifati. Bu sifat o‘z ichiga kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishni, individual qobiliyatlar bilan amalga oshishini, mustaqil bilim olishni, amaliy qobiliyatlarning metodologiyasiga ega bo‘lishni qamrab oladi.

Demak, fizikaviy ta’limning sifati uning hamma qarashlarning (maqsadlar, zarurliklar, talablar, normalar va standartlar) ta’limning barcha jihatlariga qat’iy rioya qilishi bo‘lib topiladi.

O‘zining aniqlamasi bo‘yicha uzlusiz ta’lim insonning butun umri davomida davlat va jamiyat institutlarni foydalanishning asosida insonning va jamiyatning zarurliklariga mos ta’lim (ta’lim salohiyati) o‘sish jarayoni bo‘lib hisoblanadi. Uzlusiz ta’limning zarurligi ilm va texnikaning rivojlanishini, innovatsiyaviy texnologiyalarning keng turda foydalanilishi bilan bog‘liq. Ayniqsa baholashlar

bo‘yicha hozirgi vaqtlardagi yangi bilimlarning bir yillik o‘simi 4-6 foizni tashkil etmoqda. Bu o‘z navbatida mutaxassisning professional bilimining 50 foizdan ortig‘ini o‘quv o‘rnini tugatgandan keyin olishining kerak ekanligini bildiradi. Hisoblashlar o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarini yangilash uchun yuqori bilimga ega mutaxassisning, mehnatga layoqatli bo‘lgan hamma vaqtini kamida 28 foizini ishlatischini ko‘rsatadi [8; 217-b.].

Bu asosda uzluksiz ta’limning quydagicha elementlarda ko‘rsatish mumkin:

1. Odam umrining oxirigacha bilim olish;
2. Katta yoshdagи odamlarga bilim berish;
3. Uzluksiz kasbiy ta’lim.

Uzluksiz ta’limning klassifikatsiyasi quydagilardan iborat:

1. Rasmiy turdagи ta’lim – yosh o‘spirinlar, talabalar uchun asosiy dars sifatida bir biri bilan bog‘langan dasturlarning yig‘indisini ta’minlaydigan o‘quv o‘rinlarining tizimi.
2. Norasmiy turdagи ta’lim rasmiy turdagи ta’limning aniqlamasiga kirmaydigan ixtiyoriy turdagи tashkillashtirilgan va ba’zi bir vaqtlar ichida davom etadigan ta’lim bo‘lib hisoblanadi.

3. Informatsion ta’lim bo‘lsa ta’lim berish xizmatining barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Bunday ta’limda tashkillashtirish bo‘lmaydi va shuning uchun individual yoki guruhiy yuzaga kelishi mumkin. Ta’limning shunday tipi ayniqsa yoshlarning aqliga samarali ta’sir qiladi degan fikrlar bor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 29-aprel kuni tasdiqlagan “UP-5712-sonli O‘zbekiston Respublikasidagi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” farmonida uzluksiz ta’limni rivojlandirish bo‘yicha quyidagilar keltirilgan [2,4]:

- uzluksiz ta’limni, shuning bilan birga professional mutaxassislarni tayyorlashni, qayta tayyorlash va mutaxassislarni tayyorlashni, ixtisosligini yyetishtirishni sifat jihatdan yangilash nazarda tutiladi;

- uzluksiz ta’limning sifatini mustaqil aniqlash sistemasining shakllanishiga yordam berish va qo‘srimcha pedagogik xizmatlar bozorida konkurensiyani rivojlantirish. Uzluksiz fizik ta’limning, bir tomondan, odamda hozirgi vaqtdagi talablarga mos keladigan fizika bo‘yicha bilimning shakllanishiga olib keladigan tizim, ikkinchi tomondan, fizika o‘qituvchisining professional shakllanishi bilan rivojlanishining tizimi bo‘lib topilishini aytib o‘tamiz. Uzluksiz fizikaviy ta’limning ma’nosи haqida shu vaqtargacha birdan-bir aniqlamaning paydo bo‘limgani tabiiy holat bo‘lib hisoblanadi. Masalan, ba’zan avtorlar uzluksiz fizikaviy ta’limning ma’nosini bunday tushunadi [9; 154-b.]. Uzluksiz fizikaviy ta’lim umumiylig va professional bilim berish jarayonining fundamental asoslarining shakllanishi bilan teran bo‘lishining pedagogik tizimi bo‘lib hisoblanadi. Bu tizim ijtimoiy iqtisodiy

turmushning, jamiyat bilan davlatning subyekti sifatida inson nuqtayi nazarining va umumiy bilimga ega bo‘lish potensialining har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Bu ta’rif umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lsa ham, bizning tadqiqotlarimiz uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri ahamiyatga ega va shuning uchun, biz o‘zimizning tadqiqotlarimiz davomida undan foydalanamiz.

Fizika ilmining boshqa tabiatshunoslik ilmlaridan farqli jihatni ko‘p. Bu holat fizika bo‘yicha bilim berish jarayonida uning statusini yuqorilatadi. Shu o‘zgacha sifatlarinining ayrimlarini aytib o‘tamiz:

- fizika ilmining tadqiqot obyekti, butuni bilan olingan Olam bo‘lib topiladi, bu holat har xil sistemalar bilan hodisalarni kompleks turda tadqiqot qilishga, insonni o‘rab turgan dunyoning birligini, ko‘p turlilagini har tomonlama ochib ko‘rsatishga imkon beradi;

- fizika bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar hamma texnikaning asosida turadi va bu sohalardagi muvaffaqiyatlar fizikaning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq;

- fizikani o‘rganish davomida bilim berish jarayonining subyektlarida o‘z ichiga fazo bilan vaqtni, dialektik metodologiyaning mantiqan ahamiyatli tushunchalarini o‘z ichiga oladigan tabiatning hodisalari bilan jarayonlarining ma’nosiga chuqur kirish yo‘li bilan ratsional va tizimli o‘ylash rivojlanadi [7; 304-b.].

Shunday qarashlar asosida biz uzlusiz ta’lim konsepsiyasini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini aniq ko‘ramiz. Biz uzlusiz ta’lim tizimining shakllanishi bilan rivojlanishini tarixiy pedagogik tahlil qilib o‘tirmaymiz, balki davlat universitetlari bilan pedagogika o‘quv yurtlarida optikani izchillik tamoyilidan foydalanib o‘qitish masalasini ilmiy metodik qarashlar asosida tahlil qilish masalasi bilan shug‘ullanamiz. Shuning bilan birga maktablardagi fizikani o‘rganishning asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni keltiramiz [6; 320-b.]:

a) tabiat qonunlarini ilmiy bilishning usullari va shu asosda dunyoning fizik manzarasi haqidagi qarashlarga ega bo‘lish;

b) kuzatishlar o‘tkazish, eksperimentlarni o‘tkazishni rejalashtirish va o‘rinlash, o‘lchashlarning natijalarini qayta ishslash, gipotezalarni o‘ylab topish va modellarni tuzish, ularni foydalanish chegaralarini aniqlash qobiliyatlariga ega bo‘lish;

c) olingan bilimlarni tabiiy hodisalarni va jarayonlarni, texnikaviy tuzilishlarning ish bajarish tamoyillarini, amaliy masalalarni yechish uchun foydalanish.

<b>Umumta’lim maktab</b>	<b>Akademik litsey</b>	<b>Oliy o‘quv yurti</b>
------------------------------	------------------------	-----------------------------

<p>6-sinf o‘quvchilari uchun geometrik optikadan eng boshlang‘ich ma’lumotlarning berilishini ko‘rsatadi. Shuning bilan birga tekis oyna yordamida yorug‘likning qaytishini va shisha prizma yordamida yorug‘likning spektrga ajralishi masalalari qaraladi.</p> <p>9-sinfda bo‘lsa geometrik optika masalalari, maxsus aytganda yorug‘likning tezligini aniqlash, yorug‘likning qaytish va sinish qonunlari, ichki qaytish hodisasi o‘rganilgandan keyin linzalar haqida va yupqa linzalarning yordamida tasvirlarni hosil qilish masalasi qaraladi. Laboratoriya ishida linzaning optikaviy kuchi aniqlanadi. Bundan keyin optikaviy asboblarni o‘rganish bilan ko‘z va ko‘rish hodisasi o‘rganiladi.</p> <p>11-sinf o‘quvchilari uchun optikadan bir qancha</p>	<p>2-kurslar uchun optika (90 soat) Fotometriya. Geometrik optika. To‘lqin optikasining asoslari. Yorug‘lik oqimi. Yorug‘lik kuchi, uning birliklari. Yoritilganlik, ravshanlik va uning birliklari. Geometrik optikaning asosiy qonunlari. Yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘yicha tarqalishi, qaytishi va sinishi, uning qonunlari. Yassi ko‘zgu. To‘liq ichki qaytish. Nur tolalardan yorug‘likning o‘tishi. Yorug‘likning prizmadan o‘tishi. Linza. Yupqa linza formulasi. Linza yordamida tasvir hosil qilish shart sharoitlari. Linzaning kattalashtirishi. Ko‘z-optik sistema sifatida. Ko‘rish nuqsonlari. Ko‘zoynak. Optik asboblar. Fotoapparat, proeksion apparatlar, lupa, mikroskop, ko‘rish naylari, uzoqdan ko‘rish asboblari. Yorug‘lik – elektromagnit to‘lqin. Yorug‘lik tezligi va uning tajribada aniqlanishi. To‘lqin optikasining asoslari. Yorug‘lik interferensiyasi. Kogerentlik. Maksimum va minimum shartlari. Ponada interferensiya, Nyuton xalqalari. Interferensiyaning texnikada qo‘llanilishi. Yorug‘lik difraksiyasi. Gyuygens-Frenel prinsipi. Difraksiyon panjara. Difraksiyon spektr. Yorug‘likning qutblanishi. Malyus qonuni (isbotsiz). Yorug‘lik dispersiyasi. Dispersiya spektri. Spektr turlari. Nurlanish va yutilish spektrlari. Spektroskop. Spektral analiz va uning fanda va texnikada</p>	<p>Optika fanining rivojlanish tarixiga kirish. Elektro magnit to‘lqinlar. Elektromagnit to‘lqinlarning tarqalishi, sinishi va qaytishi.</p> <p>Yorug‘li kning interferensiyasi. Yorug‘likning difraksiyasi. Yorug‘likning qutblanishi va kristallar optikasi.</p> <p>Issiqlik nurlanishi. Yorug‘likning sochilishi, molekulyar va spektral analiz. Magnitooptika va elektrooptika.</p> <p>Namuna viy o‘quv dasturida amaliy darslarni o‘tkazish bo‘yicha</p>
--	---	---

<p>murakkab hodisalarni o‘rganish nazarda tutilgan bo‘lib, to‘lqin optika (yorug‘lik interferensiyasi bilan difraksiyasi) masalalari bilan yorug‘likning dispersiyasi va spektral tahlil, yorug‘likning qutblanishi, fotometriya kattaliklari va ular orasidagi bog‘lanishga o‘xshagan masalalarni tahlil qilish nazarda tutilgan. Bu vaqtida yarim kvant va kvant fizikaga tegishli bo‘lgan masalalarni o‘rganish rejalashtirilgan. Ularning ichida Bor nazariyasi, bundan keyin kvant masalalar bo‘lgan fotonlar, ularning haqiqatan ham zarrachalar ekanligi, yorug‘likning bosimi va fotoeffektning texnikadagi qo‘llanilishi to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlarni berish nazarda tutilgan.</p>	<p>qo‘llanilishi. Infraqizil va ultrabinafsha nurlar. Rentgen nurlari. 2-kurslar uchun Kvant fizikasi (12 soat) Yorug‘likning kvant nazariyasining vujudga kelishi. Yorug‘lik kvantlari. Yorug‘lik ta’siri. Fotoeffekt nazariyasi va qonunlari. Eynshteyn tenglamasi. Fotonlar. Ichki fotoeffekt. Fotoeffektning qo‘llanilishi. Geliotexnika elementlari. Quyosh energiyasidan foydalanish. Yorug‘likning bosimi. Lebedev tajribasi. Yorug‘likning kimyoviy ta’siri. Fotografiya. Yorug‘lik tabiatini tushuntirishdagi dualizm yorug‘likning to‘lqin va kvant xossalari.</p>	<p>ko‘rsatmalar bilan takliflarni quyidagidek mavzularning o‘tilishi nazarda tutilgan:</p> <p>Geometrik optika, linzalar bilan prizmalardagi yorug‘likning yo‘li, tasvirlarni hosil qilish, linzalarning optik kuchi, yorug‘likning qaytishi va sinish qonunlari. Fotometrik kattaliklar. Yorug‘lik kuchi, yoritiganlik, yorug‘lik oqimi v.b.</p>
--	--	---

Navbatdagi masala keltirilgan ma’lumotlar assosida oliy o‘quv yurtlarida optikani va u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kvant hodisalarni o‘rganishda izchillik tamoyilidan foydalanish biz qo‘ygan asosiy masala bo‘lib topiladi. Uning uchun uzuksiz ta’limning quyidagidek ahamiyatli tamoyillarini aytib o‘tish zarur:

1. Ta’lim berishdagi yaxlitlik. Bu yerda yuqorida keltirilgan ro‘yxatni qo‘sishma o‘quv materiallarini kiritish yo‘li bilan mexanik nuqtayi nazardan qaytadan ko‘rib chiqishi haqida emas, balki ta’limning adaptatsion funksiyalarini kuchaytirish haqida aytilishi kerak;

2. Davomiylilik. U bilim berishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o‘tgandagi izchillikni, olingan bilimlarning hajmiga, mahoratiga, qobiliyatiga va o‘rganish darajasiga bo‘lgan talablarning sathining almashishdagi izchillikni, bilim beradigan har xil o‘quv o‘rinlaridagi mazmunning, bilim berishning har xil bosqichlaridagi foydalanilgan asosiy usullarning organik o‘zaro bog‘liqligini nazarda tutadi.

3. Oldindan aytib berish – bilim berish tizimining talablariga va jamiyatning rivojlanishining moddiy va ruhiy sferalaridagi zarurliklarni qanoatlantirishga yo‘nalganligi. Uzluksiz ta’limning asoslanishi bilan maqsadlariga yondashish, bilim berish o‘rinlarini tugatuvchilar modellariga tuzatishlar kiritish uchun kerak;

4. Uzluksiz ta’lim tizimining dinamikligi bilim berish o‘rinlarining variativligini, bilim berishning mazmunini va o‘quv jarayonining shakllarini nazarda tutadi.

Bu holatlarni hisobga olganda universitetlarning fizika fakultetlarining talabalari uchun optika bo‘yicha keng ko‘lamdagi bilimlarning berilishi ko‘rinib turibdi. Shuning bilan bir qatorda umumiy bilim beradigan maktablar bilan universitetlar uchun taklif etiladigan mavzularni solishtirish, bilim berish jarayonida izchillik tamoyilidan to‘la foydalanishning mumkin ekanligini, shu tamoyilning yordamida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarning optika bo‘yicha tutash va tizimga tushirilgan bilimni olishning mumkin ekanligini aniq ko‘rsatadi [10; 560-b.].

Yuqorida keltirilgan ro‘yxatning eng o‘zgachalik tomoni hozirgi kunlardagi ilmiy rivojlanishlarni hisobga olgan holda eng asosiy ahamiyatli eksperimental faktlar bilan fizikaviy hodisalarining nazariyasining asoslarini bayonlashning ko‘p darajali konsepsiysi bo‘lib topiladi. Shuning bilan birga o‘rta bilim beradigan o‘quv yurtlarda olingan bilimlarni uzluksiz turda chuqurlashtirishga imkon beradi. Shuning bilan birga fizikaning har xil bo‘limlari orasidagi yaqin dialektik nisbatning o‘rin olishini aniq anglash mumkin. Haqiqatan ham, masalan, issiqlik nurlanish hodisalari atom fizikasi bilan kvant mexanikadagi energiyaning kvantlanish hodisasi yorug‘likning jismlar bilan ta’sirlashish hodisasidan korpuskulyar to‘lqin dualizmga, yorug‘likning qaytish hodisasidan mikrozarrachalarning potensial to‘sqidan qaytish hodisasiga, korpuskulyar nuqtayi nazardan yorug‘likning yoki mikrozarrachalarning interferensiysi bilan difraksiyasi hodisalariga ketma-ket o‘tish mumkin.

## **Adabiyotlar**

1. M. Djoraev. Fizika o‘qitish metodikasi, Toshkent «Abu-Matbuat konsalt»-2015, 280-b.

2. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном дню учителей и наставников.  
<https://president.uz/ru/lists/view/3864>

3. Коротков, Э.М. Управление качеством образования. Учебное пособие для вузов. Москва. Академический проект, 2007. 320 с.
4. Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года. <https://president.uz/ru/lists/view/2708>.
5. Гершунский, Б.С. Образование в третьем тысячелетии: гармония знания и веры // Педагогика. – 1998. – № 2. – С. 49–57.
6. В.А.Алешкевич. Курс общей физики. Оптика. Москва. Физматлит. 2011. 320 с.
7. Тарасов, Л.В. Введение в квантовую оптику / Л.В. Тарасов. - М.: Просвещение, 1990. - 304 с.
8. Ларионов В.В. Физический практикум: учеб, пособие для вузов: в 3 ч. - Томск, 2005. - Ч. 3. Оптика. Атомная и ядерная физика. - 217с.
9. И. Кузнецов С.И. Квантовая оптика. Атомная и ядерная физика. Физика элементарных частиц: учеб, пособие. - Томск: Изд-во ТПУ, 2007.- 154 с.
10. Трофимова Т.И. Курс физики: учеб, пособие для вузов. - 9-е изд., перераб. и доп. - М.: Издат. центр «Академия», 2004. - 560 с.

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA DASTURLASH TILLARI FANINI O'QITISHDA PYTHON DASTURLASH TILINING IMKONIYATLARI**

**Ashurov M.A. –Toshkent davlat pedagogika universiteti Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalari talabalariga dasturlash tillari fanini o‘qitishda python dasturlash tilining imkoniyatlari, strukturasi, alifbosi va dasturlash tillari fanini rivojlantirishning ayrim jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Mamlakatimizda o‘qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, jadallashtirish, ta’lim sifatini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jamiyat va ta’limni axborotlashtirish jarayonlarini jadallashtirishda dasturlash tillarining ahamiyati haqida gap ketadi.

**Kalit so‘zlar:** dasturlash, python, AKT, WingWare, Paycharm, Paydev, Notepad++, jamiyatni axborotlashtirish.

## **ВОЗМОЖНОСТИ ЯЗЫКА ПРОГРАММИРОВАНИЯ PYTHON В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ**

**Ашурев М.А. - Заведующий отделом организации научно-исследовательской деятельности одаренных студентов Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Данная статья посвящена возможностям, структуре, алфавиту и некоторым аспектам развития науки о языках программирования при обучении языкам программирования студентов высших учебных заведений. В нашей стране проводится большая работа по модернизации, ускорению технологий обучения и повышению качества образования. Обсуждается роль языков программирования в ускорении процесса информатизации общества и образования.

**Ключевые слова:** программирование, python, ICT, WingWare, Paycharm, Paydev, Notepad ++, информация о сообществе.

**OPPORTUNITIES OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE  
IN TEACHING THE PROGRAMMING LANGUAGES TO STUDENTS OF  
HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

**Ashurov M.A. - Head of the Department for the organization of research activities of gifted students of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article is devoted to the possibilities, structure, alphabet and some aspects of the development of the science of programming languages when teaching programming languages to students of higher educational institutions. In our country, a lot of work is being done to modernize, accelerate learning technologies and improve the quality of education. The role of programming languages in accelerating the process of informatization of society and education is discussed.

**Key words:** programming, python, ICT, WingWare, Paycharm, Paydev, Notepad ++, community information.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohada, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy axborotlashgan jamiyatni shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar izchillik bilan va aniq maqsadni ko‘zlab amalga oshirilmoqda. Zamonaviy kadrlarni yetishtirish borasida respublikamiz ta‘lim tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunga sabab, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi va ularda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga tadbiq qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan uziyi bog‘liq ekanligining aniq ko‘rsatilishidir.

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, ta’limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Internet hayotimizning bir bo‘lagiga aylandi, biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik. Bu xizmatlardan ta’lim tizimida oqilona, samarali foydalanish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda o‘qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadllashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta’lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog‘onasiga ko‘tarilishga amaliy imkoniyat ta’minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavdalanadi. Respublikamiz ta’lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga qo‘llashdan iborat. Ta’lim tizimining axborotlashtirilishi butun dunyoda ham tan olinoqda. Masofaviy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha bugungi kungacha bir qator dasturlar ishlab chiqilgan. Iqtisodiyot va jamiyatda islohotlarning o‘tkazilishi natijasida o‘quv jarayonining zahira hajmini keskin oshirish bo‘yicha yangi talablar qo‘yildi. Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda.

Yangi axborot - kommunikatsion texnologiyalar hozirgi kunda eng dolzARB mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda, sababi har bir sohani o‘rganish, izlanish va tajriba orrtirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo‘ladi. Shuning uchun yangi axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda o‘qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzARB ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta’lim tizimining salohiyatlari tizimli rivojlanishi yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Zero, ta’lim tizimining yuqori pog‘analarga ko‘tarilishida talabalarga dasturlash tillarini chuqurroq o‘rgatish, ularga bugungi kunda eng ommabob va zamonaviy dasturlash tillarini tanlashda ko‘maklashish bugungi kunning eng dolzARB muammolaridir.

Kompyuterda dasturlash bu – kompyuter mikroprotsessori uchun turli buyruqlar berish, qachon, qayerda nimani o‘zgartirish va nimalarni kiritish yoki chiqarish haqida buyruqlar berishdir [1]. Kompyuter dunyosida ko‘plab dasturlash tillari mavjud bo‘lib, dasturlash va unga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Bir xil turdagilari bajaradigan dasturlarni Basic, Pascal, Ci va boshqa tillarda yozish mumkin. Pascal, Fortran va Kobol tillari universal tillar hisoblanadi [4], C va Assembler tillari mashina tiliga ancha yaqin tillar bo‘lib, quyi yoki o‘rta darajali tillardir. Algoritmik

til inson tillariga qanchalik yaqin bo'lsa, u tilga yuqori darajali til deyiladi. Mashina tili esa eng pastki darajali tildir. Mashina tili bu sonlardan iboratdir, Masalan: 010110100010101 dasturlash tillari 2 ta katta guruhlarga bo'linadi, Quyi va Yuqori darajali dasturlash tili. Quyi darajali dasturlash tili ancha murakkab bo'lib ular juda maxsus sohalarda ishlataladi va ularning mutaxassislari ham juda kam. Chunki quyi dasturlash tillari (masalan: assembler) ko'pincha miktoprotsessorlar bilan ishlashda kerak bo'lishi mumkin. Odatda turli dasturlash ishlari uchun yuqori darajali dasturlash tilidan keng foydalaniladi. EHM (Elektron Hisoblash Mashinasi) endi yuzaga kelgan paytda programma tuzishda, faqat mashina tillarida, ya'ni sonlar yordamida EHM bajarishi kerak bo'lgan amallarning kodlarida kiritilgan. Bu holda mashina uchun tushinarli sanoq, sistemasi sifatida 2 lik, 6 lik, 8 lik sanoq sistemalari bo'lgan. Programma mazkur sanoq sistemasidagi sonlar vositasida kiritilgan. Yuqori darajali dasturlashda, mashina tillariga qaraganda mashinaga moslashgan (yo'naltirilgan) belgili kodlardagi tillar hisoblanadi. Belgilar kodlashtirilgan tillarning asosiy tamoyillari shundaki, unda mashina kodlari ularga mos belgilar bilan belgilanadi, hamda xotirani avtomatik taqsimlash va xatolarni tashhis qilish kiritilgan [3]. Bunday mashina moslashgan til - ASSEMBLER tili nomini oldi. Odatda dasturlash yuqori saviyali dasturlash tillari (Delphi, Java, C++, Python) vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi tufayli dastur tuzish jarayoni ancha oson kechadi. Ko'p ishlataladigan dasturlash tillari. Biz hozir biladigan va ishlataladigan tillarning barchasi shu guruhga mansub. Ular insonga "tushunarli" tilda yoziladi. Ingliz tilini yaxshi biluvchilar programma kodini qiynalmasdan tushunishlari mumkin. Bu guruhga Fortran, Algol, C, Pascal, Cobol va h.k. tillar kiradi(ko'pchiligi hozirda deyarli qo'llanilmaydi). Eng birinchi paydo bo'lgan tillardan to hozirgi zamонавиyy tillargacha ishlatalish mumkin. Lekin, hozirgi web texnologiya orqali ishlaydigan tillarda(PHP, ASP.NET, JSP) bunday dasturlar tuzilmaydi. Chunki bunday dasturlarning ishlashi uchun yana bir amaliy dastur ishlab turishi kerak. Hozirda, amaliy dasturlar, asosan, Visual C++, C#, Borland Delphi, Borland C++, Java, Phyhon kabi tillarda tuziladi. O'zbekistonda ko'pchilik Delphi dan foydalanadi. Buning asosiy sababi: soddaligi, komponentlarning ko'pligi, interfeysining tushunarligi va h.k. Delphida birinchi ishlagan odam ham qanaqadir dastur tuzishi oson kechadi. Lekin, Windows da dasturning asosiy ishlash mohiyatini ancha keyin biladi(komponentlarning ko'pligi va API funksiyalari dasturda ko'rsatilmasligi uchun). Yana bir tarafi, Delphi(Pascal) operativ xotirani tejashga kelganda ancha oqsaydi. Unda o'zgaruvchilarni oldindan e'lon qilib qo'yish evaziga ishlatalmaydigan o'zgaruvchilar va massivlar ham joy olib turadi. Eng keng tarqalgan dasturlash tili(Windows OS ida) Microsoft Visual C++ tilidir. Ko'pchilik dasturlar hozirda shu tilda tuziladi. Umuman olganda, C ga o'xhash(C-подобный) tillar hozirda dasturlashda yetakchi. Deyarli hamma zamонавиyy tillarning asosida C yotadi.

Bundan tashqari, Turli komputer o‘yinlari tuzishda yoki kichik hajmdagi dasturlar tayyorlashda LUA script yoki JavaScript tillari ham keng ishlatilmoqda. Biz sizga xozirgi kunda keng tarqalgan desktop dasturlashda ishlatiladigan dasturlash tillaridan bazilari haqida aytib o‘tamiz: Delphi (talaff. délfí) — dasturlash tillaridan biri. Borland firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Delphi dasturlash tili ishlatiladi va avvaldan Borland Delphi paketi tarkibiga kiritilgan. Shu bilan bir qatorda 2003-yildan hozirgacha qo‘llanilayotgan shu nomga ega bulgan. Object Pascal — Pascal tilidan bir qancha kengaytirishlar va to‘ldirishlar orqali kelib chiqqan bo‘lib, u obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tili hisoblanadi. Avvaldan ushbu dasturlash muhit faqatgina Microsoft Windows amaliyot tizimi uchun dasturlar yaratishga mo‘ljallangan, keyinchalik esa GNU/Linux hamda Kylix tizimlari uchun moslashtirildi, lekin 2002-yilgi Kylix 3 sonidan so‘ng ishlab chiqarish to‘xtatildi, ko‘p o‘tmay esa Microsoft.NET tizimini qo‘llab quvvatlashi to‘g‘risida e’lon qilindi. Lazarus proyekti amaliyotidagi (Free Pascal) dasturlash tili Delphi dasturlash muhitida GNU/Linux, Mac OS X va Windows CE platformalari uchun dasturlar yaratishga imkoniyat beradi. Visual Basic (talaffuzi: "Vijual Beysik") – Microsoft korporatsiyidan dasturlash tili va uning uchun dasturlash muhitdir. U BASICdan ko‘p tushunchalar oldi va tez rasmlı interfeys bilan dasturlar taraqqiyot ta`minlaydi. Oxirgi versiya 6.0 1998-yilda reliz kelishdi. Microsoftdan voris Visual Basic .NET 2002-yilda paydo bo‘ldi. Java dasturlash tili - eng yaxshi dasturlash tillaridan biri bo‘lib unda korporativ darajadagi mahsulotlarni(dasturlarni) yaratish mumkin.Bu dasturlash tili Oak dasturlash tili asosida paydo bo‘ldi. Oak dasturlash tili 90-yillarning boshida Sun Microsystems tomonidan platformaga(Operatsion tizimga) bog‘liq bo‘lmagan holda ishlovchi yangi avlod aqli qurilmalarini yaratishni maqsad qilib harakat boshlagan edi. Bunga erishish uchun Sun hodimlari C++ ni ishlatishni rejallashtirdilar, lekin ba’zi sabablarga ko‘ra bu fikridan voz kechishdi.Oak muvofaqiyatsiz chiqdi va 1995-yilda Sun uning nomini Java ga almashtirdi, va uni WWW rivojlanishiga hizmat qilishi uchun ma'lum o‘zgarishlar qilishdi. Java Obyektga Yo‘naltirilgan Dasturlash(OOP-object oriented programming) tili va u C++ ga ancha o‘xshash.Eng ko‘p yo‘l qo‘yildigan xatolarga sabab bo‘luvchi qismalari olib tashlanib, Java dasturlash tili ancha soddalashtirildi. Java kod yozilgan fayllar(\*.java bilan nihoyalanuvchi) kompilatsiyadan keyin bayt kod(bytecode) ga o‘tadi va bu bayt kod interpreter tomonidan o‘qib yurgizdiriladi. C++ (talaffuzi: si plyus plyus) — turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan dasturlash tili. 1979-yili Bell Labsda Biyarne Stroustrup tomonidan C dasturlash tilining imkoniyatlarini kengaytirish va OOP(object Oriented Programming) xususiyatini kiritish maqsadida ishlab chiqarilgan. Boshida „C with Classes“ deb atalgan, 1983-yili hozirgi nom bilan, ya’ni C++ deb o‘zgartirilgan. C++ C da yozilgan dasturlarni kompilyatsiya qila oladi, ammo C kompilyatori bu xususiyatga ega emas. C++ tili operatsiyon tizimlarga

aloqador qisimlarni, klient-server dasturlarni, EHM o‘yinlarini, kundalik ehtiyojda qo‘llaniladigan dasturlarni va shu kabi turli maqsadlarda ishlatiladigan dasturlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi [2]. Bugungi kunda eng ommalashib borayotgan dasturlash tillaridan biri Python dasturlash tilidir.

### **Python haqida umumiy ma’lumot**

Python dasturlash tili sodda va o‘qilishi oddiy bo‘lgan dasturlash tili bo‘lib u englizcha so‘zlarni qo‘llab quvvatlaydi kalit so‘zlar o‘rnida shuning uchun bu boshqacha ko‘rinishga ega.

- Python Interpretori: Bu tarjimon tomonidan ish vaqtida qayta ishlanganligini va uni bajarishdan oldin dasturni kompilyatsiya qilishning hojati yo‘qligini bildiradi. Bu PERL va PHP ga o‘xshaydi.

- Python Interaktiv: Bu siz aslida Python buyrug‘ida o‘tirib, dasturlarni yozish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimon bilan aloqa o‘rnatishingiz mumkin degan ma’noni anglatadi.

- Python Ob’ektga Yo‘naltirilgan: Python Ob’ektga yo‘naltirish uslubini yoki dasturiy texnikasini qo‘llab-quvvatlaydi.

- Python Boshlovchilar tili: Python – boshlang‘ich dasturchilar uchun ajoyib til bo‘lib, oddiy matnni ishlashdan WWW brauzerlariga o‘yinlarga keng ko‘lamdagi ilovalarni ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlaydi.

### **Pythonni tarixi**

Python Guido van Rossum tomonidan sakson va sakkizinchchi yillarda Niderlandiyadagi Matematika va informatika ilmiy tadqiqot institutida ishlab chiqildi.

Python ABC, Modula-3, C, C ++, Algol-68, SmallTalk va Unix shell kabi boshqa ko‘plab tillardan va boshqa skript tillaridan olingan.

Python mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Perl kabi, Python manba kodi endi GNU General Public License (GPL) ostida mavjud.

Python hozirda institutning asosiy rivojlanish jamoasi tomonidan faoliyat yuritmoqda, garchi Guido van Rossum hali ham o‘z taraqqiyotini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

### **Python xususiyatlari:**

Pythonning xususiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- O‘qish oson: Python nisbatan kam kalit so‘zlar, oddiy tuzilish va aniq belgilangan sintaksisga ega. Bu o‘rganuvchini qisqa vaqt ichida yodlab olish imkonini beradi.

- O‘qish oson: Python kodi juda aniq va ko‘zga ko‘rinadigan bo‘ladi.

- Oson ishslash: Pythonning muvaffaqiyati – manba kodi juda oson.

- Keng standart kutubxona: Pythonning eng qudratli jihatlaridan biri kutubxonaning asosiy qismi juda portativ va UNIX, Windows va Macintosh-da o‘zaro faoliyat platformalar bilan mos keladi.

- Interaktiv usul: Pythonda ishlashda terminalda ishlash uchun juda qulay terminalda test qilib ko'rsa bo'ladi.
- Portativ: Python keng apparat platformalarida ishlaydi va barcha platformalarda bir xil interfeysga ega.
- Kengaytirilgan: Python tarjimoniga past darajadagi modullarni qo'shishingiz mumkin. Ushbu modullar dasturchilarni o'zlarining vositalarini samaraliroq bo'lishiga qo'shish yoki sozlash imkonini beradi.
- Ma'lumotlar bazasi: Python barcha ma'lumotlar bazasini qo'llab quvvatlaydi.
- GUI dasturlash: Python Windows MFC, Unix, X Window kabi platformalarga GUI dasturlar tuzishni qo'llab quvvatlaydi.
- Moslashuvchan: Python, qobiq buyruq fayliga qaraganda katta dasturlarga yanada yaxshi tuzilish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlardan tashqari, Pythonda yaxshi xususiyatlarining katta ro'yxati bor, ularning ko'pi quyida keltirilgan:

- Funksional va tuzilgan dasturiy usullarni va OOP ni qo'llab-quvvatlash.
- Ushbu buyruq fayli sifatida ishlatilishi mumkin yoki katta ilovalar yaratish uchun byte-kodga to'planishi mumkin.
- Juda yuqori darajadagi dinamik ma'lumotlar turlari va dinamik turdag'i tekshiruvlarni qo'llab-quvvatlaydi.
- Avtomatik chiqindilarni to'plashni qo'llab-quvvatlaydi.
- C, C++, MAQOMOTI, ActiveX, CORBA va Java bilan osonlik bilan bog'lanishi mumkin.

Python dasturlash tilini yaratilishi 1980-yil oxiri 1990-yil boshlaridan boshlangan. O'sha paytlarda uncha taniqli bo'lmagan Gollandiyaning CWI instituti xodimi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proyektida ishtirok etgan edi. ABC tili Basic tili o'rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyanlarini o'rgatish uchun mo'ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o'zining Macintoshida boshqa oddiy tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba'zi bir g'oyalarini o'zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990-yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, C++, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko'plab xususiyatlarini o'ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni internet orqali tarqata boshladi. Bu paytda o'zining "Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi" veb sahifasi bilan internetda to 1996-yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi. U ham Macintoshni yoqtirardi va bu narsa uni Gvido bilan yaqinlashtirdi. O'sha paytlarda Gvido BBC ning "Monti Paytonning havo sirk'i" komediyasining muxlisi edi va o'zi yaratgan tilni Monti Payton nomiga Python deb atadi (ilon nomiga emas).

Til tezda ommalashdi. Bu dasturlash tiliga qiziqqan va tushunadigan foydalanuvchilar soni ko'paydi. Boshida bu juda oddiy til edi. Shunchaki kichik

interpretator bir nechta funksiyalarga ega edi. 1991-yil birinchi OYD(Obyektga Yo‘naltirilgan Dasturlash) vositalari paydo bo‘ldi.

Bir qancha vaqt o‘tib Gvido Gollandiyadan Amerikaga ko‘chib o‘tdi. Uni CNRI korparatsiyasiga ishlashga taklif etishdi. U o‘sha yerda ishladi va korparatsiya shug‘ullanayotgan proyektlarni Python tilida yozdi va bo‘sh ish vaqtlarida tilni interpretatorini rivojlantirib bordi. Bu 1990-yil Python 1.5.2 versiyasi paydo bo‘lguncha davom etdi. Gvidoning asosiy vaqtি korparatsiyani proyektlarini yaratishga ketardi bu esa unga yoqmasdi. Chunki uning Python dasturlash tilini rivojlantirishga vaqtি qolmayotgandi. Shunda u o‘ziga tilni rivojlantirishga imkoniyat yaratib bera oladigan homiy izladi va uni o‘sha paytlarda endi tashkil etilgan BeOpen firmasi qo‘llab quvvatladi. U CNRI dan ketdi, lekin shartnomaga binoan u Python 1.6 versiyasini chiqarib berishga majbur edi.

BeOpen da esa u Python 2.0 versiyani chiqardi. 2.0 versiyasi bu oldinga qo‘yilgan katta qadamlardan edi. Bu versiyada eng asosiysi til va interpretatori rivojlanish jarayoni ochiq ravishda bo‘ldi.

Shunday qilib 1.0 versiyasi 1994-yil chiqarilgan bo‘lsa, 2.0 versiyasi 2000- yil, 3.0 versiyasi esa 2008-yil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtida uchinchi versiyasi keng qo‘llaniladi.

#### **Python dasturlash tili imkoniyatlari**

Python - bu o‘rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo‘lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. Python yuqori darajadagi ma’lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo‘naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

#### **Pythonning o‘ziga xosligi**

- Oddiy, o‘rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta’milot.
- Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas.
- Ko‘plab platformalarda hech qanday o‘zgartirishlarsiz ishlay oladi.
- Interpretatsiya(KHTepnperapyeMbffl) qilinadigan til.

Kengayishga (Расширяемый) moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xohlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib, keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo‘ladi.

- Juda ham ko‘p xilma-xil kutubxonalarga ega.
- xml/html fayllar bilan ishlash
- http so‘rovlar bilan ishlash
- GUI(grafik interfeys)
- Web ssenariy tuzish
- FTP bilan ishlash

- Rasmlı audio video fayllar bilan ishlash
- Robot texnikada

Talabalarni dasturlah, grafika va multimedia bilan bog‘liq amaliy vazifalarni hal qilish va texnologik rivojlangan jamiyat bilan bog‘liq amaliy vazifalarni hal qilish va texnologik rivojlangan jamiyat sharoitida chuqur o‘rganish bilan ishlash orqali ishlov berish vositasini shakllantirishda zamonaviy dasturlash tillari alohida ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. A. Axmedov N. Taylaqov “Informatika”, T.: “O’zbekiston”, 2001-y, 3-b.
2. A. Abduqodirov va boshqalar “Informatika”, T.: “Me’ros”, 2002-y, 45-b.
3. A. Sattorov “Informatika va axborot texnologiyalari” T.: “O‘qituvchi”, 2002-y, 68-70-b.
4. Abduqodirov A.A. Hayitov A.G, Shodihev R.R. Axborot texnologiyalari/ akademik litsey va KHK lari uchun darslik.-T.:o‘qituvchi, 2002-y, 103-b.

### **PEDAGOG MAHORATINI ANIQLASHNING UCH JIHATI (tadqiqot, tajriba va natija)**

*“Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasiidir”.*  
*(Abdulla Avloniy)*

**Muhammadiyev A.M. – Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Shahrisabz filiali dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**  
**Toshmanov N.J. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz  
filiali dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi**  
**Toshmanov N.I. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz  
filiali katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada pedagog mahoratini aniqlashning uch jihat – pedagogning shaxsiy xususiyatlari, kompitensiysi va tarbiyasi, dars berayotgan fanini bilish darajasi to‘g‘risida so‘z boradi. Mavzu Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filialida o‘tkazilgan tajriba va tadqiqotlar natijasiga tayangan holda yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** pedagog, mahorat, kompitensiya, ta’lim, tarbiya, aqliy mehnat, bosh miya yarimshari, zo‘riqish, aqliy mehnat, nerv hujayralari, holdan toyish, charchoq, bilim, ma’rifat.

**ТРИ АСПЕКТА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО  
МАСТЕРСТВА**  
**(исследование, опыт и результат)**

*“Образование для нас либо жизнь, либо смерть,  
спасение или разрушение, будь то счастье или беда”.*  
(*Абдулла Авлони*)

**Мухаммадиев А.М.** - доцент Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат филологических наук

**Тошманов Н.Ж.** - доцент Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат педагогических наук

**Тошманов Н.И.** – старший преподаватель Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В статье рассматриваются три аспекта определения навыков учителя – личностные характеристики учителя, его компетентность и воспитанность, уровень знания преподаваемого предмета. Тема освещена по результатам экспериментов и исследований, проведенных в Шахрисабзском филиале Ташкентского государственного педагогического университета.

**Ключевые слова:** педагог, мастерство, компетентность, образование, воспитание, умственный труд, полушарие головного мозга, стресс, умственный труд, нервные клетки, утомляемость, знания, просветление .

**THREE ASPECTS OF DEFINING PEDAGOGICAL SKILLS  
(research, experience and results)**

*“Education is for us either life or death, salvation or destruction,  
whether it is happiness or disaster ”.*  
(*Abdulla Avloni*)

**Muhammadiyev A.M.** - Associate Professor of Shahrisabz branch of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Philological Sciences

**Toshmanov N.J.** - Associate Professor of Shahrisabz branch of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Pedagogical Sciences

**Toshmanov N.I.** - Lecturer at the Shahrisabz branch of the Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** The article examines three aspects of determining the skills of a teacher - the personal characteristics of the teacher, his competence and good breeding, the level of knowledge of the taught subject. The topic is covered by the results of experiments and research carried out in the Shakhrisabz branch of the Tashkent State Pedagogical University.

**Key words:** pedagogue, skill, competence, education, upbringing, mental labor, cerebral hemisphere, stress, mental labor, nerve cells, fatigue, fatigue, knowledge, enlightenment.

Kishilik jamiyatni paydo bo‘libdiki, ta’lim va tarbiya muhokamalarga sabab bo‘lib kelayotgan bosh masalalardan biridir. She’riyat mulkining sultoniga Alisher Navoiy maktab va maktabdorlar (o‘qituvchilar) haqida “Mahbub ul-qulub”ning birinchi qismi o‘n sakkizinchisini faslida (dabiriston ahli zikrida) quyidagilarni yozadilar:

“Maktabdor begunoh ma’sumlarga jafokor. Atfol azobig‘a rog‘ib va alar ta’dibig‘a murtakib. Zoti bemadoro, dimog‘i po‘lod va ko‘ngli xoro. G‘azabdin qoshida chin, gunahsizlar bila oyini xashmu kin. Ko‘pragida tab’ g‘ilzati va tama’ illati padidor va aql qillatig‘a giriftor. Ammo tavsani atfol ta’bini jafo bila rom qilg‘uvchi, nohamvor sig‘or tavrig‘a siyosat bila andom berguvchi. Agarchi xo‘ylari durushluqda namoyondur, ammo atfol nohamvorlig‘i islohig‘a irik suhondur” [Navoiy, 1998: 22]. Demak, Navoiyga ko‘ra, pedagog (maktabdor) yosh ma’sumlarga jafo qiluvchi, ozor etkazuvchidir. U go‘daklarga azob berishga moyil o‘laroq ularga odob berish ishiga kirishgan. U (pedagog) murosasiz, beandesha, jahldor va ko‘ngli qattiq zotdir. G‘azabidan peshonasi tirishgan, gunohsizlar (yosh bolalar) bilan uning odati zarda va adovatdir. Aksarining tabiatini tund, tama’ kasalligiga yo‘liqqan va aqli noqislikka giriftor bo‘lgan. Ammo sho‘x va sarkash go‘daklar ta’bini ozor berish orqali rom qiluvchi, tartibsiz bolalar (sig‘or) qiliqlariga siyosat bilan tartib beruvchi (yo‘lga soluvchi)dir. Garchi ularning (o‘qituvchilarning) fe’li qo‘pollik va dag‘allik bilan namoyon bo‘lsa-da, go‘daklarning tartibsizliklarini isloh (bartaraf) etuvchi yirik (qo‘pol) egovdirlar.

Shunday ekan pedagog (o‘qituvchi) – turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiy ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. O‘qituvchi jamiyat a’zolarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatlari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o‘qituvchining professional jihatdangina yetuk bo‘lishi kifoya qilmaydi. Uning ma’naviy olami o‘quvchilarga singdirilishi ko‘zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to‘yingan bo‘lishi kerak.

Hozirgi pedagogika fani o‘qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu

vazifalarni to‘la uddalaydigan o‘qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta’sir ko‘rsata oladi. Istiqlol davri o‘qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta’minlash omilidir.

Navoiyning pedagoglar to‘g‘risidagi ta’rifida davom etamiz: “Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas, har qattig‘ kishini bir tifl muhofazati ojiz etar, ul bir surukka ilm va adab o‘rgatgay, anga ne etar. Oncha borkim, ul qavmning idroku fahmi oz tushar, andoq kishiga yuz muncha mashaqqat ne bushar. Har taqdir bila atfolg‘a haqqi ko‘pdur, agar podshohliqqa etsa va anga qulluq qilsa xo‘bdur. Shogird agar shayx ul-islam, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – Tengri rozidur” [Navoiy, 1998: 22].

Anglaganingizdek, Navoiy o‘qituvchilik kasbining naqadar mashaqqatli ekaniga ishora etmoqdalar. Navoiy hali hech narsaning farqiga borib-bormagan go‘dakka oq-u qorani tanitadigan o‘qituvchining mashaqqatiga nafaqat mustahkam va baquvvat odam, balki dev ham chidolmasligini aytish bilan bu kasbga munosib ta’rif baradilar. Shunday ekan o‘qituvchining “har taqdir bila atfolg‘a haqqi ko‘pdur, agar podshohliqqa etsa va anga qulluq qilsa xo‘bdur”. Navoiyga ko‘ra, shogird qanday martabaga etmasin ustoz roziligidagi muhtojdir. Ustozning roziligi – Tangrining roziligidir.

Navoiyning bu mavzudagi xulosalari quyidagi baytda mujassam:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila [Navoiy, 1998: 22].

Garchi Navoiyning mazkur ta’riflari deyarli boshlang‘ich ta’limga xos bo‘lsada, barcha bosqichdagi pedagoglar uchun umumiyyidir. Xullas, o‘qituvchilar pedagogik fanlardan dars beradigan va boshqa fan o‘qituvchilarini toifalariga bo‘linadi. Bunday toifalarga bo‘linishi shartli bo‘lib, darslarni tashkil etishda ikki xil yondoshuv kelib chiqadi. Pedagogikadan dars beradigan o‘qituvchi biror metod yoki texnologiyani o‘rganishda fan mavzularini misol tariqasida ishlataladi, maqsad o‘rganilayotgan metod yoki texnologiyani ochib berishdir. Fan o‘qituvchilarini fanning biror bir mavzusini tushuntirishda pedagogik metod yoki texnologiyalardan foydalanadi, maqsad fanning shu mavzusidagi ma’lumotlarni ochib berish.

Bugungi kunda maktab o‘qituvchisi bilishi va qo‘llay olishi kerak bo‘ladigan bilimlar, ko‘nikmalar ko‘لامи borgan sari oshib bormoqda, chunki axborotlar kun sayin emas, balki soat sayin yangilanib bormoqda. Har qanday holatda ham o‘qituvchi uchta yo‘nalishdagi salohiyatini pasaytirmasligi kerak. Bular: o‘rgatayotgan fanini bilishi, pedagogik mahorat va ta’lim-tarbiya gigiyenik standartlari. Bu uchta ko‘rsatkich teng qiymatga ega bo‘lib, birortasining ko‘rsatkichi kamaysa, u tashkil qilgan dars sifati yuqori bo‘lmaydi.

Pedagog o‘z fanini bilish darajasi deganda mutaxassis fani doirasidagi bilimi, bu bilimlarni hayotda qo‘llay bilishi va fan doirasidagi yangiliklardan xabardorligi

nazarda tutiladi. Bu uning bilimi yoki bilish darajasi hisobida baholanadi. Bilim juda keng tushuncha bo‘lib har xil talqining ega.

Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma’lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqeя va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma’lumotlarimiz bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma’lumotlarning voqelikka mutanosibligi; ikkinchidan, etarli darajada ishonarli bo‘lishi; uchinchidan, bu ma’lumotlar dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma’lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasliqdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to‘g‘risidagi bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi. Bilim kundalik tajriba, kuzatish orqali to‘planadi [Milliy ensiklopediya, 2000: 523].

Bilim – mantiqiy va daliliy asoslanish mumkin bo‘lgan va empirik yoki amaliy sinovdan o‘tgan anglash natijasidir. Bilim – zamonaviy epistemologiyaga ko‘ra faoliyatning dalilga asoslangan inson tafakkuri mahsuli. Bilim haqida gapirar ekanmiz ushbu jarayonda – inson ongida voqelikni aks etirish nazarda tutiladi. Obyektlarning tuzilishi va hodisalar, ularning o‘zaro bog‘liqligi haqida bilimlarni olish fan va uning ilmiy usullari muhim o‘rin tutadi [Википедия].

Pedagogning ikkinchi yo‘nalishdagi salohiyati bu pedagogik mahoratdir. O‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi bilan bir qatorda pedagogik mahorati bo‘lmasa, o‘qituvchilarning o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lmaydi. O‘qituvchi pedagogik mahoratining yuqori bo‘lishi sifatli dars tashkil etishga asos bo‘ladi.

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy, (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z fanini chuqur va atroficha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o‘quvchi-yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab-topib, amaliy faoliyatida qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o‘zlashtirishi hamda insoniylik va fidoiylikni o‘zida tarkib toptirishga intilishi lozim [Ochilov, 1996: 57].

Har qanday majburiy faoliyat organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir nerv tizimi orqali vujudga keladi. Jumladan dars jarayonining o‘zi ham majburiy faoliyatga kiradi. Dars jarayonida o‘quvchilar salomatligini saqlab qolish va shu bilan birga o‘zlashtirishni oshirish uchun o‘qituvchi ta’lim tarbiya gigiyenasini, sinfga va

sinf jihozlariga qo‘yiladigan talablarni bilishi kerak. Shu bilan birga o‘qitishning fiziologik asoslari, o‘quvchilarning ishchanlik qobiliyati, o‘quvchining nerv sistemasining gigiyenasi kabi tushunchalarni o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

O‘quvchi organizmining funksional faoliyatini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ish kuni, haftasi va o‘quv yili choraklarida aqliy va jismoniy faoliyatning almashinib turishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlari kerak. Bir turli faoliyat boshqa faoliyat bilan almashtirib turilganda, ishlayotgan hujayralar dam oladi. O‘qituvchining o‘quvchiga beradigan nagruzka normasi uning yoshiga, sog‘lig‘i holatiga, idrok qilish qobiliyatiga, nerv tipiga va o‘qitish sharoitiga qarab aniqlanadi. O‘quvchiga ortiqcha nagruzka berilsa, uning miyasi charchab qoladi, bola qancha yosh bo‘lsa, shuncha tez charchaydi.

Dars vaqtida muskul harakatlarining uzoq to‘xtalib turishi bolaning aqliy mehnat qobiliyatini susaytiradi. Binobarin, bolaning diqqati chalg‘iydi, muskullari bo‘shsha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar charchaganda mudroq bosadi. Hadeb bir xil turdag'i aqliy faoliyat bilan shug‘ullanganda bolaning qiziqishi kamayadi va uxbab qoladi. Haddan ortiq charchash yoki toliqish ishtahaning pasayishiga, bosh og‘rig‘iga, loqaydlikka, xotira va diqqatning susayishiga olib keladi. Odam qattiq charchaganda nerv sistemasining funksional holati o‘zgaradi va tormozlanish vujudga keladi.

Dars jarayonida o‘quvchilarga juda ko‘p tashqi va ichki omillar ta’sir etib turadi. Bu omillarning birortasining normadan chetlanishi patogen omilga aylanadi va o‘quvchi salomatligiga zarar keltiradi. Masalan, parta balandligining o‘quvchi bo‘yiga mos kelmasligi, sinfxonanining yoritilishi normadan past yoki yuqori bo‘lishi (norma 175-350 lyuks), haroratning past yoki baland bo‘lishi, sinfda havoning aylanishi va tarkibining buzilishi, o‘qituvchining o‘qituvchi bilan munosabatda gigiyenik normalardan chetlanishi va hokazo. Barcha psixik jarayonlar bosh miya katta yarimsharlaridagi nerv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi, zero har bir psixik jarayon asosida nerv jarayonlari: qo‘zg‘alish, tormozlanish, tarqalish, jamlanish, dominanta va boshqalar yotadi. Bundan tashqari, psixik jarayonlar nutq asosida ham hosil bo‘ladi [Sodiqov, 1992: 106].

Bolalar va o‘smlrlarga ta’lim-tarbiya berishda ichki tormozlanishning barcha turlarini hosil kilish va mashq qildirish pedagoglar uchun zarur. Shuni unutmaslik kerakki, solishtirish va qarama-qarshi qo‘yish usullari qo‘llanilgandagina o‘quv jarayoni samarali bo‘ladi. O‘qitish jarayonida rangli, yaltiroq ko‘rgazmali qurollarni ko‘rsatish, bolalarni hayajonlantiradigan, quvontiradigan darajada ta’sir etish bilan miya po‘stlog‘ida dominanta o‘chog‘ini vujudga keltirish, diqqatni yaxshilash, o‘quv materialining

qiziqlarlilagini oshirish mumkin. Aksincha, bir xil ta'sir, bir xil sharoit, bir xil ohangda so'zlash bolalar mudrashiga, qiziqlishining kamayishiga sabab bo'ladi.

Aqliy mehnat bosh miya yarimsharlari po'stlog'i ho'jayralarining faoliyati natijasidir. Shuning uchun zo'riqib aqliy mehnat qilganda bosh miyaning nerv hujayralari holdan toyadi, odam qattiq charchab qoladi.

Charchash miya hujayralarining tormozlanishidir. Charchash diqqatning chalg'ishi, bo'shashish, uyquchanlik bilan namoyon bo'ladi. Charchashning oldi olinmassa, toliqishga o'tadi, **bunda** bolaning boshi og'riydi, aylanadi, ishtaha pasayadi yoki odam juda ta'sirchan bo'lib qoladi, uyqusida gapirib chiqadi, uyg'onib ketadi va hokazo. Dars miyaga yaxshi kirmaydi, materiallar uncha esda qolmaydi. Toliqish ko'pincha o'quv nagruzkasi ortib ketganda, kun tartibi buzilganda, bola sof havoda kam bo'lganda, to'g'ri ovqatlanmaganda paydo bo'ladi.

Ishchanlik qobiliyati deganda, biror ishni uzoq muddat davomida sifatini buzmasdan bajarish tushuniladi. Ishchanlik qobiliyati har bir odamda turlicha bo'ladi va yoshga, sog'liqqa, quvvatga, ruh-kayfiyatga, ish tajribasiga, mashq qilishga, jamoa va oiladagi o'zaro munosabatlarga, ishga mas'uliyat bilan qarashga, boshqa ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Ishchanlik qobiliyati kun, hafta, yillar davomida o'zgarib turadi. O'quvchi uyqudan uyg'onganda ishchanlik qobiliyatni uncha yuqori bo'lmaydi, organizmi asta-sekin ish holatiga o'ta boshlaydi. Ish bajarish jarayonida asta ortib, ma'lum cho'qqiga etadida, so'ng shu holatda saqlanib turadi, keyin susaya boradi.

Odam o'z vaqtida yetarlicha dam olmay ishlayversa, qattiq charchab qoladi. Bu organizm funksiyalariga, ayniqsa markaziy nerv sistemasiga salbiy ta'sir etadi, natijada odamning kayfiyati yomonlashadi, ta'sirchanlik ortadi, uyqusizlik vujudga keladi, ishga qiziqlish kamayadi, **ishchanlik** qobiliyati pasayadi.

✓ O'quvchining dars jarayonidagi aqliy ishchanlik qobiliyati 5 davrga bo'linadi:

✓ ishga kirishish davri – darsda bir necha minut davom etib, o'quvchi ish sharoitiga moslasha boradi;

✓ optimal ishchanlik davri – aqliy mehnatni bajarishning stabillashgan davridir;

✓ to'liq kompensatsiya davri – toliqishning dastlabki belgilari paydo bo'la boshlaydi, ammo ularni odamning iroda kuchi kompensatsiyalashtirib, yuzaga chiqarmay turadi;

➤ beqaror kompensatsiya davri – toliqishning ortib borishi ish faoliyatining pasayishi bilan xarakterlanadi.

➤ mehnat faoliyatining progressiv pasayish davri – bu davr toliqishning tez ortib borishi, mehnat samaradorligini keskin kamayishi bilan xarakterlanadi;

- Darsda aqliy mehnatning yuqori maxsulorligini ta'minlash, charchashni oldini olish uchun quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish kerak:
  - ishga kirishish davrida yo'qlama va jurnal to'ldirish;
  - yangi materialni o'quvchining optimal ish qobiliyatiga ega bo'lgan vaqtida tushuntirish;
  - darsning birinchi yarmida, dars berishning aktiv usullarini qo'llab, o'quvchi, diqqatini uzoq vaqt bitta predmetda ushlab turmasdan tushuntirish;
  - dars berish usulini o'zgartirib turish;
- dars materialini tushuntirishda ko'rgazma quollar, didaktiv va texnika o'quv vositalarini keng qo'llash;
- dars oralig'ida fizkulminutlar o'tkazish;
- o'qituvchining yangi materialni tushuntirish paytidagi ko'tarinki kayfiyati, o'qituvchining har xil ohangda so'zlashi [2].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, pedagogning bilimi deganda, uning faqatgina o'z fani yuzasidan o'zlashtirgan bilimlari emas balki, shu bilimlarni o'quvchi (talaba)ga etkazib bera olish qobiliyati ya'ni, uning pedagoglik mahorati bo'yicha bilimlari va dars tashkil etishda gigiyenik qoidalarga rioya qilgan holda o'quvchi (talaba)larni salomatligini asrab qolishdagi bilimlari majmuasi tushuniladi. Shuning uchun pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta'lim muassasalarilarida pedagogika va ta'lim tarbiya gigiyenik normativlari haqidagi fanlar o'qitiladi.

Biz maqolani tayyorlash jarayonida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o'qituvchilarining bilimini aniqlash maqsadida tajriba o'tkazdik. Tajribamizda 350 nafar talabalar ishtirok etishdi. Talabalar o'zlariga dars berib kelayotgan 35 nafar ustozlari haqida munosabat bildirdilar. Tajriba (talabalarning munosabati) anketa so'rovi asosida amalga oshirildi. O'qituvchi faoliyatini baholash uchun tuzgan anketamizda, asosan, pedagogning quyidagi to'rt hislatiga alohida urg'u berildi:

1. Pedagogning shaxsiy xususiyatlari.
2. Pedagogning kompitensiyasi va tarbiyasi.
3. Pedagogning o'zi dars berayotgan fanini bilish darajasi.
4. Ta'lim tarbiya gigiyenasi bo'yicha bilimdonligi.

Dastlabki xislat – pedagogning shaxsiy xususiyatlaridir. Bu o'qituvchining tovush tembri, temperamenti, salobati vahokazolar...

Ikkinchi xislat – pedagogning kompitensiyasi va tarbiyasidir. Bu xislatlarni o'rganish uchun quyidagilar asos qilib olindi:

- 1.Pedagogning darslarni qay darajada tashkil eta olishi.
- 2.O'qituvchining pedagoglik mahorati.
- 3.Auditoriyani boshqarish darajasi.
- 4.Nutqning ravonligi (parazit so'zlardan xoli nutq).

5. Nazorat davomidagi adolat.
6. AKTni bilish darajasi.
7. Nutqning tadrijiyligi.
8. Darslarni tashkil etish darajasi...

Uchinchi xislat – pedagogning o‘zi dars berayotgan fanini bilish darajasidir. O‘qituvchining bu xislati quyidagi parametrlar asosida aniqlandi:

1. O‘qituvchining o‘z fanini bilishi darajasi.
2. Bilimini amaliyatga qo‘llay olishi darajasi.

Va nihoyat so‘ngisi – o‘qituvchining ta’lim tarbiya gigiyenasi bo‘yicha bilimdonligidir. Bu xislat esa quyidagilar orqali aniqlandi:

1. Dars o‘tilayotgan auditorianing sanitar holati.
2. Jihozlarning talaba bo‘yiga mosligi.
3. Darsni yuqori kayfiyatda olib borishi.
4. Dars davomida talabalarni charchatmaslik qobiliyati.
5. Charchash belgilari paydo bo‘lganda chalg‘itish mahorati kabi xususiyatlar anketada o‘z aksini topgan.

Mazkur anketa savollarimiz asosidagi tajribamiz, ta’kidlaganimizdek, 35 nafar professor-o‘qituvchi faoliyati doirasida tashkil etilgan edi. Biroq biz maqola doirasida ularni uch toifaga (dotsentlar, katta o‘qituvchilar va o‘qituvchilar) ajratib oldik.

Natija esa quyidagicha:

Lavozimi	Xislatlari	A’lo	Yaxshi	O’rta	Qoniqarsiz
Dotsentlar	Pedagogning shaxsiy xususiyatlari	59%	27%	9%	5%
	Pedagogning kompitensiysi va tarbiyasi	68%	18%	9%	5%
	Pedagogning o‘zi dars berayotgan fanini bilish darajasi	86%	9%	5%	0%
	Ta’lim tarbiya gigiyenasi bo‘yicha bilimdonligi	68%	27%	5%	0%
Katta o‘qituvchilar	Pedagogning shaxsiy xususiyatlari	19%	49%	25%	7%
	Pedagogning kompitensiysi va tarbiyasi	10%	56%	32%	2%

O'qituvchilar	Pedagogning o'zi dars berayotgan fanini bilish darajasi	29%	51%	17%	3%
	Ta'lism tarbiya gigiyenasi bo'yicha bilimdonligi	32%	54%	12%	2%
	Pedagogning shaxsiy xususiyatlari	3%	53%	27%	17%
	Pedagogning kompitensiyasi va tarbiyasi	10%	43%	24%	23%
	Pedagogning o'zi dars berayotgan fanini bilish darajasi	13%	43%	20%	34%
	Ta'lism tarbiya gigiyenasi bo'yicha bilimdonligi	33%	40%	14%	13%

Tajribamizning dotsentlar bo'yicha xulosasi shuki, pedagogning shaxsiy xususiyatlariga 59 foiz talaba "5" baho qo'ygan; 27 foiz talaba "4" baho; 9 foiz talaba "3" baho va 5 foiz talaba esa "2" baho qo'yishgan. Ko'rinish turibdiki, dotsentlarga anketa savollarining har to'rtala yo'nalishi bo'yicha ham "5" baho qo'ygan talabalar foizi yuqori.

Katta o'qituvchilar bo'yicha xulosamiz quyidagicha:

Pedagogning shaxsiy xususiyatlariga 19 foiz talaba "5" baho qo'ygan; 49 foiz talaba "4" baho; 25 foiz talaba "3" baho va 7 foiz talaba esa "2" baho qo'yishgan. Guvoh bo'lganingizdek, katta o'qituvchilarga anketa savollarining har to'rtala yo'nalishi bo'yicha ham "4" baho qo'ygan talabalar foizi yuqori.

O'qituvchilar bo'yicha xulosamiz esa quyidagicha:

Pedagogning shaxsiy xususiyatlariga 10 foiz talaba "5" baho qo'ygan; 53 foiz talaba "4" baho; 27 foiz talaba "3" baho va 17 foiz talaba esa "2" baho qo'yishgan. Ma'lum bo'lganidek, o'qituvchilarga anketa savollarining har to'rtala yo'nalishi bo'yicha ham "4" baho qo'ygan talabalar foizi yuqori bo'lsada, "3" va "2" baho qo'ygan talabalar foizining nisbatan oshganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, tajriba davomida biz dotsent, katta o'qituvchi va o'qituvchilarning o'rtacha pedagogik stajlari va necha marta malaka oshirganliklariga ham aniqlik kiritishga urindik. Natijada tajribamiz doirasida ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilarning bu boradagi ko'rsatkichlari quyidagicha ifodalandi:

<b>Ilmiy lavozimi</b>	<b>O‘rtacha pedagogik staji</b>	<b>O‘rtacha OTMida ped. staji</b>	<b>O‘rtacha malaka oshirganligi</b>
Dotsentlar	20	16	5 marta
Katta o‘qituvchi	12	11	2 marta
O‘qituvchi	3	2	Malaka oshirmagan

Mazkur jadvallardagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar tomonidan yuqori baholanganlarning aksari ko‘p yillik pedagogik stajga, ilmiy unvonlarga ega professor-o‘qituvchilardir.

Xullas, tadqiqotimiz natijasida ilmiy salohiyatga ega o‘qituvchi darsni sifatl o‘tishi o‘z isbotini topganini ko‘rish mumkin. U dars davomida materialni analiz-sintez qiladi, tasavvurida shakllantiradi va o‘zi to‘liq hazm qiladi. Bunday pedagoglar tashkil etgan dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Shuningdek, kuzatishlarimiz davomida ilmiy darajaga ega bo‘limgan o‘qituvchilarda mavzu atrofidagi materiallarni analiz-sintez qilish darajasi nisbatan pastroq ekani aniqlandi. Ular ilmiy adabiyotlardagi material qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishga odatlanganlar. Natija esa mavzu doirasidagi to‘liq tasavvurga soya soladi. Bu toifadagi o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan darslarda u yoki bu darajada kamchiliklar kuzatilishi mumkin. Bu esa dars samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tajribamizning yana bir ahamiyatli taraflaridan biri shundaki, ustozlarga shogirdlar tomonidan berilgan baho asosida OTM professor-o‘qituvchilarining yutuq va kamchiliklari haqida ma’lumotga ega bo‘lish, bu ma’lumotlarni ularning o‘zlarini ishtirokida individual muhokama qilish imkonini paydo bo‘ladi.

Xullas, professor-o‘qituvchilar ishtirokidagi tajriba natijalari asosida o‘tkazilgan muhokama yaxshigina natija berdi. Ishtirokchi professor-o‘qituvchilar o‘zlarining qaysi jihatlari ustida yanada ko‘proq ishlashlari kerakligini angladilar va shunga harakat qildilar.

Bu tajriba professor-o‘qituvchilarining o‘z ustida ishlashlariga turki bo‘lishi isbotlandi. Zero, o‘z ustida davomiy ishlashga odatlangan o‘qituvchilardangina kelgusida tajribali, salohiyatli pedagoglar etishib chiqishiga shubha yo‘q.

## **Adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik, o‘n to‘rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1998. – 238 b., 22-bet.

2. Aripova X.S. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2010
3. Vikipediya – ochiq ensiklopediya materiallari.
4. S.Ochilov. Inson ziynati odobdir. T.: «O‘qituvchi», 1996-y.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. A – Beshbaliq. Tahrir hay’ati: M.Aminov, B.Ahmedov, H.Boboyev va b. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 736-b.
6. Q.S.Sodiqov. Bolalar va o‘smlar fiziologiyasi va gigiyenasi. – Toshkent: O‘qituvchi. – 1992.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING  
IJTIMOIY FAOL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Hasanova M.T. - Toshkent davlat pedagogika universiteti stajyor  
tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g“risida” gi Qonun Respublikamizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashadigan, mustaqil fikrlovchi ijtimoiy faol kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan va qonunlarda uzluksiz ta’lim tizimi orqali barkamol shaxsni shakllantirish asosiy vazifa qilib qo‘yilgan ishlar haqida gap boradi.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, ijtimoiy faol, metodika, rivojlantirish, takomillashtirish, pedagogik ta’lim, boshlang‘ich sinf.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ  
КОМПЕТЕНЦИЙ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У БУДУЩИХ  
УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Хасанова М.Т. – стажер-исследователь Ташкентского  
государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В данной статье говорится о том, что «Национальная программа по подготовке кадров» и Закон «Об образовании» нацелены на развитие социально-активной компетенции, самостоятельного мышления, самоотверженной борьбы за достойное место Республики в мировом

сообществе, формирование гармонично развитой личности посредством системы непрерывного образования.

**Ключевые слова:** компетентность, социальная активность, методология, развитие, совершенствование, педагогическое образование, начальная школа.

## **SOCIAL ACTIVE COMPETENCES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS METHODOLOGY OF DEVELOPMENT IMPROVEMENT**

**Hasanova M.T.- Tashkent State Pedagogical University, Research  
Assistant**

**Annotation.** In this article, the "National Program of Personnel Training" and the Law "On Education" are aimed at developing the socially active competence of independent thinking, selflessly fighting for the rightful place of the Republic in the world community, and through the system of continuing education. the formation of a harmonious personality is the main task.

**Key words:** competence, social activism, methodology, development, improvement, pedagogical education, primary school.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun Respublikamizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib orin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashadigan, mustaqil fikrlovchi ijtimoiy faol kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan va qonunlarda uzlusiz ta'lim tizimi orqali barkamol shaxsni shakllantirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. "Bu sohadagi asosiy vazifamiz, - Prizidentimiz Sh.M. Mirziyoyev milliy qadriyatlarimizni, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir".

Bu bejizga emas, albatta, Respublika mustaqilligining e'lon qilinishi bilan davlat va jamiyatning demokratik tamoyillari sari borishda fuqarolarda ijtimoiy faol kompetensiyasini rivojlantirish muhimdir.

Mazkur o'ta muhim masalaning nazariy asoslari Respublikamiz birinchi prezidenti I. Karimov o'z asarlarida aniq belgilab berdi. Ijtimoiy faol shaxs bu mamlakatimizni qayta qurishda qatnashib o'zini har tomonlama namoyon eta oladigan yetakchi shaxsdir.

Yoshlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish borasidagi muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish, uzlusiz ta'lim tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, real iqtisodiyotda va mamlakat hayot faoliyati sohalarida

ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanadigan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bo‘lgan davlat ehtiyojini ta’minalash maqsadida “Yoshlar yili” va “Barkamol avlod yili” kabi Davlat dasturlari ishlab chiqildi va joriy etilmoqda.

XXI asr O‘zbekistonda ta’lim, madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, ijtimoiy – siyosiy o‘sish va innovatsiyalar asri sifatida boshlandi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov jamiyat takomilining bosh istiqbol maqsadini – “jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etish” – deb belgilab berdi. Shuningdek, o’ta muhim ijtimoiy-siyosiy yo‘nalish – yoshlar tarbiyasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilanadi. Bu ta’lim tizimini demokratlashtirish, yangilash, modernizatsiya va isloh etish tushunchalarida o‘z ifodasini topdi. Uzluksiz ta’lim tizimida tarbiya jarayonini demokratlashtirish, pedagogik uslublarni yangilash, amaliyot jarayonini modernizatsiya qilish, umuman ta’lim-tarbiya jarayonini isloh etishga yo‘naltirildi va ta’lim-tarbiya amaliyotining bosh innovatsion tamoyiliga aylandi. Islohotlarning bosh maqsadi bo‘lgan demokratik, fuqorolik, huquqiy va dunyoviy davlat asoslarini barpo etish yosh avlodni ijtimoiy faol kompetensiyasini rivojlantirmasdan turib qurib bo‘lmasligi ta’kidlandi.

Ijtimoiy faol shaxsni, malakali mutaxasisni shakllantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy zaruratdir. Shu bois, mazkur ustuvor maqsad yo‘lida ijtimoiy-pedagogik harakatni tashkil etish – respublika ta’lim tizimi va ma’naviy – ma’rifiy islohotlarni bosh yo‘nalishi, milliy mafkuramiz bosh g‘oyasining asosiy talablaridan biri sifatida belgilanadi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish – uzluksiz ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu jarayonning samaradorligini ta’minalash bo‘yicha qator huquqiy-me’yoriy, uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy-uslubiy ishlanmalar tayyorlash ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bizda ijtimoiy faol kompetensiya tarbiyasiga doir ma’naviy-axloqiy qadriyatlardan foydalanish mexanizmlari va tizimlari ishlab chiqilgan.

Ammo asrlar davomida amal qilib kelingan har tomonlama yetuk shaxsga doir milliy qarashlar aynan mustaqillik yillarida demokratik va huquqiy qadriyatlar tizimida ilk bor talqin qilindi va amaliyotga joriy etish uchun asos qilib olindi. Aynan mustaqillik davrida hamda ijtimoiy faol kompetentsiayasi mazmunan rivojlantirilmoqda. Ijtimoiy faol shaxs tushunchasining tarixiy dinamikasiga doir qarashlar inson – sog‘lom, inson – axloqiy, inson – ma’rifatli va ilmli inson – yetuk inson – faol inson va nihoyat, ijtimoiy faol shaxs yuksak ma’naviyatli barkamol shaxs kabi uzviy aloqador hamda o‘zaro bog‘langan kategoriylar majmuasidan iboratdir.

Biroq, XXI asr boshidagi mavjud ijtimoiy – siyosiy vaziyat:

Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, tubdan yangilash va liberallashtirish zarurati to‘g‘risidagi ko‘rsatmalari;

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablarini bajarishning ikkinchi va uchinchi bosqichida tarbiya jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minalash ko‘zda tutilganligi [14]; Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.

-ta’lim muassasalarining ma’naviy – ma’rifiy ishlari dasturlari mazmunini tahlil qilish, joylarda bevosita tarbiyaviy ishlar amaliyotini o’rganish natijalari

-yoshlarga qaratilgan mafkuraviy tahdidlarning turli ko‘rinishlari mavjudligi, ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma’naviy – ma’rifiy ishlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar tamoyillari asosida tashkil etish va amaliyotga joriy qilishni, ya’ni tarbiyaviy natijani kafolatli loyihalashtirish va amalga oshirishni talab etayotganligi;

-talaba – yoshlar tarbiyasi yo‘nalishini yangi mazmundagi innovatsion loyihalar bilan boyitish hamda tarbiya jarayonini demokratlashuvni va liberallashuvini joriy etishga qodir maxsus pedagogik kadrlar bilan ta’minalash kabi dolzarb vazifalarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov (1995-yil 23-fevral) Oliy Majlisning birinchi majlisdagi ma’ruzasida ma’naviy yetuk, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalash haqida to‘xtalib, shunday degan edi: “Biz sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog‘lom kishi faqat sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq – odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz...” – deb ta’kidladi. Ikkinci chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birincni sessiyasidagi ma’ruzasida (2000 yil 22 yanvar) I. Karimov ma’naviyat sohasidagi vazifalar haqida to‘xtalib, “Ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi iymon – e’tiqod butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir.

Ya’ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajodolarimizning bebafo merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat”- degan edi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida tarix fanining o‘zlikni anglashdagi o‘rnini keng tahlil etib, “Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak mustaqil fikrlay oladigan, xulq – atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz” – degan edi.

XX asr oxirlarida oliy va o‘rta maxsus ta’limi tizimidagi amaliyot tahlili tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratish va ularni hayotga tadbiq etish faoliyatini tashkil etishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini talabalarda ijtimoiy faol kompetensiyalarini rivojlantirishga o‘rgatish metodikasi takomillashtirishlishi talab qilingan fazilatlarning ular qiyofasida aks etmayotganligi, talaba – yoshlar tarbiyasi masalasida maxsus milliy – uslubiy va innovatsion loyihalarni joriy etish zaruriyati mavjudligi, mazkur masalaga jiddiy e’tibor berilmayotganligini ko‘rsatadi. Bu holat

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da belgilanganidek “ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish” ga alohida e’tibor qaratishni davrning eng muhim vazifalaridan biriga aylantiradi.

Bugungi kunda ijtimoiy faol shaxs va ma’naviy-ma’rifiy hamda pedagogik kategoriyaga qo‘yiladigan me’yorlar tizimini modernizatsiya, liberalizatsiya, isloh qilish va yangilanish talablari bilan boyitish darkor. Mana shu maqsadni amalga oshirish va joriy etish, davrning eng muhim, ham pedagogik, ham siyosiy, ham ma’naviy-mafkuraviy nuqtayi nazaridan jamiyat istiqbol rivojlanishi maqsadlariga uzviy aloqador bo‘lgan toifaga, ya’ni ta’lim tizimining ustuvor strategiyasiga aylantiradi. Ijtimoiy faol kompetensiyasini rivojlantirish vazifasi va maqsadlari bu borada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan siyosiy, ma’naviy, mafkuraviy, pedagogik ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish, ularni yaxlit kompetensiya holatiga olib kelish, barkamol, ijtimoiy faol shaxs milliy modelini ilmiy-nazariy va pedagogik jihatdan ishlab chiqish, barkamol, ijtimoiy faol shaxs qilib rivojlantirishning yaxlit pedagogik andozasini yaratish, uning tarkibiy qismlari va yo‘nalishlarini belgilash hamda ularni davrga hamohang tarzda umumlashtirish, ijtimoiy faol shaxs qilib rivojlantirishning milliy va umumbashariy, tarixiy va nazariy asoslarini ishlab chiqish kabi vazifalarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu bois, yoshlarni ijtimoiy faol shaxs qilib rivojlantirishning yaxlit zamonaviy pedagogik konsepsiyasiga bo‘lgan talab ortadi. Ayniqsa, oliy va o‘rta maxsus ta’limi tizimi jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini talabalarda ijtimoiy faol kompetensiyalarini rivojlantirish tarbiyasi va uni takomillashtirish masalalari mazkur pedagogik muammoni bartaraf etish jamiyat hayotining yangi taraqqiyot bosqichlari talablari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, pedagogik ilmlarning bugungi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ishlab chiqilishini talab etadi. Bugungi kunda yosh avlodni ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantirishga doir barcha vazifalarini amalga oshirish, uning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, oliy ta’lim tizimi uchun joriy etish mexanizmlarini belgilash kabilar muhimdir. O‘tmishga nazar tashlar ekanmiz, ajdodlarimizning ilmiy salohiyatiga, ular qoldirgan boy tarixiy, ma’naviy-madaniy merosiga ham havas ham hayrat bilan qaraymiz. Ajdodlarimiz bosib o‘tgan shonli yo‘li biz uchun ibrat va tarbiya manbaidir. Tariximizda ibrat oladigan jihatlar ko‘p. Vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik va shu kabi xalqimizga xos fazilatlar bizga ajdodlarimizdan meros qolgan. Ular ma’rifatli jamiyat barpo etish g‘oyalarini ilgari suribgina qolmay, shu bilan birga uni amaliy ifodasi uchun ham fidoyi bo‘lganlar.

Qadimgi madaniyatimizning beباوو namunasi “Avesto” boshdan-oyoq yaxshilik g‘oyasi tarannumidan iborat. “Avesto” inson bolasini uch asosiy qonuniyat bilan umr kechirishga qat’iy da’vat qiladi: ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal. Bu

muqaddas uchlik haqiqiy insonni shakllantiradi. Shuningdek, ibodat doimo mehnat bilan uyg‘unlashgandagina inson farovon yashashi va yosh avlod esa sog‘lom, barkamol bo‘lishi mumkinligi g‘oyasi ilgari surildi. Yaxshi niyat, yaxshi fikr, yaxshi amal yoshlari hayotining mazmunini tashkil etmog‘i zarurligi uqtirildi. Ana shu umuminsoniy qadriyatlar majmuasi darajasidagi g‘oyalar o‘sha zamon bobokalonlarimiz mafkurasining asoslarini tashkil etardi.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Saadara at – Termizi, Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband va boshqalarning ilmiy asarlarida hadislarida tarbiyaviy qarashlarining markazida barkamol insonni shakllantirish g‘oyasi yotadi. Ilm – fan ravnaqi uchun xizmat qildi, insoniyatning ma’rifiy yuksalishiga kata hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, tinchlik va ozodlik uchun kurashgan afsonaviy qahramonlarimiz: To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Pahlavon Muhammad, Temur Malik va boshqalar. Shuningdek, davlat arboblarimiz: Amur Temur, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Mirzo Bobur, Humoyun Mirzo, Akbarshoh, Shohjahon va boshqalar ko‘rsatgan jasorati hamda amallari, qoldirgan ma’naviy meroslari bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy faol shaxs bo‘lib rivojlanishiga kata hissa qo‘shmoqda.

Bugungi kunda insoniyatning orzu-niyatlarini tarannum etuvchi hamda ezgulikka undovchi nodir qo‘lyozmalar milliy tarbiyamizda yoshlarmoriz ongida shakllanadigan milliy g‘ururni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ana shunday muhim manbalardan biri jadidchilik harakatidir.

Bunda Abdulla Qodiri, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulvohid Burhoni, - Munzim, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Muso Saidjonov, Saidnosir Mirjalolov, To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavallo, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Obidjon Mahmudov, Muhammad Sharif, So‘fizoda, Fayzulla Xo‘jayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Saidxo‘ja Siddiqiy Ajziy, Abdulhamid Cho‘lpon, Ashurali Zohiri, Abduqodir Shokiri, Bobooxun Salimov, Ismoyilbek G‘aspirali, Mirmuhsin Shermuhamedov, Saidahmad Siddiqiy kabilarni alohida ta’kidlab o‘tishi lozim. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasidagi vazifalarni yechishda ta’lim tizimidagi islohotlarni hayotga tadbiq etish katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ta’lim O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. Bu “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da o‘z aksini topgan. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda xususiy hollari uchun tarbiya texnologiyalari yaratilgan, ammo kompleks tarzda tarbiya olib borish konsepsiysi, dasturi, tizimi, texnologiyalari va uslublari yaratilmagan.

## **Adabiyotlar**

1. Umumiy o'rta ta'limning Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – T., 2017. – B.25
2. Москальская О.И. Грамматика текста. – М., 1981. 7 с.
3. Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. 116 с.
4. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.–T.:Xalq merosi, 2003.181-b.
5. Мамажонов А. Текст лингвистики. – Т., 1989. – Б. 9.
6. Гоноболин Ф.И. Книга об учителе. М.: Просвещение, 1965. - 260 с.
7. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом мышлении: Кн. для учителя. -М.: Просвещение, 1987. 190 с.
8. Кормен Т., Лейзерсон Ч., Ривест Р. Алгоритмы: Построение и анализ. -М.: МЦНМО, 2001. 960 с.
9. Дроздикова Ж.Н. Творческая самореализация старшеклассников в условиях системно-целевой дифференциации обучения// Дисс. канд. пед. наук. Казань, 1998. - 194 с
10. Хен Д. Педагогика и технология – применение телекоммуникации в образовании // Информатика и образование. Международный спец выпуск, 1996. -с.43-49.

## **O'ZBEK TILIDA "AXLOQ" UMUMIY SEMALI ATOV BIRLIKARINING KOGNITIV MUNDARIJASI**

**Bobojonova Sh.Sh. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrishabz  
filiali o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik fanining kognitiv xususiyatlari va leksik-semantik qiymati yoritilgan. Ma'naviyat tizimidagi ijtimoiy hodisalarning axloq bilan munosabatlarini mana shu qisqacha tarzda ko'rib chiqishimizning o'ziyoq bizda axloqning o'rni haqida aniq tasavvur uyg'otadi. Shu narsa ayonki, axloq mazkur ijtimoiy hodisalar markazida turadi. U nafaqat markaziy-ijtimoiy hodisa, balki boshqa ijtimoiy hodisalarni harakatlantiruvchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'lishi maqolada yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, tahlil, sema, atov birliklar, axloq, tushuncha, mohiyat, konsept, maydon, konsepsiya, nazariya, kognitiv, sistema

## **КОГНИТИВНОЕ СОДЕРЖАНИЕ ОБЩЕСЕМАНТИЧЕСКИХ НАЗЫВНЫХ ЕДИНИЦ «МОРАЛЬ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

**Бабаджанова Ш.Ш. – преподаватель Шахрисабзского филиала  
Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье описаны особенности и лексико-семантическое значение области когнитивной лингвистики современной лингвистики. Это краткое рассмотрение взаимосвязи между социальными и моралью в духовной системе дает нам четкое представление о роли морали. Ясно одно: в основе этих социальных явлений лежит мораль. В статье объясняется, что он проявляется не только как центральное социальное явление, но и как духовная сила, которая движет другими социальными явлениями.

**Ключевые слова:** лингвистика, анализ, сема, номинативные единицы, этика, понятие, поле, теория, система, когнитивный.

**COGNITIVE CONTENT OF GENERAL SEMANTIC NOMINATIVE  
“MORALITY” IN UZBEK LANGUAGE**

**Bobojonova Sh.Sh. - Teacher of Shahrisabz branch of Tashkent State  
Pedagogical University Annotation**

**Annotation.** The article describes the features and lexical-semantic meaning of the field of cognitive linguistics in modern linguistics. This brief examination of the relationship between social and morality in the spiritual system gives us a clear understanding of the role of morality. One thing is clear: these social phenomena are based on morality. The article explains that it manifests itself not only as a central social phenomenon, but also as a spiritual force that drives other social phenomena.

**Key words:** Linguistics, analysis, sema, nominative units, ethics, concept, essence, field, theory, system, cognitive.

Zamonaviy tilshunoslik fanining mustaqil sohasi sifatida kognitiv tilshunoslik ajralib turadi. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik va boshqa kognitiv fanlar o‘rtasidagi farq uning materialida yotadi. U tilning materialida ongni o‘rganadi (boshqa kognitiv fanlar o‘z materialida ongni o‘rganadi), shuningdek, uning usullari – konsepsiylar va kognitiv jarayonlarni o‘rganadi, inson ongida tushunchalar turlari va mazmuni haqida xulosalar chiqaradi. Tilshunoslikning mavjud bo‘lgan tiliga haqiqiy lingvistik tahlil usullarini qo‘llash asosida o‘rganish natijalarini aks ettiradi.

“Axloq” umumiyl semali atov birliklarining semantik maydoni tarkibi ham boshqa leksik sistemalar singari o‘ziga xos tuzilishga ega. Xususan, mazkur maydon alohida sistema sifatida ichki guruhlarga bo‘linadi. Bu esa “Axloq” konsepti leksik-semantik qiymatini boyitib, uning ichki uzvlarini shakllantiradi:

1. Kasbiy axloqni ifodalovchi atov birliklari ma’noviy guruhi: *faollik, talabchanlik, tartiblilik, vijdonli, jonkuyarlik, kasbiga sodiqlik, salohiyatli, fidokorlik, etika-estetika.*

2. Xizmat ko‘rsatish axloqini ifodalovchi atov birliklari ma’noviy guruhi: *xushmuomalalik, farosatlilik, vijdonan yondashmoq, kamtarlik, samimiylilik.*

3. Oila axloqini ifodalovchi atov birliklari ma’noviy guruhi: *vafodorlik, ahillik, or-nomus, qadr-qimmat, samimiyat, qanoatlilik.*

4. Diplomatiya axloqini ifodalovchi atov birliklari ma’noviy guruhi: *kelishuv, siyosiy axloq, aql-idrokka tayangan munosabat, hurmat qilmoq, millat axloqi.*

5. Badiiy adabiyot axloqini ifodalovchi atov birliklari ma’noviy guruhi: *ezgulik, yaxshilik, nafosat, odamgarchilik, yaxshilikka boshlamoq, halollik, vijdon.*

Bu guruhlarning mavzu doirasi chegaralangan emas, ammo ushbu bo‘linishlarning o‘zi konseptining mohiyatini yoritishda asos bo‘la oladi.

O‘zbek tilining leksik qatlamida shakllanayotgan semantik maydonlardan biri axloq tushunchalarini ifodalovchi atov birliklari tizimi bo‘lib, mazkur tizim yuzlab birliklarni o‘zida birlashtirib turadi.

“Axloq semantik maydoni” tarkibi ham boshqa leksik sistemalar singari o‘ziga xos tizimi struktura va tashkil etuvchilariga ega. Xususan, mazkur maydon alohida sistema sifatida yadro, markaz, qurshov, chekka unsurlaridan iborat.

Bu esa biz giponimiya hamda so‘zlarning gipo-giperonimik qatori atamalari ostida ma’nosiga ko‘ra obyektiv borliqdagi jins-tur munosabatini ifodalashga xizmat qiladigan so‘zlar qatorini, leksik paradigmalarni tushunamiz. So‘zlarning sinonimik qatori: a) giperonim, b) giponimdan iborat [1].

“Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko‘pgina ma’nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizmning markaziy so‘zi, dominantasi sifatida namoyon bo‘luvchi lug‘aviy birlikdir.

*Giponim* — ma’lum jins turlarining nomlarini ifodalovchi hamda o‘zining semantik tarkibida jins ma’nosini ifodalovchi so‘zni biriktirib kelgan, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik.”

O‘zbek tilidagi xuddi mana shu giperonim hamda giponim orasidagi semantik aloqalar axloq atov birligida quyidagicha ko‘rinishga ega.

Tahlilga olinayotgan “axloq”ning yadrosida *vijdon; rostgo ‘ylik odobi; uyat; or-nomus; vatanparvarlik hissi, xatti-harakatiga xolisona baho* atov birligi turadi, uning markaziy qatorini *halollik; isrof qilmaslik, uvol; burch; ma’naviy mas’uliyat, oila va jamiyatdagi tarbiya, iymon-e’tiqod* kabi atov birliklari egallaydi. Maydonning markaziy birliklari, ayni paytda, o‘z qurshovlari bilan, qurshov birliklaridan keyin turuvchi chekka unsurlari bilan o‘zaro bevosita yoki bilvosita aloqadorlikda bo‘ladi.

Mazkur semantik maydon va uning tarkibi yuzasidan fikr yuritilayotganda mikrosistemalar strukturasida, atov birliklari o‘rtasidagi lisoniy munosabatlar orasida

alohida ahamiyat kasb etuvchi va muhim o‘rin egallovchi gipo-giperonimik munosabatga alohida diqqat qaratish lozim.

Ma’naviyat tizimidagi ijtimoiy hodisalarining axloq bilan munosabatlarini mana shu qisqacha tarzda ko‘rib chiqishimizning o‘ziyoq bizda axloqning o‘rni haqida aniq tasavvur uyg‘otadi. Shu narsa ayonki, axloq mazkur ijtimoiy hodisalar markazida turadi. U nafaqat markaziy ijtimoiy hodisa, balki boshqa ijtimoiy hodisalarini harakatlantiruvchi ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Uni chetlab o‘tishga intilish har qanday mafkurani tanazzulga olib boradi, jamiyatni tom ma’nodagi ma’naviyatdan mahrum etadi.

Lingvokognitiv konsepsionologiyaning vazifasi: til vositalarining eng to‘liq tarkibini aniqlash, vakillik qilish (ya’ni til o‘rganish natijalarini bilim talqin qilish metodologiyasini qo‘llash, bu birliklar (so‘zlar, iboralar, paremiyalar, matnlar) semantikasini to‘liq tasvirlab, uning milliy (ehtimol, ijtimoiy, yosh, gender, hududiy) o‘ziga xosligida global aqliy birlik sifatida o‘rganilayotgan konsepsiyaning mazmunini simulyatsiya qilish, konsepsiyaning o‘rnini milliy konsepsiadagi o‘rnini aniqlashdan iborat. O‘zbek tilshunosligidagi atov birliklarini tarixiy-etimologik jihatdan o‘z va o‘zlashma qatlam birliklariga ajratish yo‘lidan borib, “ma’naviyat” atov birliklari kategoriyasini dastlab ikki ichki mikrosistemaga bo‘lish mumkin: o‘z qatlam birliklari va o‘zlashma qatlam birliklari.

O‘z qatlam birliklari sof o‘zbek tili leksik boyligi yoki umumturkiy zaxira bo‘lishi mumkin. Biz ushbu tadqiqotda o‘z qatlam birliklarini sof o‘zbekcha va umumturkiy qatlam deb ajratish yo‘lidan bormadik. Buning sababi shundaki, birinchidan, turkiy tillar leksik boyligini o‘zaro farqlash mushkul bo‘lsa, ikkinchi tomondan, biror turkiy tilda mavjud bo‘lgan so‘z boshqa turkiy tilning o‘tmishiga daxldor bo‘lib, eskirgan qatlamidan o‘rin olgan bo‘lishi ham mumkin. Ikkinchidan, ayrim so‘zlarni bir tilda ko‘chma ma’noda qo‘llanishga odatlanilib qolgan bo‘lib, u ushbu ma’nosini bilan “ma’naviyat” kategoriyasidan o‘rin olgan bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi farosat va va qozoq tilidagi parasat so‘zlarini orasida shunday farqni ko‘rish mumkin. Shunday qilib, o‘zbek tilidagi “ma’naviyat” leksik kategoriyasini tashkil etuvchi birliklar genetik jihatdan dastlab ikki guruhga ajratiladi:

a) o‘z qatlam birliklari: uyat, uyalmoq, uyatchan, sizlamoq, tanti, yordam, do’st, yor, iliq, inoq, intilish, kechirim, ong, uyushmoq, uyushqoqlik, uqimoq, o‘qigan, uyushqoqlik, uyatchanlik, elparvar, yumshoqlik, o‘qimishli, uquvli, elsevar, miyali, o‘rtoq;

b) o‘zlashma qatlam birliklari: farosat, farosatli, fasoxat, fahmli, xushaxloq, xushmulozim, xushmuomala, xushmuomalalik, xushtavoze, hikmatli, hikmatomuz, vijdonli, diyonat, iymon, insoniy, insoniylik, nomuslilik, odil, odillik, odilona.

O‘z qatlam birliklari o‘z o‘rnida ikki guruhga bo‘linadi: tub o‘z qatlam birliklari va yasama o‘z qatlam birliklari. Bunda shunga alohida e’tibor qaratildiki,

so‘z o‘zak holatida “ma’naviyat” leksik kategoriyasiga daxldor bo‘lishi yoki yasama holatida bu tizimdan o‘rin olishi mumkin:

a) tub o‘z qatlam birliklari: tanti, yordam, do‘s, yor, iliq, inoq, intilish, kechir, ong, uyushmoq, o‘qimoq, o‘qigan, o‘rtoq;

b) yasama o‘z qatlam birliklari: o‘zbekona, iliqlik, uyatchan, inoqlik, kechirimli, yordamlash, ongli, onglilik, uyushqoqlik, uyatchanlik, elparvar, yumshoqlik, o‘qimishli, uquvli, elsevar.

Yasama o‘z qatlam birliklarini guruhlarga ajratishda quyidagi holatlar e’tiborga olindi. Birinchidan, yasalish asosi o‘z qatlamga oid bo‘lishi mumkin. Bunda ushbu asosning o‘zi ham o‘zak holatida “ma’naviyat” leksik kategoriyasining u yoki bu guruhidan o‘rin olishi mumkin. Shuningdek, bunday holat yasalish asosi o‘zlashma qatlamga oid leksik birliklarda ham uchrashi mumkin:

a) yasalish asosi o‘z qatlamdan bo‘lgan yasama birliklar: tantilik, uyatli, uyatchan, miyali, sizlamoq, o‘zbekona, iliqlik, uyatchan, inoqlik, kechirimli, yordamlash, ongli, onglilik, uyushqoqlik, uyatchanlik, elparvar, yumshoqlik, o‘qimishli, uquvli, elsevar;

b) yasalish asosi o‘zlashma qatlamdan bo‘lgan yasama birliklar: axloqli, iboli, ilmgoh, ilmli, inobatl, intizomiy, kansuxanlik, kansuqumlik, kamtarin, kamtarinlik, kamtarlik, latofatli, lutfkor, lutfkorlik, lutfkorona, madaniyatli, muloyimlik, muomalali, odobli, boodob, odamshavandalik, serhikmat, sipolik, tavozelanmoq, aqlili, vijdoniy.

Bunda yana shunga diqqat qilish kerakki, leksik birlikning yasalish asosi ham, yasalma ham o‘zlashma qatlamga oid bo‘lishi mumkin. Bu holat ularni ushbu guruhga kiritmaslikka asos bo‘la olmaydi. Zero, bunda asosiy mezon – asosning o‘zlashma qatlamga mansubligi va leksik birlikning yasamaliligidir. b) O‘zlashma qatlam birliklari asosan ikki tilga mansub. Bunda asosan ifodasini ishlatishimizdan maqsad – o‘zbek tilidagi “ma’naviyat” leksik-semantic kategoriyasiga kiruvchi evropa va g‘arb tillaridan o‘zlashgan leksik birliklar ham bo‘lishi mumkinligi: avtoritarizm, volyuntarizm, konstitutsiya, mentalitet, suverenitet, partiya, totalitarizm, sivilizatsiya, gegemon, demokratiya, diktatura, ideya, ideal kabi. Ammo bu kabi birliklar garchi tilimizga mansub, adabiy nutq tarkibidan o‘rin olgan bo‘lsa-da, ular ijtimoiy ongda to‘la o‘rnashgan deb bo‘lmaydi.

Zero, bu birliklar sotsial xoslanganligi, uslubiy chegaralanganligi bilan xarakterlanadi:

a).arabi o‘zlashma qatlam birliklari: aql, axloq, ibo, iltifot, inobat, intizom, iffat, latofat, lutf, madaniyat, marhamat, nazokat, najib (oqil), nafosat, odob, tavoze, tarbiya, tartib, aql, vijdon, diyonat;

b).forsiy o‘zlashma qatlam birliklari: kamsuxan, kamtar, sipo, xokisor, shirinsuxan, pok, nozikfahm, xudojo‘y, mehr, mehrafshon, pokdomon, rostgo‘y, pokiza, mehribon, andisha.

Yuqorida o‘zbek tilidagi “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi ham genetik, ham derivatsion nuqtayi nazardan ko‘rib o‘tildi. Bir qarashda ikki xil tamoyilni birdaniga qo‘llab, tasnif mantiqiga zid yo‘l tutilgandek tuyuladi. Ammo genetik va derivatsion jihatlar garchi tilni baholashning ikki yo‘li bo‘lsa-da, ulardan biri ikkinchisini to‘ldiruvchi hodisalar deyish maqsadga muvofiq. Genetik tamoyil leksik birlikning asosini baholash uchun xizmat qilsa, derivatsion jihat ana shu asosning taraqqiyotini, bu taraqqiyot bir til doirasidami yoki boshqa til sarhadiga o‘tib ketganmi degan muammoni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayrim leksemalarning asosi bir tilga mansub bo‘lib, hosila ham shu tilda vujudga keladi va natijada, leksema yasama holida o‘zlashadi. Ammo biz so‘zlarning yasalgan/yasalmaganlik muammosini diaxronik aspektida ko‘rib o‘tdik. Zero, so‘z yasalishini sinxron aspektida ko‘rish ko‘plab tarixiy yasalmalarning tub so‘z sifatida qaralishiga olib keladi. Bunday holat ilmiy yondashuvdan ko‘ra ko‘proq ta’limiy yondashuvni o‘zida aks ettiradi.

## **Adabiyotlar**

1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.1-qism.-T.2014.-B.173
2. Mengliyev B.R. Til yaxlit sistema sifatida. –Toshkent: Nihol, 2009.
3. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
4. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
5. Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot modeli. Monografiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.

## **HAYOTNI BADIY TALQIN ETISHDA IJODKOR MAHORATI**

**Djurakulova E.S. – Samarqand davlat universiteti izlanuvchisi**

**Annatatsiya.** Romandagi poetik o‘zgarishlarning yuzaga chiqishi, badiiy talqin jarayonida hayotni anglash, voqelik zamiridagi qahramon talqini haqida mulohazalar Shoyim Bo‘tayev ijodi misolida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** talqin, poetik idrok, tasvirda mahorat, hayotiylik, badiiy qahramon.

## В ИСКУССТВЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЖИЗНИ ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ

**Джуракулова Э.С. - исследователь Самаркандского  
государственного университета**

**Аннотация.** На примере творчества Шойима Бутаева анализируются комментарии о возникновении поэтических изменений в романе, осмыслиении жизни в процессе художественной интерпретации, трактовке главного героя в основе действительности.

**Ключевые слова:** интерпретация, поэтическое восприятие, умение воздействовать, жизненность, художественный герой,

## IN THE ARTICAL INTERPRETATION OF LIFE CREATIVE SKILLS

**Djurakulova E.S. - Researcher of Samarkand State University**

**Annotation.** Using the example of Shoyim Butaev's work, the author analyzes comments on the emergence of poetic changes in the novel, the comprehension of life in the process of artistic interpretation, and the interpretation of the protagonist in the basis of reality.

**Key words:** interpretation, poetic perception, ability to influence, vitality, artistic hero.

XX asr adog‘ida mamlakatimiz uzra g‘oyat keskin ijtimoiy-iqtisodiy evrilishlar yuzaga kelishi O‘zbekiston madaniy-ma’rifiy turmush tarzida ham jiddiy yangilanish yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Tarixga nisbatan qisqa fursat davomiyligida jamiyatimiz bircha sohalarida kuzatilayotgan demokratik yangilanish –millatning ozodlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lidagi intilishlari adabiyotshunoslik oldiga ham muhim vazifalarni ko‘ndalang qo‘ydi. Sobiq Ittifoq mafkuraviy yakkahokimligidan xalos bo‘layozgan, milliy qadriyatlarni qayta tiklash hamda haqqoniy baholashga yo‘naltirilgan nazariy ta’limot, joriy pallada mustaqillik mafkurasi va ma’naviyati uzviiy ta’siri timsolida bir qadar yuksalayotir.

Ayniqsa, milliy istiqlol davriga kelib jamiyatda axloqiy mezonlarni yangilash zarurati tobora kuchaya boshladi. Nasrchilik, xususan, milliy romanchilikda qisqa vaqt mobaynida inson ma’naviyati tadqiqi birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Chunki bir tomondan, katta ijtimoiy muammolar kun tartibiga ko‘tarilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mavjud siyosiy andozalar yemirilayotganligi ruhiyat talqiniga zaruratni

oshiradi. Tabiiy ravishda, mazkur xususiyat vogelikni tadqiq etishning o‘zgacha tamoyillarini yuzaga chiqardi. O‘z navbatida, mazkur holat, janr ichki va tashqi mundarijasi – kompozitsiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Asrlar davomida roman poetikasi janr imkoniyatlari cheksiz ekanligini namoyon etdi. Tadqiqot natijalari roman nafaqat so‘z san’atining eng mukammal namunasi, balki o‘zi yaratilgan davr uchun ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, roman boshqa adabiy janrlar ichida insonga xos bo‘lgan ong, ruh, vujud, aql tushunchalarini bir-biri bilan garmonik uyg‘unligini aks ettira olgan, insonni shaxs sifatida shakllanishi jamiyat bilan bog‘liqligini to‘laqonli, keng qamrovli badiiy inkishof eta olgan janrdir. Shuning uchun adabiyotshunos Umarali Normatov bu haqida shunday yozadi: “Badiiyat olamidagi eng asosiy o‘zgarish shundan iboratki, san’at, adabiyot, adabiyotshunoslik yakkahokim mafkura iskanjasidan xalos bo‘ldi, san’at va adabiyoning erkin, xilma – xil falsafiy – estetik o‘zanlar bo‘ylab rivojlanishi uchun keng yo‘l ochildi” (1, 3-4-betlar). Shu o‘rinda romanlardagi barcha janr o‘zgarishlar oqimi bugungi romanchiligidan keng miqiyosda asarni yoritib berishga xizmat qilib kelmoqda.

Romanga xos tafakkur badiiy asar mohiyatini anglatibgina qolmay, jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasini ham namoyon etadi. O‘zbek milliy romanining tarixi, taraqqiyot tamoyillari qisman o‘tmish va asosan zamonaviy vogelik bilan belgilanishini nazarda tutgan holda, uning shakllanishi va taraqqiyotida, avvalo, XX asrga kelib, mukammal roman janri tadrijiga ega bo‘lgan rus, so‘ng esa g‘arb romanlari katta rol o‘ynaganligini e’tirof etish kerak. «Shox» romani mavzusi – XX asrdagi o‘zbeklar hayoti . Qahramon hayoti istilo tasarrufida kechsa-da, roman tafakkurida bu jihatlarga ijtimoiylik nuqtayi nazaridan ham, siyosiy jihatdan ham urg‘u berilmaydi. Roman tafakkuriga jalb etilgan manba umuminsoniy muammolar darajasida tasvirlangan insonga xos xarakterning polifonik talqinidir. Yovuzlikning har bir ko‘rinishi ham zulmdir. Inson o‘z ruhiga singib ketgan yovuzlik mohiyatini anglashi o‘z fojiasining sababini anglashi demakdir. Inson ruhiga yovuzlikning kirib kelishi va uning fojeyaviy oqibatlari «Shox» romaniga ham olib kirilgan. Romanning badiiy-estetik ahamiyati shundaki, yozuvchi romanga xos tafakkurni romanga jalb etishda polifonik talqin yo‘llariga murojaat etadi. Qahramon ongida tashqi muhit ta’sirida tug‘ilgan, ruhiyatiga xos bo‘lgan andishani yengish g‘oyasi bora-bora uning ruhida kuchga aylanadi. Qahramon obrazlarini yoritib berishda adabiyotshunos olim B. Sarimsoqov ta’kidlaganidek: “Tasvirlardagi obrazlilikning jonli chiqishi uchun uning atrofga qay tarzda tarqala boshlaganligini aytadi. Tabiatda shom qorong‘usi hamma joyga tabiiy tushadi, u dastlab bir joyga tushib, keyin jonli narsadek tarqalmaydi” (2, 26-bet).

Adibning birgina shu gapdagi obrazlilik va bu obrazlilik tasvirdagi badiiylikning mohiyatini, o‘zagini tashkil etish haqida juda ko‘p yozish mumkinligini ta’kidlashi ham bejiz emas.

Chunki u “hammaga yordam berish” mohiyatini haqiqiy yordam deb emas, hammadan zo‘r bo‘lish va bu zo‘rligi bilan odamlar ishonchiga kirib boyib ketish deb anglaydi, shu sababdan ham uning ruhiyatiga kirib kelgan badnafslik inson tabiatiga yot bo‘lgan uyatsiz va g‘ayrioddiy harakatlar uni tubahlik botqog‘iga yuztuban uloqtiradi. Hotam ruhiyatida muntazam o‘zini eslatib turuvchi o‘zidagi badnafslik – g‘oyasi bora-bora u bilan muloqotga kirisha boshlaydi. Ayni paytda, uning ichki kechinmalari davr evrilishlarida maromiga yetadi.

Hotamning nazarida, faqat shu hojatbarorlik orqali odamlar nazaridagi mavqeyini tiklaydi, shu sababdan ham u bu g‘oyaga tobelarcha bo‘ysunadi. Bunda u g‘oyaning bir ovozi, bir yuzinigina ko‘ra oladi. Hammadan ustun bo‘lish g‘oyasi Xotamni birinchi navbatda nafs quliga aylantiradi. Hotam qalbidagi insoniylikni yovuz ruh yanchib tashlaydi.

Shu o‘rinda romanda bosh qahramon haqida adabiyotshunos Dilmurod Quronov shunday fikr bildiradi: “Obrazli tafakkur asosida yaralgan asarlarning uchinchi tipi amaliy – tatbiqiy xarakterda bo‘lishini aytdikki, fikrimizcha, hozirgi romanlarning bir turkumi genetik jihatdan shu tipdagи asarlar bilan bog‘lanadi. Chunki inson birgina bilish ehtiyoji bilan yashamaydi, uning uchun xayratlanish, zavqlanish, hazil – mutioyiba kabilar ham tabiiy ehtiyojdir” (3, 188-bet). Shuning uchun ham har bir romandagi bosh qahramonning tabiatiga yozuvchi alohida e’tibor berar ekan, asar voqealari silsilasiga o‘ta murakkab bog‘liqlik borligini ohib berishi haqida alohida to‘xtab o‘tadi.

Istiqlol davri romanlari yangi ohanglar hisobiga boyigani bilan xarakterlidir. Ushbu holat Shoyim Bo‘tayev adabiy talqinlarida jahonning ilg‘or an’analarini o‘zlashtirish va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirish hisobiga o‘zgacha usullar sintezini barqarorlashtirdi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamliligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga an’anaviy usullar (bayon, ifoda etish, ko‘rsatish, tasvirlash)ning o‘z o‘rnini bo‘shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi. Shu o‘rinda jiddiy izlanishlar olib borgan va ko‘plab qissa, hikoya, maqololar e’lon qilgan Shoyim Bo‘tayevning ijodi ayni diqqatga sazovordir. Ancha yillik ijodiy izlanishlar samarasida dunyoga kelgan «Shox» romanida ham o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turishini kuzatishimiz mumkin. Adabiyotshunos olim H. Umurov shunday yozadi: “Yetuk romantizim va uning oily turi bo‘lgan tanqidiy realizm odam tasvirida ikki muhim prinsipni tasdiq etish bilan jahon adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi. Shuni ta’kidlash lozimki, muayyan yozuvchining ijodini yoki uning ma’lum romanini psixologizmning konkret bir formasi bilan cheklash mutlaqo mumkin emas”.

“Shox” romanı uslubiy manerasi ikki ko‘rinishda jilvalanadi: birinchidan, yozuvchi talqinlararo muvofiqlikni keltirib chiqarishda diologik unsurlarga jiddiy e’tibor qaratagan bo‘lsa, ikkinchidan roman g‘oyasi bosh qahramon atrofida uyushadi. Shu sababli insoniyat xususida to‘lib-toshib fikr yuritgan adib, odamzot tabiatining yovuzliklar qilishga moyilligini bir necha ta’rif va tavsiflarda tasvirlashga erishgan.

XXI asr kishisining shoshma-shosharlik, yaldoqilik va dangasalikka moyillik sezishi, eng achinarlisi nisbatan qisqa muddat ichida boyib ketish sabablari-yu, buning dahshatli oqibatlari xususida «Shox» romanida jiddiy bahs yuritiladi. Bu bahsni yozuvchi boshqarib turadi. «Ko‘k alanga» korporatsiyasi direktorii Janob Ximerning mug‘ombirligi shuni to‘la asoslaydi:

“...biz qadimgi Xitoy tibbiyotini aholi o‘rtasida joriy etish lozim deb bilamiz. Janob Szi La, janob Mao Da, janob Van Tu singari o‘nlab xitoylik tabiblar korporatsiyamiz bilan bevosita aloqa qilmoqda. Ularning o‘t-o‘lanlardan xitoycha usulda tayyorlashgan dori-darmonlari aholi o‘rtasida tarqatilishi, iste’mol etilishi qisman o‘z samarasini bermoqda, demak, yanglishmaymiz. Bunday dori-darmonlarga ishtiyoqmandalar soni kundan-kunga oshib borayotganini korporatsiyamizga qarashli firmalarga tushayotgan talabnomalardan ham bilib olsa bo‘ladi. Lekin, biz faqat o‘t-o‘lanlarga qarab qolishimiz kerak emas, negaki, biz sigir emasmiz. Janob Ximerning so‘nggi gapini hazil deb tushunganlar yengilgina kulib qo‘yishdi. Biroq, uning qiyofasi jiddiyligini, ayniqsa, doktor Rabinovichning qovoq uyub o‘tirganini ko‘rishgach, darhol yuz-ko‘zlaridagi quvnoq ifodalarni yashirishib, duch kelgan boshqasini zohirga chiqarishdi” (4, 124-125-betlar).

Ayon bo‘ladiki, adib bu o‘rinda voqeа mohiyatiga aralashmaydi. Faqatgina personajlarni mustaqil holatda boshqarib turadi. Ba’zan muallif nutqi qahramon nutqi bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu esa o‘z o‘rnida roman falsafasini shaklga yashiringan mazmunni idrok etishga zamin hozirlaydi. Janob Ximer ichidan pishgan, «ushlagan joyini yetti o‘lchab, bir kesadigan» odam bo‘lgani uchun ham uni yuksak, ulug‘vor g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan gap bilan qoyil qoldirish mushkuldir. Hatto, doktor Rabinovich ham bu borada ojizlik qiladi. Romanda lavhadan-lavhaga qaray o‘sib borayotgan muammo – g‘oya bor. Bu g‘oya shundan iboratki, har bir inson o‘z ehtiyojini kondirish uchun jonini jabborga berib bo‘lsa ham erishish niyatida qadam tashlaydi. Shu boisdan ham, romanning fazilatini, yozuvchi nima uchun bu masalaga jiddiy yondashuv zarurligini ta’kidlashi, alal oqibatda, insoniylik ma’nosini yo‘qotib qo‘yishgacha olib kelishini ko‘zda tutgani ayni haqiqatdir. Chunki nafs masalasi barcha zamонлар uchun ham bir xil mavzu. Lekin har bir davr o‘z kayfiyati, imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda yondashadilar.

Muallif “Shox” romanida voqelikni idrok etishda badiiy to‘qimaga anchayin keng o‘rin ajratadi. Kitobxonga real zamindagi bo‘layotgan hodisotlarning mag‘zini,

mohiyatini anglab olishida olamning yaratilishi, va iblisning nayranglari bilan Odam Ato va Momo Havoning ta’qiqlangan mevani yeb, osiy bandaga aylanishini xilma-xil tafsilotlar orqali ifoda etadi:

“Odam, gap nimada ekanligini endi tushunib, ko‘zлari katta-katta ochilganida qotib qoldi - uning nigohidagi ifodani tubsiz jarlikka otilgan toshdek qulab borayotgan jonzoddagina uchratish mumkin.

- Xannos! – deb qichqirdi Iblis Odamga qarab.

Odam tevarak-atrofga qarab alangladi.

- Xannos! – deb qichqirdi yana Iblis Odamga qarab. Odamning hushi boshidan uchib, o‘zligini yo‘qota boshladi.

Xannos, so‘zlarimni hech qachon unutma, - dedi Iblis vasiyat qilayotganday. – Sen g‘olib bo‘lding, Xannos. Bundan buyon endi bo‘shashma, bo‘shashdingmi, tamom, ming hiyla-nayrang bilan kirib olgan joyingdan seni darhol quvlab yuborishadi. Ajdodlarimiz hamma joydan badarg‘a etilganini unutma, Xannos, agar, seni Odamning tomirlari orasidan siqib chiqarib yuborishsa, yetti iqlimdan ham, yer yuzidan ham – na tog‘u toshda, na quruqlikda, na suvda o‘zingga maskan-vatan topolmaysan, nega deganda, joy belgili, sarhad tortilgan, senga qarshi g‘ovlar qo‘yib tashlangan. O‘z maskan-vataning uchun kurash,sovut taq, javshanlarni os, qilichni qo‘yma. U yerda iymon, e’tiqod, lafz, sadoqat degan shir yalang‘och yerlik aholi o‘qtin-o‘qtin qo‘zg‘olon ko‘tarib turishini yodda tut – ularni ayamay qiraver” (4, 128-bet).

Romandagi qo‘llanilgan badiiy kiritma bir tomondan, obraz qiyofasini jilvalantirsa, ikkinchi tomondan, uni o‘rab turgan muhit suvratining odamzot tabiatiga ta’siri aks ettiriladi. Chunki inson tabiatan ikkilanishlar va taxminlar hisobiga xulosa chiqarishga odatlangan. Yozuvchi romanda mo‘may boylik to‘plab o‘ziga xos «sinsatsiya» uyushtirishni maqsad qilgan Janob Ximerning tabiatiga singib ketgan nafs tushunchasiga o‘ziga xos imlar berishga kirishar ekan, bunda olamning yaralishidan buyon kelayotgan mangu jang: Iblis va Odam olishuvi tasvirida zamon kishisining mislsiz xatolarga girftor bo‘lish sabablariga jiddiy diqqatni qaratadi. Yozuvchi bu o‘rinda hodisot ichkarisidan turib baholashga sira urinmaydi, balki xulosani zukko kitobxon hukmiga havola etib boradi. Shu ma’noda, asarda qahramonlararo jonli munosabat ijtimoiy-psixologik qirralarni birlashtiradi.

## **Adabiyotlar**

1. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyollar. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000. – 104 bet.
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – 126-b.
3. Dilmurod Quronov. Mutolaa va idrok mashqlari. –Toshkent, “Akademnashr”, 2013. 188-bet.

4. Bo'tayev Sh. Shox. –Toshkent, “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston miliy kutubxonasi”, 2006. – 320-bet.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T., “Sharq”, 2007. – 336-b.
6. Normatov U. Ijod sehri. – T., “Sharq”, 2007. – 290-b.
7. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi, – T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016. – 364-b.

## **XITOY - O'ZBEK TO'Y VA MOTAM MAROSIMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

**Nabiyev O.A. - “Ipak yo‘li” xalqaro turizm universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Marosim inson moddiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga keladigan tabiiy xatti-harakat, bezak (dekoratsiya) va matnga ega bo‘lgan hayotiy “sahna” asaridan. Shu boisdan dunyoda birorta ham marosimsiz xalq yo‘q. Xitoy va o‘zbek tillaridagi marosimlar nomlarinining o‘rganganlik darajasini aniqlash, marosimlarning kelib chiqishi va shu bilan birga hozirgi kundagi holatini tahlil qilish maqsad sifatida belgilandi. Xitoy va o‘zbek to‘y va motam marosimlari yildan-yilga sayqallanib, jilolanib va eng muhimi hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, marosim, animizm, totemizm, fetishizm, funksiya, “Beshik to‘yi”, “Tish to‘yi”, “Oyoq to‘yi”, “Sunnat to‘yi”.

## **ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КИТАЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СВАДЕБНЫХ И ТРАУРНЫХ ЦЕРЕМОНИЙ**

**Набиев О.А. – исследователь Международный Университет Туризма  
«Шёлковый Путь»**

**Аннотация.** Церемония представляет собой «сцену» из жизни с естественным действием, декором и текстом, которая возникает вместе с требованиями и потребностями материальной и духовной жизни человека. Вот почему в мире нет нации без церемоний. Цель состояла в том, чтобы определить уровень знания названий церемоний на китайском и узбекском языках, проанализировать происхождение церемоний, а также их нынешний статус. Китайские и узбекские свадьбы и траурные обряды шлифуются и шлифуются год за годом и, самое главное, сохраняются по сей день.

**Ключевые слова:** социально-экономическая формация, ритуал, анимизм, тотемизм, фетишизм, функция, «Свадьба в колыбели», «Свадьба зубов», «Свадьба на ногах», «Свадьба после обрезания».

## **LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF CHINESE AND UZBEK WEDDING AND FUNERAL CEREMONIES**

**Nabiyev O.A. – Researcher International University of Tourism “Silk Road”**

**Annotation.** The ceremony is a "scene" from life with natural action, decor and text, which arises together with the requirements and needs of a person's material and spiritual life. That is why there is no nation in the world without ceremony. The aim was to determine the level of knowledge of the names of the ceremonies in the Chinese and Uzbek languages, to analyze the origin of the ceremonies, as well as their current status. Chinese and Uzbek weddings and funeral rites are polished and polished ear after ear and, most importantly, are preserved to this day.

**Key words:** socio-economic formation, ritual, animism, totemism, fetishism, function, "Cradle Wedding", "Teeth Wedding", "Foot Wedding", "Circumcision Wedding".

Til - insoniyat tomonidan ajdodlardan meros qilib olingan «ma’naviy boylik», tarkibida turli elementlar, qoidalar, barcha sathlardagi munosabatlar saqlanayotgan imkoniyatlar xazinasidir. Shuningdek, til xalqning urf-odatlari, marosimlari kabi madaniy dunyoqarashini ifodalovchi vositadir.

Marosim inson moddiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga keladigan tabiiy xatti-harakat, bezak (dekoratsiya) va matnga ega bo‘lgan hayotiy “sahna” asaridan. Shu boisdan dunyoda birorta ham marosimsiz xalq yo‘q. Binobarin, u muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta’minlovchi muhim etnografik belgilardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Chunki har qanday marosim u yoki bu xalqning ma’lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichidagi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilarni o‘zida to‘la mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Shuning uchun ham muayyan etnik birlikka xos asosiy xususiyatlarning etnografik mezoni sifatida marosim hamma vaqt tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi. Bunday etnografik mezonlar darajasiga marosim, avvalo, o‘zining ijtimoiy tabiat, maishiy, axloqiy va poetik funktsiyalari orqali erishganligi o‘z-o‘zidan ayon. Darhaqiqat, har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya o‘z talablariga mos keluvchi marosimlarni keltirib chiqaradi. Marosim tarkibiga kirgan u yoki bu ijtimoiy

formatsiyaga xos belgilar uzoq vaqt (ba'zan funksiyalarini o'zgartirsa ham) o'zining asl mohiyatini buzmagan holda saqlanib qoladi. Marosim tarkibidagi bunday konservativ holat bir qator sabablar bilan izohlanadi.

Birinchidan, marosim ijtimoiy hodisa sifatida, I.V.Suxanov to‘g‘ri qayt etganidek, hamma vaqt inson hayotining asosiy burilish nuqtalarida, ko‘pincha, ana shu nuqtalarni qayd etish, qonunlashtirish talabi bilan tug‘iladi [3, 39 b]. Inson turmushi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan shartlangan holda doim miqdor va sifat jihatidan qay darajada o‘zgarishlarga uchrab bormasin, biroq uning hayotidagi burilish nuqtalarining (masalan, tug‘ilish, balog‘atga etish, mehnat faoliyatining boshlanishi, nikoh, o‘lish va h.k.) barqarorligi saqlanib qoladi. Demak, marosimning nisbiy barqarorligi, uning yashovchanligi va konservativ tabiatini ana shunday real hamda doimiy takrorlanuvchi hayotiy ehtiyojlar bilan bog‘liqdir. Ma’lum bo‘ladiki, inson o‘z hayotining ana shunday burilish nuqtalarini ma’lum bir ijtimoy akt – marosim orqali qonuniy tusga kiritadi.

Ikkinchidan, marosim bevosita kishilarning tabiat vositalariga, ijtimoiy voqelikka bo‘lgan muayyan munosabati asosida yotuvchi turli-tuman qarash va tasavvurlar tufayli tug‘iladi (masalan, animizm, totemizm, fetishizm va h.k.). Bunday marosimlarning juda uzoq yashovchanligi avvalo, barqarorlik darjasini, qolaversa, ularning ta’siri marosim an’anasiga qay darajada singganligi bilan izohlanadi. Chunonchi, ruhlar haqidagi animistik tasavvurlarning puch mohiyatga ega ekanligi zamondoshlarimizga oydek ravshan bo‘lsa-da, uchlik, ettilik, yigirma, qirq kabi marosimlardagi barqarorlik endi o‘zining mazmuniy bosimi bilan emas, balki kuchli an’anaviyligi bilan yashab kelmoqda. Demak, inson marosimsiz yashay olmaydi, binobarin, har qanday marosim ayrim shaxslar xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda ijtimoiy hodisa sifatida yashayveradi.

Marosimni jamiyat hayoti bilan bog‘lovchi uchinchi omil – uning faol funksionalligidir. Jamiyatda birorta ham keraksiz, hech qanday itimoiy funksiyani bajarmaydigan marosim yo‘q. I.V.Suxanov bu haqda fikr yuritib, marosimning psixologik va estetik kabi ikki asosiy itimoiy funksiyasini ko‘rsatib o‘tadi [3, 47-67 b].

O‘zbek xalqi tarixida juda ko‘plab to‘ylar borki, hamon ularning qanday kelib chiqqani, qachon bizning udumlarimiz orasiga kirgani, ularning nima sababdan turlicha o‘tkazilishi haqida o‘ylab ko‘rilgan emas. Bu to‘ylar quyidagicha nomlanadi: “Tug‘ish to‘yi”, “Beshik to‘yi”, “Tish to‘yi”, “Oyoq to‘yi”, “Sunnat to‘yi”, “Mo‘ylov to‘yi”, “Nikoh to‘yi”, “Kumush to‘yi”, “Oltin to‘y”, “Hovli to‘yi”, “Uy to‘yi” singari to‘ylarni kiritish mumkin.

“Soch to‘yi”. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan O‘zbekistonda yashab kelayotgan turli xalqlarda ham bolaning boshidagi sochini dastlab oldirish bilan bog‘liq bo‘lgan odad juda qadim zamonlardan buyon mavjud bo‘lib, uni barcha

viloyatlarda bajarib kelganlar. Shu ma'noda bolalarning sochlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman irimlar vujudga kelgan ekan. Bu to'yni mamlakatimizning ayrim joylarida "Aqiqa" nomi bilan ham ataladi.

O'zbek sunnat to'ylarida "Maslahat oshi – kengash to'yi", "Tandir qurish", "So'qim so'yish", "To'yga taklif etish", "Yigit yig'nash", "Non edi", "Qo'noq oshi", "Nashira aytish" kabi urf-odatlar bajariladi. Bu urf-odat nomlari marosim bajarilish tartibi bilan o'zaro bog'liqidir. Shu bilan birgalikda o'zbek nikoh to'ylaridagi "Qiz ko'rish", "Sovchi keldi", "Ro'mol tashlash", "Og'iz moylandi", "To'qqiz jo'natish" kabi urf-odat nomlari ham uchraydi. Misol uchun "Ro'mol tashlash" urf-odati haqida gapiradigan bo'lsak, Andijon viloyatining ko'pgina tumanlarida qiz tomoniga kelgansovchi o'zi bilan birga turli-tuman noz-ne'matlar, non-patir olib kelgan. Ularning orasiga eng qimmatbaho bir dona ro'mol ham qo'yilgan. Sovg'a-salomlar berilganda, ularning orasiga qo'yilgan ro'mol qiz tomonidan olib qolinsa, bu rozilik alomati, agar ro'mol qaytarilsa, qiz tomonning rozi bo'limganligi belgisi sanaladi. Bu odatni "Ro'mol tashlash" deb yuritilgan. Yoki shunga o'xshash maromning "Og'iz moylandi" deb nomlangan shakli ham mavjud. Samarqand va Jizzax viloyatlarining ayrim qishloqlaridasovchi qiznikiga ikkinchi-uchinchi marta borganida qiz tomon rozilik alomati sifatida sovchining oldiga sariyog' kuydirib kosada chiqaradi va sovchi shuni tanovvul qilishi shart bo'lgan. So'ng kuyov tomonidagilar sovchilar qaytishganda "qanday, og'iz moylandimi?" deb so'raganlar. Agar, "ha, moylandi", desa, demak qiz tomonning rozi ekanligidan dalolat beradi. Shu tariqa "og'iz moylandi" atamasi ishlatilib kelingan.

Xitoy nikoh to'ylari necha ming yillik tarixga ega bo'lishiga qaramay, hali ham o'z urf-odat va udumlarini o'zida saqlab qolgan. An'anaviy xitoy nikoh to'ylarida diniy hamda etnik jihatdan hamohanglik ko'zga tashlanadi. Bir necha yuz yillar davomida Xitoyda ota-onalar tomonidan tashkillashtirilgan to'ylar odat tusiga kirgan edi. Yosh kelin-kuyovlar ota-onasining xohishi bilan turmush qurishgan. Ayrim kelin-kuyovlar to'y kuni bir-birini ko'rishgan. O'sha paytlarda ota-onalarning kelishuvi asosidagi to'ylar keng tarqalgan edi. Hattoki, ayrim hollarda chaqaloq tug'ilishidan oldin ota-onalar o'zaro kelishib qo'yishgan. Shu bilan birga xitoy nikoh to'ylarida bajarilishi qat'iy qilib qo'yilgan an'ana va urf-odatlar ham bo'lganki, shular bajarilsagina nikoh qonuniy hisoblangan. Albatta, bu hozirgi kundagi qonunlar bilan tasdiqlamagan, lekin odamlar milliyligiga sodiqligini isbotlash uchun bu udumlarni bajarishadi. Quyida, mana shunday nikoh to'ylaridagi ayrim urf-odat va udumlar haqida fikr yuritamiz: 1) "*O'tgan ajdodlarini yodga olish*" [5, 51-53 b]. Bo'lajak kuyov to'ydan oldin o'tgan ajdodlariga o'z hurmatini ifoda etishi lozim bo'lgan. To'y kuniga oz qolganida kuyovning barcha oila a'zolari to'planishgan, sham yoqib, ajdodlarini yodga olishgan. Shamning hidi narigi dunyodagi ajdodlariga bo'lajak to'y haqidagi xabarni etkazadi deb hisoblashadi. 2) 新娘边 *xinniangbian*

“Kelin tomon” [7, 35-53 b]. Kuyov kelinni olib kelish uchun kelin tomon uyidan chiqqanida, qolgan qarindoshlari mushakbozlik qilishadi. Bu paytda kuyov kelinning qarindoshlari tayyorlagan bir qancha sinovlardan o‘tishi kerak bo‘lgan. Bu sinovlardan oson o‘tish uchun kuyov kelinning qarindoshlariga ichiga ma’lum miqdorda pul solingan 红包 -*hong bao* “qizil konvert” beradi. Bu 红包 -*hong bao* “qizil konvert” yordamida barcha eshiklar ochiladi va to‘sqliar yo‘q bo‘ladi deb hisoblashadi. 3) 找鞋子 *zhaoxiezi* “Oyoq kiyimni topish” [5, 56-59 b]. Kuyov kelguncha kelinning qarindoshlari vaqtini bekorga yo‘qotmay, kelinning oyoq kiyimini yashirib qo‘yishadi. Kuyov kelinni olib ketish uchun avval uning oyoq kiyimini topishi kerak bo‘lgan. Axir, kelin oyoq kiyimsiz ketolmaydi-ku. Ko‘plab “qizil konvert”lar tarqatilgandan keyin va, nihoyat, kuyov oyoq kiyimni topadi. Bu to‘sqliarni engib o‘tgani uchun kuyovga kelin tuhfa qilinadi. 4) 一杯饮 *yibeiyin* “*Bir piyola ichimlik*”. Kelinning onasi kuyovga soyadan tayyorlangan, ichiga sirka, qalampir, tuz va shakar solingan ichimlik beradi. Ichimlik badbo‘y bo‘lishiga qaramay kuyov uni ichishi shart bo‘lgan. Gap shundaki, soya, sirka, qalampir, tuz va shakar – bu besh xil ta’m: nordon, shirin, o‘tkir, sho‘r va achchiq. Bu besh xil ta’m Xitoyda oilaviy hayotning ramzi hisoblanadi. Ya’ni hayot bir tekis emas degan ma’noda. Kuyov bu ichimlikni ichishi bilan kelinni unga qanday berayotgan bo‘lsa, shunday olishiga rozilagini bildirgan. 5) 只前 *zhiqiang* “*Faqat oldingga*”. Kelin yangi uyiga ketayotganda nima bo‘lishidan qat’iy nazar ortga burilib qarashi mumkin bo‘lmagan. Bu udumga juda qattiq rioya qilishgan. Chunki shu kundan boshlab faqat porloq kelajak haqida o‘ylash kerakligi, o‘tmishdagi narsalarni yodga olmaslik kerakligi va ortga umuman qaramasligi uqtirilgan.

Yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasi xitoy nikoh to‘ylaridagi milliy urf-odat va udumlar hisoblanadi. Lekin hozirgi kunda zamonaviy udumlar ham vujudga kelganki, ular haqida to‘xtalish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ular milliy udumlardan farqli ravishda hozirgi zamon talablariga mos udumlar desak adashmagan bo‘lamiz.

a) Hozirgi kunda bo‘lajak kelin-kuyovlar to‘ydan oldin bir-birinikiga tashrif buyurishib, ota-onalari bilan tanishishadi. Albatta, mehmonga borayotganda sovg‘a-salomlar bilan borishadi, shu bilan birga ota-onalar ham mehmonlarga sovg‘a-hozirlab qo‘yishgan bo‘ladi.

b) Turmushga chiqayotgan qiz to‘ydan oldin vafot etgan qarindoshlarini yig‘lab, yodga oladi. To‘ydan keyin yangi oila a’zosiga aylanadigan kelinga to‘ydan oldin oila a’zolari bilan xayrlashish uchun vaqt berilgan. Ayni o‘sha kuni oilaviy mavzuda suhabat qurishib, bo‘lajak kelinning yoshlik chog‘larini esga olishadi;

d) To‘ydan oldingi vaqtarda foto-albom tayyorlash ham bo‘lgan. 1990-yillardan boshlab kelin-kuyov uchun foto-albomlar tayyorlash ommalasha borgan.

Foto-albom faqat kelin-kuyovning rasmlaridan iborat bo‘lib, to‘ydan oldin tayyor holga keltirilgan. To‘yga kelgan mehmonlar uni tomosha qilishi mumkin bo‘lgan;

e) To‘y kuni avval kuyov kelinning uyiga kelib, uning ota-onasiga o‘z hurmatini bildirgan, shundan so‘ng kelinning ota-onasi ularni duo qilishgan. Shundan so‘ng kelin kuyov bilan birgalikda kuyovning ota-onasininga borib, ularni ham duosini olishgan. Kuyov kelinnikiga kelganida sovg‘a sifatida o‘zi bilan qizil rangli mato, oltin tangalar va taqinchoqlar olib kelgan, bu sovg‘alar unumdorlik va vafodorlikni ifodalagan;

f) To‘y marosimi paytida kelin-kuyov tizza bilan o‘tirib, ota-onalariga choy uzatishgan va shu yo‘l bilan ulardan turmush qurishga ruxsat berishlarini so‘rashgan. Va shunday holatda avval osmonga, keyin erga, so‘ngra ota-onasiga va oxirida bir-birlariga qasam ichishadi.

Xitoy nikoh to‘ylarida xitoy madaniyatining durdonasi bo‘lmish xattotlik san’atining ham o‘z o‘rni bor. Xitoyliklarning hayoti davomidagi barcha ishlari xattotlik san’ati bilan bog‘liq. Ya’ni Xitoyda barcha bayram va tantanalarda baxt keltiruvchi rasmlar va bezaklarni uylarining eshiklariga, derazalariga yoki biror joyga ilib qo‘yish keng tarqalgan. Bu belgilar insonlarni baxtga, xursandchilikka intilishlarini ifoda etadi. Masalan, yaqinda turmush qurgan yoshlarning yostiq jildlariga 双喜 [shuangxi] — *ikki karra baxt* iyeroglifining yozilishi ham beziz emas. Bu yoshlarga baxt va quvonch tilash ramzi hisoblanadi. Xitoy xalqida bu belgidan, asosan, nikoh to‘ylarida foydalanish ommalashgan. 福寿双全 [fushou shuangquan] belgisi ham *baxt vauzoq umr ko‘rish ma’nosini* anglatadi.

Hozirgi kunda Xitoyda to‘y marosimlarida ortiqcha xarajatlardan qochish uchun ko‘plab milliy urf-odat va udumlar bajarilmaydi. Chunki milliy urf-odatlar to‘liq bajarish uchun katta mablag‘ sarflangan. Shu bilan birga zamonaviy urf-odatlar ham paydo bo‘lgan. Bu zamonaviy urf-odatlar ortiqcha mablag‘ va ortiqcha vaqt talab qilmaganligi uchun hozir xitoy to‘y marosimlarining ajralmas qismiga aylanib bo‘lgan.

Inson hayoti ibtidosidan intihosigacha turli-tuman marosimlar bilan burkangan. Uning yoshi, maishiy hayoti va oilaviy hayotida biror-bir o‘zgarish ro‘y bersa, ana shu o‘zgarishlar bevosita muayyan marosimlar vositasida rasmiylashtirilgan. Shuning uchun ham inson hayoti rang-barang marosimlarga boy.

Motam inson umrining oxirini nishonlash maqsadida hayotiy ehtiyoj tufayli o‘tkaziladigan mungli marosimdir. Shu boisdan ushbu marosimda ijro etiluvchi folklor janrlari, marosim ishtirokchilari va ularning kiyim-boshlari – hamma-hammasi munclidir.

Xitoy dafn marosimlari va urf-odatlari tarixda chuqur ildiz otgan bo‘lib, din va e’tiqod bilan chambarchas bog‘liq. Xitoyning turli hududlarida dafn etishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu jarayon G‘arbning urf-odatlaridan farq qiladi.

Xitoyda dafn marosimida o‘ziga xos shunday xususiyatlar borki, butun dunyoni hayratda qoldirishi mumkin.

Dafn marosimidagi an’analari va urf-odatlarning aksariyati uzoq tarixga ega. Hozirgi kunda marhumning tobutiga o‘zingiz yoqtirgan yoki xohlagan predmetni qo‘yish odati bor. Har bir inson 2,5 ming yil davomida Xitoy imperatorining qabrida joylashgan terrakota armiyasini yaxshi biladi, bu an’ana e’tiqodining isboti. Bu narigi dunyoda o‘z hukmronligini davom ettirishni xohlagan hukmdor qudratining belgisi edi. [6, 256-259 b].

Xitoyda dafn marosimi uzoq yillik an’analar bilan uzviy bog‘liqdir. Motam rangi oq rang hisoblanadi. Ilgarilari dafn marosimiga kelganlar oq libos kiyishgan, hozirgi kunda esa bu an’ana ko‘proq kichik qishloqlarda saqlanib qolgan. Hozirda odamlar dafn marosimlarida turli rangdagi kiyimlar kiyishi mumkin, faqat ular qo‘llariga oq rangdagi bog‘ich taqishadi. Agar marhum erkak kishi bo‘lsa, bog‘ich chap qo‘lga, ayol kishi bo‘lsa o‘ng o‘ng qo‘lga taqiladi. Qarindoshlari odatda oq rangdagi liboslar kiyib, boshlarini oq belbog‘ bilan bog‘lashadi. Avvallar marhumga ham oq libos kiygazishgan, lekin hozirgi kunda milliy kiyimlar kiydirishni afzal ko‘rishmoqda. Ammo qizil rangga dafn marosimida o‘rin yo‘q desak ham bo‘laveradi, chunki u hayot ramzidir. Shu boisdan xitoyliklar qizil rangni umuman dafn marosimiga arashtirishmaydi. Marhumning o‘ziga ham qizil rangdagi kiyimlarni kiydirish taqiqlangan, chunki agarda u qizil rangdagi kiyim kiysa, uning ruhi tiriklar va o‘liklar olami o‘rtasida qolib ketadi deb o‘ylashadi Uydagi barcha qizil rangdagi narsalarni olib tashlashadi, hatto iyrogliflarni ham devordan olib tashlashadi.

Marhum bilan xayrleshish jarayoni ko‘pincha ijaraga olingan katta zallarda yoki boshqa joylarda amalga oshiriladi. Dafn marosimiga keluvchilarining soni juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun marhumning qarindoshlari barcha do‘sstariga, kasbdoshlariga dafn marosimiga qatnashish uchun taklifnomalar tarqatishadi. Takliflar oq qog‘ozga yozilgan. Agar marhum 80 yoshdan oshgan bo‘lsa, pushti rangdagi qog‘oz ishlatalidi. Bunday dafn marosimlarida odatda odamlar quvonishadi, ular marhumning uzoq umr ko‘rganligiga ishora qilishadi. Dafn marosimiga keladigan odamlar o‘zlari bilan oq gul ( arxideya va boshqa o‘simliklar) va pul solingan konvert olib kelishadi.

Xitoyda dafn etishning ko‘mish yoki kuydirish kabi turlari mavjud. Yirik shaharlarda aholisi zich joylashganligi bois, kuydirishni ko‘proq afzal ko‘rishadi. Kulni esa kuldonga solib, olib qo‘yishadi. Butun oila odatda bitta joyga dafn etiladi, tosh tabloda yoki yodgorlikda oila a’zolarining barcha ismlari yozib qo‘yiladi. Marhumlarning ismlari oq, kulrang yoki qora ranglarda yozilgan, tiriklar esa qizil rangga bo‘yalgan.

Dafn marosimida marhumning nomi bo‘yab yozib qo‘yiladi. Xitoyning ko‘p hududlarida, dafn marosimlarida ayollar va bolalar qabristonga bormasliklari kerak,

chunki ular yovuz ruhlardan ta'sirlanishi mumkin. Dafn marosimi oy taqvimi bo'yicha tanlanadi, shuning uchun marhumni bir necha kundan bir necha haftagacha saqlanadi. Zamonaviy Xitoyda dengizga dafn qilish ham mavjud, faqat bu dafn marosimi faqat qirg'oq bo'yи shaharlarida mashhurdir.

Xitoyda marhumlarga hurmat quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Dafn marosimini dabdabali qilib o'tkazish yoki qarindoshlari doirasida kamtarona kechki ovqatni uyushtirish. Albatta, cheksiz ovqatlar dasturxonga tortiladi.

2. Marhumning yaqin qarindoshlari marhum dafn etilgandan keyin 7 kun davomida sochlarini kaltalatishmaydi va tarashamaydi ham. Bu davr mobaynida turmush qurish qat'iy taqiqlanadi

3. Qingming kuni (aprel oyi boshlarida bo'lib, o'tganlarni xotirlash kунидир) qarindoshlar qabristonga kelib, qabr atrofini tozalashi tozalashadi. Shuningdek, ular o'zлари bilan keltirgan maxsus pul va shamlarni yoqadilar.

Xitoy dafn marosimlarida g'ayritabiyy odат ham borki, odamni hayratga soladi. Ular marhum narigi dunyoda yaxshi yashashi uchun qog'oz pullarni yoqishadi. Albatta, bu haqiqiy pul mas, balki dafn marosimlari uchun tayyorlangan maxsus puldir. Mazkur pullarda odatda juda ko'p nollar aks etadi. Ushbu pullar dafn marosimi paytida, dafn marosimidan keyin va hattoki, keyinchalik marhumni yodga olganda ham yoqiladi. Bundan tashqari marhumning yoqtirgan narsalarini rasmi chizilgan qog'ozlar ham yoqiladi. Xitoyliklar o'ylashadiki, shunday qilishsa, bu predmetlar narigi dunyoda marhumga kerak bo'lganda foydalanishi mumkin. Bunga mashina, uy, kiyim, texnika va boshqalar misol bo'lishi mumkin. Yana shu narsa muhimki, marhum qaysi burjda tug'ilgan bo'lsa, o'sha burj shaklidagi qog'ozni yoqish shart bo'lgan.

Dafn marosimida odamlar yovuz ruhlarga duch keladilar, shuning uchun ular himoyalanish uchun marosimlarni va urf-odatlarni bajaradilar. Qabristonda dafn marosimidan so'ng, marhumning qarindoshlari ichiga tangalar solingan qizil konvertlar tarqatishadi. Ular uyga xavfsiz yo'lни ta'minlaydilar. Dafn marosimidan so'ng qizil mato parchasi eshik tutqichiga bog'lanadi, shu boisdan yovuz ruhlar ichkariga kirib, odamlarga zarar etkaza olmaydi.

Odatda, dafn marosimi ko'p xarajatni talab etadi. Marhum bilan vidolashishga qancha ko'p odam kelsa, shuncha yaxshi, shu boisdan qarindoshlari barcha qo'shni va tanishlarini chaqirishadi. Bu esa, albatta, ozgina xarajat bilan bitmaydi.

Shu bilan birga, Xitoyda an'anaga ko'ra, dafn marosimiga kelgan barcha odamlar oq konvertda pul olib kelishadi. Xitoy motam marosimida "ruhni kuzatish" deb nomlangan urf-odati ham mavjud. Bunga ko'ra o'zga yurtda vafot etgan odamning ruhi o'z uyiga yo'l topolmay arosatda qoladi, ya'ni begona joyda vafot etgan odamning ruhi bezovta bo'ladi. U yovuz ruhga aylanishi mumkin. Shuning

uchun marhumning oila a'zolari ruhni chaqirish uchun marhum yashagan uy oldida shovqin-suron qilishgan, ayrim hududlarda esa tom ustiga chiqib baqirishgan. Shu orqali ruh uyga qaytib kelgan. Bu urf-odat asosan manjur millatida uchragan. Manjur millatiga xos yana bir odat bo'lganki, motam bo'lgan joyda oq chodir ko'tarib qo'yilgan. Uni ko'rgan har qanday odam o'sha yerda kimdir vafot etganini bilgan va motam marosimini o'tkazish uchun yordam berishgan.

O'zbek va xitoy to'ylaridagi marosim nomlarini tahlil natijalari quyidagi xulosalarni beradi: o'zbek to'ylari rang-barangdir. Bizningcha, dunyoda birorta millatda bunaqangi to'ylaning xilma-xilligini uchratish mushkul. Milliy xitoy to'ylarining qaysidir jihatlari o'zbek to'ylariga o'xshab ham ketadi. Buni quyidagi xitoylik ilmiy izlanuvchi Xu Hengning quyidagi jumlasidan bilishimiz mumkin: "Xitoy nikoh to'ylari necha ming yillik tarixga ega bo'lishiga qaramay, hali ham o'z urf-odat va udumlarini o'zida saqlab qolgandir".

Motam inson umrining oxirini nishonlash maqsadida hayotiy ehtiyoj tufayli o'tkaziladigan mungli marosimdir. Shu boisdan ushbu marosimda ijro etiluvchi folklor janrlari, marosim ishtirokchilari va ularning kiyim-boshlari – hamma-hammasi munclidir. o'zbek hamda xitoy marosimidagi atamalarga to'xtaladigan bo'lsak, ularning kelib chiqishida o'xshashlik va farqli jihatlari mavjud. Motam marosimi "yig'i" bilan namoyon bo'ladi. "Yig'i" qanday atalishidan qat'iy nazar, dunyo xalqlarining aksariyati uchun xos folklor janridir. Ushbu janr turkiy xalqlarda "sig'it", "siit sit", "joqtau", "qoshoq" kabi atamalar bilan yuritiladi. Bizningcha umum-o'zbek iste'molida "yig'i" atamasi keng tarqalgan.

## **Adabiyotlar**

1. Hayot Ismoilov. O'zbek to'ylari. Toshkent. 1992. – 183 b.
  2. Ochilov K. Sunnat to'yining xalq og'zaki ijodida ta'svirlanishiga doir. Toshkent. 2004. – 211 b.
  3. Омонтурдиев Ж, Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. Термиз. Бойсун. 1994. – 200 б.
  4. 王一前, 中国传统婚礼习俗的演变, 吉林省教育学院学报, 2015年第9期
  5. 徐柏青, 论《诗经》所反映的周代婚姻及其成婚礼俗, 武汉大学学报(哲学社会科学版), 2006年11月
  - 6.
- 毕继万, 《跨文化非语言交际》, 外语教学与研究出版社, 1998, 北京
7. 徐惠婷, 栗丹, 浅析西周婚姻制度对中国传统婚俗的影响, 浙江社会科学, 2012年第10期 .

**DASTURLASHGA OID FANLARNI O'QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

**Abdukarimov S.S. - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bosh mutaxassisi**

**Annotatsiya.** Maqolada dasturlashni oliy ta'lif muassasalari talabalariga o'qitishning zamonaviy usullari va ularning samaradorligi haqida so'z boradi. Bunda asosan dasturlashni o'qitish uch bosqichda(boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqich) amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qitish usullari, "PUZZLE" usuli, "Hand tracing" usuli, "Teamwork" usuli, "Work in pairs" usuli, ACM, dasturlash tillari.

**ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ  
ДИСЦИПЛИН ПО ПРОГРАММИРОВАНИЮ**

**Абдукаримов С.С. - главный специалист, Государственная  
инспекция по надзору за качеством образования при Кабинете Министров  
Республики Узбекистан**

**Аннотация.** В этой статье говорится о современных методах преподавания программирования и их эффективности для студентов высших учебных заведений. При этом осуществляются три уровня преподавания программирования (начальный, средний и продвинутый).

**Ключевые слова:** методы обучения, метод "PUZZLE", метод "Hand tracing", метод "Teamwork", метод "Work in pairs", ACM, языки программирования.

**INTERACTIVE METHODS OF TEACHING SUBJECTS RELATED  
TO PROGRAMMING**

**Abdukarimov S. S.- Chief Specialist, State Inspection for supervision of  
quality in education under the Cabinet of Ministers of the Republic of  
Uzbekistan**

**Annotation.** This article will talk about modern teaching methods of programming and their effectiveness for students in higher education institutions. The three levels of the teaching of programming (beginner, intermediate and advanced) will be carried out.

**Key words:** teaching methods, method of “PUZZLE”, method of “Hand tracing”, method of “Teamwork”, method of “Work in pairs”, ACM, programming languages.

Barcha kompyuter texnologiya vositalari shu vositalarni ishlashini tavsiflovchi kompyuter dasturlari tomonidan boshqariladi. Shaxsiy kompyuterimiz bo‘ladimi, televizor yoki samalyot bo‘ladimi bularning barchasida dasturlar yoki dasturlar to‘plami mujassam. Kompyuter dasturlari o‘zi bog‘langan dasturning funksiyalarini ifodalaydi va bizni ularni boshqarish usullari bilan ta’minlaydi.

Kompyuter dasturining tavsiflaridan biri tizimli dasturlash tamoyillariga asoslanadi va unda dastur, bajarilishi kerak bo‘lgan amallar to‘plami kabi ifodalanadi. “Oddiy tarzda ifodalash qiyin bo‘lgan ixtiyoriy masala kichikroq masalalar to‘plamiga bo‘linadi va bunday bo‘lish jarayoni masalalar yetaricha kichik va har bir masalani osonlik bilan tushunish mumkin bo‘lgunicha davom etadi. Dastur bu kompyuter bajarishi kerak bo‘lgan ma’lum vazifani bajarish uchun mo‘ljallangan amallar ketma-ketligidir. Dasturlash kompyuter dasturlari kodlarini loyihalash, yozish, sinovdan o‘tkazish, xatoliklarini bartaraf etish va ularni saqlash jarayonidir.

Dasturlash darslari juda ko‘p universitetlar o‘quv rejasida mavjud bo‘lib, axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi eng asosiy fanlar sirasiga kiradi. Mutaxassislar fikricha dasturlashni o‘rganish ko‘plab o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradi va ularning ko‘pchiligi dasturlash tushunchalarini anglash qiyin deb hisoblaydi. Buning isboti sifatida o‘quvchilar orasida dasturlashni tashlab yuborish va boshlang‘ich dasturlash kurslarida yiqilishlar darajasi yuqoriligini ko‘rish mumkin.

Dasturlash keltirib chiqargan qiyinchiliklarni inobatga olgan holda, samarali o‘qitish usulini topish va uni amalgalash oshirish o‘quvchilar darslarni mukammal o‘rganishida asos bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Ushbu maqolada mavjud bo‘lgan dasturlashni o‘qitish uslublari va ularni amalda qo‘llashdagi natijalar haqida so‘z boradi.

Quyida mavjud bo‘lgan dasturlashni o‘qitish uslublari haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan.

O‘quvchilarni bilim darajasini 3 turga bo‘lib olamiz:

- Boshlang‘ich daraja
- O‘rta daraja
- Yuqori daraja

Boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar uchun “Puzzle” usulini tavsiya qilishimiz mumkin:

- 1) O‘quvchilar xatoga yo‘l qo‘yadigan qismlarni o‘z ichiga olgan dastur yoziladi
- 2) Dasturni quyidagi qoidalarga rioya qilgan holda qismlarga bo‘linadi:

- bitta so‘zni bo‘lish mumkin emas
  - bo‘lingan qismlar yagona yo‘l bilan birlashtirilishi mumkin bo‘lsin
- 3) Qismlar aralashtirib yuboriladi

Shuningdek bu darajadagi o‘quvchilarga “Hand tracing” usulini qo‘llash mumkin. Bu usulda dastur tuzamiz va uni qadam ba qadam ishini o‘rganib, jadvalga natijalarni yozib boramiz.

Misol sifatida quyidagi dasturni keltirishimiz mumkin:


```
#include<iostream>
int main(){
    int a, b;
    std::cout << "Ikkita butun son kriting:";
    std::cin >> a >> b;
    std::cout << a << " va " << b << " sonlarining EKUBi ";
    while (a != b){
        if (a > b) a = a - b
        else b = b - a;
    }
    cout << a;
    return 0;
}
```

	2	6	6	
	4	6	6	
	1	1	1	
8	8	2	2	

O‘rta darajadagi o‘quvchilar uchun esa “Teamwork” va “Work in pairs” usullarini qo‘llashimiz mumkin.

RUP(Rational Unified Process)ga asoslangan “Teamwork” usuli (1-rasm) quyidagichadir:


- O‘qituvchi xaridor va loyihachi rolini o‘ynaydi, uning vazifasi biror masala tuzib, uni qismlaridagi bog‘liqliklarni tushuntirishdan iborat.
- O‘quvchilar jamoalarga bo‘linishadi va ular faqat tuzgan dasturlari orqali bir-birlari bilan bog‘lanishlari mumkin
- Har bir jamoadan bitta sardor tanlanadi. Sardorning vazifasi jamoadagi ish jarayonini boshqarishdan iborat.
-



2- rasm. “Teamwork” usulining sxemasi.

XP (eXtreme Programming) va AM (Agile Modeling) ga asoslangan “Work in pairs” usuli(2-rasm):

- O‘qituvchi xaridor rolini o‘ynaydi. Uning vazifasi masala tuzish va har qadamda o‘quvchilarga foydalanuvchi haqida ma’lumot berishdan iborat.
- O‘quvchilar juftliklarga bo‘linadi har bir juftlikni o‘z topshirig‘i bo‘ladi.
- O‘qituvchi har safar yurib chiqqanidan keyin, juftliklar o‘z dasturlarini namoyish qilishadi.
- 2- rasm. “Work in pairs” usuli sxemasi
- 



Yuqori darajadagi o‘quvchilar uchun esa, biz automata usulini taklif etamiz. Uning asosiy xususiyati dastur ishlashini tasvirlash uchun ma’lum miqdordagi holatni ifodalovchi mashinalardan foydalanishdir. Holat mashinalarini bog‘lanishini

ifodalovchi graf dasturni yaratishning barcha bosqichlarida ishlataladi (spesifikatsiya, implementatsiya, xatolarni bartaraf etish).

Dasturlash asoslarini o'qitish, o'quvchilarga dasturlashdagi asosiy muammolarni tanishtirish va ularni muhim tajribalar bilan ta'minlashga qaratilgan. O'tgan o'n yillikka qadar ko'plab universitetlar dasturlashni o'qitish uslublarini "ACM Computing Curriculum (2001)" tavsiyalariga ko'ra qurishayotgan edi. Bu o'quv rejasи dasturlashni o'qitishni matematik metodologiyasiga asoslangan bo'lib, dasturlashni matematikani bir qismi sifatida ko'riliши kerak degan fikrni olg'a suradi.

ACM tavsiyalari boshqa ko'plab uslublar bilan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, imperativ va funksional paradigmalarga asoslangan o'qitish usullari ancha avvaldan ma'lum. Shu kabi g'oyalar asosida qurilgan o'qitish tizimi o'quvchilarni dasturlash yuzasidan nazariy bilimlarini oshirsada, ko'pincha axborot texnologiyalari mutaxassisini uchun zarur bo'lgan dasturiy injinerlikka doir tushunchalarda oqsaydi.

Shuning uchun ham, dasturiy injiniring yoki boshqa axborot texnologiyalariga doir o'quv rejasini ishlab chiqadigan universitetlar, real hayotda kerak bo'ladigan va hozirgi zamon talablariga javob beradigan usullarni afzal ko'rishadi. Bunday moyillik ACM Computing Curriculum (2008) da tan olingan bo'lib, dasturlash asoslari uchun o'rganish tizimi kengaytirildi(Curricula recommendations, 2012). Bunda o'quv rejasining yarmigina algoritmni tavsifi, uni o'rganilishi va ma'lumotlar strukturasiga ajratilgan bo'lsa, ikkinchi yarmi dasturiy injiniringni turli xil muammolariga bag'ishlangan. Shu bilan bir qatorda, universitetlar o'zlarining maxsus ehtiyojlariga ko'ra o'z o'quv rejalarini yaratishlari qo'llab quvvatlandi.

Dasturlash fanlari uchun o'zgacha fikrlar o'z navbatida, boshqacha o'qitish usullari, dasturlash tillari, maxsus kutubxonalar, dastur ishlab chiqarish muhiti va boshqa ehtiyojlarni talab qiladi. Bu kabi muammolar bilan kurashayotgan ko'plab mutaxassislar fikricha, obyektga yo'naltirilgan tillar dasturiy injiniringni o'qitishni eng samarali yo'lidir, ammo ulardan dasturlashni boshlang'ich qismini tushuntirish uchun foydalanim bo'lmaydi, chunki ularni o'rganish uchun o'quvchi yetarlicha nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Aynan shu masalada hali hamon bahs yuritib kelinmoqda.


Informatikani nazariy qismini o'qitishga mo'ljallangan universitetlar o'qitish uchun mo'ljallangan va asosiy akademik ehtiyojlarni qondiradigan dasturlash tillarini ma'qul ko'rishadi: yuqori darajali, o'qishga qulay bo'lgan yozuvli, himoyalangan, keraksiz narsalarsiz, bitta dasturlash paradigmaсиga yo'nalган va boshqa dasturlash tillariga o'tishga oson bo'lgan.

Bunday tilga misol qilib Pascal dasturlash tilini aytishimiz mumkin. 1970-yilda ishlab chiqarilgan bu dasturlash tili, o'zining obyektga yo'naltirilgan varianti Object Pascal bilan birgalikda Yevropa va A.Q.SH da 20 yilgacha dasturlash

asoslarini o‘qitishdagi eng asosiy tillardan bo‘lib kelgan. So‘nggi o‘n yillikni boshida bu til Litvada keng miqyosda ishlatila boshlandi. 1986-yilda ommaga taqdim etilgan Eiffel o‘qitish usuli(Meyer, 1997) va tili hozirgacha ko‘plab universitetlarda mashhur sanaladi, shuningdek u obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini o‘qitish usullari va dasturiy injiniring tushunchalari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Eifellda keltirilgan yangi dasturlash va dastur ishlab chiqarish usullari boshqa mashhur dasturlash tillarida ham amalga oshirildi: Java, C++, C# (Meyer, 2012).

Dasturlash tillari rivojlanishiga hissa qo‘sghan yana bir narsa bu osonlik bilan o‘rganiladigan va maxsus tayyorgarliklarsiz amalda ishlatish mumkin bo‘lgan dasturlash tillaridir. Basic dasturlash tili shunday tillarning birinchilaridan hisoblanadi, keyinchalik esa bunday tillar sirasiga Visual Basic va Pythonlarni kiritish mumkin. Bu kabi tillar mashhur bo‘lsada, dastur tuzilishi uchun qat’iy ehtiyojlar yo‘qligi tufayli ularni dasturlash asoslari o‘quv rejalariga kiritib bo‘lmaydi.

O‘qitish uchun mo‘ljallangan yana bir dasturlash tillari guruhi o‘zgacha dasturlash paradigmalaridan foydalanishga qaratilgan: Smalltalk(obyektga yo‘nalgan dasturlash), Lisp(funksional dasturlash), Prolog(mantiqqa oid dasturlash) va boshqalar. O‘zgacha dasturlash tillari o‘zgacha muammolarni keltirib chiqarganligi sababli, maxsus vositalardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu kabi vositalarga misol sifatida 3- rasmdagi virtual mashinani keltirishimiz mumkin. Bunda dasturlar asosiy til yordamida boshqarilgan holda virtual mashinada ishga tushadi va amalda qo‘llaniladigan boshqa barcha dasturlash tillari o‘z sintaksislari qo‘sghan holda shu asosiy tilni kengaytmalari sifatida qaraladi. Bunday hollarda oddiy sintaksisi va ko‘plab paradigmalarga aniq javobi bo‘lgani uchun funksional yoki mantiqiy dasturlash tili asosiy dasturlash sifatida qo‘llaniladi. Bu kabi o‘qitish usullari matematik tafsilotlar yordamida Informatikaning nazariy qismi va matematika o‘quv rejalaridagi muammolarga barham bera oladi.



**3-rasm. Maxsus yoki maxsuslashtirilgan dasturlash konsepsiyanini o‘rganish muhitining tuzilmasi**

Shuni aytish joizki, bu kabi dasturlarni ishga tushirishda virtual mashinadan foydalanish usuli, Java va dotNet texnologiyalarida ham amalga oshirilgan va amalda keng qo‘llaniladi. Undagi yagona farq asosiy tilning maqsadidadir. Bu holatda virtual mashina amaliy dasturlash tillarida yozilgan buyruqlarni bajaribgina qolmay, o‘zining vositalarini ham ishlatadi. Bunday tizim nafaqat dasturlash texnologiyalarini yaratishda, balki Informatika o‘rganadigan o‘quvchilarni dasturlashga tayyorlashda samarali yo‘ldir.

Dasturiy injiniring tushunchalarini o‘qitishda kerak bo‘ladigan dasturlash tillari haqida so‘z borganda, quyidagilarga e’tibor berish lozim: multi-paradigma vositalari, statik yozish, bir nechta vorislik, metod va operatorlarni qayta-yuklash, asosiy sinflar, dasturni parallel ishga tushirish, inkapsulyatsiya va himoyalash kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim (Stephenson, 2011). Kutubxonalarni operatsion sistema yoki virtual mashina muhitiga yo‘naltirish ko‘p tilli va ko‘p platformali loyihalarni amalga oshirish mumkinligini aniqlab beradi. Shuningdek, xotirani keraksiz obyektlardan tozalash uchun samarali dastur va mexanizm(garbage collector) bo‘lishi muhimdir.

Bu maqola mavjud bo‘lgan dasturlashni o‘qitish usullari haqida, ularni foydalanishdan olingan natijalar va ulardagи bog‘liqlik haqida ma’lumot beradi. Dasturlashni o‘qitishdagi muammolar va qiyinchiliklar, o‘qitishning turli xil innovatsion usullari yaratilishiga turtki bo‘ldi. Keltirilgan usullar, o‘quvchilarni ruhiyatini ko‘tarib, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirgan holda nafaqat berilgan yo‘nalishda, balki dasturlashning boshqa sohalarida muvaffaqiyatga erishishlariga ko‘mak beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Liberty J, Rao S, Jones B: Sams teach yourself C++ in one hour a day, Sams Publishing, USA, 2009.
2. Tie H H, Umar I N: The Impact of Learning Styles and Instructional Methods on Stu-dents’ Recall and Retention in Programming Education, Proceedings of the 18th Interna-tional Conference on Computers in Education, Putrajaya, Malaysia, 2010, pp. 191-195.
3. Begimkulov U.Sh. va boshqalar. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011.–232b.
4. Mamatov D.N. Elektron axborot ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Monografiya. –T: Navro‘z, 2017.– 160-b.

## **JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARI – RAG‘BATLANTIRISH VA MUKOFOT TUSHUNCHALARI TALQINI**

**Abdullahayev D.N. - Toshkent davlat pedagogika universiteti  
doktoranti (DcS), tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rag‘batlantirish hamda uning yuqori darajasi hisoblanuvchi mukofotlash tizimining jamiyat a’zolarini farovon hayotga yo‘llash, chorlash yoki da’vat etish vositasi sifatida tutadigan o‘rni tadqiq etilgan. Mukofotlash tizimida rag‘batlantirish hamda mukofot termini tarix, sotsiologiya, psixologiya,

iqtisodiyot va falsafa yutuqlariga asoslangan ta’riflar tahlil etilgan. Shuningdek, mukofotlash tizimining maqsad va vazifalari keltirilgan bo‘lib, uning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi o‘rniga tavslif berilgan va mukofotning shakli va mazmunining tahliliga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** rag‘batlantirish, ijtimoiy o‘sish, mukofot, taqdirlash huquqi, ramz, huquqiy rag‘batlantirish, rag‘batlantiruvchi subyekt, ommaviy boshqaruv, rasmiy mukofot, taqdirlash ishi, mukofot belgisi, fahriy belgilar, geraldika, faleristika.

## **ВАЖНЕЙШИЕ ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА-ТРАКТОВКА ПОНЯТИЙ ПООЩРЕНИЯ И ВОЗНАГРАЖДЕНИЯ**

**Абдуллаев Д.Н. – докторант (DcS) Ташкентского государственного педагогического университета, доктор философии по историческим наукам (PhD)**

**Аннотация.** В данной статье исследуется роль стимулирования и системы вознаграждения, являющейся его высшим уровнем, как средства для продвижения, поощрения или поощрения членов общества к благополучной жизни. В системе поощрений проанализированы определения термина поощрение и награда, основанные на достижениях в истории, социологии, психологии, экономике и философии. В нем также излагаются цели и задачи системы поощрений,дается характеристика ее места в качестве социально-правового явления. А также анализ формы и содержания награды.

**Ключевые слова:** поощрение, социальный рост, награда, право на награждение, символ, правовое поощрение, стимулирующий субъект, публичное управление, официальная награда, наградная работа, знак отличия, отличительные знаки, геральдика, фалеристика.

## **THE MOST IMPORTANT FACTORS OF SOCIETY SOCIAL DEVELOPMENT - INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF PROMOTION AND REMUNERATION**

**Abdullaev D.N. - Doctoral student (DcS) of the Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)**

**Annotation.** This article examines the role of incentives and the reward system, which is its highest level, as a means to promote, encourage or encourage

members of society to a prosperous life. The system of incentives analyzes the definitions of the term encouragement and reward, based on achievements in history, sociology, psychology, economics and philosophy. It also sets out the goals and objectives of the incentive system, describes its place as a socio-legal phenomenon. As well as an analysis of the form and content of the award.

**Key words:** promotion, social growth, reward, right of awarding, symbol, legal promotion, incentive subject, mass management, official reward, awarding work, reward sign, honorary character, heraldic, faleristics.

Davlat hokimiyati va davlat boshqaruvida (jamoatchilik asosida) usullari orasida rag‘batlantirish muhim o‘rin egallaydi. Uni qo‘llash sohasi qanchalik keng bo‘lsa, unga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar ko‘lami ham shunchalik kattadir. Ammo shunga qaramay, rag‘batlantirish tushunchasi, mazmuni va uning ta’sir etish doirasi to‘g‘risidagi tushunchalar etarli darajada oydinlashtirilmagan yoki huquqiy jihatdan yagona yechimini topmagan. Rag‘batlantirish turli mualliflar tomonidan huquqiy tartibga solish va davlat boshqaruvi metodi sifatida, davlat ma’qullashi shakli va chorasi sifatida, moddiy va ma’naviy xususiyatdagi farovonlik sifatida, xulq atvor ramzi (stimuli) sifatida, boshqaruv jarayoni sifatida, vakolatli organlar faoliyati sifati, huquqiy institut sifatida va hatto huquq prinsipi sifatida bir qator ilmiy tadqiqatlarda asoslangan [1].

Rag‘batlantirishga xizmatlarni jamoatlichilikda tan olinishi, taqdirlash, huquqiy majburiyatlarni yoki jamoatchilik burchini bajarishdagi erishgan yutuqlari tufayli shaxsga jamoatchilik hurmatini ko‘rsatish sifatida berilgan ta’rif jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etiladi. O‘z navbatida rag‘batlantirish choralari va mukofot samarali faoliyatga yuqori bahoni ifodalaydi, o‘zida ma’naviy va moddiy jihatlarni birlashtiradi [2]. Davlat mukofotlari, uning mazmun mohiyati, tarixini tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etganligi bois ushbu sohaga tegishli bo‘lgan rag‘batlantirish hamda mukofotlar tushunchalarini teran anglab olish lozim. Bunda asosan bir qator xorijiy olimlarning fikr va qarashlarini tahlil qilib, ularga xolisona munosabat bildirib o‘tish joiz. Dastlab rag‘batlantirish masalasiga oid berilgan ta’riflarni ko‘rib chiqar ekanmiz, A.A.Grishkovets, N.T.Mixaylenko, V.M.Baranova kabi olimlar fikriga ko‘ra turlicha ta’riflarni keltirishimiz mumkin.

Masalan, A.A.Grishkovets fikricha, davlat xizmatchisini rag‘batlantirish – bu me’yoriy mustahkamlangan yoki uning shaxsiy xizmatlarini jamoatchilik tomonidan tan olinishi shakli bo‘lib, vakolatli davlat organi yoki uning mansabdor shaxsining etarli asoslarining mavjudligida o‘rnatalgan shaklda huquqiy aktni rasmiylashtirish yoki rag‘batlantiriladigan davlat xizmatchisiga moddiy va ma’naviy imtiyozlar keltiruvchi boshqa choralarni ko‘rish orqali qo‘llaniladigan chora anglanadi [3].

N.T.Mixaylenko fikricha, nafaqat mehnatdagi erishilgan yutuqlarni muayyan tarzda ta'kidlash, balki xizmatchilarning qobiliyatlari va ijodiy faolliklarini kelgusi rivojlanishini rag'batlantirish maqsadiga ega bo'lgan, mehnat majburiyatlariga namunali va tirishqoq munosabatni davlat, uning organlari yoki mansabdor shaxslari nomidan mehnat muvaffaqiyatlarini va samarali ishni jamoatchilik tan olishi, taqdirlashning sodda shaklini qo'llash asosida ularga rasmiy hurmat ko'rsatish muhimligi qayd etiladi [4].

V.M.Baranovaning fikricha, rag'batlantirish – shaxs irodasini jamoa, jamiyat va davlat manfaatlari uchun foydali hatti-harakatga bo'ysindirmaydigan, balki yo'naltiradigan stimul yo'lidir [5].

Shuningdek, mukofot va rag'batlantirish tushunchalarini farqlaganda, rag'batlantirish – bu huquqiy qo'llab-quvvatlashning turlaridan biri sifatida ko'proq qo'llanilib, u huquq sohasida uchta xususiyat bilan ifodalanadi:

1) rag'batlantirish faqat rag'batlantiriladigan ishni amalga oshirgandan so'ng qo'llaniladi va odatiy qo'llab-quvvatlash sifatida yoki bo'lajak xizmatlari uchun o'ziga xos "avans" sifatida oldindan amalga oshirilmaydi;

2) rag'batlantirish o'zida rag'batlantiriladigan shaxsning rag'batlantiruvchi subyekt tomonidan ijobiy (ma'qullash) bahosini ifodalaydi;

3) o'z mohiyatiga ko'ra rag'batlantirish rag'batlantiriladigan shaxsga odatiy holatdan oshiq rag'batni taqdim etadi, ya'ni rag'batlantiriluvchi ega bo'lмаган va uning holatini odatiy holatga nisbatan yaxshilovchi hodisa sifatida uning hayotiga yangilik bag'ishlaydi.

Rag'batlantirish taqdirlangan shaxsni va keyingi shaxslarni ham ijtimoiy foydali faoliyatga undovchi hususiyatiga ko'ra rag'batlantirishning sanab o'tilgan belgilarining pirovard natijasi hisoblanadi, chunki ma'qullah va qo'shimcha rag'bat olish istagi insonning tabiatiga va tunganmas ehtiyojlariga mos keladi. Shuning uchun har qanday taqdirlash – bu nafaqat insonni ish ijodiy faoliyatidagi erishilgan natijalari uchun bildirilgan hurmat-e'tibor, balki xizmatchilarning ijodiy tashabbusi va qobiliyatlarining kelgusi yutuqlari uchun rag'bat hisoblanadi [6]. Rag'batlantirish o'tmishga hamda kelajakka yo'naltirilgan, shuning uchun ham bir vaqtida ikki maqsadni ko'zlaydi: 1) taqdirlanadigan shaxsning kelgusi ijtimoiy foydali xulqini rag'batlantirish; 2) rag'batlantiriluvchi shaxsni amalga oshirgan ijtimoiy foydali ishi uchun taqdirlash [7].

Rag'batlantirish turlaridan biri bo'lgan mukofot o'zining ijtimoiy-huquqiy ahamiyatiga ko'ra alohida tavsifga ega. Afsuski, rag'batlantirish sifatida mukofotning mohiyatiga fanlararo tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratilmagan, faqatgina mukofotlarning alohida turlari o'rganilgan, xolos. Mukofotlarga oid nazariy ma'lumotlar, fikrlar kam. Lekin, shunga qaramay bir qator tadqiqotlarda rag'batlantirish hamda mukofotlash tushunchalariga qisqacha to'xtalib o'tilgan

bo‘lib, ular sotsiologiya va tarix yo‘nalishlarida (Yevropa va Rossiya ilm-fanida) ko‘zga tashlanadi. Masalan, A.V.Malko, I.A.Tarxanov va A.V.Kayshev o‘z tadqiqotlarida mukofot va rag‘batlantirishni tenglashtirganlar [8].

A.P.Alexin ham filologik nuqtayi nazardan rag‘batlantirish va taqdirlash tushunchalari o‘zaro bir-biriga mos tushishini ta’kidlagan, shuningdek, taqdirlashni rag‘batlantirish sifatida qarab, uning qator maxsus-huquqiy xususiyatlarini ta’kidlagan: u muayyan ramzlarda, belgilarda, ordenlarda va h.k. ifodalanishini; undan mahrum etish mumkinligi, ammo asoslar bo‘yicha va qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda amalga oshirilishini; taqdirlashni qo‘llash bo‘yicha asoslar, tartib, organlar (mansabdor shaxslar)ning vakolatlari maxsus me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan to‘liq tartibga solinganligini qayd etib o‘tadi [9].

I.V.Panova ham mukofotlarning ma’lum xususiyatini ta’kidlab, o‘zgacha fikrni bildirgan. U avval taqdirlash rag‘batlantirishning turlaridan biri hisoblanganligini ta’kidlagan. Ammo agar rag‘batlantirish – bu moddiy shaklda ifodalangan (pul mukofoti) davlat xizmatchisining jamoatchilik tomonidan uning xizmatlari – faol mehnatini tan olinishining e’tirofli chorasi, taqdirlash esa ko‘proq ma’naviy xususiyatga ega ekanligini bildirib o‘tadi [10]. Ammo bugungi kunda eng keng tarqalgan ma’naviy rag‘batlantirish yo‘li – bu kishiga jamoat o‘rtasida og‘zaki minnatdorchilik bildirish orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlash o‘rinli.

N.A.Vinogradov mukofot va rag‘batlantirish o‘z mazmuniga ko‘ra farqli deb hisoblagan. Uning fikricha, rag‘batlantirish ostida fuqaroni kelgusi takomillashishga undash maqsadida faoliyatini ma’qullah tushuniladi. Mukofot - bu ham ma’qullah bo‘lib, mukofot asosida inson o‘z bilimlari, tajribasini yanada takomillashtirishi va o‘z faoliyatida yanada yaxshi natijalarga erishishi uchun unga ma’naviy ta’sir etishga intilish yotadi. Ammo mukofot – bu ma’qullahning oliy darajasi, u mukofotlanganga faleristik hujjatlar, o‘ziga xos tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgan faxriy belgilar yoki pul mukofotlarini berishni ko‘zda tutadi. Rag‘batlantirish va mukofotlarni qo‘llash boshqalarini ham mukofotlanganlar kabi shunday ishslash va xizmat qilishga undashini ta’kidlaydi [11].

Ye.V.Tipikina mukofotlarni huquqiy rag‘batlantirish orasidan ularning ahamiyatliligi belgisi bo‘yicha ajratgan, u mukofotlarni boshqa qo‘srimcha rag‘bat sifatida farqlagan. Bunda mukofotlar doirasi muallif tomonidan turi, belgilari orqali emas, balki quyidagilarni sanab o‘tish orqali belgilangan: davlat mukofotlari, idoraviy mukofotlar, xususiy mukofotlar, tijorat va notijorat tashkilotlarining mukofotlari [12]. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan anglash mumkinki, mukofotlar hamda ularning boshqa rag‘batlantirishlardan farqlari to‘g‘risida umumiylasavvur hosil qilish qiyin. Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda ham yagona talqin kuzatilmaydi. Hatto “Mukofotlar nazariyasi” kitobining muallifi Ieremiya Bentam ham mukofotni aniq ifodalamagan. Uning fikricha, mukofot haqiqiy yoki taxmin

qilingan xizmat uchun taqdim etiladigan rag‘batning ma’lum ulushi va mukofot tushunchasi farovonlik hisoblangan muayyan amalni ko‘zda tutadi [13].

P.Pokrovskiy I.Bentamning fikrini qo‘llab, bunda mukofot to‘g‘risida ta’kidlab, faqat jamiyat a’zolarini foydali amallarni amalga oshirishga yo‘naltiruvchi maqsadni ko‘zlaydigan taqdirlash turini nazarda tutadi [14].

O.V.Levinning nuqtayi nazaridan, mukofotlar – bu huquqiy rag‘bat, taqdirlashning katta ijtimoiy obro‘ga ega bo‘lgan, subyektiv jarayonda taqdim etiladigan pul shakli bilan cheklanmagan alohida turi sifatida talqin etiladi [15].

A.V.Malkoning fikricha, «mukofot» tushunchasi juda keng mazmunga ega bo‘lib, u ixtiyoriy, moddiy, ma’naviy yoki boshqa jamoat qiymatiga ega bo‘lgan ijtimoiy ramzdir [16].

O.M.Kiseleva esa mukofotlarga keng ifodalangan tavsif bergan. Uningcha:

1) mukofot insoniyat jamiyatni rivojlanishini uning yuzaga kelishi davridan hozirgi vaqtgacha mavjud bo‘lgan ijtimoiy hodisani ifodalaydi;

2) mukofot sifatida tarixiy belgilangan jamiyatda uning taraqqiyotining ma’lum davridagi ma’naviy, moddiy va boshqa qimmatga ega bo‘lgan barchasi xizmat qiladi;

3) mukofotlar alohida shaxsning hamda ijtimoiy guruhning kuchini ishga soluvchi ijtimoiy ahamiyatli hatti-harakatni ifodalaydi;

4) davlat mukofotlari ma’lum jamiyat va davlat, uning siyosati va mafkurasi uchun dolzarb bo‘lgan iroda, his-tuyg‘ular va tasavvurlarni aks ettiradi;

5) ixtiyoriy mukofotlash tizimining asosini fundamental hisoblangan, shaxs, jamiyat va davlatning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlovchi jamiyat-davlat mazmuni va qadriyatlariga murojaat etuvchi mukofotlarni hosil qiladi;

6) taqdirlash shaxsning qadri va qimmatini mustahkamlashga yordam beruvchi, u erishgan xulq darajasini va davlat tomonidan tan olinishini qayd etuvchi, kelgusi ijtimoiy o‘sish imkoniyatlarini ochuvchi fuqarolik-huquqiy hujjatni ifodalaydi;

7) mukofotni qabul qilish mukofotlanganning hukumatga sodiqlikni va uning ifodalagan xizmatlarining qonuniyligini namoyon etadi [17]. Yuqorida ifodalangan mukofotlarning aniq ta’riflari va uzun tavsiflari, bizningcha, mukofotlarni boshqa rag‘batlantirishlardan ajratishda aniqlik kiritmaydi. Bunday tavsiflarning ko‘pchilik qismi ixtiyoriy rag‘batlantirishga, ba’zan esa boshqa huquqiy rag‘batlarga va hatto shunchaki davlat (jamoatchilik) boshqaruvidagi vazifalardan biriga kiritilishi mumkin.

Shunday ekan, bir qancha ma’lumotlar rag‘batlantirish va mukofotlash o‘rtasidagi farqlashni anglashga imkon yaratadi:

Birinchidan, rag‘batlantirishning barcha umumiyligi belgilari shubhasiz mukofotlarga xos bo‘lsada, mukofotlar haqiqatda rag‘batlantirishning alohida turi

sifatida xizmat qiladi. Boshqa rag‘batlantirishlardan mukofotni qo‘llash asosi ajratib turadi. Mukofot bilan taqdirlanadigan xizmat alohida ahamiyatli xizmat sifatida toifalanadi, bunda ahamiyatlilik mukofotlanadigan shaxs va ijtimoiy guruhga (mukofot ta’sischisi) nisbatan qo‘llaniladi. Mukofotlangan shaxsning jamiyatdagi maqomi yuqori darajalanadi.

Ikkinchidan, bu mukofotning kamyobligi hisoblanadi. Mukofotni qo‘llash darajasiga etadigan munosib xulq ko‘p sodir bo‘lmasligidek, mukofotlar ham shunchalik kamdan-kam uchraydi. Mukofotlarning kamyobligi ikki ya’ni shaxsiy va ijtimoiy jihatga bog‘liq. Shaxsiy ma’noda mukofotlar odatiy xulq qatorida keskin ajraladigan yagona bir ish (jasurlik, qat’iyatlilik ko‘rsatish va h.k.) yoki uzoq muddatli ijtimoiy foydali faoliyat hisoblangan ahamiyatli yutuqlarga ijtimoiy javob sifatida xizmat qiladi. Inson qahramonlik amallarini har kuni ham amalga oshirmaydi, kundalik hayot esa faqatgina o‘z davomiyligi, halloligi, mukammalligi va samaradorligi tufayli ijtimoiy ahamiyatga aylanadi. Ijtimoiy jihatdan esa mukofotlar mukofot ta’sischisi va institutsiyasi uchun printsipial bo‘lgan xizmatlar e’tiborliligi sababli kamyob hisoblanadi. Shuning uchun mukofotlarni “savatlab” tarqatmaydilar. Ijtimoiy guruh a’zolarining soni va ijtimoiy guruh mavjudligining davomiyligiga ko‘ra mukofotlash miqdori nisbatan kam.

Uchinchidan, Mukofotlar, boshqa taqdirlashlarga zid ravishda mukofotlangan shaxsning farqli belgilari hisoblanadi va mos ijtimoiy guruhga nisbatan uning alohida mavqeini belgilaydi. Mazmun jihatidan, mukofotga egalik kasbiy o‘sish, daromad oshishi, mulkni orttirish, ijtimoiy foydalarga osonroq yoki kengroq imkoniyatlarga ega bo‘lish sharti bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni mukofotlanganning ijtimoiy taqsimot tizimidagi o‘rniga ta’sir ko‘rsatadi. Rasmiy nuqtayi nazardan, mukofot olish shaxsning ijtimoiy-me’yoriy aloqalar tizimidagi holatini o‘zgartiradi.

To‘rtinchidan, Mukofot alohida mukofot-obyekti ko‘rinishida muayyan ko‘rinishga ega bo‘lishi kerak, u mukofotlanuvchi shaxsga obyektiv shaklda xabar qilinadi. Bu shakl-obyekt mukofotga nominativ funktsiyani bajarishiga imkon beradi, mukofotlanganni ijtimoiy muhitda tan olinishi uchun xizmat qiladi, uning ijtimoiy guruhda tan olingan ijtimoiy-huquqiy mavqeい va xizmatlarini ko‘rsatadi. Shuning uchun kundalik hayotda mukofot ostida odatda mukofotlangan shaxsga taalluqli mos tashqi farqlilik, uning ifodalangan farqli belgisi, ya’ni taqdirlangan shaxsga xabar (taqdim ) qilingan mukofot ramzlari (nishon va orden yulduzi, medalъ, faxriy yorliq va h.k.) tushuniladi.

Beshinchidan, Mukofotning ifodaliligi va tashqi ifodasi unga shakl berib, mukofotlash amaliyotida aks etadi. Mukofot bilan taqdirlash tartibga solingen jarayonni, qat’iy belgilangan bosqichlar va amallar ketma-ketligini ifodalaydi. Mukofotni taqdim etish (xabar qilish) tantanalik va oshkorlik bilan farqlanadi.

Mukofotlash ishining butun shakli marosim ko‘rinishini olishga, ijtimoiy faollikni shakllantirish va ijtimoiy guruh tuzilmasi va dinamikasini qayd etishga yo‘naltirilgan.

Oltinchidan, Mukofotning rasmiy xususiyati mukofotning ijtimoiy etiket tizimi bilan bevosita aloqadorligini belgilaydi. Mukofotlar ularning egalarining ijtimoiy tizimdagи o‘rnini, ularning davlat va jamiyat oldidagi xizmatlarini ko‘rsatadi.

Yettinchidan, Mukofotni mukofot-obyekt shaklida obyekтивlashtirish muayyan mazmun va ramzlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Ramziylik – bu mukofotning yana bir xususiyatidir. Zamnaviy fanda davlat hukumatining ramzları (belgilari) ro‘yxatini kengaytirish tendensiyasi kuzatiladi. An’anaviy davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasidan tashqari, bir qator faleristik belgilari va nishonlari, qator boshqa ramzlarini o‘z ichiga kiritadi. Ayrim tadqiqotchilar taqdirlash tizimini davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasi bilan bir qatorga qo‘yadilar yoki mukofotlarni davlat ramzlariga kiritadilar. Lekin bizningcha, mukofotlash tizimi ramzlarni o‘rganuvchi “geraldika” fanidan o‘zining mazmun-mohiyati, tadqiqot ko‘lami jihatidan keng farqlanadi. Shuning uchun, bu sohani alohida yordamchi tarix fani “faleristika” doirasida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Sakkizinchidan, olim Spinoza ta’kidlaganidek: “Yaxshi ish uchun mukofotlar erkin shaxslarga emas, balki qullarga belgilanadi” [18]. Aynan shu sababli mukofotdan bosh tortish mazmunni rad etish, hokimiyatni qabul qilmaslik, ijtimoiy guruhdan chiqish yoki unga kirishdan voz kechishni anglatadi. Mukofotlarning atributiv xususiyati mazkur boshqaruv subyekti hokimiyatiga boshqa institutsiyalarga mukofotlarni ta’sis etish va qo‘llash vakolatlari berish mumkin emasligiga olib keladi, aks holda hokimiyatning begonalashishi sodir bo‘ladi.

To‘qqizinchidan, Mukofotlar yordamida belgilanadigan ijtimoiy turlarning tizimliliği, ularning tabaqlanishiga va natijada o‘rinlarga ajratilishiga olib keladi. Mukofotlar ma’lum iyrarxiyani hosil qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan “mukofot” atamasiga quyidagi umumiylar ta’riflardan birini keltirishimiz mumkin. Mukofot – bu shaxsning ahamiyatli xizmatlari uchun muayyan ijtimoiy guruhda belgilangan va qo‘llaniladigan mavjud ijtimoiy munosabatlar va axloq tizimidagi mavqeyini o‘zgartiruvchi, mukofotlangan shaxsning biografiyasini ifodalaydigan va ijtimoiy guruh uchun ahamiyatli bo‘lgan hamda uning boshqaruv subyektini ifodalaydigan ramziy huquqiy rag‘batlantirishning eng oliy darajasidir.

## **Adabiyotlar**

1. Киселева О.М. Поощрение как метод правового регулирования: Дисс. канд. юрид. наук. – Саратов, 2000. С. 68–69; Онан Э.С. Принцип поощрения в советском социалистическом праве: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Москва, 1954; Петров Г.М. Поощрения в государственном управлении.

Правовые аспекты. – Ярославль: Изд-во ЯГУ, 1993. С. 3–4; Типикина Е.В. Заслуга как основание для правового поощрения: Дисс. канд. юрид. наук. – Саратов, 2008. С. 15–16.

2. Баранов В.М. Правовые формы поощрения в развитом социалистическом обществе: сущность, назначение, эффективность. – Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 1975. С. 22; Бахрах Д.Н. Поощрение в деятельности публичной администрации // Журнал российского права. 2006. № 7. С. 70–71; Коренев А.П. Применение норм советского административного права: Дисс. д-ра юрид. наук. – Л., 1971. С. 50; Молодцов В.М. Поощрение за успехи в труде. – Москва: Юрид. лит., 1977. С. 3–5.

3. Гришковец А.А. Поощрение государственных служащих: правовые основы и практика применения // Право и политика. 2002. № 1. С. 32.

4. Михайленко Н.Т. Правовые проблемы дисциплины труда в СССР: теоретические аспекты. – Фрунзе: Мектеп, 1972. С. 353.

5. Баранов В.М. Правовые формы поощрения в развитом социалистическом обществе: сущность, назначение эффективность. – Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 1975. С. 4.

6. Бару М.И. Охрана трудовой чести по советскому законодательству. – Москва: Юрид. лит., 1966. С. 56–57; Каринский С.С. Правовые вопросы, связанные с установлением и применением наград и поощрений за отличный труд // Правоведение. 1961. № 3. С. 77; Михайленко Н.Т. Правовые проблемы дисциплины труда в СССР: теоретические аспекты. Фрунзе: Мектеп, 1972. С. 352.

7. Дуэль В.М. Государственные награды в российском праве: проблемы теории и практики: Дисс. канд. юрид. наук. – Москва, 2005. С. 31.

8. Кайшев А.В. Уголовно-правовое значение компромиссов и поощрений: Дисс. канд. юрид. наук. – Ижевск, 2005. С. 35; Малько А.В. Правовые льготы и поощрения: понятие, признаки, функции // Вопросы теории государства и права: Межвузовский сборник научных трудов. Вып. 1 (10). – Саратов, 1998. С. 60–61; Тарханов И.А. Поощрение позитивного поведения и его реализация в уголовном праве (вопросы теории, нормотворчества и правоприменения): Дисс. д-ра юрид. наук. – Казань, 2002. С. 21–22.

9. Алехин А.П., Кармолицкий А.А. Административное право России. – Москва: Издательство «Зерцало», 2006. С. 203–204.

10. Панова И.В. Административно-процессуальное право России. – Москва: Норма, 2008. С. 110–111.

11. Виноградов Н.А. Советское военно-административное право. Ч. 2. – Москва: РИО ВЮА, 1951. С. 113.

12. Типикина Е.В. Заслуга как основание для правового поощрения: Дисс. канд. юрид. наук. – Саратов, 2008. С. 52–53.

13. Сорокин П. Преступление и кара, подвиг и награда. Социологический этюд об основных формах общественного поведения и морали / Вступ. ст., сост. и примеч. В.В. Сапова. – Санкт-Петербург: Изд-во РХГИ, 1999. С. 93, 410.
14. Покровский П. Бентам и его время. – Петроград.: Тип. А.Э. Коллинс, 1916. С. 449.
15. Левин О.В. Государственные награды в Российской Федерации: значение и проблемы правового регулирования // Проблемы юридической науки: современное состояние и перспективы развития: Сборник научных трудов. – Саранск: Ковылк. тип., 2007. С. 36.
16. Малько А.В. Правовое стимулирование: проблемы теории и практики // Правоведение. 1994. № 3. С. 10–22.
17. Киселева О.М. Наградная политика // Правовая политика России: теория и практика. – Москва: ТК «Велби»; Изд-во «Проспект», 2006. С. 585.
18. Спиноза Б. Политический трактат. – Москва: Изд. Н.Н. Клочкова, 1910. С. 140.

**YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA  
TARBIYALASH ISHLARINI TASHKILLASHTIRISHDA  
FOYDALANILADIGAN ASOSIY MANBALAR**

**Ruxsatov A.Q. - Toshkent davlat pedagogika universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi, texnika fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muaommalarini to‘g‘risida fikr yuritilib, tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda foydalaniladigan asosiy manbalar ko‘rsatib o‘tilgan va yoshlar tarbiyasida hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan odob-axloq yo‘nalishiga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar tarbiyasi, konsepsiya, tarixiy an’ana, madaniyat, urfodatlar, Vatan, harbiy-vatanparvarlik, insonparvarlik, e’tiqod, qadriyatlar

**ОСНОВНЫЕ ИСТОЧНИКИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В  
ОРГАНИЗАЦИИ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ  
МОЛОДЕЖИ**

**Рухсатов А. К. - Ташкентский государственный педагогический университет, преподаватель военного факультета, кандидат технических наук**

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы воспитания молодежи в духе военного патриотизма, основные источники, используемые при организации воспитательной работы, и акцентируется внимание на нравственном направлении, которое никогда не теряет своего значения в воспитании молодежи.

**Ключевые слова:** воспитание молодежи, концепция, историческая традиция, культура, обычаи, Родина, военно-патриотизм, человечность, вера, ценности.

## **MAIN SOURCES USED IN THE ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH**

**Ruxsatov A.Q. - Tashkent State Pedagogical University  
teacher of military education, candidate of technical sciences**

**Annotation.** The article examines the problems of educating young people in the spirit of military patriotism, the main sources used in organizing educational work, and focuses on the moral direction, which never loses its importance in the education of young people.

**Key words:** Youth education, concept, historical tradition, culture, customs, motherland, military-patriotism, humanity, faith, values

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi kishilik jamiyatining har bir davrida dolzarb muammolardan bo‘lib kelgan. Ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning har bir davrida yoshlar tarbiyasi har xil shakl va mazmunga ega bo‘lgani bilan barcha davrlarda yoshlar bir maqsadda odob-axloqli, ilmli va hunarli bo‘lishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun tarbiyalangan.

“Axloq–odob mustahkam zaminda vujudga keladi, yuksaladi. Mustahkam zamin bu – donishmand bobo momolarning ko‘p ming yillik axloqiy-ruhiy, hayotiy tajribalari, ma’rifatli ota-onalarning maqbul tarbiyasi, munavvar fikrli ustozlarning ilm-u hikmatga boy ta’lim-o‘gitlari, zakovat xazinasi bo‘lmish aziz-u fozillarning ulkan ma’naviy ibrati,adolat va yurtparvar yo‘lboshchi, rahbarlarning samimiyo yo‘l-yo‘riqlari hamda saxovatpesha zotlarning ko‘rsatgan xolis yordamidir. Bunday sog‘lom muhitda voyaga yetgan yosh avlodning, turgan gapki, odobi go‘zal, bilimi chuqur, tafakkuri yuksak, mushohadasi keng, mas’uliyatni teran his etadigan, muhim, jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan komil inson bo‘lib shakllanadi. Ota-onaning ilk vazifasi surriyotlariga Vatanini sevish va uning qadriga yetishga o‘rgatishdan iborat”[4, 71 bet].

O‘zbekiston Respublikasini qurolli tajovuzdan himoya qilish mamlakat fuqarolarining konstitutsiyaviy majburiyati sanaladi [1, 9 bet]. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ona Vatanni himoya qilish fuqarolarning burchi ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston fuqarosi uchun majburiyat va burch tushunchalarini ushbu qonuniy hujjatlarda keltirilishidan maqsad va vazifalarini tushunib olsak.

Har bir fuqaroni aslida kuch bilan Vatanni himoya qilishga majburlab bo‘lmaydi. “Majburiyati sanaladi”, deyilganda insoniylik tushunchasidan kelib chiqilgan va o‘z hayot turmush tarzida har bir fuqaro uchun tug‘ilib o‘sgan joyi, ota-onasi, yaqinlari va xalqi uchun bajarishi lozim bo‘lgan yaxshiliklar inobatga olingan. Masalan, “Qobusnoma”da farzand parvarish qilmoq zikrida, Kaykovus o‘z farzandiga: “Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il. Agar sen xoh unga adab o‘rgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur. Undoq-kim debdurlar, ota – ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur”, deb maslahat bergen [2, 106 bet].

Demak, ota-onasi, Vatan o‘z farzandini tarbiyalamas ekan o‘zgalar uni tarbiyalaydi. O‘zgalar deganda kimlarni tushunamiz? Birinchi navbatda internet orqali kelayotgan axloq-odobimizga to‘g‘ri kelmaydigan tarbiya. Ma’lumki, internet veb-sahifasiga joylashtirilgan ma’lumot katta tezlik va qisqa vaqtida dunyo bo‘ylab tarqalmoqda. Ayrim shaxs va davlatlar bundan g‘oyaviy quroq tariqasida foydalanmoqda. Yaqin o‘tmishda biror davlatni zabt etish uchun quroq, tank va shu kabi vositalardan foydalaniilgan bo‘lsa, hozir bunday qurollarning ahamiyati pasayib bormoqda. Hozir biror xalqni yoki mamlakatni tobe qilish uchun, o‘sha mamlakat yoshlarini ongini zabt etish kifoya [5, 4 bet].

Ayniqsa, internet orqali turli diniy ekstremistik oqimlar yoshlarimizning diniy bilimi o‘ta sayozligidan foydalanib mafkuramizga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalarni singdirishga harakat qilishmoqda. Ommaviy axborat vositalari va internet veb-sahifalari orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi g‘oyalarning oldini olish va yoshlarimizni vatanparvar qilib tarbiyalash maqsadida davlatimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda.

“Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ahamiyatga molik qarorlardan biridir. Konsepsiya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari assosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikasiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu

boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi [6].

Konsepsiyada: "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'iy nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitusion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir", - deb belgilangan. Yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usi shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya muassasalarini, mahalla va tashkilotlar tomonidan muayyan tadbirlar bajarilishi lozim. Hozirgi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari ikki yo'nalishda, ya'ni chaqiruvga qadar bo'lgan fuqaro yoshlar yo'nalishi hamda armiyada xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchi yoshlar yo'nalishida o'tkazilmoqda.

Demak, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini rejalahtirishda davlatimiz qarorlari va ular bilan ko'rsatilgan talablariga riosa qilgan holda tadbirlarni belgilaymiz. Har bir tadbirni o'tkazilishi yoshlar qalbida Vatanga sadoqat tuyg'usi shakllanishga qaratilgan bo'lishi lozim. Vatanga sadoqat tuyg'usini sadoqat bilan xizmat qilayotgan hayotiy tajribalarga ega faxriylarimiz, hikmatga boy ta'lim-o'gitlari, zakovat xazinasi bo'lmish aziz-u fozillarning ulkan ma'naviy ibratlari bilan tarbiyalaymiz. Hikmat va ibratga boy tariximiz, ajdodlarimiz bor. Bugungi ta'lim tizimimizning asosiy maqsadi dunyo hamjamiyati uchun raqobatbardosh barkamol insonni tarbiyalash bo'lib, buning uchun tariximiz va ajdodlarimizdan o'rnak olishimiz kerak. Amir Temur bobomiz o'z tuzuklarida: "Har neki desam, unga o'zim amal qildim. Hech kimga g'azab bilan qattiq muomalada bo'lmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taolonning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb. Odam Atodan to Hotamgacha va undan to hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlarini va turush-turmushlarini donolardan so'rab-surushtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turush-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, yaxshi sifatlaridan o'rnak olib, ularga amal qildim", deb nasihat beradi [3, 76 bet].

## **Adabiyotlar**

1. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari"-“O'zbekiston” nashriyoti, Toshkent-1996
2. Kaykovus “Qobusnoma”, - “O'qituvchi” nashriyoti, Toshkent-2017
3. “Temur tuzuklari” B. Abdusalimov va boshqa., mas'ul muharir A.Axmedov -Toshkent: “O'zbekiston”, 2012. -184-b.

4. O. Maxmudov “Farzandnoma” , G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, Toshkent-2015.
5. Muhammad Amin Yahyo. “Internetdagi tahdidlardan himoya” –Toshkent: Movarounnahr, 2016. -408-b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldaggi 140-sun qaroriga 1-ILOVA. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi
7. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 - y. 25 - yanvar №-19 - son

## **TO‘G‘RI BURCHAKLI SFERIK UCHBURCHAK MASALALARINI MS EXCEL DASTURI YORDAMIDA YECHISH**

**Egamov M.X. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti**  
**Xudoyqulov J.X. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti assistenti**

**Annotatsiya.** Texnika oliy ta’lim muassasalarining geodeziya kartografiya va kadastr ta’lim yo‘nalishida tahlil olayotgan talabalarida sferik trigonometriyaga oid masalalarini yechishda MS Excel dasturidan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli to‘g‘ri burchakli sferik uchburchaklarini MS Excel dasturi yordamida geodeziya kartografiya va kadastr ta’lim yo‘nalishi mutaxasislik masalalarini yechish keltirilgan.

**Kirish so‘zlar:** geometrik figura, tomon, burchak, tomon kosinus, tomon sinusi, burchak kosinus, burchak sinusi, MS Excel.

## **РЕШЕНИЕ ЗАДАЧ НА ПРЯМОУГОЛЬНЫЙ СФЕРИЧЕСКИЙ ТРЕУГОЛЬНИК С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММЫ MS EXCEL**

**Эгамов М.Х. - доцент Каршинского инженерно-экономического  
института**  
**Худойкулов J.X. Ассистент Каршинского инженерно-  
экономического института**

**Аннотация.** Неоценимо значение использования программы MS Excel для решения задач сферической тригонометрии у студентов технических высших учебных заведений, обучающихся по направлениям геодезическая картография и кадастр. Таким образом, прямоугольные сферические

треугольники представлены для решения специальных задач геодезической картографии и кадастрового образования с помощью программы MS Excel.

**Ключевые слова:** геометрическая фигура, сторона, угол, косинус стороны, синус стороны, косинус угла, синус угла, MS Excel.

## **SOLVING RECTANGULAR SPHERICAL TRIANGLE PROBLEMS WITH MS EXCEL PROGRAM**

**Egamov M.H. - Associate Professor of Karshi Engineering and  
Economics Institute**

**Khudoykulov J.X. - Assistant of the Karshi Institute of Engineering and  
Economics**

**Annotation.** The importance of using MS Excel in solving problems related to spherical trigonometry in students majoring in geodesy, cartography and cadastre of technical higher education institutions is invaluable. Therefore, the solution of problems of specialization in the field of geodetic cartography and cadastre education using MS Excel software for right-angled spherical triangles.

**Key words:** geometric figure, side, angle, side cosine, side sine, angle cosine, angle sine, MS Excel.

Jahonda jamiyat subyektlarining hudud va tabiiy osmon jismlarini qo'shgan holdagi kosmik fazo bilan bog'liq geodeziya va kartografiya sohasiga bo'lgan ehtiyojlarini ortib borishi natijasida soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish, o'quv jarayonida talabalarni mantiqiy, fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda ATK va MS Excel dasturi imkoniyatlardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Sferik trigonometriya fanidagi to'g'ri burchakli sferik uchburchaklar mavzusini MS Excel dasturi yordamida mutaxassislik masalalarini yechishni yoritish maqsadida dastlab nazariy qismini keltiramiz. To'g'ri burchakli sferik uchburchaklarni yechish uchun quyidagi oltita turlicha hollar mavjud. 1) gipotenuza va katet; 2) ikkita katet; 3) gipotenuza va unga yopishgan burchak; 4) katet va unga yopishgan burchak; 5) ikkita burchak; 6) katet va unga qarshi burchak. Quyidagilar berilgan bo'lishi mumkin, qolgan elementlarni topish talab etiladi

$$\left. \begin{array}{l} \cos a = \cos b \cos c \\ \cos a = ctg B ctg C \\ \cos B = \sin C \cos b \\ \cos C = \sin B \cos c \\ \sin b = \sin a \sin B \end{array} \right\} \left. \begin{array}{l} \sin c = \sin a \sin C \\ \cos C = ctg a \sin b \\ \sin b = ctg C \sin c \\ \cos B = ctg a \sin C \\ \sin c = ctg B \sin b \end{array} \right\} \quad (1)$$

To‘g‘ri burchakli sferik uchburchaklarni yechish uchun (1) formulalardan foydalanish tavsiya etiladi. Sferik trigonometriya faniga oid masalani yechishda

MS Excel dasturidan foydalanish etarli aniqlikdagi yechimni olish imkoniyatini beradi.

**1-hol.** Uchburchakni  $a$  gipotenuza va  $b$  kateti berilgan. Ikkinchi katet  $c$ ,  $C$  va  $B$  burchaklari topilsin.

$$\text{Yechish: } \cos c = \frac{\cos a}{\cos b}, \quad \sin B = \frac{\sin b}{\sin a}, \quad \cos C = \operatorname{tg} b / \operatorname{tg} a$$

**1-Misol.** To‘g‘ri burchakli sferik uchburchakda gipotenuza  $a=60^0$  va katet  $b=30^0$  berilgan  $C$  va  $B$  burchaklar va  $c$  katet topilsin.

$$\text{Yechish. } \cos c = \frac{\cos a}{\cos b} = \frac{1}{2} \frac{2}{\sqrt{3}} = 0,57735, \quad c = \arccos(0,57735) = 0,9553,$$

$$c = 180^0 \cdot \frac{0,9553}{\pi} = 54,735^0; \quad \sin B = \frac{\sin b}{\sin a} = \frac{1}{2} \frac{2}{\sqrt{3}} = 0,57735,$$

$$B = \arcsin(0,57735) = 0,6155; \quad B = 180^0 \cdot \frac{0,6155}{\pi} = 35,264^0,$$

$$\cos C = \frac{\operatorname{tg} b}{\operatorname{tg} a} = \frac{\sqrt{3}}{3\sqrt{3}} = 0,3333, \quad C = \arccos(0,3333) = 1,231 \quad C = 180^0 \cdot \frac{1,231}{\pi} = 70,529^0.$$

Ushbu misolni MS Excel dasturi orqali hisoblasak.

	A1				f <sub>x</sub>	гипотенуза ва катет			
1	гипотенуза ва катет								
2									
3	град	мин	сек	каср кўри	радиан	cos	sin	tg	
4	гипотенуза	60	0	0	60	1,0472	0,5	0,86603	1,73205
5	катет b	30	0	0	30	0,5236	0,86603	0,5	0,57735
6	элемент						керақли формула		
7	cos(c)=	0,57735					cos(c)=cos(a)/cos(b)		
8	c=	0,95532		54,7356	дес.град	54°44'8"			
9	sin(B)=	0,57735					sin(B)=sin(b)/sin(a)		
10	(B)=	0,61548		35,2644	дес.град	35°15'52"			
11	cosC=	0,33333					cos(C)=tg(b)/tg(a)		
12	C=	1,23096		70,5288	дес.град	70°31'44"			

E4=B4+C4/60+D4/3600; F4=RADIANSI(E4); G4=COS(F4); H4=SIN(F4); I4=TAN(F4); E5=B5+C5/60+D5/3600; F5=RADIANSI(E5); G5=COS(F5); H5=SIN(F5); I5=TAN(F5); B7=G4/G5; B8=ACOS(B7); D8=GRADUSI(B8);

F8=SELOE(D8)&"°"&SELOE((D8-  
SELOE(D8))\*60)&"""&OKRUGL(60\*((D8-  
SELOE(D8))\*60));0)&"""; B9=H5/H4; B10=ASIN(B9); D10=GRADUSI(B10);  
F10=SELOE(D10)&"°"&SELOE((D10-  
SELOE(D10))\*60)&"""&OKRUGL(60\*((D10-SELOE(D10))\*60-SELOE((D10-  
SELOE(D10))\*60));0)&"""; B11=I5/I4; B12=ACOS(B11); D12=GRADUSI(B12);  
F12=SELOE(D12)&"°"&SELOE((D12- SELOE(D12))\*60)&"""&OKRUGL  
(60\*((D12-SELOE(D12))\*60-SELOE((D12-SELOE(D12))\*60));0)&"""; [1];

**2-hol.** Ikkita  $b$  va  $c$  katetlar berilgan. Gipotenuza  $a$  ni hamda B va C burchaklar topilsin.

**Yechish:**  $\cos a = \cos b \cdot \cos c, \quad \operatorname{tg}B = \frac{\operatorname{tg}b}{\sin c}, \quad \operatorname{tg}C = \frac{\operatorname{tg}c}{\sin b}$

**2-masala.** Agar to‘g‘ri burchakli sferik uchburchakning A burchagi  $90^0$  ga teng bo‘lsa va  $c = 57^007'37''$   $b = 24^027'21''$  qiymatlari berilganda  $a = ?$ ,  $B = ?$ ,  $C = ?$  qiymati topilsin.

Иккита катет								
A	B	C	D	E	F	G	H	I
1								
2 Иккита катет								
3	град	мин	сек	ўнли каср	радиан	cos	sin	tg
4 катет b	24	27	21	24,4558	0,42683	0,91028	0,41399	0,4548
5 катет с	56	7	37	56,1269	0,9796	0,55735	0,83027	1,48967
6 элемент						керақли формула		
7 $\cos(a) = 0,50735$						$\cos(a) = \cos(b)\cos(c)$		
8 $a = 1,03869$ рад		59,5126	дес.град	59°30'45"				
9 $\operatorname{tg}(B) = 0,54777$						$\operatorname{tg}(B) = \operatorname{tg}(b)/\sin(c)$		
10 $(B) = 0,50113$ рад		208,712	дес.град	208°42'45"				
11 $\operatorname{tg}(C) = 3,59831$						$\operatorname{tg}(C) = \operatorname{tg}(c)/\sin(b)$		
12 $C = 1,29973$ рад		254,469	дес.град	254°28'8"				

**3-hol.** Gipotenuza  $a$  va unga yopishgan C burchak berilgan. Katetlar va B burchak topilsin.

**Yechish:**  $\operatorname{tg}b = \operatorname{tg}a \cdot \cos C, \quad \sin c = \sin a \cdot \sin C, \quad \operatorname{tg}B = \frac{1}{\cos a \cdot \operatorname{tg}C}$

**3.masala.** Agar to‘g‘ri burchakli sferik uchburchakning A burchagi  $90^0$  ga teng bo‘lsa va  $C = 40^024'45''$   $a = 30^014'45''$  qiymatlari berilganda  $b = ?$ ,  $B = ?$ ,  $c = ?$  qiymati topilsin.

	A1	$f_{\text{sc}}$	гипотенуза ва ёпишган бурчак							
	A	B	C	D	E	F	G	H	I	
1	гипотенуза ва ёпишган бурчак									
2										
3	град	мин	сек	каср кўри	радиан	cos	sin	tg		
4	гипотенуза а	30	14	32	30,2422	0,52783	0,8639	0,50366	0,583	
5	ёпишган бурчак С	40	24	45	40,4125	0,70533	0,7614	0,64829	0,85144	
6	элемент						керакли формула			
7	$\sin(c) =$	0,32651					$\sin(c) = \sin(a) * \sin(C)$			
8	c =	1,23818		70,9427	дес.град	70°56'34"				
9	$\operatorname{tg}(B) =$	0,98558					$\operatorname{tg}(B) = 1 / \cos(b) * \operatorname{tg}(C)$			
10	B =	1,40074		80,2568	дес.град	80°15'24"				
11	$\operatorname{tg}(b) =$	0,4439					$\operatorname{tg}(b) = \operatorname{tg}(a) * \cos(C)$			
12	b =	1,11086		63,6473	дес.град	63°38'50"				

**4-hol.** b katet va unga yopishgan C burchak berilgan. c katet, gipotenuza va B burchak topilsin.

**Yechish:**  $tga = tgb / \cos C$ ,  $tgc = \sin b \cdot \operatorname{tg} C$ ,  $\cos B = \cos b \cdot \sin C$

**4.masala.** Agar to‘g‘ri burchakli sferik uchburchakning A burchagi  $90^0$  ga teng bo‘lsa va  $C = 54^056'45''$   $b = 25^045'32''$  qiymatlari berilganda  $a = ?$ ,  $B = ?$ ,  $c = ?$  qiymati topilsin.

	A1	$f_{\text{sc}}$	катет ва ёпишган бурчак							
	A	B	C	D	E	F	G	H	I	
1	катет ва ёпишган бурчак									
2										
3	град	мин	сек	каср кўри	радиан	cos	sin	tg		
4	катет b	25	45	32	25,7589	0,44958	0,90063	0,43458	0,48253	
5	ёпишган	54	56	45	54,9458	0,95899	0,57435	0,81861	1,42528	
6	элемент						керакли формула			
7	$\operatorname{tg}(a) =$	0,84014					$\operatorname{tg}(a) = \operatorname{tg}(b) / \cos(C)$			
8	a =	0,57326		32,8453	дес.град	32°50'43"				
9	$\operatorname{tg}(B) =$	0,73726					$\cos(B) = \cos(b) * \sin(C)$			
10	B =	0,82901		47,4989	дес.град	47°29'56"				
11	$\operatorname{tg}(c) =$	0,6194					$\operatorname{tg}(c) = \sin(b) * \operatorname{tg}(C)$			
12	c =	0,90281		51,7273	дес.град	51°43'38"				

**5-hol.** B va C burchaklar berilgan. Katetlar va gipotenuza topilsin.

**Yechish :**  $\cos a = \frac{1}{\operatorname{tg}B \cdot \operatorname{tg}C}$ ,  $\cos b = \frac{\cos B}{\sin C}$ ,  $\cos c = \cos C / \sin B$  formulalar

orqali topiladi.

**5.masala.** Agar to‘g‘ri burchakli sferik uchburchakning A burchagi  $90^0$  ga teng bo‘lsa va  $C = 67^014'32''$   $B = 40^024'45''$  qiymatlari berilganda  $a = ?$ ,  $b = ?$ ,  $c = ?$  qiymati topilsin.

	A1		f <sub>x</sub>	В ва С бурчаклар					
1	A	B	C	D	E	F	G	H	I
2									
3		град	мин	сек	каср күри	радиан	cos	sin	tg
4	В бурчак	67	14	32	67,2422	1,1736	0,38684	0,92215	2,38382
5	С бурча	40	24	45	40,4125	0,70533	0,7614	0,64829	0,85144
6	элемент						көрекли формула		
7	sin(c)=	0,82568					cos(c)=cos(B)/sin(C)		
8	c=	0,59939		34,3428	дес.град	34°20'34"			
9	cos(b)=	0,59671					cos(b)=cos(B)/sin(C)		
10	b=	0,63939		36,6343	дес.град	36°38'4"			
11	cos(a)=	0,35718					cos(a)=1/tg(B)tg(C)		
12	a=	1,20555		69,0732	дес.град	69°4'23"			

**6-hol.**  $b$  катет ва унга қарама қарши  $B$  бурчак берилган.  $C$  катет,  $a$  гипотенуза ва  $c$  бурчак тописин.

$$\text{Yechish : } \sin a = \frac{\sin b}{\sin B}, \quad \sin c = \frac{\sin b}{\sin B}, \quad \sin C = \frac{\cos B}{\cos b}$$

**6.masala.** Agar тоғ'ри бурчакли сферик учбурчакning A бурчаги  $90^0$  ga teng bo'lsa va  $C = 40^0 51' 49''$   $b = 30^0 24' 32''$  qiymatlari berilganda  $a = ?$ ,  $B = ?$ ,  $c = ?$  qiymati тописин.

	A12		f <sub>x</sub>	c=					
1	A	B	C	D	E	F	G	H	I
2									
3		град	мин	сек	каср күри	радиан	cos	sin	tg
4	катет $b$	30	24	32	30,4089	0,53074	0,86244	0,50617	0,58691
5	ёпишган	40	51	49	40,8636	0,7132	0,75627	0,65426	0,86512
6	элемент						көрекли формула		
7	tg(a)=	0,77605					tg(a)=tg(b)/cos(C)		
8	a=	0,68241		39,0994	дес.град	39°5'58"			
9	tg(B)=	0,56426					cos(B)=cos(b)*sin(C)		
10	B=	0,59953		34,3507	дес.град	34°21'3"			
11	tg(c)=	0,43789					tg(c)=sin(b)*tg(C)		
12	c=	1,11754		64,0304	дес.град	64°1'50"			

Texnika oliy ta'lif muassasalarining geodeziya kartografiya va kadastr ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning sferik trigonometriyaga oid masalalarni

yechishda MS Excel va Maple [2]. dasturlaridan foydalanish o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti geodeziya kartografiya va kadastr ta’lim yo‘nalishi talabalarining 100 nafari tajriba sinovi ishlarida ishtirok etdi. To‘g‘ri burchakli sferik uchburchaklar mavzusini MS Excel dasturi yordamida masalalarni yechish bo‘yicha tajriba sinov ishlarini olib bordik. Tajriba-sinov ishlarining ishonchli ekanligini aniqlash maqsadida  $\chi^2$  mezoni asosida ish olib borildi.

$\chi^2$  – mezonini natijalari tanlangan nazorat va tajriba guruhi talabalarida 4 ta baholash turlari asosida olib borilgani uchun  $C=4$  ga teng. Unda,  $p=0,05$  deb olsak,  $K=C-1=3$  ga teng bo‘lib  $\chi^2$  jadvali asosida olingan  $T_{kp}=7,81$  ga teng.

$$T_{\text{kyzamye}} = \frac{1}{n_1 \cdot n_2} \sum_{i=1}^4 \frac{(n_1 Q_{2i} - n_2 Q_{1i})^2}{Q_{1i} + Q_{2i}} \quad (1)$$

tajriba-sinov ishlarining ishonchli ekanligini aniqlash maqsadida  $\chi^2$  mezoni asosida ish olib borildi..

$H_0$  -gipoteza deb to‘g‘ri burchakli sferik uchburchaklar mavzusiga oid masalalarni an’anaviy usulda yechish va MS Excel dasturi yordamida yechishda nazorat va tajriba guruhlar talabalarini masalalar yechish ko‘nikmalarida sezilarli farq yo‘q.

$H_1$  -gipoteza deb to‘g‘ri burchakli sferik uchburchaklar mavzusiga oid masalalarni an’anaviy usulda yechish va MS Excel dasturi yordamida yechishda nazorat va tajriba guruhlarini masalalar yechish ko‘nikmalarida sezilarli farq bor.

$H_0 : T_{kp} \geq T_{\text{kyzamye}}$  gipoteza (yuz beradi) to‘g‘ri deb topiladi, unga muqobil (alternativ)  $H_1 : T_{kp} < T_{\text{kyzamye}}$  gipoteza (yuz beradi) to‘g‘ri deb topiladi.

$$T = \frac{1}{50 \cdot 50} \left( \frac{(50(13-3))^2}{16} + \frac{(50(17-15))^2}{32} + \frac{(50(18-28))^2}{46} + \frac{(50(2-4))^2}{6} \right) = \\ = 6,25 + 0,125 + 2,173 + 0,66 = 9,2$$

bundan,  $H_1 : T_{kp} = 7,81 < 9,2 = T_{\text{kyzamye}}$  gipoteza (yuz berdi) qabul qilindi.

Bu holatda ham  $N_0$  gipoteza rad etildi. Muqobil bo‘lgan  $N_1$  gipoteza, ya’ni  $T_{\text{kyzamye}} > T_{kp}$  qabul qilindi va To‘g‘ri burchakli sferik uchburchaklar mavzusini MS Excel dasturi yordamida o‘qitish usulining ishonchliligi tekshirildi.

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti geodeziya kartografiya va kadastr ta’lim yo‘nalishi talabalarining o‘zlashtirish natijalari**

Tanlanmalar	86-100	71-85	55-70	55 dan kam	Talabalar soni
Tajriba guruhi	$Q_{11}=13$	$Q_{12}=17$	$Q_{13}=18$	$Q_{14}=2$	$n_1=50$
Nazorat guruhi	$Q_{21}=3$	$Q_{22}=15$	$Q_{23}=28$	$Q_{24}=4$	$n_2=50$
	$Q_{11}+Q_{21}=16$	$Q_{12}+Q_{22}=32$	$Q_{13}+Q_{23}=46$	$Q_{14}+Q_{24}=6$	$n_1+n_2=100$

**Tanlangan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlilining umumiy natijasi**

	<b>Tajriba guruhi</b> <b><math>N_T=50</math></b>				<b>Nazorat guruhi</b> <b><math>N_H=50</math></b>			
<b>Ball qiymati</b>	<b>6-100</b>	<b>1-85</b>	<b>5-70</b>	<b>5 dan kam</b>	<b>6-100</b>	<b>1-85</b>	<b>5-70</b>	<b>5 dan kam</b>
<b>Mos ballar soni</b>	3	7	8			5	8	4
<b>Ballarning o‘rtarifmetik qiymati</b>	$X^*_T=3,82$				$X^*_N=3,34$			
<b>Samaradorlik koeffitsienti</b>	$\eta=X^*_T/X^*_N=1,14$							

Shunday qilib, tadqiqotda tavsiya etilgan o‘qitish metodikaning odatdagi an’anaviy o‘qitish metodikasiga nisbatan samarali ekanligi (samaradorlik 12 foizni tashkil etganligi) isbotlandi. Tajriba natijalarini matematik-statistik usul yordamida tahlil etilish natijasida ilgari surilgan ilmiy farazning to‘g‘ri ekanligi isbotlandi.

### **Adabiyotlar**

1. Egamov M.X. Texnika oliy ta’lim muassasalarida sferik trigonometriya fanini o‘qitish metodikasi.: Ped.fan.fals.d-ri. ... dis. – Samarqand .CamDU. 2020. – 144 b.

2. Kholmurodovich E. M. USING MAPLE MODULES IN SOLVING TASKS WITH BASIC FORMULAS OF SPHERICAL TRIANGLES //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 11.

3. Мордовцев С. М., Колосов А. И., Якунин А. В. Конспект лекций по курсу «Сферическая геометрия и тригонометрия»(для студентов всех форм обучения направления подготовки 6.080101–Геодезия, картография, землеустройство).

4. Б.А.Волинский. Сферическая тригонометрия. Москва, 1977.

5. М.К.Вентсел. Сферическая тригонометрия. Москва, 1948.

6. Аликулов Т.А., Эгамов М.Х. Сферик тригонометрия. Ўқув қўлланма. – Қарши, 2019. – 100 б.

## **LIRIK VA DRAMATIK TURGA OID ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING O‘ZBEK VA QIRG‘IZ MAKTAB DARSLIKLARIDAGI TADQIQI**

**Ubaydullayeva M.A. – Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va qirg‘iz maktab darsliklaridagi lirik va dramatik turga oid adabiyotshunoslik terminlari qiyoslanib tahlil qilingan. Epos va drama inson faoliyatini, uning xatti-harakatlarini, atrofdagilarga munosabatini, jamiyatdagi voqealarni atrofdagilarga bog‘lab tasvirlaydi. Lirikada esa bu narsalar inson ruhiyatida sodir bo‘ladi. Undagi lirik qahramon voqelikdagi o‘zgarishlarni o‘zining tuyg‘ulari, hissiyotlari orqali qabul qiladi. Inson va voqelik o‘rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar, munosabatlar epos, drama va lirikada qay tarzda nomoyon bo‘lishi ushbu maqolada aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** tur, lirika, epos, drama, qo‘sish, she’r, tragediya, g‘azal, qasida, komediya

## **ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИРИКО-ДРАМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ ЛИТЕРАТУРЫ В УЗБЕКСКИХ И КЫРГЫЗСКИХ ШКОЛЬНЫХ УЧЕБНИКАХ**

**Убайдуллаева М.А. - преподаватель Самарканского  
государственного университета**

**Аннотация.** В статье сравниваются и анализируются лирические и драматические литературные термины в школьных учебниках узбекского и

киргызского языков. Эпосы и драмы изображают человеческую деятельность, ее поведение, отношение к другим и событиям в обществе. В лирике это происходит в человеческой психике. Лирический главный герой воспринимает изменения в действительности через свои чувства и эмоции. В этой статье обсуждаются противоречия и отношения между человеком и действительностью в эпосах, драмах и лирике.

**Ключевые слова:** гастроли, лирика, эпос, драма, песня, стихотворение, трагедия, стихотворение, комедия.

## **RESEARCH OF LYRICAL AND DRAMATIC TERMS OF LITERATURE IN UZBEK AND KYRGYZ SCHOOL TEXTBOOKS**

**Ubaydullayeva M.A. - Teacher of Samarkand State University**

**Annotation.** This article compares the lyrical and dramatic literary terms in Uzbek and Kyrgyz school textbooks. Epics and dramas depict human activity, its behavior, attitudes to others, and events in society. In lyrics, these things happen in the human psyche. The lyrical protagonist perceives the changes in reality through his feelings and emotions. This article discusses the contradictions and relationships between man and reality in epics, dramas and lyrics.

**Key words:** tour, lyrics, epic, drama, song, poem, tragedy, poem, poem, comedy.

Badiiy adabiyotning muhim turlaridan biri lirika bo‘lib, u inson ruhiyati, ichki kechinmalarining o‘ziga xos badiiy ifodasi bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Epos va drama inson faoliyatini, uning xatti-harakatlari, atrofdagilarga munosabatini, jamiyatdagi voqea-hodisalarga bog‘lab tasvirlaydi. Ko‘pincha ularda ko‘tarilgan masalalar jamiyat muammolari bilan qorishib ketadi va yirik ijtimoiy masala sifatida ko‘pchilik e’tiboriga havola qilinadi. Lirkada esa bu narsalar inson ruhiyatida sodir bo‘ladi. Undagi lirik qahramon voqelikdagi o‘zgarishlarni o‘zining tuyg‘ulari, hissiyotlari orqali qabul qiladi. Ana shu ta’sir esa o‘z navbatida insonning nafaqat ruhiyatida, balki nutqida ham o‘z aksini topadi. U o‘z tuyg‘ulariga tayangan holda tildagi mavjud so‘zlarni tanlaydi, fikrlarining ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Bunda she’riy usul qo‘l keladi. Insonning kechinmalar hayotdagi o‘zaro zid munosabatda turuvchi yaxshilik va yomonlik degan tushunchalar atrofiga yig‘ilgan xususiyatlarga bog‘liq holda kechadi. Inson va voqelik o‘rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar epos va dramada ochiq holda namoyon bo‘ladi. Dramatik asarlarda voqealar sahna orqali omma e’tiboriga havola qilinadi. Epik tur janrlari orqali ko‘pchilik undan xabardor bo‘ladi. Lirkada esa bularning barchasi tuyg‘ular, kechinmalar dialektikasi orqali

ko'rsatib beriladi. Inson kechinmalarining qay tartibda yuzaga chiqishiga qarab bir qator she'riy janrlar shakllangan va asrlar davomida takomillashib borgan. Uning «yunoncha» musiqa asbobi – lira bilan bog'liq ekanligi ham beziz emas. Sharqda qadimdan o'zbek mumtoz lirikasi g'azal, ruboiy, murabba', muxammas, musaddas, musamman, qit'a, tuyuq kabi bir qator janrlarga bo'lingan. Bu janrlarning ayrimlari bugungi kunda ham o'zbek she'riyatida qo'llanilmoqda. Xalq lirikasi sifatida tushuniluvchi mavsum-marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari ijro etilishi, mavzu ko'lamiga ko'ra barcha turkiy xalqlarda umumiy mushtaraklik hosil qiladi.

Adabiy turning yana bir ko'rinishi bo'lgan dramatik tur komediya, drama, tragediya kabi janrlarni o'z ichiga oladi. Dramaning adabiy tur sifatida boshqa turlardan farqlab, ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning sahna bilan bog'liq ekanligidir. Dramatik asarlar sahnada ijro etishga mo'ljallab yoziladi. Dramatik asarlar inson hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularda inson hayoti, uning fojiadan tortib kulgili voqealarigacha qamrab olinadi. Bu holatlar tragediya, drama, komediya janrlari vositasida ko'pchilik e'tiboriga havola qilinadi. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida lirik janrlar mazmunan uch guruhga ajraladi:

a) «estetik belgi, pafos va muayyan mazmun yo'naliishiga asoslanadigan janrlar». Ular quyidagicha: marsiya, elegiya, invektiva, bahs, hasbihol, soqiynoma, topishmoq, qasida, muammo, tarix, xat, manzara, monolog, bag'ishlov, vasiyat, vasf, nazira, debocha, faxriya;

b) «asosan musiqa janri hisoblansa-da, adabiy matnga ham suyangan janrlar: roman, kantata, marsh, qo'shiq, madhiya (gimn);

v) og'zaki va yozma lirkada qo'llanib keligan janrlar: alla, yor-yor.

2. Shakl jihatidan, bu jihat ham quyidagi uch guruhga bo'linadi:

a) shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko'ra: mustazod, aytishuv, sonet, muvashshah, mushoira, shiru shakar, qit'a, g'azal, tuyuq, ruboiy, masnaviy, fard, tarkibband, tarjiband, o'rama, shoiriy, tirada, turli bandli janr, oq she'r, sarbast;

b) misra soni va kompozitsiyaga ko'ra: musallas, murabba, muxammas, musaddas, musabba, musamman, tasni', muashshar;

v) qayta tashkil topish (transformatsiya)ga ko'ra: qit'aiy, kesishgan, taronaiy, ruboiyona [1. 211- lirika.html.]

O'zbek umumta'lim maktablari 5-sinf «Adabiyot»darsligida adabiy tur va janrlar haqida shunday fikr bildirilgan: Qay tarzda yaratilganligi va kishilik xotirasida qaysi shaklda saqlanib qolganligiga ko'ra badiiy adabiyotni ikki turga ajratishadi: og'zaki va yozma adabiyot. Og'zaki adabiyot qadimi, yozma adabiyot esa undan keyinroq paydo bo'lgan. Siz yozuvning og'zaki nutqdan keyin paydo bo'lganini bilasiz. Og'zaki adabiyot yoki xalq og'zaki ijodi namunalarining dastlab kim tomonidan yaratilganligi ma'lum bo'lmaydi. Bu xildagi asarlar og'izdan og'izga o'tib yetib keladi. Badiiy adabiyot ifoda xususiyatiga ko'ra lirik, epik va dramatik singari

turlarga bo‘linadi. Har bir adabiy tur esa, o‘z navbatida muayyan janrlardan tashkil topadi.

Bevosita lirik tur va janrlar bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar o‘zbek adabiyotshunosligida salmoqli o‘rin egallaydi. O‘zbek maktablari 9- sinf «Adabiyot» darsligida berilishicha, Lirika – badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan biri. Bu atama yunoncha «lira» so‘zidan olingan. Lira musiqa asbobi bo‘lib, qadimda she’rlar uning jo‘rligida aytildi. Epik va dramatik turdan farqli o‘laroq lirika voqelikni emas, balki inson ichki olamining suratlari bo‘lgan ruhiy kechinma, his-tuyg‘ularni tasvirlaydi.[2,6-7-b.]

Qирғиз макtablari 10-sinf “Adabiyot” darsligida esa bu haqda nisbatan kengroq ma’lumot berilgan: Lirika – kerken adabiyattin negizgi bir chakan turu. Turmush sharttarinin natiyjasinda payda bolgon akin-suretkerdin oy-pikiri, ichki tolgoopuulari, aga ilayik ketsul jayi, akil-sezimderi, kubanich-keyishi kebunche lirikalik chigarma arkiluu berilet. Al adabiyattin «atka jetsil, tayga chak» turu dep atalip, adatta ir turunde jazilat. Antkeni ir arkiluu adamdin kaygi-kubanichi, ani elep-jelep kilip, alip uchkan sanaa-oyloru, kuygultukke salgap ketsul-jayi daapa boyoktor menen tartilat[3].

Lirik turning eng asosiy janrlardan biri bo‘lgan qo‘sinq lug‘atlarda berilishicha, xalq ijodining qadimgi janrlardan bo‘lib, M.Koshg‘ariyning «Devon»ida “qoshug” tarzida uchraydi. Bu janr ko‘proq musiqa va ritm bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Uning qancha turlari mavjud.

Qирғиз adabiyotshunosligida qo‘sinq ir termini bilan yuritiladi. Ir – belgilýy bir irgak menen ayteluuchu, poeziyanin talabi menen tyzylgøn söz tizmekteri. Ir e兹 miyzamdarina ilayik rifmaga, ritmge, intonatsiyaga, sintaksiske ee. Irdin minday kasiyetteri, e兹гөчөлүктөрү ani kara sözden ayirmalap turat. Kirgiz tilinde ir negizinen ých maanide koldonulup, orus tilindegi «stix», «stixotvoreniye», «pesnya» degen terminderdin maanilerin tuyuntat. Irdin prozadan ayirmalanip turushu anin turuktuu ritmikalik kurulushuna, muun өлчөмүнө jana kaytalangan uykashina baylanishtuu [4,143-b]. Ir - (she’r, qo‘sinq) – alohida ritm orqali aytiluvchi, poetik talablarga monand tuzilgan so‘z birikmalari. so‘zlar uyg‘unligi. Ir o‘z qoidalariga mos rifmaga, intonatsiyaga, sintaksisiga ega. Irning bu kabi xususiyatlari uni qora so‘zdan ajratib turadi. Qирғиз tilida ir, asosan, uch ma’noda qo‘llaniladi, rus tilidagi «stix», «stixotvoreniye», «pesnya» degan atamalarni ifodalaydi. Irning prozadan farqli jihatи uning ma’lum ritmik qurilishiga, bo‘g‘in o‘lchamiga va takrorlangan qofiyasiga bog‘liq.

Lirik janrlarning dastlab qo‘sinq ko‘rinishlari sifatida yuzaga kelganligini inobatga olib xalq og‘zaki ijodida amal qiluvchi janrlarining lug‘atlarda quyidagi turlari qayd qilinadi. Marosim qo‘sinqlari. Qo‘sinqlarning ushbu sohasi xalq orasidagi marosimlar bilan bog‘liq holda bir qancha turlarga bo‘linadi. Ularning birinchisi

mavsumiy marosimlar bo'lsa, ikkinchisi ommaviy maishiy marosimlardir. Ularning har ikkalasi bilan aloqador ko'plab qo'shiqlar mavjud.

Bunday qo'shiqlar qirg'iz adabiyotshunosligida «kaada-salt irlari» deb yuritiladi.

Turkiy xalqlar turmush tarzini ko'rsatib beruvchi lirk turga mansub bo'lgan mehnat qo'shiqlariga oid terminlar o'zbek maktab darsliklarida keltirilmagan. Qirg'iz maktab darsliklarida aynan shu termin *yemgek irlari* deb nomlanadi va bu janrga oid namunalar ham berilgan. Bundan tashqari chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan «Bekbekey» iri, yilqichilikka doir «shirildats» iri, dehqonlar kuylaydigan «op mayda», urf-odat qo'shiqlaridan «kaada-salt» irlari, «beshik irlari», «akiynek» irlari, «jaramazan», «arman irlari», motamda aytildigan «koshok irlari» kabi qo'shiq turlari 6-sinf qirg'iz adabiyot darsligida berilgan. Bu kabi xalq turmush-tarzini, urf-odatlarini ifodalovchi lirk tur janrlari o'zbek xalq og'zaki ijodida ham bor. Lekin bular darsliklarda berilmagan. O'zbek adabiyotshunosligidagi dehqonchilikka doir «Xo'p mayda», «Choy momo», «Sust xotin», «Yo, Haydar» kabi qo'shiq turlari darsliklarda berilsa, bizningcha maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu bilan birga, har ikki xalqning diniy e'tiqodini ifodalovchi xususiyatlar ayrim qo'shiqlarda ham saqlanib qolgan. Masalan, o'zbekcha lug'atda aytishchicha, «Yo, Ramazon diniy-taqvimi bolalar qo'shig'i bo'lib, hayitlar arafasida bolalar tomonidan ijro etiladi»[5,24-b]. Qirg'izcha adabiyotshunoslik lug'atida esa unga «Jaramazan – orozo (musulman kalendar bo'yuncha ramazan jeramadan) ayinda, asirese, aydin ekinchi jariminda tynkysyn uymo-uy kidirip irdaluuchu eski diniy jana kaada-salt irlari. Jaramazandi ilgeri kelynche baldar, keede chondor (demeyde kedeyler) aytishkan. Jaramazan aytkandar eki-ychten bolup alip uymo-uy, aylima-ayil kidirip, uy eesinin kadir-barkin, ata-tegin, uy-byloesyn, mal-janin maktap irdashkan; aga den sooluk, baylik-bakit, karmagan orozosunun kabil bolushu siyaktuu jakshi tilekterin bildirishken. Jaramazan uchurashuu, maktoo, suroo jana bata siyaktuu belyktorden turgan [6,40 - 41].

(Ramazon qo'shig'i – ro'za (musulmon taqvimi bo'yicha ramazon) oyida, asosan, oyning ikkinchi yarmida kechasi uyma-uy qidirib kuylanuvchi, eski diniy va urf-odat qo'shig'i. Ramazon qo'shig'ini deyarli o'g'il bolalar, bazan kattalar (qashshoqlar) aytishgan. Ramozon qo'shig'ini aytish uchun ikki-uchtadan to'planishib, uyma-uy, qishloqma-qishloq yurib, uy egasining obro'-etiborini, oilasini, mol-mulkini maqtab kuylashib, ularga sihat-salomatlik, baxt, boylik, tutgan ro'zasi ijobat bo'lishi singari yaxshi tilaklarni bildirishgan. Ramazon qo'shig'i uchrashuv, maqtov, savol va fotiha singari bo'linmalardan iborat») deb ta'rif beriladi. Bu qo'shiq turi 6-sinf qirg'iz darsligida berilgan. Ammo o'zbek adabiyoti darsligida berilmagan. O'zbekcha lug'atlarda ham bu terminga bat afsil izoh keltirilmagan.

Bu kabi o‘xshash holatlarni har ikki til adabiyotshunoslik terminlari lug‘atlarida lirik va dramatik terminlarga berilgan izohlarda ham ko‘rish mumkin.

Qirg‘iz adabiyotshunoslida «qoshoq» deyilganda motam qo‘sishqlari tushuniladi: Koshok – eldik oozeki chigarmachiliktagi kaada-salt irlarinin bir tyry. Dymeneden etken adamdin jakindari — ayali, kizi, karindashi, kelini j.b. tuugantuushkandari koshoktu ezsgeche obon menen iy aralash aytishkan. Anda kaza bolgon adamdin kulk-mynəzy, ishmerdigi, adamkerchiligi, bashka asil sapattari bildirilgen, ayrim satiralik mynəzdəgə koshoktordo markumduń ters sapattari da aytilgan. Belgilyy koshokchular choq kadir-barkka ee bolushkan. Alardi atayilap aldirip, koshturushkan. Koshok Orxon-Yenisey jazuularinda, Maxmud Kashgarinin «Tyrk tilderinin tyshyndyrme sezdygynde», eldik epostordo uchurayt.

Qo‘sishiq – (marsiya, motam qo‘sishig‘i) xalq og‘zaki ijodidagi urf-odat qo‘sishqlarining bir turi. Olamdan o‘tgan kishining yaqinlari – xotini, qizi, singlisi, kelini v.b. qarindosh-urug‘lari motam qo‘sishig‘ini alohida kuya solib yig‘i aralash aytishgan. Unda marhumning fel-atvori, insoniy fazilatlari, yaxshiliklari v.b. xislatlari bayon etilgan, bazi satirik jihatga ega motam qo‘sishqlarida marhumning teskari sifatlari ham aytilgan. Taniqli qo‘sishqilar xalq-orasida katta obro‘-etiborga ega bo‘lganlar. Ularni maxsus chaqirtirib, kuylatishgan. Qo‘sishiq O‘rxun-Enasoy bitiklarida, Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘atit turk», asarida xalq dostonlarida uchraydi [7,58-b].

Lirik turga mansub bo‘lgan marsiya janrining dastlabki namunalarini M.Koshgariyning «Devoni lug‘otit turk» asarida uchratamiz. 10-sinf maktab adabiyoti darsligida «Alp Er To‘nga» marsiyasi keltirilgan.

O‘zbek va qirg‘iz lirkasida farqli jihatlar ham bor. Masalan, qirg‘iz lirkasida keng tarqalgan armon qo‘sishqlari o‘zbek lirkasida alohida janr hisoblanmaydi. Qirg‘iz adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida bu termin shunday izohlanadi: Arman – kirgiz oozeki adabiyatinda keñiri taragan lirikanin bir tyry. Anda ukuksuzduktun, erksizdiktin, tengsizdiktin natiyjasinda kelip chikkan kaarmandin kyypty, muhzari, kapaligi, naaraziligi, karshilik kөrsetyysy bildirilet. Kirgizdarda, ayrikcha kedey-kembagaldar, adam katari sanoogo arzibay kelgen kiz-kelinder uzun sabak arman irlarin jaratishkan.

Kizil-kizil kezynyn, Kerpesy elem oy-day,  
Kiz da bolsom bir yydyn, Erkesi elem oy-day.

Erkelikke koybodu, Malga satti, oyday, siyaktuu tagdirdin beykynoe korduguna duushar bolgon kiz-kelinder tarabinan «Kiz Kenjekenin armani», «Chalga bergen kizdin armani», «Nasiyaga ketken kizdin armandari» jaralgan.

(Armon qo‘sishig‘i – qirg‘iz og‘zaki adabiyotida keng tarqalgan lirikaning bir turi. Unda huquqsizlik, tengsizlikning natijasida kelip chiqqan qahramonning armoni, g‘am-qayg‘usi, xafaligi, noroziligi, qarshiligi ifodalanadi. Qirg‘izlarda

asosan, kambag‘al, odam sifatida sanashga arzimay kelgan qiz-kelinlar uzun sop armon qo‘shıqlarini yaratishgan.

Qizi-qizil ko‘zining, ko‘rpasi edim oy-day,  
Qiz bo‘lsam-da bir uyning erkasi edim oy-day.

Erkalikka qo‘ymadi, Molga sotdi oy-day. – singari taqdirning xo‘rligiga begunoh duchor bo‘lgan qiz-kelinlar tomonidan «Qiz Kenjakening armoni», «Cholga berilgan qizning armoni», «Nasiyaga ketgan qizning armoni» kabi armon qo‘shıqlari yaratilgan[8,23-b].

Lirik turga mansub bo‘lgan fard, qit’a, ruboiy, tuyuq, chiston, g‘azal kabi janrlar haqida ma’lumolar qirg‘iz darsligida uchramaydi.

O‘zbek va qirg‘iz adabiyotshunoslik lug‘atlarida tragediyaga berilgan izohlar deyarli bir-biridan farq qilmaydi.

Tragediya (yun. – echki qo‘shig‘i) – dramatik turning uchta asosiy janridan biri, janr sifatida antik davrda shakllangan bo‘lib, uning asosiy estetik belgisi tragiklikdir. Tragediya genetik jihatdan ma’bud Dionisning o‘limi va qayta tirilishii munosabati bilan ijro etilgan marosim qo‘shıqlariga borib taqaladi. Tragediyaning janr xususiyatlari tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon tushunchalari bilan belgilanadi. Tragik konflikt deganda mohiyatan yechimi yo‘q, mavjud sharoitda hal qilib bo‘lmaydigan ziddiyat tushuniladiki, u har vaqt qahramon ongida kechadi... Realizm bosqinigacha yaratilgan tragediyalarda tragik qahramon sifatida ko‘proq mifologik personajlar, shohlar, shahzodalar, malikalaru sarkardalarning olingani bejiz emas, zero, o‘zining fofia holatini idrok eta olish, qalbiyu ongida ma’naviy-ruhiy iztiroblarni kechira bilish, shunda ham ruhan sinmay maqsad tomon yurishga o‘rtamiyona odamlarning chog‘i kelmaydi. Shu sababli adabiyotimizda XX asr o‘rtalarida yaratilgan tragediyaning janr talablariga to‘la javob berishga yaroqli «Mirzo Ulug‘bek», «Jaloliddin Manguberdi» asarlaridan birining markaziga shoh, ikinchisining markaziga sarkarda chiqarilgan. Tragediyalar janr problematikasi nuqtai nazaridan turlicha: ularda ma’naviy-axloqiy («Shoh Edip», «Qirol Lir»), millatning tarixiy taqdiri («Jaloliddin Manguberdi») yoki romaniy problematika («Mirzo Ulug‘bek») badiiy talqin qilinishi mumkin. Tragediya janri faolligini yo‘qotgan, zamonaviy dramaturgiyada bu janr deyarli ishlanmaydi[9,335-b]. Qirg‘iz adabiyotshunoslida esa shunga yaqin ta’rif berilgan:

Tragediya – (gr – «echki iri» degen sozdən) dramalik chigarmannın bir tür, ayagi negizgi kaarmanidin olymy je kaygi-kapasi menen bytyychy chigarma. Týpky kelip chigishi bayırkı Gretsya iskusstvosuna baylanıştuu. Alar sharaptin kudayı delgen Dionistin urmatına echkilerdi syzyştyryp tamashalar etkeryshken, mina oshol tamashalar tragediya dep atalgan. B.z.ch. X kilimda bayırkı grekterdin tragediyalari ezyñyn gyldøe doorun bashinan etkeryyp, Esxil, Sofokl jana Yevripid ehdyy uluu söz cheberleri kaltirdi. Aristotel bolso oshol kezdegi tragediyalardin

negizgi belgilerin achip kersetty. Kayra jaraluu doorunda tragediya dyynelyk adabiyatta jañi baskichka keteryldy. Al Angliyalik uluu dramaturg Shekspirdin ismi menen baylanishat. Anin «Gamlet», «Otello», «Yuliy Sezar», «Korol Lir», «Romeo menen Julyetta» degen klassikalik tragediyalari bygynky kyngе cheyin kiziguu menen okulup, saxnalarda koyulup jyret[10,125-b].

(Tragediya – (yunoncha – echki qo’shigi) dramatik asarning bir turi, asar so’ngi bosh qahramonning o’limi yoki g’am-qayg’usi bilan yakunlanadi. Mazkur janrning paydo bo’lishi qadimgi Yunoniston san’atiga bog’liq. Ular sharob (may, ichimlik) xudosi atalgan Dionisning hurmatiga echkilarni urishtirib, tomoshalar uyushtirgan va o’sha tomoshalar tragediya deb atalgan. Bizning zamonga qadar X asrda qadimgi yunonlarning tragediyalari o’zining gullab-yashnash davrini o’tkazgan. Esxil, Sofokl va Yevripid kabi buyuk so’z ustalarini tarbiyalagan. Aristotel esa o’sha paytdagi tragediyalarning asosiy belgilarini ochib berdi. Uyg’onish davrida tragediya jahon adabiyotida yangi bosqichga ko’tarildi. U Angliyalik buyuk dramaturg Shekspirning nomi bilan bog’liq. Uning «Gamlet», «Otello», «Yuliy Sezar», «Qirol Lir», «Romeo va Julyetta» singari klassik tragediyalari bugun ham sevib mutolaa qilinib, teatrarda sahnalashtiriladi).

Qirg’iz maktablarining 10-sinf «Adabiyot» darsligida tragediyaga doir shunday izoh berilgan: Tragedyanip kaarmani yezun yelumge duushar kiluuchu turmushtun betenche aylasiz kirsiktuu kirdaaldarina, adamdin charki jetkis kiyin abaldar menen ayabay katuu karmashchu ayoosuz kureshterge ki- ripter bolot. Natiyada tragedyanip kaarmani yezunun adilettuu ak ishi uchun yelumge bashin baylayt[11]. (Tragedeyada qahramon o’zini o’limga duchor qiluvchi turmushning kutulmagan ayovsiz kurashlariga, odamning bardoshi yetmas qiyin vaziyatlar bilan juda qattiq ayovsiz kurashlarga giriftor bo’ladi. Natijada tragedyaning qahramoni o’ziningadolatli pok ishi uchun o’limga bo’ysunadi).

O’zbek maktablarida tragediya haqidagi ma'lumotlar 8-sinf «Adabiyot» darsligida berilgan. Unda tragediya shunday izohlangan: Tragediya adabiyotning dramatik tur janrlaridan biri bo’lib, uning lug’aviy ma’nosini yunoncha tragoc – echki, ode – qo’shiq; tragediya – «echki qo’shig’i» ma’nosini anglatadi. Echki qayoqda-yu, fojiali sahna asari qayoqda, deb o’ylashingiz mumkin. Aslida, yuqoridagi so’zlarning zamirida haqiqatga yaqin ma’no bor: qadim yunonlarda hosil xudosi Dionis sharafiga xalq bayramlari o’tkazilgan. Bu bayramlarda echkilar so’yilib dasturxonga tortilgan. Qiziqchilar esa echki terilarini yopinib, turli sahna tomoshalarini ko’rsatishgan. Bunday jaydari qiziqchilar tragoslar deyishgan. Keyinchalik bu so’z oqibati fojia bilan tugaydigani sahna asarlariga nisbatan qo’llanila boshlagan. Tragik asar, ya’ni tragedyaning boshqa sahna asarlari (komediya, drama, intermediya)dan farqi shundaki, u qahramonlar o’rtasidagi kuchli ziddiyatlar asosiga quriladi, qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topadi, ular o’rtasidagi ziddiyat shiddatli va keskin tus oladi.

Bu asar qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki kolliziya (qarama-qarshilik, to‘qnashuv) kuchliligi, personajlar o‘rtasidagi konfliktning o‘ta kuchli ekanligi bilan farqlanadi. Tragediya murosasiz kurash, g‘oyatda keskin ziddiyat zaminiga quriladi. Bunday asar asnosa kishilar qismati shiddatli, suronli siyosiy voqealar, turli ijtimoiy, shaxsiy qarashlar kurashi fonida ko‘rsatiladi [12,169-170].

Xulosa qolib aytganda yuqorida janrlarga berilgan izohlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, qardosh tillarning har ikkisida ham mazmunan mutanosiblik mavjud.

### **Adabiyotlar**

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot: umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –T.: Sharq, 2020.Б.6-7.
2. Темирова М.,Уринбаева Ш.,Тўйчубаева А.,Юнусалиева А. Адабият: орто билим берүүчү мекемелеринин 10 – классы үчүн окуу китеbi. – Тошкент:Чүлпон, 2017.
3. Кыргыз адабияти терминдердин түшүндүрмө сөздүгү. Мектеп окуучуларры учун. Тузүүчүлор: Шериев Ж., Муратов А. Экинчи басылышы. Кыргыз мамлекетинин 2200 жылдыгына арналды. Мамлекеттик тил жана энциклопедия борбору. –Бишкек, 2003.Б.143.
4. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ. Фолклор атамалари қисқача луғати. Ўзбек филологияси факультети талабалари учун услубий қўлланма.–Урганч, 2007 Б.24.
5. Кыргыз адабияти терминдердин түшүндүрмө сөздүгү. Мектеп окуучуларры учун. Тузүүчүлор: Шериев Ж., Муратов А. Экинчи басылышы. Кыргыз мамлекетинин 2200 жылдыгына арналды. Мамлекеттик тил жана энциклопедия борбору. –Бишкек, 2003.Б.40-41.
6. Кыргыз адабияти терминдердин түшүндүрмө сөздүгү. Мектеп окуучуларры учун. Тузүүчүлор: Шериев Ж., Муратов А.Экинчи басылышы. Кыргыз мамлекетинин 2200 жылдыгына арналды. Мамлекеттик тил жана энциклопедия борбору. –Бишкек,2003.Б.58.
7. Кыргыз адабияти терминдердин түшүндүрмө сөздүгү. Мектеп окуучуларры учун. Тузүүчүлор: Шериев Ж., Муратов А. Экинчи басылышы. Кыргыз мамлекетинин 2200 жылдыгына арналды. Мамлекеттик тил жана энциклопедия борбору. –Бишкек, 2003.Б.23
8. Quronov D. va boshq.Б.335
9. Кыргыз адабияти терминдердин түшүндүрмө сөздүгү. Мектеп окуучуларры учун. Тузүүчүлор: Шериев Ж., Муратов А.Экинчи басылышы. Кыргыз мамлекетинин 2200 жылдыгына арналды. Мамлекеттик тил жана энциклопедия борбору. –Бишкек, 2003.Б.125.

10. Temirova M., Urinbayeva Sh., Toychubayeva A., Yunusaliyeva A. Adabiyot.–T.: Cho‘lpon, 2017.
11. Sultonmurod Olim., Ahmedov Sunnat., Qo‘chqorov Sunnat., Adabiyot: umumiyl o‘rta ta’lim mакtablarining 8 – sinfi uchun.– Toshkent:G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 2019.–B.169 -170.
12. Қуронов Д. Ва бошқ.Б.138.
13. Парпиев М., Алымов Б.Адабият:IX класс учун окуу китеби.– Ташкент: Ўзбекистон, 2019.- Б.7-8.
14. Quronov D. Va boshq.
15. <http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/sheriyat/211-lirika.html>.

### **XVIII - XIX ASRLARDA BUXORO AMIRLIGINING XALQARO MUNOSABATLARDAGI O‘RNI**

**Berdiyev A.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi**

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro xonligining tashqi diplomatik va savdo aloqalari haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, Rossiya bilan savdo aloqalarining muhim jihatlari, shuningdek, rus elchilarining xonliklar haqida yozib qoldirgan esdaliklari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Buxoro xonligi, Hind elchilar, A.Jenkinson, Erketi shahri, Jung‘orlar, Cherkasskiy ekspeditsiyasi, Hirot va Isfahan, Amir Haydar, Tibet, Qoshg‘ar, Qo‘qon xonligi.

### **РОЛЬ ЭМИРАТА БУХАРЫ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ XVIII-XIX ВЕКОВ**

**Бердиев А.А. – учитель Шахрисабзский филиал Ташкентского  
государственного педагогического университета**

**Анотация.** В данной статье представлена некоторая информация о зарубежных дипломатических и торговых отношениях Бухарского ханства. В частности, выделены важные аспекты торговых отношений ханства с Россией. Также анализируются воспоминания русских послов в ханствах.

**Ключевые слова:** Бухарское ханство, индийские послы, А. Дженкинсон, город Эркети, Джунгар, Черкасская экспедиция, Герат и Исфахан, Амир Хайдар, Тибет, Кашгар, Куканскоое ханство.

## THE ROLE OF THE EMIRATE OF BUKHARA IN INTERNATIONAL RELATIONS IN THE XVIII-XIX CENTURIES

Berdiyev A.A.- Teacher of Shahrisabz branch of Tashkent State  
Pedagogical University

**Annotation.** This article provides some information on the foreign diplomatic and trade relations of the Bukhara khanate. In particular, important aspects of the khanate's trade relations with Russia are highlighted. It also analyzes the memoirs of Russian ambassadors about khanates.

**Key words:** Bukharakhanate, Indianambassadors, A. Jenkinson, Erketicity, Jungars, Cherkasskyexpedition, HeratandIsfahan, AmirHaydar, Tibet, Kashgar, Kukankhanate.

O‘zbek davlatchiligi tarixida o‘zbek xonliklaridan biri bo‘lgan Buxoro xonligi – O‘rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlariда katta iz qoldirgan davlat bo‘lib, uning har bir hukmdori yuritgan ichki va tashqi siyosat hamda uning oqibatlarini o‘rganish alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi.

Shundan kelib chiqib xonlik haqidagi ayrim ma’lumotlarni (jumladan, XVIII-XIX asrlarda O‘rta Osyoning qo‘shni Sharq davlatlari bilan aloqalarini) o‘rganishda rus manbalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tahlil qilish, savdo yo‘llarini o‘rganish uchun qilingan harakatlar, hamda qaysi mamlakatdan qanday mollar qancha miqdorda keltirilganligi haqidagi ma’lumotlar batafsil berilgan. Rus manbalarida rus elchi va elchiliklarining hisobotlari, Buxoro, Xiva va Hind elchilari hamda savdogarlarining so‘rov ma’lumotlari, shuningdek, hukmdorlar hamda xonlarning bir — birlariga tortiqlari, sovg‘alari haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Ana shu ma’lumotlar orqali O‘rta Osiyo xonliklarining Hindiston va Rossiya o‘rtasidagi savdodagi tutgan o‘rnini bilib olish mumkin. Xususan A.Jenkinson Buxoro bozorlaridagi hind savdogarlarining faoliyati haqida, ... “ular Buxoroga na oltin, na kumush, na qimmatbaho toshlar, na ziravorlar keltiradi. Men, Hindistondagi bu tovarlar ishlab chiqariladigan eksport tovarlar portugallar qo‘l ostida bo‘lganligi uchun, bu tovarlar bilan savdo okean orqali olib borilishini aniqladim”[3], deb yozgan ma’lumotlarida elchining hind savdogarlariga o‘z munosabatini bildirganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, tadqiqotchilar O‘rta Osiyo bilan Moskva o‘rtasidagi savdoning uch xil usuli borligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Jumladan:

1.“Povalnaya” deb ataluvchi oddiy savdo bo‘lib, bu savdo erkin savdogarlar orqali amalga oshirilgan.

2. Shoh va xonlarning tovarlari bilan savdo bo‘lib, bu savdo shoh va xonlarning elchilik bilan kelgan shaxsiy savdogarlari orqali amalga oshirilgan. Shoh va xonlarning tovarlaridan soliq olinmagan.

3.“Любителские поминки” deb atalib, ikki davlat shoh va xonlari o‘rtasidagi bojsiz tovar ayirboshlash hisoblangan[1:51-b].

XVIII asrda, ya’ni Petr I hukmronligi yillarida Rossiyaning O‘rta Osiyoga qiziqishi kuchayadi. O‘rta Osiyo Rossiyani Sharqning savdo — iqtisodiy markazi, Rossiyadan Hindistonga boradigan asosiy yo‘llardan biri ekanligi bilan o‘ziga jalb qilardi. 1714-yili Petr I Sibir gubernatori knyaz Gagarindan Erketi shahrida (ya’ni Yorkend) oltin qumlar borligi xususida xabar topadi. Erketi bu davrda Jung‘or xonligiga bo‘ysunganligi aytildi. Gagarin Petr I ga bu shaharni bosib olib, Yorkend yo‘lidagi Yamishev ko‘li bo‘yida qal’a qurishni tavsiya qilgan [2:27-b]. Yevgraf Kaydalov kundaliklarida ham bu haqda ma’lumotlar berilgan [3]. U Rossiya savdoni to Hindistongacha rivojlantirish maqsadida qilayotgan harakatlarini va oltin qumlarni topish uchun ekspeditsiya uyushtirishini Petr I ning buyuk jonbozligi, deb hisoblagan edi.

Petr I Gagarinning xabaridan so‘ng unga xat yozib, Yamishev ko‘li bo‘yida, iloji bo‘lsa undan ham yuqorida shahar qurish, daryoda kemalar qatnashi mumkin bo‘lgan joygacha suzib borib, so‘ng Yorkendga borib, uni egallahshi topshirgan edi. 1714-yilda Irtish daryosining yuqori oqimi bo‘ylab podpolkovnik Buxgols ekspeditsiyasi uyushtiradi.

Peterburgga kelgan Xiva elchisi ham Gagarinning ma’lumotlarini tasdiqlab, Amudaryodan ham oltin olinishini aytadi. Elchi, agarda rus davlati o‘zining odamlarini Xivaga jo‘natsa, Xiva xoni ularga oltinni topishga yordam beradi, deb ishontirgan edi. Shundan so‘ng Petr I bu xabarni muhim bilib, tezlikda ikkala joyni ham tekshirtirish uchun ekspeditsiya jo‘natgan edi. Shunday qilib, Petr I har ikkala ekspeditsiya o‘z maqsadiga erishmagan taqdirda ham, Hindiston uchun yo‘l ochilishiga va savdodan ko‘plab oltinlarni qo‘lga kiritishiga ko‘zi yetgan edi. O‘rta Osiyo Rossiya uchun Hindistonga olib boradigan vositachi davlat bo‘lib qolgan edi.

Bu kabi nuqtayi nazarni sovet adabiyotida YE.V.Bunakov, P.P.Ivanov, D.M.Lebedevlar ham qo‘llab quvvatlaydi. Ularning fikricha, Hindistonga kirib borish ruslar uchun natija bermagan taqdirda ham, O‘rta Osiyoga boradigan yo‘l ma’lum bir ma’noda nafaqat topildi, balki o‘zlashtirildi ham [4:106-b].

1717 yil Petr I Amudaryo orqali Hindistonga boradigan yo‘lni topish maqsadida Bekovich — Cherkasskiy ekspeditsiyasini O‘rta Osiyoga yuboradi. Rus podshosi ekspeditsiyaga bergen ko‘rsatmasida, “Xiva xonidan kema olib Kojina degan savdogarni Amudaryo orqali Hindistonga jo‘natish va kema borishi mumkin bo‘lgan joyga qadar suzib borish, so‘ng yo‘lni davom ettirib daryolar, ko‘llar, suv va quruqlik yo‘li, ayniqsa, suv yo‘lini yozib borish va Hindistondan shu yo‘l bilan ortga

qaytish, agarda Hindistondan Kaspiy dengiziga boradigan undan ham yaxshi yo‘lni eshitsa, o‘sha yo‘l bilan kelish va uni ham yozib borish”, topshirilgan edi [5:31-b].

XVIII asr boshlarida Buxoroda siyosiy vaziyat juda og‘ir bo‘lgan. Xon hokimiyyati nomigagina saqlanib qolgan edi. 1721—1725-yillarda O‘rtta Osiyoda bo‘lgan Florio Beneveni ekspeditsiyasi bu siyosiy holatning guvohi bo‘lgan [3]. Bu ekspeditsiya Buxoro xonining rus podshosidan elchi yuborishini so‘rab qilgan murojaatiga javoban jo‘natilgan edi [6:34-b]. Elchilikdan ko‘zlangan asosiy maqsad, 1718-yil 13-iyuldaggi “Ko‘rsatma”da Buxoro xonligining ichki ahvolini to‘la-to‘kis o‘rganish, deb belgilangan edi.

Bundan tashqari, Buxoro xonligining qo‘shni Sharq davlatlari bilan savdo munosabatlarini o‘rganish, hamda rus-buxoro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlarini topish vazifasi ham o‘rin olgan edi.

F.Beneveniham o‘z tadqiqotlarida Buxoroning Eron bilan aloqasiga doir ma’lumotlarni berar ekan, u 1722-yil ko‘p savdo karvonlari Mashhaddan Buxoroga, Hirotva Isfahonga jo‘natilganligi, lekin ularning bari turkmanlar yoki afg‘onlar tomonidan talanganligini, oqibatda Balxorqali bo‘ladigan savdo to‘xtab qolganligi, to‘rtinchi yil Kobul, Laxor va Hindiston shaharlariga karvonlar qatnamay qo‘yanligini yozadi. F.Beneveni o‘zining xizmatkori Minerni oltin va kumush konlarining joylashgan joyini topish va aniqlash maqsadida savdogar qiyofasida Balx va Badaxshonga jo‘natadi. Uning xabariga ko‘ra, u yerda ko‘proq Buxoro tovarlari sotilib, savdogarlar bu tovarlar uchun Badaxshon aholisidan tillo va kumush quymalari ko‘rinishida haq olganlar. F.Beneveni xizmatkori Minerni Balx va Badaxshon bozorlaridagi rus tovarlari hayron qoldirgan: ular nina, oyna, qaychi, munchoqlar, suvsar, qunduz, los mo‘ynalari va terisi, yashil, qizil va to‘q zangori movutlar edi. Uning yozishicha, Badaxshondan Balx orqali Mashhadga oltin va kumush ortilgan karvonlar bir yilda 2, 3 va hatto 4 marta borgan. Xurosonda bular oltin va kumush tangalarga aylantirilib, unga O‘rtta Osiyo uchun Eron mollari sotib olingan [6:65-b].

XVIII asrning birinchi yarmida Rossiyaning O‘rtta Osiyo bilan savdo aloqalari kengaya boradi. Rus savdosini O‘rtta Osiyo xonliklari tovarlari bilan yanada ko‘proq hamda keyinchalik Turkiston va Qozoq dashti ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida Orenburg shahrining qurilishi boshlab yuboriladi. N.I.Neplyuyev, P.I.Richkov va K.M.Tevkelev rahbarligida Hindiston bilan savdoni yo‘lga qo‘yish maqsadida maxsus kompaniya tashkil qilinadi [2:27-b]. Orenburg ekspeditsiyasi rahbari, mashhur rus geografi I.Kirilov Buxoroni Osiyoning savdo markazi sifatidagi ahamiyatiga yuqori baho berib, uning qo‘shni Sharq davlatlari bilan aloqalardagi rolini ta’kidlab o‘tgan edi [7:13-b].

1735-yil Kirilovning so‘roviga binoan Astraxandan Ufaga hind savdogari Maravgi Barayev taklif qilingan. Savdogar Hindistondan O‘rtta Osiyo xonliklari

orqali Astraxanga boradigan yo'l haqida ma'lumot bergen. Uning aytishicha, yaqin vaqtlargacha Eron va Buxoro orqali Rossiyaga 200 savdogar kelib savdo qilishar edi. Biroq keyingi paytlardagi Erondagi qaltis vaziyat va Buxoro yo'lida savdo karvonlarining talanishi oqibatida savdogarlar soni 80 taga qisqarib ketgan. Barayev, agarda yo'llarda xavf-xatar bo'limganda edi, Hindistondan Buxoro orqali Rossiyaga keluvchi savdogarlarning soni 600 kishiga yetgan bo'lishi mumkin edi, deb taxmin qilgan [8:138-b].

Mashhur rus geografi P.I.Richkov Buxoroning Hindiston bilan savdo aloqasida Orenburgning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. U butun Sharqiy Hindistonda yashayotgan xalqlar rus va boshqa g'arb tovarlarini faqat Orenburg va Buxoro orqaligina to'g'ridan-to'g'ri va arzon narxda bu qadar ko'p miqdorda sotib olishi mumkin, deb ta'kidlagan edi [9:69-b].

Yangi Orenburg yo'nalishining ochilishi Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdoni rivojlantirishiga, hamda to'g'ridan-to'g'ri rus-hind savdosini yo'lga qo'yishga imkon berdi. Orenburg orqali savdo karvonlari qatnay boshlaganligining birinchi o'n yillidayoq ko'zlangan maqsadga erishildi. Rossiyada diplomatik topshiriqlarni bajarib yurgan buxorolik savdogar Irnazar Maksyutov O'rta Osiyo va hind parchasi, qimmatbaho toshlar va boshqa tovarlarni Orenburgga olib borgan. Shu tovarlarni Orenburgga olib kelganligi, buxorolik va hindistonlik savdogarlarni Orenburg savdosiga tortganligi sababli rus hukumati savdogar Maksyutovni bir necha marta mukofotlagan. [10:30-b]

Shunday qilib, rus elchilarining O'rta Osyoning qo'shni davlatlar bilan diplomatik va savdo aloqalarini o'rganishdagi faoliyati, Orenburg shahrining qurilishi va undan ko'zlangan maqsad tez kunda natijasini ko'rsata boshlagan. Bu harakatlar natijasida qo'lga kiritilgan daliliy materiallar kelajakda ilmiy ishlar yozilishiga ham ijobjiy asos bo'lib xizmat qilgan. Haqiqatdan ham, sovet davrida elchilarning keltirgan ma'lumotlari jamlanib, "Hujjatlar to'plami" ko'rinishiga keltirilib nashr qilingan. Bu to'plamlar O'rta Osiyo va Hindiston savdo munosabatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyada O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi haqida ko'p ma'lumotlar to'plana boshlagan. Rus soldati F.Yefremov "Девятилетнее странствование" nomli kitobida o'zining to'qqiz yil sayohat qilib, Buxoro, Eron, Xorazm, Farg'ona, Qarshi, Tibet va Hindistonda bo'lib, Afrika janubini aylanib Angliyaga va undan Rossiyaga borganligi haqida yozadi.

Yefremov Buxoro xonligida paxta yetishtirish masalasi bilan qiziqadi. U xonlik xo'jaligining qorako'l terisi eksporti bilan bog'liq bo'lgan qo'ychilik sohasini kengroq yoritishga ahamiyat bergen. "Ma'lumki,- deb yozadi Yefremov, Buxoro qorako'l terisi eksporti orqasidan shuhrat topgan va xon xazinasiga katta daromad keltirgan" [10:32-b].

Muallif Buxoroni Osiyoning yirik savdo markazi ekanligini ta'kidlaydi. U buxoroliklarning mamlakat ichki savdosida faol qatnashishini, u yerda ko'plab savdo rastalari va karvonsaroylari mavjudligini eslatib o'tadi. Yefremovning tassurotlari Buxoro xonligi tashqi savdosining taraqqiyot darajasini belgilashga yordam beradi.

Ma'lumotlarga boy va shu bilan birga Buxoroning kelajagi haqidagi Yefremovning asari XVIII asrdagi Yevropa fani uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bizni qiziqtirgan masala bo'yicha muhim ma'lumotlar rus sayyohi va ofitseri T.S.Burnashev asarida uchraydi. U Rus hukumatining topshirig'iga ko'ra, 1794-yili Buxoroda bo'lgan edi [11]. U Buxoroda bo'lgan vaqtida u yerga savdo qilish uchun Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa yurtlardan kelgan turli millat vakillarini ko'rgan. Burnashev Buxoroda joylashgan bozorlar to'g'risida yozib qoldirgan. Agarda Yefremovning sayohati davrida Buxoroda 4 ta g'isht karvon-saroy bo'lgan bo'lsa, Burnashev davrida ularning soni 9 ta bo'lgan. Karvon-saroylar sonining ortib borishiga e'tiborni qaratsak, Buxoroning tashqi iqtisodiy aloqalarining o'sib borganligi to'g'risidagi taasurotga ega bo'lamiz.

Burnashevning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Hindiston va Erondan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eronga qorako'l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan. Burnashev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan qirqdan bir miqdorida boj solig'i olinishini eslatib o'tadi. Rus savdogarlari esa o'z mablag'idan yigirmadan bir miqdorida soliq to'lagan [12:120-b].

XIX asrda Buxoro davlatchiligi tarixi mang'itlarining navbatdagi hukmdori Amir Haydar (1800-1825) podshohligi bilan boshlandi. U o'z sulolasidan bo'lgan boshqa tojdorlarga nisbatan ko'p jihatlari bilan o'zbek milliy davlatchiligi tarixida sezilarli iz qoldirgan, mang'itlar hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga erishgan. Bu hol, ayniqsa, uning tashqi siyosatida o'z davridagi g'oyat murakkab xalqaro munosabatlarni to'g'ri ilg'ab ola bilishida yorqin namoyon bo'ldi. Amir Haydar hukmronligining dastlabki o'n yili ichida Buxoro davlati olib borgan tashqi siyosiy diplomatik munosabatlarning ayrim qirralari haqida haqqoniy va yangi ma'lumotlar beruvchi safarnomalar bugungi kunda davlatchilik tarixi masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etishga imkon tug'diradi. 1805-yilda Rossiya tashqi ishlar vazirligi boshqarmasining boshlig'i knyaz Adam Charteriyskiy ko'rsatmasiga binoan maxsus karvonda savdogar qiyofasida Orenburgdan Buxoroga rus konfidentlaridan biri Habibulla Abdulov (bundan oldin ham bir necha maxfiy topshiriq bilan bu yerga kelib ketgan) yuboriladi. U bu yerda rasman soxta pul yasashda ayblangan va Buxoroga qochib kelgan rus fuqarolari teptyar-totorlarni Rossiyaga topshirish haqida muzokaralar yuritadi, ammo aslida unga yuklatilgan asosiy vazifa Nodirshohning Buxoroda yashashi taxmin etilgan nevarasini rus imperatori panofiga olib ketish va undan Rossiyaning O'rta Sharqdagi mustamlakachilik siyosatida foydalanish bo'lgan.

Ayni vaqtda unga “buxoroliklarning Xiva va Eron bilan bo‘lgan munosabatlarining darajasi haqida xufya ma’lumotlar yig‘ish, bu ishlarga boshqa Yevropalik davlat vakillari aralashayotani yo‘qmi, degan masalani ham aniqlash” yuklatilgan edi. 1809-yilda Rossiyadan Buxoroga maxfiy suratda yana bir konfident [13:64-b] poruchik Adilnosir Subhonqulov yuboriladi. Savdo karvoni bilan kelgan bu “vakil” ham Buxoroning ichki va tashqi ahvoli haqida, uning harbiy quvvati to‘g‘risida batafsil materiallar to‘playdi va bu ma’lumotlar tartibga solinib, Orenburg gubernatori tomonidan Petzburgga jo‘natiladi. 1812-yilda Ost-Indiya kompaniyasi Peshovardan Afg‘oniston orqali Buxoroga o‘z vakili Hofiz Muhammad Fozilxon ismli kimsani elchi sifatida Amir Haydar huzuriga yo‘llaydi. O‘sha yili u Buxoroga kelib uning hukmdori qabulida bo‘ladi va amirga kompaniya rahbariyati hamda Buxoroga Kashmir orqali inglizlar yuborgan asosiy elchi – Mir Izzatulloh nomidan bitilgan nomalarni topshiradi. Hofiz Fozilxon o‘z taassurotalrini fors tilida bitilgan “Buxoro manzillari tarixi” safarnomasida bayon qilgan. Xuddi shu yili yana Ost-Indiya kompaniyasi Hofiz Fozilxonidan keyin Buxoroga o‘zlarining asosiy elchilarini safarga otlantiradi. Bu elchilikka Said Mir Izzatulloh boshchilik qiladi. Ular Kashmirdan o‘tib, sharqiy sarhadlardan Buxoro amirligi tuprog‘iga kirib keladilar. Izzatulloh Buxoro amiri bilan ko‘rishgach, bu yerdan Markaziy Osiyoning boshqa shaharlariga ham safar qiladi. U ham Fozilxon singari barcha taassurotlarini maxsus hisobot tarzida yakunlab, Ost-Indiya rahbarlariga topshiradi. Ammo Said Mir Izzatullohning safar esdaliklari Fozilxonning “Buxoro manzillari tarixi” asaridan farqli o‘laroq, oradan sal fursat o‘tgach qisqartirilgan holda avval fransuz, so‘ngra to‘la ravishda ingliz tillariga tarjima qilinib, kitob holida chop etiladi.

O‘tgan asrning dastlaki o‘n yili ichida Buxoro amirligiga kelib ketgan ana shu “sayyoohlar” ning qoldirgan safar taassurotlari mazmuni shuni ko‘rsatadiki, bu o‘zbek xonligi o‘sha yillarda nafaqat O‘rta Sharq mintaqasida, balki jahon miqqosida ko‘tarilgan muhim xalqaro muammolar bilan aloqador bo‘lgan.

Podsho Rossiyasi bosqinidan oldin O‘rta Osiyo hududidagi xonliklar, xususan, Buxoro amirligi O‘rta Osiyodagi eng boy va qudratli davlatlardan biri hisoblanar, uning davlat qurilishi hamda diplomatiyasi qo‘shti davlatlar siyosatiga yuqori darajada ta’sir o‘tkazib kelar edi. Shu bois ham ayni kunda bu davrdagi diplomatik munosabatlar, elchilik bordi-keldilariga oid nodir qo‘lyozmalarni tadqiq etish – xalqimizga o‘zining haqiqiy o‘tmishini qaytarib berish muhim vazifalarimizdan biridir.

Tariximizning o‘qilmagan sahifalariga ko‘z yuritish natijasida shunga amin bo‘lish mumkin: 1860-yilda Buxoro taxtiga Amir Muzaffarning o‘tirishi bilan amirlikning xalqaro aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Chunki xuddi shu davrda Rossiya imperiyasining Turkiston sarhadlariga tajovuz xavfi yanada ortdi. Aynan 1860-yildan boshlab Qo‘qon xonligi tasarrufidagi Oqmachit (hozirgi Qizil O‘rda),

Pishpek (Bishkek), Avliyo ota (Jambul), Turkiston shaharlarini birin-ketin bosib ola boshladi. Ana shunday keskin bir vaziyatda Amir Muzaffarxon markazlashgan Buxoro davlati hamda butun Turkiston hududini dushmanlardan saqlab qolish uchun Angliya, Fransiya, Italiya va Turkiya sultonligi kabi eng qudratli davlatlar bilan o‘zining ochiq va maxfiy dipomatik aloqalarini o‘rnatdi. Amirlik o‘z elchilari orqali Angliyaning Hindistondagi vakillari va Turkiya sultonligi, shuningdek, Fransiya hamda Italiyaga harbiy-siyosiy aloqalari o‘rnatish takliflari bitilgan diplomatik nomalarni jo‘natdi. Bu haqda tarixchi Hamid ibn Baqo Xo‘janing (O‘zFAning Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan)“Tanzil al-amsol fikrizikri bayon ul-ahvol” asarida to‘la ma’lumot beriladi. Asar muallifi amirning Qo‘qon xonligi bilan birgalikda Vatan himoyasiga otlanish maqsadida amalga oshirilgan diplomatik ustamonligi xususida shunday yozadi: “Biz va sizning o‘rtangizda do‘stlik yuqori darajada bo‘lganligi uchun hech qachon sizlarga nisbatan dushmanlki ravo ko‘rmaganmiz va ko‘rmaymiz ham. Bugun biz tomonidan yozilayotgan xat qaroriga asosan Sayxun daryosi ichki tomoni bizniki, tashqi tarafni sizning mulkingizdir...”. “Shuningdek, Amir Muzaffar ikki davlat o‘rtasida tijorat bordi-keldisini yo‘lga qo‘yish masalasini ham ko‘tardi” deydi muallif [14]. Albatta, bu harakatlar ortida harbiy texnik jihatdan kuchli salohiyatga ega g‘arb davlatlari orasidan ishonchli ham siyosiy, ham harbiy ittifoqchi topish maqsadi yotganini yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu harakatlar bilan amir Xo‘jandni o‘z himoyasiga olishga erishadi. Ma’lumki, bunga qadar Buxoro va Angliya o‘rtasida yaxshi diplomatik munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan edi. Masalan, ikki mamlakat o‘rtasidagi bir yillik savdo hajmi 170 ming funt sterlingni tashkil etar, bu aloqalar esa o‘z navbatida yildan-yilga rivojlanib borar edi. Shu sababdan ham amir Muzaffar iqtisodiy-siyosiy hamkori – Angliyaning Hindistondagi general-gubernatori ser Jon Lourensga harbiy ko‘mak so‘rab murojaat etadi. Elchi Muhammad Porsoxo‘ja orqali Kalkuttaga keladi va Buxoroning Angliyaga sodiqligini bildirib, inglizlardan harbiy ko‘mak – qurol-yarog‘, to‘plar, moliyaviy yordam va imkonni bo‘lsa qo‘shin so‘raydi. General-gubernator esa aniq javob bermay, elchini ortiga qaytarib yuboradi. Shu o‘rinda Muhammad Porsoxo‘ja to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak. U kishi Buxoroda qozikalon (bosh sudya) lavozimida xizmat qilgan Inoyatullo Xojaning o‘g‘li bo‘lib, unga amir Muzaffar davrida “Muftiy askariya” unvoni berilgan. Qonunshunoslik, tib va boshqa ilmlar bo‘yicha katta salohiyatga ega bo‘lgan elchi badiiyatda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ancha ma’noli she’rlar yozgan.

Buxoroda shuningdek, amir Abdul Ahad (1885-1910) hukmronlik qilgan yillarida tashqi diplomatik va savdo-sotiq aloqalri ham ancha rivojlantirilgan edi. Ayniqsa, ushbu davrda ko‘proq Rossiya bilan diplomatik aloqalarning amalga oshirilgnaligini manbalardan ko‘rishimiz mumkin. Buxoro hukmdorining Peterburgga qilgan safarlari hisoboti sifatida “Ro‘znomayi safari Fitirburx” nomli

ikki me'muar asar yozilgan bo'lib, asar Buxoro amiri Abdul Ahad tilidan yozilgan va uning 1892-1893-yillarda Peterburgga qilgan safari kundaligi hisoblanadi. Uni Rossiya – Buxoro munosabatlari tarixiga oid manba sifatida baholash mumkin. Ikkinchi asar “Ro‘znomayi safari chahorum... ba Fitirburx” deb nomlanib, amir Abdul Ahadning 1906-yilda Peterburgga qilgan safari tafsilotlarini o‘z ichiga oladi [15:69-b].

Xulosao‘rnida shuni ta’kidlamoq lozimki, Amirlik O‘rta Osiyo xonliklari, Xitoy, jumladan Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy aloqalarni o‘rnatgan. Buxoro amirligi ayniqsa, Xitoy, jumladan, Qoshg‘ar bilan yaqin savdo munosabatlariga kirishgan. Buxoro Koshg‘ar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo qilishdan tashqari Xitoyning O‘rta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajarganini ko‘rishimiz mumkin. Buxoro karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Koshg‘ar, Qo‘qon xonligi va Xiva xonligi, Afg‘oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar to‘plangan va bu mollar shu yerdan boshqa hududlarga tarqatilgan. Mazkur savdo aloqalarida Buxoroning tashqi savdo aloqalarida, uning qo‘shnilari Marv va Hirot aholisi alohida rol o‘ynagan. Buxorolik savdogarlar Marvga har xil rus tovarlarini olib kelganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Чулошников А. Торговля Московского государства с народами Средней Азии в XVI - XVII веках. //Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч.1. Л.: 1932. С.68; Юлдашев М.Ю. Ўша асар. С.70 - 71; Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в русско - индийских торговых связях (первая половина XVI - вторая половина XVIII в.). Ташкент. 1964. С.51.

2. Соймонов Ф.И. О торгах за Каспийское море древних, средних и новейших времен; выписано из журнала Его Превосходительства Господина Тайного Советника сенатора и ордена Святого Александра Кавалера Федора Ивановича Соймона, и из внесенных во оной дополнений Академии Наук Конференц – Секретаря, Профессора Истории и Историографа, Г.Ф.Миллера. М., 1765. С.26-27

3. Кайдалов Е. Караван-записки, во время похода в Бухарию Российского каравана, под воинским прикрытием, в 1824 и 1825

4. Лебедев Д.М. География в России XVII века: (Допетровский период). М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1949. С.106.

5. Соловьев О.Ф. Из истории русско-индийских связей. М.: Соцэкиз.1958. С.31.

6. Попов А. Сношения России с Хивою и Бухарою при Петре Великом //Записки Императорского Русского Географического общества. Кн.:1Х. СПб., 1853. С.34.65
7. Проект обер-секретаря Ивана Кирилова об удержании в русском подданстве киргиз и способах управления ими //Добросмыслов А.И. Материалы по истории России: Сборник указов и других документов, касающихся управления и устройства Оренбургского края. Т.1. Оренбург, 1900. С.13.
8. Рычков П.И. Топография Оренбургской губернии. Оренбург, 1887. С.138.
9. Матвиевский П.Е. Ўша асар. 109 б.; Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях России с Среднею Азию со времены кончины Абул-Хайр хана (1748-1765 гг.). Т.!.. Уфа, 1853.С.69-70.
10. Ефремов Ф. Девятилетнее странствование. М.: Гос изд-во геогр.лит., 1950. С. 26.,30-32 .
11. Бурнашев Т.С. Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1794 и обратно в 1795 году //Сибирский вестник. СПб., 1818. ч.П-Ш.
12. Бурнашев Т.С. Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1794 и обратно в 1795 году //Сибирский вестник. СПб., 1818. ч.Ш. С.120.
13. Jo‘rabek Shodiyev. Buxoro amirligida davlatchilik masalalari(1753-1920)Toshkent – 2005-yil. 64-b.
14. M.Sodiqov. “Amir nomalari”, Ishonch., 2001-yil, 28-noyabr.
15. Jo‘rabek Shodiyev. Buxoro amirligida davlatchilik masalalari. (1753-1920) Toshkent – 2005-yil 69-b.

## **РАЗВИТИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В НАПРАВЛЕНИЯХ ESP**

**Пардаева Д.Т. - исследователь Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация:** В статье рассматривается развитие лексической компетентности студентов, обучающихся в направлениях ESP. В нем проанализирована разница между General English и ESP. Кроме этого в статье изучаются и обобщаются разные точки зрения исследователей. А также обсуждаются различные компоненты, формирующие учебную программу и учебные материалы, и значительная роль учителя в обучении ESP.

**Ключевые слова:** общий английский, английский для специальных целей, лексическая компетентность, профессиональное развитие, роль учителя, словарный запас.

## **ESP YO‘NALISHI TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

**Pardayeva D. T. – Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annatatsiya.** Maqolada ESP yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada General English va ESP o‘rtasidagi farq va tadqiqotchi olimlarning bu boradagi turli fikrlarini o‘rganilib, umumlashtirishni ham maqsad qilib olingan. Ingliz tilini mutaxassislik tili sifatida o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etuvchi o‘quv dasturi va materiallari ham tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** umumiy ingliz tili, ma’lum maqsadlar uchun ingliz tili, leksik kompetensiya, kasbiy rivojlanish, o‘qituvchining roli, so‘z boyligi.

## **DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCES OF STUDENTS IN THE DIRECTIONS OF ESP**

**Pardayeva D.T. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation:** The article discusses the development of lexical competence of students teaching in the areas of ESP. It analyzes the difference between General English and ESP. Different viewpoints of the researchers are learned and generalized in this field. Besides that the different components that shape and mold ESP curriculum and teaching materials the significant role of the teacher in an ESP teaching are also discussed.

**Key words:** General English, English for specific purposes, lexical competence, professional development, role of the teacher, vocabulary acquisition.

Существует два распространенных подхода к обучению английский язык: общий английский (General English) и английский для специальных целей (ESP). Цель общего английского - обучить студентов тому, как использовать английский в повседневной жизни, например, как приветствовать людей, как делать покупки в супермаркете, как составлять чек и т.д. Студентам не требуется предварительное знание английского языка для пройти общий курс английского языка. ESP сильно отличается от общего английского. Цель ESP -

научить английский язык общаться на различные профессиональные темы и интегрировать эти знания в свою профессиональную жизнь. Поскольку ESP имеет конкретную направленность и удовлетворяет конкретную потребность, он требует от студентов наличия некоторых предварительных знаний английского языка и проведения анализа потребностей до начала обучения [5]. Студенты ESP - это прежде всего работники, второстепенной обязанностью которых является изучение английского языка. Мохан говорит: «Основная цель ESP - помочь подготовить английский язык к выбранной коммуникативной среде». Поскольку каждая карьера уникальна и имеет свой жаргон, уроки ESP помогают подготовить студентов к работе в выбранных ими областях. [6]

Английский для специальных целей разработан, чтобы дать студентам ускоренный курс по изучению определенного типа английского языка, такого как деловой английский, медицинский английский и т. д. Уроки ESP играют жизненно важную роль в интеграции иммигрантов в общество, помогая им адекватно функционировать в целевой ситуации» [1]. «Целевая ситуация» - это ситуация, в которой студенты будут использовать тот тип английского языка, который они изучают. Важно, чтобы каждый курс ESP касался того типа английского языка, жаргона, грамматики и т. д., который студенты будут использовать на рабочем месте.

На курсах ESP большое внимание уделяется конкретным потребностям и интересам студентов. Сысоев подчеркивает важностьделения внимания интересам и потребностям учащихся: «Очень важно начать процесс разработки курса с анализа целевой группы учащихся: многие проблемы в классах иностранный язык являются результатом того, что учителя не платят внимание к интересам учащихся и игнорирование учащихся как источника важной информации». [4] Разработчик учебной программы несет ответственность за адаптацию учебной программы и учебных материалов к потребностям учащихся. Эти потребности иллюстрируют «языковые знания, необходимые учащемуся для профессионального развития, знания языка и содержания, которые необходимо добавить или повторно включить в знания учащегося, а также желания учащегося в отношении языка или содержания» [2]

Существуют различные компоненты, которые формируют учебную программу и учебные материалы ESP. Эти компоненты включают: «1) тему или специальность 2) положение учащихся 3) общее и конкретное владение языком обучения на начальных и выходных уровнях 4) предыдущий образовательный и культурный опыт учащихся 5) типы навыков, которые необходимо развить (будь то чтение или письмо, устная речь или аудирование) 6) ожидаемые результаты достижения целей обучения». [2]. Хотя эти компоненты влияют на разработку учебной программы ESP и учебных материалов, очень важно, чтобы

учебная программа и учебные материалы ESP содержали задачи и упражнения, которые были реалистичными и понятными для учащихся; такие задания повышают мотивацию учащихся.

Роль учителя в настройке ESP очень важна. Преподаватели помогают своим ученикам развивать специализированные языковые навыки, которые позволяют им работать и потенциально преуспевать в своей профессиональной жизни. Они также готовят своих студентов к самостоятельному развитию академической компетенции. Роль учителя не ограничивается только классными или языковыми вопросами: учитель ESP должен следовать интегративному подходу, действуя одновременно как учитель и консультант. Учителя должны уделять пристальное внимание академическим и психологическим потребностям своих учеников. Учитель также несет ответственность за создание специализированной учебной среды, ориентированной на навыки учащихся.

Никто не спорит, что использование специальной лексики при обучении английскому для конкретных целей является основной задачей. Точно так же существует распространенное предположение, что чем больше слов знает учащийся, тем больше у учащегося словарного запаса. Однако есть еще один аспект словарного запаса, который следует учитывать, а именно, насколько ученик знает комбинаторные возможности слова. Для любого данного слова носитель языка также знает ряд других слов, которые могут встречаться или сопоставляться с ним. Это аспект словарного запаса, который до недавнего времени в значительной степени игнорировался.

Совсем недавно компьютерный анализ английского языка выявил широкое распространение лексических паттернов в использовании языка. Некоторые исследователи называют их лексическими фразами «или лексическими элементами», другие предпочитают термин «многословные фрагменты» или «просто фрагменты» языка. Каким бы ни был термин, они являются важной особенностью как в использовании языка, так и в овладении языком и предлагают преимущества при преподавании языка, особенно при обучении ESP.

Майкл Льюис относит стандартному взгляду на разделение обучения языку на грамматику и лексику, утверждая, что язык состоит из лексических элементов. Он относит их к четырем основным категориям. Относительно небольшая группа лексических единиц - это слова. Обычно их считали важным словарным запасом для запоминания учащимися.

Вторая категория - это словосочетания. Под словосочетанием понимается способ, которым слова обычно встречаются друг с другом, то есть комбинации слов в естественной речи с определенной частотой. Носители

языка интуитивно знают, какие слова часто сочетаются, а какие нет. Для носителя языка они звучат неправильно. Знание частых словосочетаний необходимо для точного, естественного английского языка.

В ESP есть определенные типы словосочетаний, которые вызывают ошибки учащихся из-за отсутствия переводческой эквивалентности между первым и вторым языками. Учителя должны помочь учащемуся познакомиться со словосочетаниями, и такое знакомство будет развиваться лучше всего, когда учащийся будет сознательно осознавать эту тенденцию сочетания слов [2].

В подходе Льюиса третья категория - это фиксированные выражения, а четвертая - полуфиксированные выражения. Коллокации и выражения считаются наиболее важными типами лексических фраз. Носители языка сохраняют в памяти множество готовых лексических элементов. Беглость и точность языка в основном достигается за счет извлечения и объединения готовых фрагментов языка. Способность успешно разбивать язык на части является центральным элементом понимания того, как работает язык» [3].

В последние годы во всем мире наблюдается рост спроса на ESP, который необходим для профессионального развития. Я преподаю ESP в Ташкентском государственном техническом университете, постоянно пытаюсь повысить эффективность процесса обучения / преподавания. Идеи Льюиса о преподавании словарного запаса по частям понравились нам из-за своей эффективности и были применены для обучения навыкам ESP.

В ESP студенты должны изучить высокоприоритетную лексику, которую необходимо выбрать и включить в учебные материалы и занятия. Очевидно, что студентам не нужно различать, к какой категории относятся лексические фразы. Что важно для обеспечения их эффективного обучения, так это то, что учащиеся превращают значительную часть входных данных, которым они подвергаются, в потребление. Вопрос, который возникает перед каждым учителем, заключается в том, как максимизировать вероятность того, что учащиеся превратят вклад в потребление. В этом мы поддерживаем идею Льюиса о том, чтобы студенты знали о существовании фрагментов. Большинство учащихся приравнивают словарный запас «к словам», и среди учащихся есть тенденция переводить любой профессиональный текст дословно, то есть они обычно пытаются упростить большинство лексических фраз для разделения слов. Роль учителей заключается в повышении осведомленности учащихся о существовании лексических элементов.

В начале курса ESP мы потратили некоторое время на разработку у учащихся стратегий работы с неизвестными лексическими элементами. Второй шаг - помочь им определить лексические фразы - целые выражения с высокоприоритетной лексикой ESP. Этот этап очень важен для развития

способности учащегося распознавать фрагменты. Мы предлагаем использовать более основанную на открытиях методологию. Мы предложили студентам проанализировать несколько аутентичных отрывков, каждый из которых содержит целевой лексический элемент. Из них ученики узнают, какие разные словосочетания существуют для элемента.

Неважно, если учащиеся не знают, к какой категории принадлежит лексический элемент. Что им действительно нужно, так это развить способность замечать куски разных видов. Таким образом, одно из центральных мероприятий в обучении ESP - это побуждать учащихся определять языковые элементы в аутентичных материалах. Еще один важный момент: языковые единицы следует изучать в контексте. Теоретически лексические элементы можно выучить вне контекста, но это не гарантирует усвоения элемента. Контекстное обучение предпочтительнее, потому что изучение лексики - это не простое запоминание лексических фраз. Они должны быть интегрированы в лингвистические ресурсы учащегося, чтобы они были доступны спонтанно, когда это необходимо. Использование словарного запаса - это не то же самое, что его знание. Кроме того, задача учителя - активировать эти предметы в классе. Это означает, что учащиеся должны усвоить этот недавно приобретенный словарный запас. Следовательно, логическое продолжение - это многоэтапная процедура: 1) проверка понимания подлинных отрывков; 2) предоставление большего количества практики; 3) доработка и 4) консолидация.

Наш опыт доказал, что традиционный способ заполнения пробелов эффективен для проверки понимания прочитанного, поскольку он побуждает учащихся учитывать контекст предложения, чтобы найти возможное пропущенное слово. В то же время учащиеся знакомятся с типичной языковой средой для задания. Они воспринимают другие слова, которые могут сочетаться с целевым словом, и грамматический контекст, в котором может произойти данный элемент.

Рекомендуется устная практика для обработки целевого словарного запаса. Такие виды деятельности, как студенческие проекты или разработка заданий для других групп, оказались полезными.

Пересмотр и закрепление - обязательная часть процесса приобретения словарного запаса. Процесс забывания происходит очень быстро. Согласно исследованиям запоминания, человек забывает 80 процентов новой информации за 24 часа. Это может показаться преувеличением, но доля правды в этом есть, хотя у разных людей эти цифры разные. Однако факт остается фактом: чем меньше человек чем-то интересуется, тем быстрее происходит процесс забывания. Таким образом, пересмотр и объединение должны

происходить по прошествии времени. Учащийся должен использовать все доступные методы для развития всех языковых навыков, некоторые из которых представляют собой сопоставление пар, упражнения по сортировке, графические схемы, задачи по решению проблем, разъяснение ценностей, обсуждение, ролевые игры, включая устные презентации и написание резюме. Содействуя автономному обучению, которое часто называют независимостью учащегося», мы выступаем за действия, инициированные учащимися, например учащиеся выступают в роли учителей при организации и проверке занятий в классе, учащиеся создают свои собственные материалы, такие как плакаты, карточки, игры или ролевые игры, учащиеся предлагают выбор занятий для разных пар / групп и т. д.

Итак, в заключение мы можем сказать, что самая важная разница заключается в учащихся и их целях в изучении английского языка. Студенты ESP - это обычно взрослые, которые уже немного знакомы с английским языком и изучают его, чтобы передать набор профессиональных навыков и выполнять определенные функции, связанные с работой. Таким образом, программа ESP основана на оценке целей, потребностей и функций, для которых требуется английский язык.

ESP больше концентрируется на языке в контексте, чем на преподавании грамматики и языковых структур. Он охватывает различные предметы, от бухгалтерского учета или информатики до туризма и управления бизнесом. Фокус ESP заключается в том, что английский не преподается как предмет, отделенный от реального мира (или желаний) студентов; вместо этого он интегрирован в предметную область, важную для учащихся.

Однако английский как второй язык (ESL) и ESP расходятся не только по характеру учащегося, но и по целям обучения. Фактически, как правило, в ESL все четыре языковых навыка; аудирование, чтение, устная речь и письмо подчеркнуты в равной степени, в ESP анализ потребностей определяет, какие языковые навыки наиболее необходимы учащимся, и программа разработана соответственно. Программа ESP может, например, акцентировать внимание на развитии навыков чтения у студентов, которые готовятся к работе в аспирантуре в области делового администрирования; или это может способствовать развитию разговорных навыков у студентов, изучающих английский язык, чтобы стать туристическими гидами.

Фактически, ESP сочетает в себе предмет и преподавание английского языка. Такое сочетание очень мотивирует, потому что студенты могут применять то, что они изучают на уроках английского, в своей основной области обучения, будь то бухгалтерский учет, управление бизнесом, экономика, информатика или туризм. Возможность использовать словарный

запас и структуры, которые они изучают, в осмысленном контексте укрепляет то, чему их учат, и повышает их мотивацию.

### **Литературы**

1. Коуди Дж. Хакин Т. Пополнение словарного запаса второго языка, 1997.
2. Льюис М. Лексический подход, 1993, LTP:  
<http://www.ltpwebsite.com/lex-ap-review.htm>
3. Льюис М. Применение лексического подхода, 1997, LTP.  
<http://www.ltpwebsite.com/implementing.html>
4. Сысоев, П.В. (2000). Разработка курса английского языка для конкретных целей с использованием подхода, ориентированного на учащегося: опыт России. Интернет-журнал TESL, 4 (3). 2016 из <http://iteslj.org/Techniques/Sysoyev-ESP.html>
5. Уилкинс Д. Лингвистика в преподавании языков, 1972, ОУП.
6. Янулевейене В. Каваляускене Г. Переводить или не переводить в обучении ESP? Сеть», Журнал для учителей английского языка, т. 3, номер 3, октябрь 2000 г. Издательство OMNIBUS, Польша.

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Xolmurodova D.X. – Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta’lim muassasalarida uzluksiz ta’lim jarayonida talabalar til qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni amaliyotga tatbiq qilish zarurati asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** novator, motivatsiya, nutq nuqsonlari, nutqiy faoliyat, talaffuz, mahorat, urg‘u, dolzarblik.

## **THE THEORETICAL STUDY OF THE PEDAGOGICAL TECHNOLOGY AS A SUBJECT CATEGORY**

**Kholmurodova D.H. - teacher of Samarkand State Institute of Foreign Languages**

**Annotation.** The article substantiates the need to implement the effective use of pedagogical technologies in the development of students' language skills in the process of lifelong education in higher educational institutions.

**Key words:** innovator, motivation, speech defects, speech acts, pronunciation, mastery, stress, actuality.

## **ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ КАК ПРЕДМЕТ КАТЕГОРИИ**

**Холмуродова Д.Х. - преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков**

**Аннотация.** В статье обосновывается необходимость реализации эффективного использования педагогических технологий в развитии языковых навыков студентов в процессе непрерывного образования в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** новатор, мотивация, речевые дефекты, речевые акты, произношение, владение, ударение, актуальность.

Talabalar til qobiliyatini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini o‘rganish asosida oliy ta’lim muassasalarida uzlusiz ta’lim amaliyotiga talabalar til qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini tatbiq qilish zarurati asoslarini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun mazkur tushunchaning fan kategoriysi sifatidagi tahlili keltiriladi. Qolaversa, pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirishga yondashuvlar va tamoyillar ko‘rib chiqiladi, texnologiyaning strukturaviy komponentlari tahlili amalga oshiriladi, shuningdek uning uzlusiz ta’limni rivojlantiruvchi imkoniyatlari ohib beriladi.

Til qobiliyatlarini uzlusiz ravishda rivojlantirish shaxsni muvaffaqiyatli shakllantirishning ajralmas qismidir. Uni to‘laqonli produktiv faoliyatga kengaytirish bola tug‘ilganidan boshlab uning butun hayoti mobaynida amalga oshiriladi va ta’lim metodlari yordamida maxsus tashkil qilingan ta’sir, sharoitlar yaratish, texnologiya va metodikalarni qo‘llash tufayli maqsadga yo‘naltirilgan tarzda amalga oshirilishi mumkin. Talabalik yillari, o‘quv faoliyatining maqsadliligi bois, bu jarayon uchun tobora maqbul sanaladi.

Yaxlit o‘quv – tarbiya jarayonida til qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi umumiyligi pedagogikada hali o‘rganilmagan, biroq uning alohida ko‘rsatkichlarini shakllantirish, nutqiy faoliyatni shakllantirish, nutqiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi bilan bog‘liq boy material to‘plangan (T.A.Ladijenskaya, T.F.Krilova, A.N.Ksenofontova, N.YE.Pristupa, O.S.Ushakova va b.).

Til qobiliyatlarini (asosan, uning u yoki bu komponentlarini) yaxlit o‘quv – tarbiya jarayonida rivojlantirish muammosi bilan shug‘ullangan mualliflar bu muammoni hal qilishning tarli yo‘l va vositalarini taklif qiladi. T.A.Ladijenskaya barcha o‘quv fanlarini qamrab oluvchi nutqiy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturini taklif qiladi. Bu malaka va ko‘nikmalarni u umumo‘quv malaka va ko‘nikmalari deb ataydi. G.I.Pristupa masalani mакtabda yagona til tartibini (rejimini) yaratish bilan hal etishni taklif qiladi.

Tadqiqotimiz uchun I.S.Yakimanskayaning fikrlari tobora yaqin. U qobiliyatlarni, jumladan til qobiliyatini rivojlantirish dasturini fan dasturlari bilan parallel ishlab chiqishni taklif qiladi. Uning fikricha, qobiliyatlarni rivojlantirish dasturiga individual xususiyatlar haqidagi ma’lumotlarni kiritish, har bir talaba faoliyatining afzalliklari va kompensator imkoniyatlarini o‘rganish, bu qobiliyatning avval boshdagi darajasini aniqlash, keyin rivojlantirish jarayonini ta’lim dasturi va shu ma’lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish lozim. I.S.Yakimanskayaning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limida ta’limning texnologikligi g‘oyasi ko‘zga tashlanadi.

Qator pedagoglar talabalarning til qobiliyatlarini rivojiiga ishning yangi shakl va metodlarini qo‘llagan holda, jumladan kompyuter taxnikasidan foydalanib yordam berishni taklif qiladi. Masalan, O.Kukushkina, Z.Novak matnlarni yaratish uchun kompyutering matn muharriridan foydalanishni taklif qiladi. Talabaning printerda chop qilingan asari uning matn yozishga motivatsiyasini anchagina oshirishini ta’kidlaydi.

Boshqa novator pedagoglar talabalar til qobiliyatlarini rivojlantirishda internet imkoniyatlarini ishga solishni taklif qiladi. B.Zelserman, N.Rogaleva internet – debatlar kabi shakldan foydalanishni taklif qiladi. Internet vositalaridan foydalana olish ham nutqiy faoliyat mexanizmlari rivojlanishini ko‘zda tutadi. Biroq oliy ta’lim muassasalari klaviaturasini egallash zarurati, daftar va monitordagi mashqlarni optimal birlashtirish, kompyuterdan o‘yin maqsadlarida foydalanish stereotiplarini bartaraf qilish bilan bog‘liq qator muammolar yuzaga keladi. Bu mualliflarning amaliy ishlanmalaridan biz talabalar til qobiliyatlarini rivrojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishda foydalanamiz.

Talabaning til qobiliyati rivojlanishiga til muhiti katta ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim – tarbiya muassasalarida til muhitini tashkil qilishga alohida e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda pedagoglar bolalarning to‘g‘ri til konstruksiyalari, nutqiy madaniyat qoidalari manbai bo‘lgan mutolaaga qiziqishi kamayib ketganini ta’kidlaydilar. Bugungi oliy ta’lim muassasasi talabasi hayotining katta qismini ommaviy axborot vositalari egallaydi. Afsuski, ular hamma vaqt ham nutqni savodli rasmiylashtirishda o‘rnak bo‘la olmaydi. Reklama matnlarini misol qilib olaylik. Bular asl matn emas, balki uzuq – yuluq, mantiqsiz, bog‘lanishsiz so‘zlar to‘plami, xolos. Bunday «soxta matnlar»ni singdirish nutq mexanizmi shakllanishida

buzilishlarga olib keladi. Bu kabi holat faqat bizning mamlakatimiz uchungina xos emas. Bu haqda nemis hamkasblarimiiz shunday yozadi: «bugungi bolalarning til imkoniyatlari ularning avvalgi yillardagi tengdoshlarinikidan ancha ortda qolayotir. O'n yillar oldin logoped yordamiga boshlang‘ich matabning ayrim o‘quvchilarigina muhtoj bo‘lsa, hozirda butun sinf shunday yordamga muhtoj. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu tendensiya tashhislanmoqda. Bolalar bog‘chalarida nutqini tushunib bo‘lmaydigan bolalar soni ortmoqda». Buning sababini nemis olimlari oila a’zolari bilan bevosita aloqa o‘rniga soatlab teleko‘rsatuvlar ko‘rishda, shuningdek bolalar to‘g‘ri talaffuz modellarini tobora kam uchratishlarida, deb biladilar.

Shu sababli talabalarda salbiy nutq muhitining nomaqbul ta’siriga qarshi kuchli immunitetni shakllantirish vazifasi yuzaga kelmoqda. Pedagoglar bu haqda bosh qotirib, turli yo‘llarni taklif qilishmoqda. Bu vazifa yechimi oliv ta’lim muassasalarida yagona nutqiy tartib (T.A.ladijenskaya), odamning asosiy xarakteristikalaridan biri sifatida tilga e’tiborning orttirilishi (G.A.Nikitina), ta’limning noan’anaviy shakllarining kiritilishi (A.N. Ksenofontova, O.Kukushkina), ijodiy darajada til va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirilishi (T.A.Ladijenskaya) hisobiga talabalarning nutqiy faolligini oshirish, nutqiy rivojlanishda nuqsonlarni bartaraf qilish va ayni paytda til qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha korreksiya ishini birlashtirish orqali qotib qolgan namunalarni singdirmaslikda (L.P.Noskova) bo‘lishi mumkin.

Talabaning til qobiliyatini rivojlanishda o‘qituvchining til va nutqiy namunasi katta ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyot tajribasiga ko‘ra, o‘qituvchiga muvaffaqiyatli o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun faqat fanga oid bilimlarning o‘zi kamlik qiladi, unga yuqori darajadagi til qobiliyati zarur (G.A.Nikitina tadqiqoti). Biroq ko‘plab tadqiqotchilar ayrim talabalarning nutqi ularning shogirdlari uchun qator sabablarga ko‘ra namuna bo‘la olmasligini aytadi. O‘qituvchilar nutqiy xulqi namoyon bo‘lishining anchagina tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olsada, o‘qituvchilar til qobiliyati namoyon bo‘lishiga ishoralar keltirilgan ayrim tadqiqotlarni tahlil qilmoqchimiz.

L.S.Volkova talabalarning til rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi o‘qituvchi nutqidagi quyidagi kamchiliklarni keltiradi: tovush talavvuzining buzilishi, normalanmagan leksikadan foydalanish, leksikan semantik va tematik noto‘g‘ri tanlash, hatto ezmalik va bekorchi gaplarni ishlatish. A.N.Ksenofontova, G.I.Shchukina ta’kidlashicha, o‘qituvchining noto‘g‘ri nutqi faqat salbiy namuna emas, balki talabalar o‘qituvchi nutqini adekvat tushunmasligi sababli o‘quv jarayonini murakkablashtirilishiga olib kelinishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu til qobiliyatiga bevosita aloqador quyidagi holatlar bilan bog‘liq: nazariy masalalar bayonida mantiqning yo‘qligi, ilmiy terminologiya bilan uddalay olmaslik, yagona tushuncha bazasining yo‘qligi, talaffuzdagi nuqsonlar va h.z.

Mamlakatimizda zamonaviy til suratining yana bir salbiy tomoni shuki, til va nutq mahorati ba’zida bekorchi gap, hatto yolg‘onni yashirish vositasiga aylanib qolmoqda. Demokratik o‘zgarishlar «so‘z erkinligini» o‘zining g‘araz maqsadlarini yashirish usuli sifatida ham tushunishga olib keldi (V.V.Solovyev). Buni, ayniqsa, yolg‘onni, soxtalikni tez fahmlaydigan talabalar aniq sezadi. Shu sababli talabalar til qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasini yaratayotib, mamlakatimizdagi hozirgi ijtimoiy – madaniy sharoitni hisobga olishlari zarur.

Hozirgi kunda nafaqat o‘qitish, balki birinchi galda rivojlantirish va tarbiyalash ahamiyati ortib bormoqda (V.I.Andreyev, I.P.Volkov, M.I.Smirnov va b.). Shu sababli til qobiiliyatini rivojlantirish yo‘llarini biz o‘quv – tarbiya jarayonini takomillashtirishga yangicha yondashuvlar ruhida izladik, jumladan, bu borada texnologik yondashuv tanlandi.

Pedagogik jarayon sifatini oshirish yo‘nalishlaridan biri uni texnologiyalashtirish hisoblanadi. Pedagogik texnologiya tushunchasi zamon bilan hamnafas bo‘lish natijasida paydo bo‘lgan, degan fikrlar mavjud (167). Biroq hozirda bu tushuncha pedagogika fanida o‘rnashib ulgurgan va V.I.Andreyev, V.P.Bespalko, V.I.Bogolyubov, I.P.Volkov, M.V.Klarin, G.Y.Ksenzova, A.K.Kolechenko, N.V.Kuzmina, B.T.Lixachev, V.M.Monaxov, G.K.Selevko, S.D.Smirnov, N.YE.Shchurkova, I.P.Podlasiy, N.V.Teltevskaya, M.A.Choshanov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilmoqda.«Pedagogik texnologiya» tushunchasi tadqiqotimizda tayanch tushuncha bo‘lgani bois mazkur tadqiqotda u qanday tushunilishini aniqlashtirish uchun maxsus tahlil qilishni lozim topdik.

Umuman olganda, kelib chiqishiga ko‘ra texnologiya va texnologiyalashtirish pedagogik tushunchalar emas. Izohli lug‘atlarda texnologiya - «qandaydir ish, mahorat, san’atda qo‘llanadigan usullar yig‘indisi» sifatida izohlanadi va bu tushunchaning ishlab chiqarishga mansubligi ta’kidlanadi.

«Texnologiya» termini pedagogikaga sanoat va qurilish sohasidan kirib kelgan. Maxsus adabiyotlarda bu o‘tishning tarixi anchagina batafsil yoritilgan, terminning ta’rifi va izohi berilgan. Shu bois uning kelib chiqishini batafsil tavsiflab o‘tirmaymizda, «pedagogik texnologiya» terminini ta’riflashga o‘tamiz.

Texnologiya tushunchasining pedagogik fanlardagi dinamikasini V.I.Bogolyubov kuzatgan va uni o‘qitishda ma’lum texnik yutuqlardan foydalanish sifatida tushunishdan o‘qitish metod va vositalari yig‘indisi hamda o‘quv – tarbiya jarayonini optimallashtirish tamoyillari sifatida tushunishga asta – sekin o‘tishni ko‘rsatib bergen. Muallif fikricha, hech bir ta’rif istisno qilinmagan.

Texnologik yondashuvning pedagogikaga o‘tishi ko‘p jihatdan pedagogik jarayonning faoliyat mahsuli ko‘rinishida natija olishga yo‘naltirilgani bilan belgilangan. S.D.Smirnovning ta’rifi produktiv yondashuvga yaqin bo‘lib, uning tushunishicha, texnologiya «berilgan parametrlarga ega bo‘lgan mahsulot olish

imkonini beradi». Pedagogika fanida texnologik yondashuvning natijasi va maqsadi insonni rivojlantirish, beriladigan parametrlar esa shaxsning sifatlari, psixik jarayonlar, malaka va ko'nikmalar sanaladi. Bugungi kunda «pedagogik texnologiya» tushunchasi pedagogikada faol qo'llaniladi, biroq turlicha talqin qilinadi.

Rossiya pedagogika ensiklopediyasiga ko'ra, pedagogik texnologiya ta'lismi va tarbiya maqsadlariga erishish yo'llari va vositalarini ishlatadi.

Pedagogikaning bu kategoriyasi mazmuni uni pedagogik tizim bilan nisbatlash orqali ochiladi. G.K.Selevko fikriga ko'ra, «sistema tushunchasi texnologiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, faoliyatning ham subyekt ham obyektlarini o'z ichiga oladi».

Bu o'zaro aloqadorlikni V.N.Bespalko o'z tadqiqotlarida batafsil yoritib bergen. U pedagogik texnologiyani zamonaviy maktab pedagogik sistemalarini samarali qurish usuli deb biladi. Didaktik nuqtayi nazardan, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish – bu pedagogik sistema realizatsiyasini uning detallari bo'yicha tavsiflaydigan amaliy metodikalarni ishlab chiqishdir. Pedagogik texnologiya metodologik asos sifatida sistemali yondashuvga ega va hamisha ta'lismi, tarbiya va rivojlantirish qonunlarini amalda realizatsiyalaydigan pedagogik faoliyat demakdir.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasiga bir necha ta'riflar mavjud. Ulardan ayrimlarinigina aytib o'tamiz. G.Y.Ksenzova pedagogik texnologiyani amaliyotda realizatsiyalanadigan ma'lum pedagogik sistemaning loyihasi deb hisoblaydi. A.K.Konechenko fikricha, bu bilim, malaka va ko'nikmalarni hamda munosabatlarni belgilangan maqsadlarga muvofiq konstruksiyalash, shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha operatsiyalar to'plamidir. M.V. Klarin esa pedagogik texnologiyani pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo'llanadigan barcha shaxsiy, instrumental va metodologik vositalarning sistemali yig'indisi va amal tili sifatida baholaydi. N.YE.Shchurkova pedagogik ta'sirning turli usullari tabiiy to'plami, I.Y.Yasukova harakatlar zanjiri sanaladigan bo'lg'usi pedagogik jarayonning modeli, I.P.Volkov rejalashtirilayotgan natijalarga erishish jarayonining tavsifi, B.T.Lixachev ta'lismi shakllari, metodlari, usullari maxsus to'plamini belgilaydigan psixologik – pedagogik ustakovkalar yig'indisi, V.A.Slastenin taxmin qilinayotgan va tashhislanayotgan natijaga erishishni instrumental ta'minlaydigan harakat, operatsiyalarning tartiblashtirilgan sistemasi sifatida tushunadi. Ko'rindiki, deyarli hamma mualliflar bu tushunchani bir ovozdan pedagogik jarayonning avvaldan belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qandaydir tarkibiy qismlari yig'indisi sifatida ta'riflaydi.

V.V.Gusev pedagogik texnologiyani ta'limga rejalashtirilayotgan natijalarini tasavvur qilish, o'rganuvchilarning hozirgi holatini tashhislash vositalari, ta'lismi modellari to'plami, berilgan konkret sharoitlar uchun optimal model tanlovidan iborat qandaydir kompleksga parchalashga urinadi. V.M.Simonov

texnologiyani o‘ziga xos quyidagi modul sifatida tasavvur qilinadi: maqsad – vositalar – ulardan foydalanish qoidalari – natija.

Bizning tadqiqotimiz uchun V.N.Bespalkoning ta’rifi tobora ahamiyatlidir, u pedagogik texnologiya haqida amalda realizatsiyalanadigan ma’lum pedagogik sistemaning tavsifi (loyihasi) sifatida, ya’ni avvaldan rejalashtirilgan o‘quv – tarbiya jarayonini sistemali va izchil ravishda amalda tatbiq qilish haqida so‘z boradi.

Hozirga qadar texnologiyalarning yagona tasnifi mavjud emas. Turli mualliflar texnologiyalarni turli daraja, tip, turlarga bo‘lishini ko‘rish mumkin. Talabalar til qobiliyatini rivojlantirish mualliflik texnologiyasini tavsiflashga yordam berishi mumkin bo‘lgan ayrim ishlargagina to‘xtalamiz.

Uchta muallifning ishi misolida mavjud pedagogik texnologiyalarning pedagogik jarayonni qamrab olishga ko‘ra bo‘linishini keltiramiz.

S.D.Smirnov uchta yondashuvni farqlaydi:

- 1) texnologiya deganda ko‘pincha alohida qo‘yilgan maqsadga erishish bo‘yicha xususiy metodikani tushuniladi;
- 2) pedagogik texnologiya deganda umuman pedagogik sistemani nazarda tutiladi;
- 3) texnologiya deganda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun optimal metodika yoki sistemani algoritm sifatida tushuniladi.

G.K.Selevko fikricha, bugungi kunda pedagogik texnologiyaga uch aspektda qaralishi mumkin:

1. Ilmiy aspekt: pedagogik texnologiya – pedagogika fanining ta’lim maqsadlari, mazmuni va metodlarini ishlab chiqadigan va pedagogik jarayonlarni loyihalaydigan sohasi.
2. Protsessual – tavsify aspekt: jarayon tavsifi (algoritmi), ta’limning rejalashtirayotgan natijalariga erishish uchun maqsadlar, mazmun, metod va vositalar yig‘indisi.
3. Protsessual – amaliy aspekt: barcha shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning amal qilinishi (ishlashi).

A.K.Kolechenko texnologiya darajalari haqida so‘z yuritadi: mashg‘ulot texnologiyasi, o‘quv fani texnologiyasi, to‘liq ta’lim texnologiyasi.

Shu sababli texnologiyani ishlab chiqishda uning iyerarxik turini aniqlash zarur. Bundan tashqari A.K.Kolechenko pedagogik texnologiyalarni malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga yoki psixik jarayonlarni rivojlantirishga qaratilganligiga ko‘ra farqlashni taklif qiladi, shu sababli texnologik va psixologik texnologiyalarni ajratadi. Pedagogik texnologiyalarni, o‘z navbatida, o‘qitish texnologiyalari, tarbiyalash, rivojlantirish, tashhis texnologiyalariga bo‘ladi.

Yuqorida talabalarning til qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati haqida gapirildi, shu sababli bu jarayonga nisbatan aynan rivojlantirish texnologiyalariga

to‘xtalamiz. «Rivojlantirish texnologiyalari ta’lim texnologiyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Psixik rivojlantirish – bu aqliy malakalarni shakllantirish, bu inson psixikasida qandaydir operatsiyalarning o‘sishi», - yozadi A.K.kolechenko. Psixik rivojlantirishda ta’sir materiali, muallif fikricha, istalgancha bo‘lishi mumkin, natija esa psixik malakalar (operatsiyalar) ning shakllangani sanaladi, shu bois rivojlantirish texnologiyasi o‘quv fanlarining aniq mazmuni bilan cheklanmaydi, balki butun o‘quv – tarbiya jarayonini qamrab oladi.

Ta’lim jarayonida qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar keyingi vaqtida ommalashib ketdi, bu turli to‘plangan pedagogik tajribani umulashtirgan pedagogik texnologiyalar ensiklopediyalari chop etilishiga olib keldi. Bu to‘plamlarda ko‘rish mumkinki, tavsiflanayotgan texnologiyalar o‘quv – tarbiya jarayonining turli plastlarini qamrab oladi: butun ta’lim yoki tarbiya jarayoni texnologiyasidan dan to alohida fanlardan alohida ko‘nikmalarga o‘rgatish texnologiyalarigacha, bu texnologiyalarni ta’lim metodikalari bilan yaqinlashtiradi. Buni bugungi kunda pedagogik texnologiya tushunchasi uchta: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal jarajada mavjudligi bilan izohlash mumkin.

G.K.Selevko ishlarida pedagogik texnologiyalarning yanada to‘liq tasnifi keltiriladi. Keyingi o‘n yilliklar davomida kuzatilayotgan shaxsni rivojlantirishga qiziqishning ortishi tendensiyasi ta’limning shaxsiy rivojlantiruvchi, shaxsning tiklanishi, rivojlanishi va o‘z – o‘zini rivojlantirishiga urg‘u beradigan texnologiyalarini ishlab chiqish ehtiyojini dolzarblashtiradi. Tobora yangi texnologiyalarning ishlab chiqilgani va maktab amaliyotiga tatbiq qilingani «zamonaviy texnologiyalar» tushunchasi paydo bo‘lishiga olib keldi.

### **Adabiyotlar**

1. [https://musicpianomusic.com/wp-content/uploads/2015/11/Genrik\\_Gustavo\\_vich\\_Neigauz\\_Ob\\_iskusstve\\_fortepia.pdf](https://musicpianomusic.com/wp-content/uploads/2015/11/Genrik_Gustavo_vich_Neigauz_Ob_iskusstve_fortepia.pdf)
2. <https://uz.warbletoncouncil.org/caracteristicas-musica-7150>
3. <http://kutubxona.adu.uz/kutubxona/haydarovxalilovapdf.pdf>
4. [library.ziyonet.uz](http://library.ziyonet.uz)
5. Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов английского языка. -Ташкент: фан, 2010.-208 с.
6. Rahimov B.X. Bo‘lajak o‘qituvchida sotsiolingvistik-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nom. ... dis. -Toshkent, 2004 . 161 b.
7. Rashidova F.M. O‘zbekiston uzlusiz ta’lim tizimida SEFR ni tadbiq etishning konseptual-metodik asoslarini takomillashtirish. Avtoref. Diss... dok..Phd – Toshkent:. 2017-y.
8. Riskulova K.J. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi satsiolingvistik kompitensiyasini shakllantirish tizimi: Dis. kand.ped.nauk: -Toshkent, 2017. 27-b.

9. Рискулова К.Ж. Инглиз тили ўқитувчisi коммуникатив кобилиятининг педагогик шарт-шароитлари // Замонавий таълим. - Т.: 2015. № 8.
10. Рискулова К.Ж. Forming the professional competence of future english language specialists. // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2014. №3-412.Петровский, В.А. Личность в психологии: парадигма субъектности / В.А.Петровский. – Ростов-н/Д: «Феникс», 1996. – 512 с.
11. Прикот, О.Г. Методологические основания педагогической системологии: Дис. ...док. пед. наук / О.Г.Прикот. – С-Пб, 1997. – 303 с.
12. Психологический словарь / Под общ. ред. П. С. Гуревича. – М.: ОЛМА Медиа Групп: ОЛМА ПРЕСС Образование, 2007. – 800 с.
13. Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2003. – 920 с.

## **TRANSLATION PROBLEMS OF PARALINGUISTIC MEANS USED IN UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS INTO ENGLISH**

**Toshtemirova A.S. - teacher of Shahrizabz branch of Tashkent State  
Pedagogical University**

**Annotation.** The article examines the problems of an English translation of units representing paralinguistic means in Uzbek works of art. We can learn about the uniqueness and culture of each nation through fiction. At the same time, paralinguistic tools play an important role in spreading the literature of the nation to the world. The study of this field is one of the most pressing issues in linguistics, and translation theory is an important part of our research work.**Key words:** paralinguistic devices, multilingual, linguistic discipline, transfer, restructuring, phonation, graphic, kinetic.

## **O'ZBEK BADIY ADABIYOTI MATNLARIDA FOYDALANILADIGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI**

**Toshtemirova A.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrizabz  
filiali o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek badiiy asarlaridagi paralingvistik vositalarni ifodalovchi birliklarning ingliz tilida berilish muammolari tadqiq qilingan. Har bir millatning o'ziga xos jihatlarini, madaniyatini badiiy adabiyoti orqali bilib olishimiz

mumkin. Shu o'rinda paralingvistik vositalar millat adabiyotini dunyoga yoyishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohani o'rganilishi tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri bo'lib, tarjima nazariyasi tadqiqot ishimizning muhim qismi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** paralingvistik vositalar, ko'ptillilik, lingvistik disiplina, ko'chirish, qayta tuzish, fonatsiya, grafika, kinetika.

## **ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЗУЕМЫХ В ТЕКСТАХ УЗБЕКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ, НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК**

**Тоштемирова А.С. - преподаватель Шахризабского филиала  
Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье исследуются проблемы перевода на английский язык единиц, представляющих паралингвистические средства в произведениях узбекского искусства. Мы можем узнать об уникальности и культуре каждой нации через художественную литературу. В то же время паралингвистические инструменты играют важную роль в распространении национальной литературы в мире. Изучение этой области - одна из самых актуальных проблем лингвистики, а теория перевода - важная часть нашей исследовательской работы.

**Ключевые слова:** паралингвистические приемы, многоязычие, лингвистическая дисциплина, перевод, реструктуризация, фонация, графика, кинетика.

In modern society, linguistics are also in progress as other subjects. The newest fields have appeared in linguistics. This achievement requires us to work on these spheres and to research scientific works. It is known that every nation has its paralanguage which expresses their tradition, habits, customs, and languages as well. We can see difficulties in the translation of nonverbal means from the source language into the target one.

The translation is the academic discipline related to the study of the theory and phenomena of translation. By its nature it is multilingual and also interdisciplinary, encompassing any language combinations, various branches of linguistics, comparative literature, communication studies, philosophy, and a range of cultural studies including postcolonialism and postmodernism as well as sociology and historiography [1].

Fyodorov stresses that translation theory is an independent linguistic discipline, deriving from observations and providing the basis for practice. He

believes that all experience is translatable and rejects the view that language expresses a peculiar mental word picture.

Comissarov sees translation theory moving in three directions:

- 1) The denotative (informational translation);
- 2) The semantic (precise equivalence);
- 3) The transformational (transposition of relevant structures)[2].

E. Nida subdivides the process of translation into three stages:

a) Analysis: The surface structure of the Source language text is analyzed in terms of sentential and supra-sentential features. Sentential features include the grammatical relations between the constituent parts of the source language and referential meanings of the semantic units. Supra sentential features include the connotative value of the syntactic structures i.e., the evaluation of the syntactic and semantic features of style.

b) Transfer: The analyzed material is transferred in the mind of the translator from source language kernel(deep) structures to receptor language deep structures.

c) Restructuring: the transferred material is restructured to make the final message fully acceptable in the receptor language [3].

Translation holds a special place in the literary process as each literary genre relies upon a certain kind of translation. Thus, for the translation of literature used literary translation, which is a special kind of translation, because it is not an accurate transfer of content and reflection of the views and feelings of the author's prose or poetic nuance through the use of another language.

Paralinguistics, which arose around several sciences, such as psychology, anthropology, biology, culturology, ethnography, sociology, began to develop rapidly in recent years. In modern linguistics, there are three types of paralinguistic means: phonation, kinetic and graphic. To background types of paradigmatic means the timbre of speech, its tempo, loudness, the types of the pause melodic phenomena, as well as features of pronunciation of speech sounds are considered as phonation. Kinetic components include gestures, movements, and selectable poses, silence, facial expressions, etc. The graphic types of paralinguistic means are the type of execution of letters and punctuation languages (handwriting), ways of graphic additions to letters, their substitutes (symbols of type and, etc.). Paralanguage tools not only complement the meaning of the verbal message but also are the source of information about the speaker (writing) about his social and age traits of the field, the nature of the character, and others. Therefore, paralinguistic means are represented to a different degree in each speech unit.

Concerning the verbal side of the utterance, paralinguistic means can perform three functions:

1) Make additional information (sometimes contradicting the meaning of the verbal): for example, a positive verbal text may be accompanied by background characteristics with a negative ratio, etc.);

2) Replace the missed verbal component “do you want to go with us?” To deny, gesture;

3) Combined with verbal means, conveying the same meaning “I want to this red ball” to indicate the gesture. Paralinguistic means are not autonomous and closed semiotic systems, but can be as elements of ordered semiotic nonverbal systems (kinesia), as well as individual indicators that are not regulated in the system. Be sure to be present in the speech message, paralinguistic means, however, the unpredictability of a real incarnation is different [4]. For example, uttering a certain type of questions requires a given melody, but the type timbral coloring remains unknown, therefore the type of melody is a linguistic fact, and the type of timbre is paralinguistic. The translation of nonverbal communication is indirectly referred to in most books that deal with audiovisual translation. Chaume divides the nonverbal elements (not solely the kinesics) into three groups according to the difficulty and achievement of their translation.

The first group includes nonverbal signs that exist in the target culture. Chaume expresses that the main concern of the translator, in this case, should be the achievement of cohesion and coherence between image and words. The second group comprises visual signs that do not exist in the target audience, et can be understood with a verbal explanation. The last group covers nonverbal elements that do not exist in the target culture and cannot be explained due to the confusion it may create or the lack of meaning it may have for the target audience [5]. We agree with these options. This is because, while translating gestures we come across some problems. If we know the culture and nonverbal means of the nation, our translated material will be clearer for its readers.

For example; Men sekingina boshimni qimirlatib,o‘zimda allanima sezinaman.

-I nodded my head. I felt something very sweet. here you can see w “nod” .It is a gesture which used to translate “boshimni qimirlatib”.

Below given this classification indicates the possibility of finding certain nonverbal signs that become untranslatable for the target audience. Moreover, we have to say about the peculiarities of gestures in the system of paralanguage.

For the perfect state of the language, the biological nature of a certain part of the same means has outgrown and transformed into a paralinguistic phenomenon. Paralinguistic means are isolated from the sphere of extra linguistics because they are a subsystem of conventional means.

Gestures	Meaning in English and Uzbek
The joining of the thumb and forefinger in a circle (i.e. The "OK" sign)	All is well or perfect
Thumbs-up	Approval
Thumbs-down	Disapproval
The slapping of the raised right hand with the open palm of another person's right hand (i.e. The High Five)	Approval and acceptance of a deed or incident
Crossing one's fingers	Protection from bad luck or from the penalties associated with lying
Shrugging one's shoulders(I don't know)	Feeling incapable or uncertain of responding positively to a given situation
Winking	Showing an appreciation of an attractive person or as an invitation to share the company of the person at whom it is being directed
Sticking out one's tongue	Mockery or rejection
Shaking hands	Friendship and acceptance

As we mentioned before three types of nonverbal tools were defined. In this part, we will try to analyze them through translated works which are from Uzbek into English. While analyzing we will define translation problems that are connected with paralinguistics. First of all, we will analyze Uzbek novels and stories from the point of the phonetic side.

-Sodeq ,tanemadengme,bu odamne o‘zbekning eng katta yozuvchise bo‘lade-ya!

– deb buxorocha talaffuzda shivirladi Muborak. [6](Jinlar bazmi72-bet)

“Sodiq , didn’ you recognize him?”

Muborak whispered this man is the greatest writer in Uzbekistan!” (The Devils’ Dance p.72)

“shivirlamoq” is given with “whisper” in this sentence. It is so appropriate for this sentence.

Gal g‘undaroq Muborakdan so‘ng Abdullaga etganda, oqsoqol dag‘dag‘a bilan:

Sen kimsan?! Nega mening xabarim yo‘q?- deb o‘shqirdi. (Jinlar bazmi 72-bet)

After Muborak had taken his turn the elder glazed Abdulla: “Who are you? Why don’t I know about you?” he roared. (The Devils’ Dance p.85)

The word “o‘shqirmoq” translated “roar” into English. Roar means to shout something in a deep powerful voice.

It is known that the phonetic type of paralinguistic means includes sounds such as “uh, ah, vay, E-e” etc.

-E, bu Abdulla Qodiriy-ku!-deb qolishdi ikki uch yondan. (Jinlar bazmi 72-bet)

“-Hey, It’s Abdulla Qodiriy?” a couple of prisoners exclaimed. (The Devils’ Dance p.85)

“E” means to remember in here. Translation of this phonation is given with “Hey”.

Kimdir qiyyirdi,kimdir chapak chaldi,kimdir qahqaha otdi. (Jinlar bazmi 88-bet)

Some shouted their admiration, some clapped, some guffawed. (The Devils’ Dance p.88)

We can see “qiyyirmoq”, “qahqaha otmoq”. “Qiyyirmoq” translated with “shout” also “their admiration” helps to be more understandable context in this example.

Arshi mushoiranbayni Nodira-begim va... orada, biroz sukunat tutib Jahonotin bor ovozicha : Amiriyl-deb hayqirdi. (Jinlar bazmi 84-bet)

As we know that “o‘shqirmoq” refers to “baqirmoq” also, “roar” is the synonym of “yell” and “shout” in English. So that while translating, translator tried to use “roar” instead of “yell”. In my opinion it would be better if the translator use shout.

-Qumloqlik Sunnat ,taraq-turuq bilan bo‘tqa to‘la bidonini g‘altakdan olib kirishdi-da, o‘risi: “Завтрак!” –deb baqirdi. (Jinlar bazmi 113-114-betlar)

-What a relief: one of them was Sunnat from Qumloq” Breakfast!” elled the other, a Russian.

“Кому добавки?!”- deb baqirdi o‘ris. (Jinlar bazmi 114-bet)

-“Who wants seconds?” the Russian elled. (The Devils’ Dance p.124)

...zirak uchun teshilgandek teshikchani ko‘rib: “Bunisi nimasi?”- deb shivirladi, Abdulla ham boshqalarga izza bo‘lmaslik uchun pichirlab: “Onamlarning bolalari turmagan edi, irim qilib teshib qo‘yanlar”, - dedi. (Jinlar bazmi 126-bet)

Then he saw a hole as if for earring, in Abdulla’s left ear and whispered,

“What’s that?” Abdulla whispered back, “My mother’s other children didn’t survive, so she pierced my ear for luck. (The Devils’ Dance p.137). Uzbek language rich in vocabulary, the writer uses “shivirlamoq”, “pichirlamoq” which meant the same meaning. However, the translator only uses ”whisper” in English version.

- Bolalar ko‘chada shovqin soldi:
- toboq keldi,kellinnikidan toboq keldi!
- Children raised a clamor in the street:

- Plates have come from the bride’s house! Plates have come.”shovqin soldi”

Soy bo‘yidagi majnuntollar panasida bir yigit bilan qiz shivirlashib gaplashmoqda edi.(Yulduzli tunlar,2-bet)

Here we can see both phonetic and kinetic tools, the word “dod” is given by using “bravo” and “ta’zim bajo keltirdi” through “bowed”. We think there is no equivalent of “dod” in English. However “do‘st” is given with “brilliant” maybe it is the mistake of the translator.

Abdulla chindan ham shavq dengizidan chiqib kelgan kimsadek, atrofga shabko‘rona alanglar edi. (Jinlar bazmi 77-bet)

Abdulla was indeed like someone emerging form of a sea of wonder, looking around as if half –blinded.(The Devils’ Dance p.90) the word “shapko‘rona alanglar edi” is translated with “looking around as if half-blinded” in English. It is also word-for-word translation. We cannot see literary translation in this sentence.

-E, haziliyazı qo‘ying,mullaka! O‘zi o‘lardek charchap turipman...

-Yo‘q , behazil,ana boshqalardan so‘rang!

Hamma bosh liqillatdi. (Jinlar bazmi 80-bet)

“None of your jokes! I’m knackered “

“No, I’m not joking, you can ask anyone you like!”

Everyone would then nod their heads.(The Devils’ Dance p.93). In this example “bosh liqillatdi” is given with the word “nod” in English. But the meaning of “bosh liqillatdi” means “yes” in the context. So translator has made a mistake. The translator had to use “shake head” in the translation. Also, “E” phonation is used here but there is not given English version.

-Voy ,nima qip-ko‘yipman dehqonchilikdan o‘rgilay ,-deyishi bilanoq azada ham qah-qah kulgu ko‘tarildi. (Jinlar bazmi 81-bet)

“Oh dear, I’ve been wasting my time with all this vegetable growing: marvelous thing, and with these words loud laughter bust out in a house in mourning.(The Devils’ Dance p.93)

“Voy” phonation is given with “Oh dear” the word “qah-qah kulgu ko‘tarildi” is translated with this word combination” loud laughter bust out”

Buni ko‘rgan Nodirabegim boshini chayqaganicha : Notavon ko‘nglimni hijron dardidan ozori bor, -deb qo‘ya qoldi. (Jinlar bazmi 85-bet)

-When she saw this, Nodira shook her head, uttering the line:

-My poor soul is hurt by the grief of separation... (The Devils' Dance p.98)"boshini chayqaganicha" is translated "shook her head".the meaning of this nonverbal device means "yes" in this case translator had to use "to nod"in this text.

-Ablah !-deb yubordi shu yerda Madali

Hademay Madali o'ngidan halloslab, Rajab devonbegi kirib keldi. Kirib keldi-yu, tiz cho'kdi. Cho'kkalab Amirga ta'zim qildi:(Jinlar bazmi 95-bet)

-very quickly, Rajab appeared, kneeling and bowing in the Emir's presence.(The Devils' Dance p.106) "tiz cho'kdi" is translated with "kneeling"the form of gerund and "ta'zim qildi" is expressed by bowing in here also gerund is used . Nevertheless, author used predicative in the novel.

-Ot, Muborak – deb imladi oqsoqol va har doimgidek izohlab qo'ydi:(Jinlar bazmi 107-bet)

-Throw, Muborak!" the elder gestured.(The Devils' Dance p.117) "gestured" is used to express "imladi"by the translator.

-Choydan qo'y bo'lmasa,uka!-deb ko'zini qisib qo'ydi.

-You couldn't pour me some more tea, brother, Could you? (The Devils' Dance p.114) "ko'zini qisib qo'ydi" isn't translated. Translator has used question tag. Here we can see grammatical problem.

Hamma hayron bo'lib, unga qarashibdi. U esa bularga: "Kemaga tushganning joni bir ! Endi baring menga quloq sol!"-deb hayqiribdi:(Jinlar bazmi 117-bet)

Everyone stared at him,stunned. He cried out: Everyone who is in the same boat shares the same soul! Now, listen to me!" (The Devils' Dance p.128).Translator shows the phrase "hayron bo'lib, unga qarashibdi" with only verb "stared at".

-Og'zini angraygannamo ochib,o'ng qulog'ini ellar kelayotgan tarafga tutdilar. (Oydinda yurgan odamlar 1-bet) [8]

-Our grandfather surprisingly opened his mouth. He began to listen to the side where breezes blew. "surprisingly opened his mouth" expresses the meaning of the phrase "Og'zini angraygannamo ochib". This is also considered as a gesture.

-Chuqur tin olib,oydinga tikildilar.

-our grandfather glanced at moonlight in detail. You can see from the example "glance at" is the synonym of "gaze at" these words are used to translate "tikilmoq".

-Salom bersak olislardan ko'zini uzmaydi,kipriklariniyam pirpiratmaydi.

-He stares at far distances, he doesn't close his eyes. (People at the moonlight p.2) by the usage of "stare at" translator can show us the core meaning of this context.

-qo'liga suv beramiz. Suvni go'yo birinchi ko'rayotganday tikilib,o'zicha bosh irg'adi.

We give him water to wash his hands. He stares at water as if he sees it the first time. He nods in his way. (People at the moonlight p.2)

We have concluded that the theory of translation and paralinguistic are some of the most important spheres in modern linguistics.

In this research work theory of translation, translational problems, and mainly paralinguistic means were described, and different theories of translation were mentioned. It was shown that different theorists suggest various definitions and types of translation according to their perspectives. There is no doubt that all written scientific works have been useful for us to catch “what is the translation”. Before translating any kind of material such as novels, stories, diplomatic documents or films we have to know rules of translation, its directions too. Maybe you will be appeared the question “why”. This is because it helps us to translate the works properly without misunderstanding. The reason for your translated text can be seen by foreigners who are not native speakers. They are not able to understand easily your work.

## **Reference**

1. Рашидова А. Ф. About some difficulties of literary translation// Молодой ученый.-Т.,2015,Р.14
2. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты)учебник.-М.,Высш. шк,1990, с.152
3. Nida.E. Science of Translation.-America., Linguistic society of America,1969, P.17
4. Абдуазизова Д.А.Сравнительно-Типологический анализ паралингвистических средств (на материале английской, узбекской и русской вербалной и невербалной коммуникатив).-Т.,1997,C.3
5. Chaume Valera.Translating non-verbal information in dubbing‘ in Nonverbal communication and Translation.-Amsterdam.,John Benjamins, 1997,P.320-325
6. Hamid G‘ulom, Jinlar bazmi  
<https://www.google.com/search?q=jinlar+bazmi>
7. Hamid G‘ulom, The Devils’ Dance  
[https://www.google.com/search?q=jinlar+bazmi&rlz=1C1GGRV\\_enUZ885UZ885](https://www.google.com/search?q=jinlar+bazmi&rlz=1C1GGRV_enUZ885UZ885)
8. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar.  
[https://www.google.com/search?q=oydinda+yurgan+odamlar&rlz=1C1GGRV\\_enUZ885UZ885&oq=&aqs=chrome.0.69i59i450l8.15902623j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://www.google.com/search?q=oydinda+yurgan+odamlar&rlz=1C1GGRV_enUZ885UZ885&oq=&aqs=chrome.0.69i59i450l8.15902623j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8)

**O'ZBEKISTON SSR DAVLAT BOSHQARUVIDA DEPUTATLARNING  
ISHTIROKI (XX ASRNING 50 -YILLARI)**

**Rashidov Sh.T. - O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti  
doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston SSRning davlat boshqaruvi, unda Mahalliy Sovetlar hamda deputatlarning o'rni va roli yoritilgan. Muallif tomonidan deputatlarning XX asr 50-yillardagi faoliyati, deputatlik korpusidagi o'zgarishlar, sovet boshqaruvi tizimidagi ziddiyatli holatlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mahalliy Sovetlar, deputatlik, deputatlik so'rovlari, saylovchilar, hisobdorlik, KPSS XX syezdi, "iliqlik", Oliy Soviet Prezidiumi, ijroiya qo'mitalari.

**УЧАСТИЕ ДЕПУТАТОВ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ  
УЗБЕКСКОЙ ССР (50-е ГОДЫ XX ВЕКА)**

**Рашидов Ш.Т. - докторант Института истории Академии наук  
Узбекистана**

**Аннотация.** В данной статье описывается государственное управление Узбекской ССР, роль местных Советов и депутатов. Автор рассматривает деятельность депутатов в 50-е годы XX века, изменения в депутатском корпусе, противоречия в советской системе правления.

**Ключевые слова:** Местные Советы, депутаты, депутатские запросы, избиратели, подотчетность, XX съезд КПСС, "тепло", Президиум Верховного Совета, исполнительные органы.

**PARTICIPATION OF DEPUTIES IN THE STATE ADMINISTRATION  
OF THE UZBEK SSR**

**Rashidov Sh.T. - doctoral student of the Institute of History of the  
Academy of Sciences of Uzbekistan**

**Annotation.** This article describes the government of the Uzbek SSR, the role of local Councils and deputies. The author examines the activities of deputies in the 50s of the twentieth century, changes in the deputy corps, contradictions in the Soviet system of government.

**Key words:** Local councils, deputies, deputy requests, voters, accountability, XX Congress of the CPSU, "heat", the Presidium of the Supreme Council, executive bodies.

1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasi Sovetlarning butun tizimini o'zgartirdi. Unga ko'ra, ishchi, dehqon va qizil askar deputatlarining Sovetlari Mehnatkashlar deputatlari Sovetlariga aylandi. Yangi Konstitutsiyaga asosan Sovetlarning s'yezdlari tugatildi. Sovetlar doimiy faoliyat yurituvchi boshqaruv organi sifatida shakllantirildi. Barcha Sovetlar fuqarolar tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali saylangan. 1940-yildan boshlab deputatlar Sovetlarining amaliy ishida yangi forma – doimiy komissiyalar paydo bo'ldi [1].

O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasida mahalliy boshqaruv organlari sifatida mehnatkashlar deputatlari okrug (viloyat), rayon, shahar, posyolka, qishloq, ovul Sovetlaridan iboratligi qayd etilgan [2]. 1951-yilda O'zbekiston SSRdagi jami Sovetlar – 1699 tani, shundan, viloyat sovetlari – 9 ta, rayon sovetlari – 139 ta, shahar sovetlari – 27 ta, qishloq sovetlari – 1445 tani tashkil etardi. Ijroiya qo'mitalari tarkibida 11269 nafar xodimlar mehnat qilgan. Ularning 732 nafari – oliv, 2609 nafari – o'rta, 3713 nafari – to'liqsiz o'rta hamda 4 215 nafari – boshlang'ich ma'lumotga ega edi [3]. O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 81-moddasida ijroiya qo'mitalari mehnatkashlar deputatlari Mahalliy Sovetlari oldida hisobdor ekanligi ko'rsatilgan. Ijroqo'mlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organ hisoblangan. Mahalliy Sovetlar esa ishini sessiya tartibida olib borgan (yilda kamida 4-6 marta). Sovet boshqaruv tizimining huquqiy asoslari tahlil qilinganda ayrim ziddiyatli holatlar ko'zga tashlanadi. Xususan, joylardagi mahalliy boshqaruv organi hisoblangan Mahalliy Sovetlarning raislari faqat sessiyalar davomida saylangan. Sessiyalar esa odatda har 3 oyda bir marta chaqirilgan va bir ish kuni davomida faoliyat ko'rsatgan. Doimiy faoliyat olib boruvchi ijroqo'mlar o'z navbatida muntazam ish olib bormaydigan, sessiya shaklida faoliyat yurituvchi Mahalliy Sovetlarga hisobdorligi belgilangan. Mahalliy Sovetlarning ishini tashkil qilish, sessiyalar chaqirish ijroiya qo'mitalari zimmasiga yuklatilgan. Ya'ni boshqaruvni xalq saylagan deputatlardan iborat Sovetlar emas, balki ularga hisobdor bo'lgan ijroqo'mlar amalga oshirgan. Hatto xalq saylagan deputatlarning doimiy faoliyat olib boruvchi raislari ham bo'limgan. Ular faqat sessiyalar vaqtida saylangan va sessiya yakunlangandan so'ng o'z ishini tugatgan.

Sessiya raisini saylash, umuman shu kabi boshqa masalalar oldindan ijroqo'mlar tomonidan tayyorlangan. Shu sabab mahalliy boshqaruvni amalga oshirish, hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat uchun javobgarlik birinchi navbatda ijroqo'mlardan so'rالgan. Masalan, 1950-yil 16-may kuni Sharof Rashidov raisligida bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi majlisida mehnatkashlar deputatlari Xorazm viloyat Soveti ijroiya qo'mitasi raisi

R.Jumaniyozovning hisoboti eshitiladi. Majlisda viloyat Soveti ijroiya qo‘mitasining mutlaqo qoniqarsiz ishlayotganligi tanqid qilinadi. Xususan, “1949-yilda oblast sovetida 4 sessiya, Urganch shahar sovetida 12 sessiya, Urganch va Xiva rayon Sovetlarida 6 sessiya o‘rniga, har birida faqat 1 tadangina sessiya o‘tkazilgan. Viloyat ijroiya komitetining 1949-yil fevral va dekabr oylarida viloyat Sovetlarining sessiyalarini chaqirish to‘g‘risida qarorlari esa, amalda bajarilmagan” [4].

Ijroqo‘mlarning roli deputatlar faoliyatini nazorat qilishda ham yaqqol ko‘zga tashlangan. 1950-yillar boshida Mahalliy Sovetlar faoliyatidagi asosiy muammolar sifatida sessiyalarning vaqtida chaqirilmamasligi, deputatlarning sust ishlashi ya’ni xalq xo‘jaligi va fuqarolardan ajralib qolganligini qayd etish mumkin. Deputatlar faoliyatini ham amalda ijroqo‘mlar belgilab bergen, ularning saylovchilar oldida hisobdorligini nazorat qilgan.

Mahalliy Sovetlar tizimidagi barcha masalalar ularning ijroiya organlari tomonidan hal etilgan. Ushbu tendensiya o‘z navbatida Mahalliy Sovet deputatlarining madaniy va maishiy hayotda, mahalliy boshqaruvda nufuzi va o‘rni pasayib ketishiga olib kelgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Mahalliy Sovetlar o‘z ishini sessiya shaklida tashkil etgan. Sessiyalar esa belgilangan muddatda chaqirilmagan, ularda deputatlarning ishtiroki ham qoniqarli bo‘limgan. Misol uchun, 1950-yilda Xorazm viloyati mehnatkashlar deputatlari sessiyalarida deputatlarning o‘rta hisob bilan 65-80 % gina majlislarda qatnashgan [5]. Bu kabi holatlar mahalliy boshqaruvda Sovetlarning o‘rni ancha pasayib ketishiga olib kelgan. Mahalliy Sovetlar, deputatlarning qoniqarsiz faoliyati respublika va ittifoq gazetalarida faol yoritilgan. “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1952-yil 30-avgust sonida Samarqand viloyat ijroiya qo‘mitasining ishidagi kamchiliklar ko‘rsatilgan: “Tekshirish shuni ko‘rsatdiki, Samarqand oblast ijroiya komiteti ishida qo‘nimsizlik hukm surmoqda. Oblast ijroiya komiteti va mahalliy Sovetlar har taraflama o‘ylab tuzilgan rejaga ega emaslar. 1951-yilda oblast ijroiya qo‘mitasi 1743 ta ya’ni har kuni o‘rta hisob bilan 6-7 tadan qaror qabul qilgan. Vaholanki, mehnatkashlarga mahalliy va maishiy xizmat ko‘rsatish, oliv o‘quv yurtlarining ishi, xalq maorifi, sog‘liqni saqlash, savdo, sanoat, rayon ijroiya qo‘mitalariga rahbarlik va ularning ish faoliyatlarini o‘rganish kabi eng muhim masalalar etarli hal etilmagan” [6].

“Pravda Vostoka” gazetasining 1952-yil 12-yanvar sonida Farg‘ona viloyatidagi Sovetlarning tashkiliy-ommaviy ishlaridagi kamchiliklar haqida yozilgan: “Misol uchun, Farg‘ona viloyati. O‘tgan yilda viloyatdagi 89 ta qishloq Sovetida Konstitutsiyada ko‘zda tutilgan 12 ta sessiya o‘rniga atiga 2-3 martadan sessiya chaqirilgan. Oxunboboyev rayonida esa 1951-yilda 6 ta sessiya o‘rniga 2 marotaba sessiya o‘tkazilgan. Bu holatni boshqa rayonlarda ham uchratish mumkin. Farg‘ona shahar Sovetida ham sessiya chaqirish muddatlariga amal qilinmayapti” [7].

Mahalliy Sovetlari deputatlari o‘z faoliyatini asosiy ishidan ajralmagan holda olib borishgan. Saylovchilar o‘z deputatlariga maishiy, ijtimoiy va xalq xo‘jaligiga oid talablarni qo‘yishgan, deputatlar esa o‘z navbatida saylovchilari oldida amalga oshirgan ishlari yuzasidan ma’lum muddatlar oralig‘ida hisobot berib turishlari ko‘zda tutilgan. 1953-yildan boshlab O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi deputatlarning o‘z saylovchilar oldida hisobotlarini tashkil qilishga katta e’tibor bera boshlandi. Mazkur masala Sovetlarning yig‘ilish va sessiyalarida muhokama qilina boshlandi. Ijroiya komiteti rahbarlari deputatlarning saylovchilar oldidagi hisobot tadbirlarida ishtirok etib, saylovchilarning murojaatlariga, talablariga to‘g‘ri javob berishni o‘rgatishni boshlaydi. 1954-yildan boshlab Mahalliy Sovetlarning faoliyatini takomillashtirish, deputatlar ishini xalq bilan yaqinlashtirish choralari ko‘riladi. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi joylardagi Sovetlar faoliyatini maxsus o‘rganadi va ularning faoliyatini yaxshilash bo‘yicha muntazam O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komtiyetiga o‘z takliflarini bera boshlaydi [8].

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sharof Rashidovning SSSR Oliy Soveti Prezidiumi kotibi N.Pegovga 1954-yil sentyabrda yozgan xatida deputatlarning o‘z saylovchilari oldida hisobdorligi masalasida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lgani haqida ma’lumot beradi: “Juda foydali tajribani Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi yo‘lga qo‘ydi: doimiy komissiyalarning raislari haftaning har juma kunida saylovchilarni qabul qila boshlashdi. Bundan tashqari, deputatlar uchun obodonlashtirish, sog‘liqni saqlash, madaniy-ma’rifiy sohalarda ishlash borasida turkum ma’ruzalarni tashkil qildi [9].

Respublika Mahalliy Sovetlaridagi 45038 nafar deputatlardan 1953-yilda 21 123 nafari saylovchilari oldida hisobot berdi. 1954-yil yarim yilligida 16654 nafar, shundan 153 nafari viloyat, 1143 nafari shahar, 285 nafari shahardagi tumanlar, 1612 nafari tuman, 12672 nafari qishloq va 789 nafari posyolka deputatlari o‘z saylovchilari oldida hisobot berdi [10].

Stalining vafotidan keyin sovet jamiyati hayotida boshlangan o‘zgarishlar Mahalliy Sovetlarning ishida ham aks etdi. Mazkur o‘zgarishlar birinchi navbatda, deputatlarning omma bilan aloqalarini yaxshilashda namoyon bo‘ldi. 1956-yil fevralda bo‘lib o‘tgan KPSSning XX syezdi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. “KPSSning XX syezdi mehnatkashlar deputatlari Sovetlari hamda kasaba uyushmalarining ishini jonlantirishga, ularning madaniy va ijtimoiy qurilishdagi rolini oshirishga, xalqning talab va ehtiyojlarini qanoatlantirishdagi o‘rnini yaxshilashga alohida e’tibor qaratdi” [11].

1957-yil 22-yanvarda KPSS MKning “Mehnatkashlar deputatlari mahalliy Sovetlar faoliyatini yaxshilash va ularning omma bilan aloqalarini mustahkamlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinadi. Mazkur qarorda partiya tashkilotlari oldiga bir qator vazifalar, jumladan, Mahalliy Sovetlar faoliyatini takomillashtirish, ularning

faoliyatini tahlil qilib borish, partiya komitetlarining byuro majlislarida, plenumlarda mazkur masalaga alohida yondashishlari bo'yicha ko'rsatmalar aks etadi. Shu bilan birga, deputatlarning saylovchilar bilan ishlashida ularning talab va takliflariga alohida e'tibor berishlari, vazirlik va idoralarga mazkur talablar yuzasidan deputatlik so'rovlarni yuborishlari ko'zda tutiladi. Viloyat Sovetlarining majlislarida deputatlarning o'z saylovchilari oldida hisobot berishlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Mehnatkashlar deputatlari Farg'ona viloyat Soveti ijroiya komitetining VII sessiyasida deputatlarning hisobotlariga alohida to'xtalib o'tiladi. "1955-yilda oblast sovetining 27 deputati, rayon sovetlarining 60 deputati, shahar sovetlarining 80 deputati va qishloq hamda posyolka sovetlarining 357 deputati o'z saylovchilari oldida biror marta ham hisob bermagan.

1956-yilda deputatlik vazifalarining bajarilishi ustidan nazorat bir muncha yaxshilandi. Oblastdagi 5 061 deputatdan 4 949 deputat o'z saylovchilari oldida hisob berdi" [12]. 1950-yillar o'rtalaridan boshlab mahalliy sovetlar deputatlarining ishini yaxshilashda ayrim ijobiy o'zgarishlar ham kuzatiladi. 1955-yil mart oyidan 1956-yil mart oyigacha O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi mahalliy Sovetlarning tashkiliy-ommaviy ishlarini yaxshilashga qaratilgan 11 ta qaror imzolagan [13]. Mazkur qarorlarning aksariyatida deputatlarning omma bilan aloqalarini mustahkamlash, o'z saylovchilari oldida hisobot berish masalasi ko'zda tutilgan edi. 1950-yillarda Mahalliy Sovet deputatlarining o'z saylovchilari oldida hisobot berishi amaliyotida qator kamchiliklar ham mavjud edi. "50-yillar tajribasi shuni ko'rsatdiki, Sovetlar ishida xalq saylagan vakillarning o'z saylovchilari oldida hisobot berish tamoyili har doim ham yetarlicha e'tiborga ega bo'lmasdi. Hisobot – fuqarolarning Sovetlar va deputatlar ishi ustidan nazoratining muhim shakli sifatida talab darajasida amalga oshirilmadi" [14].

1950-yillarda Mahalliy Sovet deputatlarining tarkibida o'zgarishlar ro'y berdi. Shu yillarda deputatlar safiga oliy ma'lumotlilar, ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar soni sezilarli oshadi. Agar 1951-yil 23-fevralda bo'lib o'tgan uchinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetiga saylovlarda deputatlar orasida ishchilar 11,1%ni, kolxozchilar 23,8%ni tashkil etgan bo'lsa, 1959-yil beshinchi chaqiriqda mazkur ko'rsatkich mos ravishda 20,3% hamda 25%ni tashkil etdi [15]. Deputatlar tarkibida ishchilar sonining qariyb ikki barobarga ortishi jamiyatning turli sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu o'z navbatida respublikadagi iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarni hal etishda bevosita ilmiy ishlanmalar, bilim va tajribaga tayangan holda faoliyat yuritilishiga xizmat qildi. Respublikadagi mahalliy Sovetlar deputatlari orasida ham ishchilar va oliy ma'lumotlilar soni oshib bordi. Misol uchun uchinchi chaqiriq (1950-yil) viloyat Soveti deputatlarining 9,09% ishchilar, 21,6% dehqonlar tashkil qilgan bo'lsa, oltinchi chaqiriq (1957-yil) viloyat Soveti deputatlari tarkibida ishchilar 14,1%, kolxozchilar 27,4%ga etdi. 1959-yilga kelib, ettinchi chaqiriq

viloyat Soveti deputatlari tarkibida ishchilar 17%ga, kolxozchilar 31% oshgan bo‘lsa, xizmatchilarning ulushi 51%ni tashkil etdi [16].

XX asrning 50-yillarida Mahalliy Sovetlardagi deputatlarning tarkibida oliy ma’lumotli kadrlar ulushi ortib bordi. Agar 1950-yilda viloyat Soveti deputatlarining 13,1% oliy ma’lumotga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1959-yilda bu ko‘rsatkich 33,1% tashkil etdi. Tadqiq etilgan davrda Mahalliy Sovetlar faoliyatlar, deputatlar korpusi faoliyatining kuchaytirilishi bir qator omillar bilan bog‘liq edi. Mazkur omillar SSSR boshqaruvining hamda kommunistik partiyaning asosiy maqsadlarini namoyon etardi:

Birinchidan, “kommunizm qurish”dagi dolzarb vazifalarni hal qilishda hukmron partiya Mahalliy Sovetlarga tayandi, shu sabab oddiy insonlar nigohida uning jamiyatdagi nufuzini oshirishga intildi;

Ikkinchidan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonida Sovetlarning ishtiroki oshib borishi, uning tarkib jihatdan ham mustahkamlanishiga sabab bo‘ldi.

Uchinchidan, kommunistik partiya Sovetlarning jamiyat hayotidagi roli oshirishda turli g‘oyalardan, jumladan, “davlat boshqaruvida xalqning ishtirok etishi”, “xalq hokimiyatining mustahkamlanishi”, “demokratik saylovlari” va boshqalardan faol foydalandi.

To‘rtinchidan, 1950-yillarda O‘zbekiston SSRda mahalliy Sovetlar faoliyatining jonlanishi, ittifoqdosh respublikalar bilan deyarli bir xil kechdi. 1953-yildan keyin SSSRda boshlangan “iliqlik” jarayoni Sovet boshqaruvining tizimiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon Mahalliy Sovet deputatlarining faollashishida namoyon bo‘ldi.

Beshinchidan, O‘zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan 1950-1959-yillarda Mahalliy Sovetlarning faoliyatini yaxshilash, ularga tashkiliy-metodik yordam ko‘rsatish, xalq bilan aloqalarini mustahkamlashda ijobiylar amalga oshirildi. Bunda Oliy Sovet Prezidiumi raisi bo‘lib ishlagan Sharof Rashidovich Rashidovning hissasi katta bo‘ldi.

## **Adabiyotlar**

1. Коржихина Т.П. Советское государство и его учреждения: ноябрь 1917 г. – декабрь 1991 г. Москва: РГГУ, 1994. –С.218.
2. (основной закон) Узбекской Советской социалистической республики. Т.: Партиздат ЦК КП(б) Уз. 1938. С.14.
3. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 2949-ish, 3-v.
4. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 2346-ish, 17-v.
5. . O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 2346-ish, 17-v.
6. Qizil O‘zbekiston, 1952 йил 30 август. № 206

7. Правда Востока, 1952 йил 12 январ. №10.
8. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 4992-ish, 17-v
9. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 4992-ish, 11-12-v.
10. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 4992-ish, 12-v.
11. Советы за 50 лет. –Москва: «Мысл», 1967. С.393.
12. Farg`ona davlat arxivi, 1124-fond, 2-ro‘yxat, 2687-ish, 145-v.
13. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 5350-ish, 3-v.
14. Советы и управление. –Москва: «РИО ВЮЗИ», 1984. -С.94.
15. Советы депутатов трудящихся Узбекской ССР в цифрах (1925-1969).–Ташкент: «Фан», 1970. –С.78.
16. Советы депутатов трудящихся Узбекской ССР в цифрах (1925-1969). - С.237.

**TERMIN O‘ZLASHTIRISH TAMOYILLARI**  
**(agrар soha terminlogiyasi misolida)**

**Allayarova Z.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada agrar soha terminologiyasi misolida termin o‘zlashtirish tamoyillari haqida so‘z yuritilgan. Agrar sohadagi o‘zlashma terminlarning umumiy va xususiy jihatlari tahlillar asosida batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** faol terminologiya, globallashuv, agrar soha, dehqonchilik, vegetatsiya, agrotexnika, agronom, melioratsiya, plantatsiya, tutzor, chekanka, chilpimoq.

**ПРИНЦИПЫ УСВОЕНИЯ ТЕРМИНОВ**  
**(на примере аграрной терминологии)**

**Аллаярова З.Б. - преподаватель Шахрисабзского филиала  
Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматриваются принципы терминологии на примере сельскохозяйственной терминологии. На основе анализа подробно описаны общие и специфические аспекты усвоения терминов в аграрном секторе.

**Ключевые слова:** активная терминология, глобализация, аграрный сектор, сельское хозяйство, растительность, агротехника, агроном, мелиорация, плантация, шелковица, обмолот.

## **THE PRINCIPLES OF TERM ACQUISITION** (on the example of agricultural terminology)

**Allayarova Z.B - teacher of Shahrисабз branch of Tashkent State  
Pedagogical University**

**Annotation:** This article discusses the principles of terminology in the example of agricultural terminology. The general and specific aspects of assimilation terms in the agricultural sector are described in detail on the basis of the analysis.

**Key words:** active terminology, globalization, agrarian sphere, vegetation, agrotechnics, farming, agronomist, melioration, plantation, mulberry grow, pinching out.

Tillarning boyish manbalaridan biri o‘zga tillardir. Bugungi globallashuv sharoitida bu tendensiya yanada kuchaymoqda. Internet tizimidan foydalanish jadallahishi natijasida bir paytning o‘zida tillarning boyishi juda ko‘p tillarning o‘lishi jarayoni bilan birga kechmoqda. Shu boisdan tillarning sofligini saqlash absurd bir hodisa sifatida qaraladigan bo‘lib qoldi. Ayniqsa, “ihota devorlari” olib tashlangan sobiq ittifoq respublikalari tillarida buning yorqin dalilini ko‘rishimiz mumkin. Qaysi til axborot kommunikatsiyalari, Internet sohasida qo‘llanmas ekan, bunday tillarning leksikasi qashshoqlashib, ularning o‘lik tillarga aylanib borayotganligi ham sir emas. Xususan, Islandiya mamlakatining rasmiy tili bo‘lgan island tili, Rossiyaning Mordva, Kareliya avtonom respublikalarida amalda bo‘lgan tillarning o‘layotganligi ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmoqda. Ma’lumki, mordva xalqi erzya va moksha tilida gaplashadi. Lekin katta xalq o‘z ona tilida gaplashishni istamaydi. O‘zlariga ham, bolalariga ham ona tili kerak emas. XXI asr oxirida mordva tillarida o‘nlab kishi gaplashadigan bo‘lib qolishi haqida bashoratlar qilinmoqda. San’atkorlar, olimlar faqat o‘z kasblari taqozosiga ko‘ra bu tillarda gaplashishadi, xolos.

Tillarning leksik tarkibidagi o‘zgarishlar dunyo miqyosidagi bir necha asr davomida yuz berayotgan qator omillar ta’sirida sodir bo‘lmoqda. Ularni quyidagicha davrlashtirish mumkin: XIX asr – mustamlakachilik ta’sirida ; XX asr – shaharlashuv ta’sirida; XXI asr – globallashuv ta’sirida.

Ularni qisqacha sharhlashga harakat qilamiz.

XIX asrda boshlangan mustamlakachilik ta’sirida mustamlaka qiluvchi davlatning til unsurlari mustamlaka davlatlar tillarining leksik, ba’zi hollarda

grammatik jihatdan ham o‘zgarishiga – buzilishiga olib keldi. Masalan, hind tilida ingliz tilining britaniya varianti, afrika xalqlari tillarida fransuz, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ingliz tilining AQSH varianti, Markaziy Osiyo mamlakatlari tillarida rus tilining, garchi bu xalqlar mustamlaka zanjirlaridan xalos bo‘lgan bo‘lishsa-da, behad katta miqdordagi ta’sir qoldiqlari saqlanib qoldi. Xususan, o‘zbek tilidagi rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning miqdorini aniqlash oson ish emas. Ayniqsa, bu fan, san’at va ishlab chiqarishdagi faol terminologiyada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Kishilarning shaharlarga intilishi XX asrning eng katta migratsion hodisasiidir. Shaharlashuv (urbanizatsiya), bir tomondan, tillarning o‘lik tilga aylanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yashab qolayotgan kichik tillar vakillari leksikasiga “begona” unsurlarning kirib olishini benihoya tezlashtirdi [1].

Bugungi globallashuv sharoitida tillarning boshqa tillardan, aniqrog‘i, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni, boshqa tillarga xos so‘zlarning ingliz tili imlosi va talaffuziga moslashgan variantlarini qabul qilish jarayoni shiddatli tus olmoqda.

Albatta, globallashuv jarayonining o‘ziga xos ijobiy tomonlari ham bo‘lib, bu tillarning boyishi, hamkorlik qilishida ko‘zga tashlanib turadi. Ayniqsa, ma’lum bir tilda mavjud bo‘lmagan, o‘z atalmishi bilan hayot va tilga birga kirib kelayotgan son-sanoqsiz so‘zlar ham borki, ularni tilni boyituvchi to‘la ma’nodagi olimmalar sifatida baholash mumkin. Biroq tildagi biror so‘zni siqib chiqarish yoki uning qo‘llanish doirasini toraytirishga olib kelayotgan, ma’no-mohiyati, lisoniy qiymati jihatidan siqib chiqarilayotgan so‘zdan ustunlikka ega bo‘lmagan birliklarning kirib kelishini ijobiy baholab bo‘lmaydi va bunday holatlardan tilni himoya qilish zarurati mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi *qorovul* so‘zi o‘rnida ommalashayotgan, bu so‘zning qo‘llanish doirasini ma’lum darajada cheklashga olib kelayotgan *security*, tanlov so‘zi o‘rnida qo‘llanayotgan *kasting* kabi so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Albatta, so‘z o‘zlashtirish jarayonida qator qonuniyat va tamoyillarga asoslaniladi. Bir qarashda so‘z o‘zlashtirish hodisasi xaotik ravishda sodir bo‘ladigan jarayondek tuyulsa-da, aslida har bir so‘zni qabul qilishda qat’iy qonuniyatlariga tayaniladi, bu qonuniyatlar ilmiy yondashuvda tamoyillar, qoidalar sifatida sistemalashtiriladi. Tilga qabul qilinayotgan so‘zlar ushbu qonuniyatlardan qaysi biri asosida ekanligini asoslash, sabablarini tahlil qilish, mantiqiy-lingvistik, kognitiv-psixologik asoslarini ochib berish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Tilshunos B.Mengliyev o‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirish, xorijiy so‘zlarning tilga kirib kelishi masalalarini tadqiq qilar ekan, so‘z o‘zlashtirishning bir necha tamoyillarini keltiradiki, nazarimizda, masalani kun tartibiga qo‘yish maqomidagi ushbu tadqiqotni yanada rivojlantirish zarur[2].

Ma’lumki, o‘zbek tiliga agrar sohaga tegishli ko‘plab terminlar o‘zlashganki, ularning o‘zlashish sabablari, qulaylik va maqbul jihatlari, terminlar ma’no-

mohiyatining o‘z tilimizdagi nisbiy muqobili mavjud so‘zlarga munosabati masalalarini tekshirish va oydinlashtirish hamda tegishli xulosalar berish zarurati mavjud. O‘zbek tiliga o‘zlashgan agrar soha terminlarini o‘zlashish sabablariga ko‘ra tasniflash ushbu xulosalarni berishning asosini tashkil qiladi.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan agrar soha terminlarini ikki guruhgaga ajratish mumkin:

o‘zbek tilida muqobil leksemasi bo‘lmagan, lakunani to‘ldiruvchi agrar soha terminlari: agrar tanglik, agrobiznes, agrobiologik, agrobiologiya, agrobiotsenoz, agrogidrologiya, agroirrigatsion, agrokimyo, agromelioratsiya, agrometeorologiya, agronom, agronomik, agronomiya, agrotexnik, agrotexnika, agrotexnologiya, agrotuproq, agrofizika, agrofirma, agrofon, agroelektronika kabi;

o‘zbek tilida nisbiy muqobil leksemasi bo‘lgan agrar soha terminlari: agrar soha – dehqonchilik, vegetatsiya – rivojlanish, vegetatsiya davri – rivojlanish davri, melioratsiya – yaxshilash, chekanka – chilpish, kultivator – kultivatsiyalovchi kabi.

So‘zlarni o‘zlashtirish, aytilganidek, o‘ziga xos tamoyillar asosida sodir bo‘lar ekan, o‘zlashma agrar soha terminlarini shu nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga, o‘zlashish sabablarini sharhlashga harakat qilamiz.

**Farqlash tamoyili.** Ma’lumki, o‘zbek tilidagi dehqonchilik so‘zi ming yillar davomida o‘zbek xalqining jonli nutqining mulki bo‘lib qolgan. Bu so‘z o‘z mohiyat e’tibori bilan xalqimizning uzoq asrlik turmush tarzi, erga munosabati, dunyoqarashi kabilarni ifodalab, unga zo‘rma-zo‘rakilik bilan yangi ma’no qirralarini “yopishtirib” bo‘lmaydi. Bu so‘z tilimizda erga ishlov berish va hosil olishning jaydari usulini ifodalaydi va zamonaviy hamda sanoatlashgan ziroatchilikning mohiyatini to‘la ma’noda bera olmaydi. Shu boisdan jaydari va ilmiy ziroatchilikni farqlash maqsadida agrar soha birikmali termini o‘zbek tiliga qabul qilingan. Birikma, ikkinchi tomondan, ilmiy va rasmiy uslub mulki bo‘lib, uslubiy bo‘yoq dorlik nuqtayi nazaridan ham o‘zaro farqlanadi. Demak, nutqning yozma va og‘zaki shakllarida qo‘llanish, shuningdek, uslubiy jihatdan farqlash ehtiyoji mazkur birikmaning qabul qilinishiga sabab bo‘lgan. Albatta, har ikki ifodani bir-birini to‘la ma’noda qoplovchi til ifodalari sifatida baholab bo‘lmaydi. Agrar soha birikmasi dehqonchilik so‘zini u sohani ifodalovchi birlik maqomida qo‘llangandagina almashtirishi mumkin. Masalan, Mamlakatda dehqonchilik keng rivojlanmoqda. Agrar soha va dehqonchilik terminlari orasida farqlash tamoyili ustuvorlik qilgani holda qulaylik tamoyiliga riosa etilmaganligini ham ko‘ramiz. Chunki, istaymizmi-yo‘qmi, yaxlit so‘z o‘rnida so‘z birikmasini qo‘llash, og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham noqulaylikni keltirib chiqaradi. Biroq agrar soha birikmasining harf va tovushlari soni dehqonchilik so‘ziga nisbatan ikkitaga kamligi bu holatni oqlaydi.

**To‘ldirish tamoyili.** Har qanday tilda lakuna mavjud bo‘lib, bu tilning boyib borish imkoniyati va ehtiyojiga egaligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu tilning terminologik

tizimida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu, albatta, so‘z o‘zlashtirishning farqlash tamoyili bilan omuxtalashgan holda sodir bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi qator so‘zlar ma’lum darajada o‘zlashayotgan terminlarning ma’nolarini bera oladi. Lekin tildagi mavjud so‘zlarning ijtimoiy ongda muqimlashgan va qo‘llanishda an’analashgan ma’noviy va funksional mohiyati terminologik ahamiyat kasb etishiga to‘sinqlik qiladi. Misol sifatida, vegetatsiya terminini olib ko‘raylik. **VEGETATSIYA** (lot. vegetatio — uyg‘onish, jonlanish) — o‘sish, ko‘karish, o‘simlik organizmining faol holatini ifodalaydi. U o‘zbek tilidagi ulg‘ayish, o‘sish, rivojlanish so‘ziga qisman muvofiq keladi. Biroq ulg‘ayish so‘ziga terminologik tus berish uchun uning an’analashgan mohiyati halaqit beradi. Ikkinchidan, uning denotativ ma’no mohiyati atalmishga nisbatan kengroq bo‘lib, u ma’lum darajada mavhumlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, vegetatsiya termini “o‘sish” ma’nosini ifodalaganda faqat o‘simliklarning o‘sishini, “ko‘karish” semasi bilan faqat o‘simlikni, faol holat deganda, jonli organizmlarga ham, jonsiz hodisalarga ham (masalan, vulqon, zilzila kabi) xos bo‘lgan holatning faqat o‘simliklarga tegishli qismini qamrab oladi. Vegetatsiya terminining lisoniy qiymatiga konseptual jihatdan nazar tashlar ekanmiz, bunda quyidagi freymlarni ajratish mumkin bo‘ladi:

1. vegetatsiya – o‘simliklarga xos jarayon;
2. vegetatsiya – o‘simlik o‘sib chiqqandandan faollik to‘xtaguncha bo‘lgan jarayon;
3. vegetatsiya – biologik jarayon;
4. vegetatsiya – tiriklik belgisi.

Bu freymlarning ba’zilari o‘sish, ulg‘ayish, rivojlanish birliklari mohiyatida mavjud. Ammo bu leksemalarning mohiyatida bundan boshqa ma’noviy unsurlar katta hissani tashkil etadi. Agar leksema mohiyatida muayyan denotat ifodasi uchun xos ma’noviy qiymat ko‘p hissani tashkil etsa, uni shu denotatga nisbatan terminologik ifoda sifatida qo‘llash mumkin bo‘ladi. Yuqorida aytilgan so‘zlarda bu holat kuzatilmaydi.

Bu quyidagi xulosalarga olib keladi:

Birinchidan, tildagi lakunar holatni mutlaqlashtirish ma’qul emas. Ma’lum bir tildagi lakunar holat uchun ushbu tilning xazinasida ma’lum bir ifodalar mavjud bo‘ladi. Ayniqsa, hodisani birikma bilan ifodalash imkoniyati keng va etarlidir.

Ikkinchidan, so‘z qo‘llashdagi boshqa tamoyillarning ham ayni paytdagi faolligi (masalan, farqlash, qulaylik va b.) aynan bir tamoyilga ustuvorlik berishga halaqit beradi.

Uchinchidan, o‘zlashayotgan va nisbiy lakunar pozitsiyani to‘ldirayotgan so‘zdagi ixtisoslashuv uning qabul qilinishidagi ustuvorligini kuchaytirib yuboradi.

**Qulaylik tamoyili.** “Inson tabiatida yalqovlik mavjud, buni inkor etib bo‘lmaydi. Kam quvvat sarflab, ko‘p samaraga erishish nutqiy faoliyatda ham ko‘zga tashlanadi. Til kam quvvat sarflanadigan variantlarga intiladi.” Bu tamoyil terminlarni o‘zlashtirishdagi boshqa tamoyillar bilan birga amal qiladi.

Demak, og‘zaki yoki yozma nutq, talaffuz va imlo, qo‘llash va anglash uchun qulaylik tug‘diruvchi variantni tanlash ushbu tamoyilning mohiyatini tashkil etadi.

**Aynanlik tamoyili.** Bu tamoyil lakunalarni to‘ldirish maqsadida so‘z o‘zlashtirish jarayoniga xosligi bilan xarakterlanadi.

Ma’lumki, o‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirishda ko‘p hollarda aynanlik tamoyili ustuvorlik qiladi. Bu tamoyilni sharhlashda tilshunos B.Mengliyev mutafakkir Alisher Navoiyning qarashlariga metodologik asos sifatida tayanadi[2]. Olimning uqtirishicha, turkiy xalqlar talaffuz imkoniyatlarining naqadar kengligi, artikulyatsiya apparatining qay darajada universalligi Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida alohida e’tirof etilgan va asoslab berilgan . “Bu o‘zga tillardan so‘zlarni o‘zlashtirishdagi nisbiy aynanlik tamoyili o‘zbek adabiy tili uchun, ayniqsa, xos ekanligini ko‘rsatadi. Millatning saviyasi o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlarga munosabatda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun o‘zga tillarga mansub so‘zlarni shu til egalari talaffuz va imlo imkoniyatlari darajasida nisbatan aynan olishga intilish milliy yuksalishga xizmat qiladi” [3]. Aks holda, haqiqatan ham, o‘zbek tiliga g‘arb tillaridan o‘zlashgan melioratsiya so‘zini meloratsiya, agrotexnika so‘zini agratexnika, agronom so‘zini agiranom shaklida olishimizga to‘g‘ri kelar edi.

Imlo va talaffuz bir-birini taqozo etuvchi hodislardir. Imlo qoidalarini yaratishda talaffuz xususiyatlariga tayanilganligi kabi, so‘zlarning imlosi talaffuzga ham ta’sir qiladi. Xususan, o‘z qatlamga oid so‘zlarning imlosida aksar hollarda talaffuzga rioya etiladi. Boshqacha aytganda, o‘z qatlam birliklarining talaffuzi imloni belgilashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin o‘zlashma qatlam birliklarini talaffuz qilishda ularning imlosi ma’lum darajada rol o‘ynaydi. Aslida o‘zbek tilining talaffuz imkoniyatlari o‘zlashma so‘zlarni qabul qilishda aynanlik tamoyiliga rioya etishga sabab bo‘lsa, aynanlik tamoyili qabul qilingan so‘zning talaffuzini ham belgilaydi. Agar o‘zbek tilining talaffuz imkoniyatlari yo‘l qo‘ymasa, so‘zni o‘zlashtirishda ushbu tamoyilga tayanilmas edi. O‘zbek tilidagi aksar agrar soha terminlari aynanlik tamoyili asosida qabul qilingan. Quyida plantatsiya terminini shu jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida termin quyidagicha izohlangan:

“PLANTATSIYA [lot. plantatio — o‘simplik o‘tqazish, ekish] 1 Faqat birgina maxsus ekin ekilgan katta er maydoni. Choy plantatsiyasi. Paxta plantatsiyalari. Har yili 25-30 hektar yangi plantatsiya barpo qilinyapti. Gazetadan.

2. Aloida ekinlar, mas, shakarqamish, paxta, choy, kofe kabilar etishtiriladigan yirik dehqonchilik xo‘jaligi. Tog‘ yonbag‘irlari, adirlar, cho‘l, sahro

zonalarida yirik bog'dorchilik plantatsiyalarini tashkil etishga kirishaylik. Gazetadan” [4].

Plantatsiya termini o'zbek tilidagi ekin maydoni birikmali ifodasining nisbiy muqobili. Lekin terminlagi “birgina ekin ekilgan” semasi uning ayni birikmadan farqini ko'rsatib turibdi. Ekin maydoni birikmasi ekinding turli yoki bir xillik belgisini betaraf ifodalaydi. Lekin o'zbek tilida bug'doy plantatsiyalari, arpa plantatsiyalari, qovun yoki tarvuz plantatsiyalari kabi birikmalarni tuzish g'ayrinutqiyligi bilan xarakterlanadi. Ammo shakarqamish plantatsiyasi birikmasi qo'llanadi. Buning o'ziga xos milliy mental va kognitiv sabablari bor.

Birinchidan, o'zbek tilida qadimdan bug'doyzor, arpapoya, qovunpoya, sholipoya, paxtazor, olmazor, o'rikzor, makkapoya/jo'xoripoya, bog'zor kabi qisqa va lo'nda, obyektni aniq ifodalaydigan birikmalar qo'llanib keladi va ularning o'rnini xalq nutqida “bir quloch” arpa plantatsiyasi, bug'doy plantatsiyasi kabi birikmalar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, tut plantatsiyasi va tutzor atov birliklari orasida o'ziga xos farqlar bor. Odatda, xoh kichik, xoh katta maydonda o'sgan tutlar majmui tutzor deyilaveradi. Ammo katta maydonda o'sgan tutlar majmuigina tut plantatsiyasi deyilishi mumkin. Qolaversa, odatda, plantatsiya ifodasi qatorlashtirib, sistemali ekilgan ekinlarga nisbatan qo'llanadi. Quyida plantatsiya terminining qomusiy sharhini tahlil qilish asosida bunga amin bo'lamiz.

O'zbek milliy ensiklopediyasida sharhanishicha, plantatsiya tushunchasi ikki jihat bilan xarakterlanadi va bu O'TILdag'i izohi bilan muvofiq keladi:

- yirik dehqonchilik xo'jaligi;
- qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan katta er maydoni [5].

Yuqorida aytilganidek, o'zbek tilidagi bug'doyzor, arpapoya, qovunpoya, sholipoya, paxtazor, olmazor, o'rikzor, makkapoya/jo'xoripoya, bog'zor so'zları o'rnida “...plantatsiyasi” birikmasining o'zbek milliy ongida muqimlashmaganligi va uni qo'llashning og'zaki nutqda ommalashmaganligining sababi qomusda ochib berilgan: “Bunday xo'jaliklarda, asosan, tropik, subtropik ekinlar – paxta, choy, shakarqamish, kofe va b. etishtiriladi”. Plantatsiya terminining asl mohiyatini ochishda tropik/subtropik ekinlar birikmasi bilan bir qatorda, mustamlakachilik, qullar so'zları ham katta ahamiyatga ega bo'lib, terminining hosila ma'nosi garchi “qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan katta er maydoni” tarzida shakllangan bo'lsa-da, uning botinida birlamchi mohiyat “mustamlakachilar tomonidan qullar mehnatidan foydalanib hosil olishga mo'ljallangan tropik/subtropik ekinlar ekiladigan katta er maydoni” ma'nosi bo'rtib turadi.

Demak, plantatsiya ifodasining o'zbek agrar sohasi terminologiyasiga o'zlashishining bosh sababi uning sistemali ekin ekiladigan katta er maydonlarini ifodalash ehtiyoji va o'zbek tilidagi –zor affiksli birliklardan ma'noviy muayyanligi

bo'lsa, xalq tilida ommalashmaganligining sababi, birinchidan, uning qulaylik tamoyiliga mos kelmasligidir. Bu holat badiiy, rasmiy, ilmiy va ommabop uslublarda ham –zor komponentli so‘z-terminlarning ustuvorligini ta'minlagan.

**Muayyanlik tamoyili.** Tilda mavjud umumiste'mol so‘zlar lsoniy qiymati va ko‘lamining kengligi, serqirraligi bilan xarakterlanadi. Bu ko‘lamdorlik va serqirralik ularning terminologik qo‘llanishiga to‘sinqilik qiladi. Terminlarga qo‘yiladigan asosiy talab ularning bir ma’noliligi bo‘lib, bu holat ma’no ifodalash va uni anglashning muayyanligini ta’minlaydi. Yuqorida aytilganidek, o‘zbek tilida rivojlanmoq so‘zining ijtimoiy, siyosiy, biologik, fizik, kimyoviy hodisalarga nisbatan qo‘llanadigan qator ma’nolari bo‘lib, ular orasidan faqat bittasi o‘simliklarning ulg‘ayishini ifodalaydi. Lekin vegetatsiya faqat bitta ma’noni muayyan ifodalay oladi.

So‘z o‘zlashtirishning ushbu tamoyili har qanday so‘zlarni emas, balki, asosan, terminlarni o‘zlashtirishga nisbatan amal qiladi. O‘zlashayotgan umumiste'mol so‘zlariga nisbatan bu tamoyilni qo‘llash to‘g‘ri emas. Zero, umumiste'mol so‘zlarining an'anaviy ma’no-mohiyatni ifodalash imkoniyati har qanday o‘zlashma so‘znikidan yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Terminlardagi muayyanlik tamoyili haqida gap ketganda, terminologik omonimiya, sinonimiya, polifunksionallik, qo‘shma’nolilik masalalari haqida ham to‘xtalishga to‘g‘ri keladiki, biz o‘zbek tilshunosligida bu borada maxsus izlanishlar olib borishgan tadqiqotchilar X.Narxodjayeva, G.Tojiyeva kabilarning monografiyalariga e’tiboringizni qaratish bilan cheklanamiz[6].

**Zamonaviylik tamoyili.** So‘z o‘zlashtirishda, xususan, ilmiy terminlarning qabul qilinishida zamonaviylik tamoyili alohida o‘rin tutadi. Bu tamoyil amal qilishida ikki xil tendensiya ish ko‘radi.

Birinchidan, fan-texnika va texnologiyaning taraqqiy etishi natijasida borliq hodisalarining ochilayotgan so‘nggi qirralarini lisoniy vositalarda ifodalash, shu bilan birgalikda, tobora kuchayib borayotgan dunyo miqyosidagi integratsiya girdobidan chetda qolmaslik, sivilizatsiya bilan hamqadam ilgarilash, jahonning ilg‘or tajribasidan unumli, oqilona va samarali oziqlanish ehtiyoji tilimiz uchun yangidan-yangi boyliklar eshiklarini ochmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz agrar sohalarining rivojida ilg‘or agrar texnologiyalarni o‘zlashtirish, chet el investitsiyalarining kirib kelishi va ular uchun barcha qulay shart-sharoitlarning yaratilayotganligi ushbu soha terminologiyasining keskin darajada boyishiga sabab bo‘lmoqda. Xalqaro texnik-texnologik hamkorlikning kuchayishi, yangiliklarning o‘zlashtirilishi turli sohaviy terminlogik lug‘atlarning yaratilishini taqozo etmoqda. Natijada sohaga doir izohli va tarjima lug‘atlarning an'anaviy va zamonaviy turlarini yaratish ustida jiddiy ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu holat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish

to‘g‘risidagi Farmonda alohida uqtiriladi. Farmonda bunga doir vazifalar bir necha o‘rinlarda keltiriladi: “Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o‘ta muhim tarmoqlarda o‘zbek tili o‘zining haqiqiy o‘rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug‘atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish.

Hozirgi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida o‘zbek tili va adabiyotining o‘ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning hamda ushbu soha bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish” [7]. Bu vazifalar sirasida O‘zbekiston YAIMda muhim o‘rin tutadigan agrar sohaga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalari, lug‘at va qomuslar, spravochniklar yaratish ham mavjud, albatta.

Tarjima va izohli terminologik lug‘atlar yaratishda so‘z tanlash muammosi alohida o‘rin tutadi. To‘g‘ri, o‘zbek xalqi qadimdan dehqonchilik bilan shug‘ullanib keladi va erga ishlov berish va hosil yetishtirish, boshqacha aytganda, dehqonchilik madaniyati jihatidan dunyodagi yetakchi o‘rinlardan birini egallyaydi. Ammo bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti dunyo tajribasini tezkorlik bilan o‘zlashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bir tomondan, xalqimizning unumdor, serquyosh va saxovatli zamin, dono va mehnatkash sohibkorlarga egaligi mamlakatimiz agrar sohasi taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyat. Biroq, ikkinchi tomondan, mamalakat sug‘orma dehqonchiligi transchegaraviy suv manbalariga bog‘liqligi obihayot taqchilligi muammosining kundan-kunga kuchayib borishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun sug‘orish tizimini takomillashtirishda dunyoning kamyob, biroq agrar sohada ilg‘or mamlakatlari dehqonchilik tajribalarini o‘zlashtirish agrar sohaning taraqqiyoti uchun garovi ekanligi kundan-kunga ravshanlashib bormoqda. Bu, birinchidan, sug‘orish tizimini takomillashtirish, ikkinchi tomondan, suvni kam iste’mol qiladigan navlarni yaratish va olib kelish hamda iqlimlashtirish vazifasini oldimizga qo‘yadi. Uchinchidan, dunyo miqyosida tabiat tozaligiga xavf solinayotgan, ekologik muhitni ayanchli ahvolga solib qo‘yayotgan global texnogen vaziyat agrar sohada melioratsiya ishlarining samaradorligini ham tubdan yaxshilashni, bunda jahonning ilg‘or agrar davlatlari tajribasini o‘zlashtirib borishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z-o‘zidan agrar sohaga tegishli amaliy samarador ilmiy boyliklardan muttasil oziqlanib borishni kun tartibiga dolzarb vazifa sifatida qo‘yadi.

Umuman olganda, agrar sohaning xalqaro tajribalar asosida rivoji juda ko‘plab terminlarning ongli-ongsiz ravishda tilga kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Agroiqtisodiyot, agrotexnologiya, agrobiologiya sohalarida minglab yangi terminlar til leksik zaxirasiga kirib kelmoqdaki, ularni tartibga solish, yangidek tuyulgan, biroq o‘z tilimizda to‘laqonli va qulay muqobili bo‘la turib, qo‘llanishi kengayib borayotgan so‘zlarni aniqlash nafaqat tilshunos, balki agrar va boshqa daxldor soha mutaxassislarining ham oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Zero, terminlogiya tizimi nafaqat ishlab chiqarish va ilmiy-tekshirish sohalarining quroli, balki agrar soha bo‘yicha mutaxassisliklarning ham faol leksikasiga aylanib boradi. Bu esa borliqning lisoniy tasnifida g‘ayrimilliy unsurlar rolining noo‘rin kuchayishiga, o‘zga til elementlarining o‘rinsiz o‘zlashishiga, umuman olganda, lisoniy muhitdagi o‘z qatlam birliklarining mantiqsiz siqib chiqarilishiga olib keladi.

Xalqning moddiy rivojlanishi, hech qachon ma’naviy o‘pirilishlar evaziga sodir bo‘lmasligi kerak. Masalan, o‘zbek tilida “egat olish va ekin ekish uchun reja chizig‘i tortuvchi asbob” ma’nosini beruvchi ko‘hna xatkash so‘zi ijtimoiy ongdan mustahkam o‘rin olgan bo‘lishiga qaramay, zamonaviy ifoda qo‘llashga intilish natijasida agrar sohada *marker* so‘zining uni siqib chiqarganligi fikrimizning dalilidir. To‘g‘ri, *xatkash* so‘zi ham tilimiz uchun o‘zlashma – u fors tilidan kirib kelgan, biroq o‘zlashma va olinma so‘zni farqlash lozimligidan kelib chiqilsa, *xatkash* so‘zi o‘zbek tilining to‘la ma’nodagi ma’naviy mulkiga aylanib qolgan. Yoki agrar sohada “g‘o‘zaning, uzumning yuqori shoxlarini yoki yuqori shox uchlarini qirqish, uzish” ma’nosini beruvchi jarayon termini chilpish so‘zi mavjud. Ammo ham imlosi, ham talaffuzi o‘zbek tili uchun noqulay bo‘lgan *chekanka* so‘zining mazkur so‘zni siqib chiqarganligi haqida shunday deyish mumkin. Agar *chilpish* so‘zi ilmiy terminologiyada qo‘llanmaganida va uning o‘rnida *chilpish*, *chilpimoq* so‘zi ishlatilganda bunday holat sodir bo‘lмаган bo‘lur edi. Albatta, o‘zbek tilining izohli lug‘atida *chilpimoq* so‘zlarining borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. E’tibor qiling:

CHILPIMOQ 1 q.x. O‘simlikni bo‘yiga o‘sishdan to‘xtatish, hosil to‘plash, tezroq etiltirish maqsadida ularning bachki shoxlarini yoki hosil novdaning uchki qismini yulib yoki kesib tashlamoq; chekanka qilmoq.

Ko‘rinadiki, *chilpimoq* so‘zining *chekanka qilmoq* so‘zi bilan tenglashtirilishi, shuningdek, uning chilpish shaklida, ya’ni jarayon anglatuvchi termin ko‘rinishida lug‘atga kiritilmaganligi ham bunga sabab bo‘lgan. “O‘zbek milliy ensiklopediyasi” bu borada ilg‘or pozitsiyada turadi va chekanka tushunchasini bermay, chilpimoq so‘zining terminologik shakli bo‘lgan chilpish tushunchasini qayd etadi [8].

Ko‘rinadiki, lug‘atlar tartib berish va qo‘llashda zamonaviylik va zamonasozlik tamoyillarini farqlash lozim bo‘ladi.

## **Adabiyotlar**

1. Изчезающие языки // www.гарсгин.ру; Умирающие языки // www.эксперт.ру; Пять изчезающих языков бывшего СССР // www.моя-планета.ру
2. Mengliyev B.R. Imlo – millatning yuzi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2016, - № 5. – B.
3. Хакимова Ш.Р. Лакуны как лингвистическое явление // Молодой ученик. 2015. - № 1. – С. 420-422.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 7-tom. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 92.
6. Narxodjayeva X. Monografiya. ; Tojiyeva G. Monografiya
7. “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 9-tom.

**CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MODULLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH**

**Jalilov N.A. - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chaqiriqqacha  
harbiy ta’lim) mutaxassisligi magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik samaradorligini oshirishda modulli texnologiyalardan foydalanish masalalari, mashg‘ulotlarni yuqori darajada tashkil etish va olib borish uchun ilg‘or pedagogik innovatsion texnologiyalarni to‘g‘ri joriy etilishi, texnologiyalashtirish jarayonida faktlarni tahlil qilishi bilan xulosa chiqarish masalasi yoritilgan. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni o‘qitish jarayoniga yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi yondashuvlarning metodologik xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** konsepsiya, ilmiy va innovatsion faoliyat, fan va ishlab chiqarish, integratsiya, ta’lim tizimi texnologiyasi, individuallashtirish, mustaqil va amaliy mashg‘ulotlar.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДУЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В  
ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА НАЧАЛЬНОЙ ДОПРИЗЫВНОЙ  
ПОДГОТОВКИ.**

**Жалилов Н.А - Магистрант направления Теория и методика  
обучения и воспитания ( военная допризывная подготовка)**

**Аннотация.** В данной статье освещаются использование модульной технологии для повышения качества занятий по начальной допризывной подготовке, правильное использование инновационных технологий в качественной организации и проведении занятий, а так же задачи вывода с помощью анализа фактов в процессе технологизации. В статье раскрыты методические свойства при применении новых инновационных технологий в процессе обучения начальной допризывной подготовке.

**Ключевые слова:** концепция, научная и инновационная деятельность, наука и производство, интеграция, технология системы образования, индивидуализация, практические и самостоятельные занятия.

**THE USE OF MODULAR TECHNOLOGY IN IMPROVING THE  
QUALITY OF INITIAL PRE-CONSCRIPTION TRAINING.**

**Jalilov N.A. - Master student direction: Theory and methods of teaching  
and upbringing. (military pre-conscription training).**

**Annotation.** This article highlights the use of modular technology to improve the quality of classes in initial pre-conscription training, to correctly use innovative technologies in the quality organization and conduct of classes, as well as the tasks of inference by analyzing the facts in the process of technologization. The article reveals the methodological properties when applying new innovative technologies in the process of teaching initial pre-conscription training.

**Key words:** Concept, scientific and innovative activity, science and production, integration, technology of the education system, individualization, practical and independent studies.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni oliy ta’lim hamda oliy harbiy ta’lim tizimi oldiga qator muhim vazifalarni belgilab berdi [1]. Ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda mustaqil va amaliy mashg‘ulotlar ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida kredit-modul tizimiga

o‘tkazish bilan o‘quvchi (kursant)larni o‘qitishni jadallashtirish kabi masalalar kun tartibining dolzarb vazifasiga aylandi. Ayniqsa rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlaydigan harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarini o‘z maqomiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalariga tenglashtiririldi [2].

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972-yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Bu sohalardagi izlanishlarga ko‘ra, to‘qimasi modulli tashkil topgan inson miyasi, axborotni kvant ko‘rinishda (boshqacha aytganda, ma’lum hissalar ko‘rinishida) eng yaxshi jihatdan qabul qiladi.

Harbiy mashg‘ulotlarni olib borishdagi ta’lim berish ham xuddi boshqa soha fanlaridagi kabi ta’lim jarayoni (mashg‘ulot rahbarining faoliyati) va o‘zlashtirish jarayoni (kursant, faoliyati)dan iborat bo‘ladi.

O‘quvchi kursantlarning o‘zlashtirish jarayonidagi faoliyatlarini bilim, ko‘nikma va malakalarni egallahdan iborat bo‘lib, ta’lim jarayoni esa tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘langan holda amalga oshiriladi [3].

Harbiy ta’lim berish bo‘yicha pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda mashg‘ulotlarning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olinishi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Modulli o‘qitish, harbiy ta’limning ham quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatliylik yondashuvi asosida o‘qitish mazmunini maqbullah va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlash;

- o‘qitishni individuallashtirish;

- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;

Kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o‘qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin: fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi o‘qitish texnologiyalari.

Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha konsepsiylar zamirida faoliyat yondashuvi yotadi va bu nuqtayi nazardan, o‘qitish jarayoni to‘laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta’lim dasturi mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini o‘quvchi tomonidan ketma-ket o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Turli konsepsiylar doirasida, modulli ta’lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo‘ladi, turli shakldagi hujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o‘z ichiga oladi:

- maqsadli mazmuniy dastur;
- turli ko‘rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki;
- o‘quvchilar uchun uslubiy ko‘rsatmalar.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik samaradorligini oshirishda modulli texnologiyalardan foydalanish masalalarini endilikda mashg‘ulotlarni yuqori darajada tashkil etish va olib borish uchun ilg‘or pedagogik innovatsion texnologiyalarni mantiqiy to‘g‘ri joriy eta olishi, texnologiyalashtirish jarayonida faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishlariga, shuningdek kasbiy malakaviy talablarga og‘ishmay bo‘ysunishiga to‘g‘ri keladi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni o‘qitish jarayoniga yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasiga esa ikki xil yondashuv bilan qarash harbiy ta’lim mashg‘ulotlarning olib borish prinsiplariga zid kelmaydi.

Birinchi yondashuvda fan mashg‘ulotlarining samaradorligi nafaqat yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo‘llanishiga, balki O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning umumharbiy Nizomlari talablari, shuningdek bevosita o‘quv-moddiy baza, moddiy ta’midot, o‘quv qurol va tabel buyumlar bilan ta’minlanganligi hamda mashg‘ulot rahbarining tayyorgarlik darajasiga, bog‘liq deb qaraladi va shu o‘rinda yangi innovatsion texnologiyalarni amaliy mashg‘ulotlarga qo‘llanishini ko‘zda tutmaydi.

Ikkinci yondashuvda esa birinchi yondashuvning mazmunini to‘liq inkor etmagan holda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilinadi [4].

Ma’lumki, modulli o‘qitishning mohiyati shu bilan izohlanadiki, unga ko‘ra, ta’lim oluvchi o‘ziga taqdim etilgan individual o‘quv dasturi asosida mustaqil tayyorgarlik ko‘radi. Bu o‘quv dasturini bajarish uchun harakatlar rejasи, axborotlar majmuasi, o‘qitish natijalariga erishish bo‘yicha aniq metodik tavsiyanomalar bo‘lishi zarur [5].

Modulli o‘qitishning asosiy talablari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- har bir modulning mazmuniga barcha materialni o‘zlashtirib olish bo‘yicha maqsad belgilashni;

- modul bir va bir necha didaktik maqsadga erishishni ta’minlashga qaratilishi;

- modular mazmuni mustaqil fikrlash, mantiqiy o‘ylash va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

- kasbiy-ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulning o‘quv materiali mazmuni muammoli tarzda berilishiga erishish shular jumlasidandir.

Modulli o‘qitishda ta’lim oluvchilarning bilim, malaka, ko‘nikmasi qat’iy ravishda nazoratning reyting tizimida baholanishini zaruriyat qilib qo‘yadi.

Har bir modul bo‘yicha tayyorlanadigan o‘quv materiallari o‘z ichiga o‘qish davrini to‘liq qamrab olgan modulli dastur, har bir modul bo‘yicha nazariy materiallar (ma’ruza), o‘quv-uslubiy tarqatma materiallar, har bir modul bo‘yicha individual topshiriqlar, o‘quv ilmiy adabiyotlar ro‘yxati, har bir modul bo‘yicha mustaqil ishlar uchun topshiriqlar va har bir modul bo‘yicha nazorat topshiriqlarini qamrab oladi [6].

Modulli o‘qitishga o‘tishda quydagи maqsadlar ko‘zlanadi:

- o‘qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzlusizligini ta’minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o‘qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o‘zlashtirishga erishish.

Shunday qilib, modulli o‘qitishda o‘quvchilarni o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olishi uchun to‘la zarur shart-sharoitlar yaratiladi. O‘qitishning modul tizimiga o‘tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

O‘quv muassasasning moddiy-texnikaviy bazasi darajasi:

- professor-o‘qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko‘zlangan natijalarni baxolash;
- didaktik materiallar ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni optimallashtirish.

Modulli o‘qitishga o‘tishda quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- ishchi o‘quv rejani chuqur tahlili asosida, CHQBT fani bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya’ni butun o‘quv rejasi alohida makromodullar to‘plami sifatida qaraladi [7].

Ko‘pchilik hollarda quyidagi uch turdagи makromodullar tuzilishi mumkin:

- A) gumanitar fanlarni o‘z ichiga oladigan;
- B) iqtisodiy fanlarni o‘z ichiga oladigan;
- V) umumta’lim, umutexnik, umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘z ichiga oladigan.

Har qaysi modul bo‘yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- o‘quvchilarning bilimini nazoarat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o‘quv uslubiy tarqatma materiallar;

- o‘quv-ilmiy adabiyotlar ro‘yxati;
- ishchi o‘quv dastur.

Har bir modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to‘plami tuziladi va ular o‘quvchiga mashg‘ulotdan oldin beriladi [8].

Modul tavsiya qilinadigan adabiyotlar bilan ta’milnadi. Har bir o‘quvchi materiallarni o‘zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o‘tadi. Iqtidorli o‘quvchilar boshqalarga bog‘liq bo‘lmasdan test sinovlaridan o‘tishlari mumkin [9].

Modulli o‘qitish, CHQBT fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan informatsiyalar beruvchi muammoli va yo‘riqli ma’ruzalar o‘qilishini taqozo etadi. Ma’ruzalar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. Modulning amaliy mashg‘ulotlari ma’ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma’ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldiriladi. O‘quvchilar ma’lum amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ma’ruzalar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini qo‘llab, materiallarni bloksxema, rasmlar bloki ko‘rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda materialning o‘zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- modulning pirovard maqsadi tushunib etiladi;
- o‘quv materialining elementlari orasidagi bog‘liqlanishlar va uning o‘tishlar yaqqol ko‘rsatiladi;
- asosiy jihatlar ajratib ko‘rsatiladi;
- o‘quv materialining (modulning) butun hajmi o‘quvchining ko‘z oldida gavdalanadi. Modul tizimida o‘quv materialining mazmunini strukturalashda, eng avvalo, informatsiyani “siqish” vazifasi ko‘zlanadi. Bilimlarni to‘la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim. O‘quv informatsiyasi bir vaqtning o‘zida 4 xil – rasmlli, sonli, simvolli va og‘zaki ko‘rinishda uzatilganida eng mustahkam o‘zlashtirishga erishiladi. Modulli ta’lim metodikasi tuzishda, bu holat asos bo‘lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo‘yicha rasmlar bloklarida simvolli alomatlarni (savollar qo‘yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko‘rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo‘ladi [10].

Rasmlar bloki, sxemalar bloki va boshqa suratlari (kurgazmali) materiallar o‘quvchilar uchun tarqatma material vazifasini ham bajaradilar. Shu bilan bir qatorda har bir fan, jumladan modul uchun atamalarning izohli lug‘atini tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladi [11].

Modulni o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o‘qitishning quyidagi usullarni qo‘llash lozim:

- miyalar hujumi, muammoli muloqotlar, evristik suhbatlar, o‘quv o‘yinlar va hokazo.

O‘qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo‘ladi:

- fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzlusizligi ta’minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o‘quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan assoslangan muvofiqligi o‘rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- o‘quvchilar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so‘ng) qilinishi;
- o‘quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko‘ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so‘ng, o‘qituvchi ayrim o‘quvchilarga fanni individual o‘zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);
- informatsiyani “siqib” berish natijasida, o‘qishni jadallashtirish, auditoriya soatlаридан samarali foydalanish va o‘quv vaqtini tarkibini, ma’ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg‘ulotlar, individual va mustaqil ishlар uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish [12].

Buning natijasida, o‘quvchi etarli bilimlarga ham, ko‘nikmaga ham, o‘quvgaga ham ega bo‘ladi.

Shunday qilib modulli o‘qitishdan foydalanib, malakali mutaxassisni tayyorlash, quyidagilar asosida ta’minlanadi:

- o‘qitishning uzlusizligi (bunda fanlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi);
- o‘qitishni jadallashtirish (buning natijasida informatsiyaning ko‘p qismi, individual va mustaqil ishslash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o‘zlashtiriladi);
- o‘qitishni individuallashtirish (o‘quvchi o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi).

Xulosa qilib aytganda, texnologiyalashtirishning yangidan - yangi usullari ilmiy - texnik taraqqiyot ishlab chiqarish sohasi bilangina cheklanib qolmay, ta’limning barcha sohalariga ham kirib kelishi, axborotlar hajmining keskin ko‘payishi, fan va texnika taraqqiyotining keskin o‘sishi, ayniqsa, raqibni aniqlash tizimi masofadan avtomatik boshqariluvchi datchiklar, retranslyatorlar va axborotni qayta ishslash markazlari jihozlanib bo‘lgan bir davrda harbiy ta’lim tizimini asosiy halqasi bo‘lgan mashg‘ulotni mazmunan isloh qilish hamda mashg‘ulot rahbarining faoliyatini yuksak darajada takomillashtirib borish zaruriyati yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## **Adabiyotlar**

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘lmalari to‘g‘risida Nizom. 1-bob. 1-band.
3. А.Ю.Сотвoldиев.«Организация и методика допризывного военного образования». Тошкент-2010 г.ст. 109-121
4. Sotvoldiyev A.Chaqiriqqacha harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi.-Toshkent: Aloqachi. 2010. – B. 210-216.
5. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. – Т., 1999. – Б. 15.
6. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Т., 2007. – B. 15.
7. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – Т.: Moliya. 2003. – B. 36.
8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Fan. O‘zPFITI, 2006. – B. 16.
9. Avliyokulov N.X. O‘qitishning Moduli tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, – Buxoro, 2001. – B. 44.
10. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Fan, O‘zPFITI, 2006. – B. 18.
11. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Fan va texnologiyalar., 2009. – B. 23.
12. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Fan va texnologiyalar. 2009. 28-b.

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KO‘NIKMALARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**Qo‘chqarov D.U. - Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning zarurati va shart-sharoitlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy kunikmalar, innovatsion yondashuvlar, axborot-texnologik yondashuv, integrativ yondashuv.

## **РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ**

**Кочкаров Д.У. - исследователь Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье освещены необходимость и условия развития профессиональных навыков будущих учителей на основе инновационных подходов.

**Ключевые слова:** будущие учителя, профессиональные навыки, инновационные подходы, информационно-технологический подход, интегративный подход.

**DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS  
ON THE BASIS OF INNOVATIVE APPROACHES**

**Kochkarov D.U. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article illuminated the need and conditions for the development of professional skills of future teachers on the basis of innovative approaches.

**Key words:** future teachers, professional skills, innovative approaches, information technology approach, integrative approach.

O‘qituvchining kasbiy faoliyati muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimiga tayanadigan maxsus xatti-harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatining mazmuni ma’lum kasbiy, psixologik-pedagogik, metodik bilimlarga tayanadi. Bunda bilimlar umumiyl holda o‘quv dasturlari bilan aniqlanib, amaliy ko‘nikma va malakalar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy ko‘nikmalarni ta’riflash quyidagi turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, uning sababi ko‘nikma tushunchasining murakkabligi va ko‘p qirraligi. Ko‘nikma – maqsad va shart-sharoitlarga asosan faoliyatni samarali bajarish imkoniyati [6];

ko‘nikma – egallangan bilim majmuasi bilan ta’minlanadigan subyekt tomonidan egallangan xatti-harakatni bajarish usuli. Ko‘nikma mashq qilish yo‘li bilan shakllanadi va xatti-harakatni nafaqat odatdagi sharoitlarda, balki o‘zgaruvchi sharoitlarda ham bajarishga imkon yaratadi, ko‘nikmaning shakllanganlik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchining kasbiy bilimi, ko‘nikma va malakalari kasbiy faoliyati davomida shakllanganligi uchun ushbu ko‘nikmalar o‘qituvchi faoliyatining tarkibiy


qismlari bilan uyg‘unlashadi. Ularni an’anaviy va innovatsion tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

Kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar o‘qituvchining didaktik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lib, ular psixologik va xususiy didaktik, ya’ni o‘qituvchining didaktik faoliyati bilan uyg‘unlashadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining tushunchalar va ta’riflar, ular ustida amallar, jumlalar va isbotlar, ular ustida amallar, masalalarni yechish metodlari, ularni qo‘llanilishi, dunyoni fan vositalari yordamida bilish usullari, ulardan foydalanish, asosiy tuzilmalar va ularning o‘zaro aloqadorligi; metodik: tushunchalarni o‘qitish, jumlalar va isbotlashlarni o‘qitish, masalalarni yechishni o‘rgatish, axborot-texnologik vositalar yordamida tabiiy ko‘nikmalarni usullariga o‘rgatish, materialni mantiqiy tahlil qila olish, fanlarni o‘qitishning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuningdek, bularni bo‘lajak o‘qituvchining bilimi, ko‘nikma va malakalarining tarkibiy qismlari deb atashimiz mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy ko‘nikmalarining sxemasiga ega bo‘lamiz (1-rasm). Bunday ko‘nikmalarni talabalarda oliv ta’lim muassasalarida shakllantirish lozim bo‘lib, o‘qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi.

Xalqaro sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan, o‘qituvchilarni tayyorlamasdan turib, ta’limning yangi tizimini shakllantirish mumkin emas. Xusan, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi darajasi bundan mustasno emasligi uchun, bugungi kunda kasbiy tayyorgarlikni ham amaliy, ham nazariy jihatdan alohida muammo sifatida ko‘rib chiqish zaruriyati mavjud.



**1 - rasm. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalari.**

Talabalar psixologik-pedagogik tayyorgarlik doirasida insonning individual xususiyatlari haqidagi tasavvurlar, ularni tashxislash va hisobga olish usullarini,

ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga individual yondashuv tamoyillarini, pedagogik texnologiyalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bunday bilimlar umumpedagogik faoliyatni tashkil etuvchi zaruriy shartlar hisoblanadi.

Fanlarni o‘zlashtirishga tayyorgarlik – asosiy tuzilmalari, fan qonuniyatlari asosida o‘rganilayotgan obyektlar ustida amallar bajarish zaruriyatini, kasbiy faoliyatda instrument sifatida paydo bo‘ladigan didaktik imkoniyatlarini, o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan izlanish apparatini, bilimlarni bilimlar tizimiga o‘tkazish usullarini egallahsga va tushunishga olib keladi.

Fanning umumiylari nazariyasi talaba faoliyatiga, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy metodlarni egallahshlariga va shu metodlarni kasbiy faoliyatida samarali qo‘llay olishlariga javobgar. Bugungi kunda tayyorgarlik yaxlit kasbiy yo‘nalgan tizim sifatida amalga oshirilishi lozim. Metodika, psixologiya va pedagogika kurslarining o‘qitilishini boshqarishi va talabaning psixologik-pedagogik tayyorgarligi uchun ijtimoiy buyurtmachi funksiyasini bajarishi kerak.

Ilmiy-metodik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri hozirgi zamon fanlarni o‘qitishni rivojlantirishning yangi metod, vosita va shakllarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Fanning mazmuni va tuzilmasini; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini; tashkiliy masalalarni; talabalar tomonidan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishni nazorat etish usullarini; ta’lim jarayonida didaktik tamoyillarni amalga oshirish va uning zamonaviy tasnifini; ta’limda pedagogik evristikadan didaktik tizim sifatida foydalanishni; talabalarning kasbiy tayyorgarligini ko‘p bosqichli amalga oshirish muammosini; talabani tarixiylik tamoyili nuqtayi nazaridan tayyorlash tizimini nazarda tutadi.

Ta’limni takomillashtirishga innovatsion yondashuv oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni kiritish va foydalanishni anglatadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-metodik izlanishlarni tadqiq qilish asosida quyidagi innovatsion yondashuvlar aniqlandi: integrativ; faoliyatli; tabaqlashgan; kompyuterdan foydalanishni taqozo etuvchi texnologik yondashuv.

Ilmiy-metodik tadqiqotlarda fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy tayyorgarligiga innovatsion yondashuvlarni qo‘llash konsepsiysi kundan-kunga faolroq tadqiq etilmoqda. Bu birinchi o‘rinda ta’limga faoliyatli yondashuv, pedagogik integratsiya, ta’limni tabaqlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan jumladan, axborot texnologiyalardan foydalanish.

Hozirgi zamon o‘qituvchini tayyorlash faoliyatli yondashuvning bizga ma’lum bo‘lgan tamoyillari asosida: ta’lim jarayonida u yoki bu turdagiligi faoliyatni shakllantirish uchun talabada shakllanayotgan faoliyatga mos bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Talabalarning kasbiy kompetentligi nafaqat qo'shni fanlar bilan oddiygina fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishni, balki alohida parametrlar bo'yicha kasbiy ta'lim tizimining boshqa qismlari bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Zamonaviy islohotning asosiy yo'nalichlari – insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish nafaqat umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida, balki oliy ta'lim muassasalarilarda ham tabaqlashtirish muammosini kengaytirib yubormoqda.

YE.V. Drobisheva tabaqali metodik layoqatlilik darajalarini ajratib ko'rsatadi. Shu munosabat bilan mutaxassislarni ko'p darajali tayyorlash tizimi kiritilib, bunda uning asosiy tarkibiy qismlari – talabaning kasbiy faoliyati, talabaning o'quv faoliyati, pedagogika ta'limi mazmunining turli bosqichlarida shakllantiriladigan metodik ko'nikma va malakalarni o'zaro bog'liqligi o'rnatilgan [5].

Ta'limga texnologik yondashuv oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim shakllari va metodlarining texnologiyalashganligi, talabalarni umumiyo'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv jarayonini loyihalashga o'rgatishni taqozo etadi.

An'anaviy ta'lim metodlari va o'quv jarayonini tashkil qilish usullari talabalarni faqatgina fanni o'qitishda faoliyatli yondashuv bilan tanishishga yo'naltirilgan edi, ammo pedagogik faoliyatga tayyorlash talabalarni pedagogik muhitda harakatlana olish ko'nikmalarini talab etadi.

Ta'kidlash joizki, umumiyo'rta ta'lim maktablaridagi olib borilgan integratsiyaga oid tadqiqot ishlari ko'proq fanlararo aloqadorlik, ichki aloqadorlikni amalga oshirish, umumta'lim fanlari bilan integrativ kurslarini ishlab chiqish, fanlarni o'qitishning tatbiqiyo'naliishi, umumiyo'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda uzuksizlik va uzviylikni ta'minlash muammolariga qaratilgan ishlar kengroq o'rinn olgan. Shuningdek, oliy ta'limda integratsiyalash muammolar qisman hal qilingan, integratsiyalashning amaliy jihatlari, ayniqsa, integrativ yondashuvlar asosida o'qituvchining didaktik tayyorgarligini amalga oshirish imkoniyatlaridan foydalanish yetarlicha tadqiq etilmagan.

Umumiyo'rta ta'lim maktabi aniq fanlarni tabaqlashtirish muammolari ko'proq matabda hal etilgan. I.M.Smirnova [8], R.A.Uteyeva [9] va respublikamiz sharoitida A.Y.Bakirova [2], I.U.Ibragimov [6] va boshqalarning ishlarini keltirish mumkin. Oliy ta'lim, xususan, pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun tabaqlashtirish muammolari bo'yicha nazariy va amaliy yo'naliishda ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur deb hisoblaymiz.

Axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini samarali tashkil etishda, pedagogik axborotlarni qayta ishslash va tahlil qilishda, o'quvchilarda o'quv ko'nikmalarini shakllantirish va o'quv-tarbiya jarayonini

boshqarish va tashkil etishda, ta’lim jarayonini nazorat qilish va baholashda muhim vosita vazifasini bajarishi mumkin. Bu muammoga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari qatoriga M. Aripov [1], R. Boqiyev [3] va boshqalarning ishlari kiradi. Bu tadqiqot ishlari ko‘proq pedagogika fanlarini o‘qitishda kompyuter texnologiyalarining ko‘magini yoritishga qaratilgan. Kompyuterlarning hozirgi bosqichidagi imkoniyatlari hisobga olinsa, keyingi tadqiqot ishlarida o‘quv jarayonini tashkil qilish va talabalar kasbiy (metodik) faoliyatini shakllantirishda kompyuterdan vosita sifatida foydalanish, ya’ni kasbiy-metodik tayyorgarlikning takomillashtirilishida istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy bilimlar va fanda integratsion jarayonlarning yetakchi o‘rnlarni egallashi zamonaviy dunyoqarashni va tafakkurni shakllantirish muammolari bilan bog‘liq holda yuz bermoqda. Fanlar integratsiyasi ilmiy bilimlar va tadqiqot ishlarining insonparvarlashuvi, nazariyalashayotganligi, tufayli yuz beradi va kuchayib boradi. Integratsiya tushunchasi butunga birlashtirish, qandaydir elementlarning birligi, qandaydir elementlarni tiklashni anglatadi.

V.S. Bezrukovaning [3] tadqiqot ishiga asoslanib, ta’limda integratsiya tushunchasi mazmunini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- yo‘nalish – bilish predmetini kengaytirish; ko‘p predmetlilikni bartaraf qilish; mavzuni, kursni o‘rganishga vaqt ni qisqirtirish; ta’lim texnologiyasini o‘zgartirish; shaxsni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- obyektlari – materialli; ideal (tushunchalar, tamoyillar, g‘oyalar, nazariyalar); faoliyat (usullar, metodlar, ko‘nikmalar, texnologiyalar); shaxs (holat, sifat, xossalari, mativlar);

- shakllari – integrativ: masalalar; topshiriqlar; darslar; ekskursiyalar; ma’ruzalar; rejalar; dasturlar; mavzular; kurslar;

- ko‘rinishlari – ichki fanli; fanlararo; lokal; global; ichki turkum; turkumlararo;

- darajalari – boshlang‘ich, fanlararo aloqadorlik-obyektni modernizatsiyalash; innovatsion, didaktik sintez yoki integrallashgan dars; innovatsion, butunlik darajasi yoki integrallashgan kurslar;

- tamoyillari – tanlov ketma-ketligi: maqsaddan boshlab, obyektlar tanlash, ma’lum darajagacha; keltirib chiqarilganlik; integratsiya tanlangan tavsifnomalarni amalga oshirishning cheklanganligini hisobga olish;

- bosqichlari – tayyorlov: integratsiya yo‘nalishini, obyektlarini, shakllari va ko‘rinishlarini aniqlash; yangi hosil bo‘lgan integrativ yangilikning shaklini tekshirish.

Fanlarni o‘qitish bo‘yicha o‘quv fani dasturlarining tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda rivojlangan davlatlarda to‘plangan tajribalar va mamlakatimiz sharoitida olib borilgan qator ilmiy-tadqiqot

ishlarining natijalariga tayangan holda, fanning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda innovatsion yondashuvlarga asoslangan yangi variantini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. – Toshkent: “Universitet” 2000. – 132-b.
2. Бакирова А.Ю. Развитие математического мышления учащихся на основе дифференцированного обучения (на материале академических лицеев математического и естественного направлений). Дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ, 2003. - 136 с.
3. Безрукова В.С. Интеграционные процессы в педагогической теории и практике. - Екатеринбург, 1994. - 152 с. (35)
4. Boqiyev R.R., Qayumova N.A. Axborot texnologiyalari darslarida modul dasturidan foydalanish // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2006. -№1. - B. 65-67.
5. Дробышева И.В. Методическая подготовка будущего учителя математики к дифференциированному обучению учащихся средней школы: Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. М., 2001. - 44 с.
6. Ibragimov I.U. Texnika yo‘nalishlaridaga akademik litseylarda matematika o‘qitish xususiyatlari: Dis. ... ped. fan. nom. –Toshkent: TDPU, 2005.-153 b.
7. Pedagogika. Izohli lug‘at. “Fan va texnologiya”. Toshkent. 2009. 672-b.
8. Смирнова И.М. Научно-методические основы преподавания геометрии в условиях профильной дифференциации: Монография. - М.: Прометей, 1994. - 152 с.
9. Утеева Р.А. Теоретические основы организации учебной деятельности учащихся при дифференциированном обучении математике в средней школе:Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. М., 1998. - 37 с.

### **ZAMONAVIY NAZARIYA VA AMALIYOTDA SHAXSNING IJODKORLIK QOBILIYATLARI MUAMMOSI**

**Mamatqulova M.V.- Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsning ijodkorlik qobiliyatları to‘g‘risidagi nazariy bilimlar tahlil qilingan, shuningdek shaxs ijodkorlik qobiliyatını o‘rganish ustida olib borilgan amaliy tadqiqotlar ko‘rib chiqilib, ularni tizimli o‘rganish asosida taklif va xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijodkorlik qobiliyatları, qadriyatlar, ehtiyojlar, ideallar, dunyoqarash, kashfiyotlar, xotira, e’tibor, mulohaza yuritish, psixik reaksiya tezligi, intellektual iqtidor, kreativlik, sintetik yondoshuv.

## **ПРОБЛЕМА ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ И ПРАКТИКЕ**

**Маматкулова М.В. - преподаватель Кокандского государственного  
педагогического института**

**Аннотация.** В статье анализируются теоретические знания о творческих способностях человека, а также рассматриваются практические исследования, проведенные по изучению творческих способностей человека, и представлены их рекомендации и выводы, основанные на систематическом исследовании.

**Ключевые слова:** творческие способности, ценности, потребности, идеалы, мировоззрение, открытия, память, внимание, рассуждение, скорость мыслительной реакции, интеллектуальные способности, креативность, синтетический подход.

## **THE PROBLEM OF INDIVIDUAL CREATIVE OPPORTUNITIES IN MODERN THEORY AND PRACTICE**

**Mamatkulova M.V.-Lecturer at the Kokand State Pedagogical Institute.**

**Annotation.** The article analyzes theoretical knowledge about human creativity, and also considers practical research conducted to study human creativity, and presents their recommendations and conclusions based on systematic research.

**Key words:** creativity, values, needs, ideals, worldview, discoveries, memory, attention, reasoning, speed of mental reaction, intellectual abilities, creativity, synthetic approach.

Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichida muammoli hollarda noan'anaviy yechimlarni ishlab chiqishga, improvizatsiya qilishga (tayyorgarliksiz bajarishga) qodir ijodkor shaxslarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu fan va texnikaning gurkiranib rivojlanishi, axborot oqimining shiddat bilan o‘sishi, mamlakatning siyosati, iqtisodiyoti, ahloqiy meyorlaridagi tub o’zgarishlari natijasida yuzaga kelmoqda. Shulardan kelib chiqib, shaxsning ijodkorlik qobiliyatları muammosi tobora dolzarblashib bormoqda.

Shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini o‘rganishga kirisha turib, bazaviy tushunchalarni aniqlab olish zarur: shaxs, qibiliyatlar, ijod. Bu tushunchalarning hammasi bir xil ma’nodagi talqingga ega emas, bu esa bizdan biror bir pozitsiyani tanlab olishni talab qiladi.

Psixologiyada olimlar shaxs muammosiga uch xil yondoshuvni ajratib ko‘rsatadilar: biologik, ijtimoiylashtiruvchi, bioijtimoiy. Bu yondoshuvlar shaxs tushunchasining mohiyatini insonning individual xossasi sifatida turlicha qaraydilar.

Tadqiqotimiz vazifalaridan kelib chiqib, biz A.V.Petrovskiyning, nazarimizda, shaxs tushunchasining nafaqat mohiyati, balki uni o‘zgartirish imkoniyatlari ham aks ettirilgan ta’rifiga asoslandik.

Shaxsning yetakchi tavsifnomasi sifatida uning yo‘naltirilganligi ko‘rsatiladi. Bu shaxsning turg‘un motivlari tizimidir (qadriyatlar, ehtiyojlar, ideallar, dunyoqarash, maqsadlar). Shaxsning yo‘naltirilganligi doimo ijtimoiy asoslangan va tarbiya yo‘li bilan shakllantiriladi.

Biz uchun shaxsning qobiliyatlar deb ataluvchi tashkil etuvchisini rivojlantirishning o‘ziga xos tomonlari muhim hisoblannadi.

Qobiliyat – eng umumiy psixologik tushunchalardan biri. Psixologiyasida ushbu fenomenni tadqiq qilish bilan B.M.Teplov, S.L.Rubinshteyn, V.D.Shadrikov, D.N.Zavalishina va boshqalar shug‘ullanishgan.

B.M.Teplov qobiliyatga quyidagicha ta’rif bergan: 1) qobiliyat – insonni boshqa inmondan farqini ko‘rsatuvchi individual–psixologik o‘ziga xos xususiyatlari; 2) biror–bir faoliyatni yoki bir necha faoliyatlarni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli o‘ziga xos xususiyatlar; 3) qobiliyatlar insonda hosil qilingan bilim, malaka va ko‘nikmalarga taalluqli emas [1].

Qobiliyatlarning samaradorligi faoliyatning biror turiga bo‘lgan munosabatiga qarab aniqlanadi. Bunda ijodkorlik qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi muhim hisoblanadi.

S.L.Rubinshteyn ijodga «biror yangi, original, keyinchalik nafaqat ijodkorning rivojlanish tarixiga, balki fan, san’atning ham rivojlanish tarixiga kiradigan har qanday yaratuvchanlik faoliyati» deb ta’rif beradi [2].

«Ijod – bu sifat jihatidan yangi narsani yaratish va takrorlanmasligi, originalligi va ijtimoiy–tarixiy noyobligi bilan ajralib turuvchidir. Ijod insonga xos, chunki doimo ijodkorning – subyektning ijodiy faoliyatini ko‘zda tutadi, tabiatda rivojlanish yuz beradi, ijod emas». Aynan inson ijodkor, daho, iqtidorli hisoblanadi. Bu ta’rifni biz asosiy deb hisoblaymiz.

Ijodiy masalalarni yechishning evristik usullarini Y.N.Kulyutkin o‘rgangan. U evristika deganda muvaffaqiyatli yechimni kafolatlovchi algoritmlardan farqli o‘laroq, ma’lum ehtimollik darajasiga ega to‘g‘ri yechim va xulosalarga olib

keladigan ba’zi muolajalarni tushunadi... evristik metodlar va usullar yechim yo‘lidagi variantlar sonini kamaytiruvchi muolajalar sifatida bayon etiladi» [3].

Kashfiyotchilar ijodiga ko‘plab ilmiy ishlar bag‘ishlangan.

XX asrning 30-yillarida A.P.Nechayev texnik ijodni o‘rganish bilan shug‘ullangan. U shaxsning bir qator qobiliyatlarini va sifatlarini (xotira, e’tibor, mulohaza yuritish, psixik reaksiya tezligi, tasavvur qilish, qiziqishlar, shaxsning tipik xususiyatlari) testlar yordamida o‘rgangan. Olim o‘tkazilgan kuzatishlar asosida texnik kashfiyotchilik asosida yotuvchi umumiy savollar badiiy va ilmiy ijodni yuzaga keltiruvchi umumiy savollarga o‘xshash degan xulosaga keladi.

Ko‘rib turibmizki, ijod tushunchasi g‘ayrioddiy ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Turli xil ta’riflari mavjud, ularning ba’zilarini biz qarab o‘tdik. Ularni klassifikatsiyalashga urinishlar ham bo‘ldi. Ye.P.Torrans tushuncha ta’riflarini 5 guruhga ajratdi. A.Z.Raximov ijodning mohiyatini aks ettiruvchi 125 ta eng asosiy mazmunli birikmalarini ajratib ko‘rsatdi, keyinchalik ular to‘rtta mavzuviy guruhlarga ajratildi. I.A.Sharshov klassifikatsiyalashni 10 ta guruhgacha to‘ldirdi [4].

Ijodkorlik qobiliyatlarining o‘zi yo‘q narsa. Intellektual iqtidor shaxs ijodkorlik faolligining zarur, biroq etarli bo‘lmagan sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik xulqi determinatsiyasida motivatsiya, qadriyatlar, shaxs xususiyatlari asosiy rol o‘ynaydi

Amerikadagi Gelapp institutida o‘tkazilgan so‘rovnomaga asosan («Amerikada kimlar yashaydi» spravochnigidan tasodifiy tanlangan 1500 mashhur kishilar ichidan) muvaffaqiyatga erishgan ijodkor shaxslarning umumiy sifatlari ajratib olinadi: sog‘lom fikrlashi; o‘z ishini bilishi; o‘z kuchiga ishonishi; yuqori umumiy rivojlanganlik darajasi; ishni oxiriga yetkazish qobiliyati.

Boshqa sifatlar ham bor: moslashish malakasi, mustaqilligi (GFR), originalligi, fikrlash epchilligi (AQSH); o‘zini erkin tutishi, originalligi, oyoqqa turib olishga intilishi (Fransiya).

Biroq qarab chiqilgan yondoshuv ham ijodkorlik jarayoni muammosini hal qila olmadi. Biror o‘ziga xos ijodkorlik qobiliyatini ajratib ko‘rsatish zarurati tug‘ildi.

Ijodkorlik qobiliyati (kreativlik) intellektga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil omil hisoblanadi (D.Gilford, K.Taylor). Ushbu «kreativlik» atamasi 60-yillarda anglo-amerika psixologiyasida individning yangi tushunchalarni yaratish va yangi ko‘nikmalarni shakllantirish xossasini aks ettiruvchi qobiliyatlarini belgilash uchun paydo bo‘ldi.

E.Torrens odat tusiga kirib qolgan stereotip yechimlarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini qo‘shdi. Kreaktivlik deganda u bilimdagi kamchiliklarni, jiddiy idrok etish qobiliyati va h.k.

N.Y.Postalyuk turli tadqiqotchilar tomonidan tez-tez ajratib ko‘rsatiladigan ijodkorlik qobiliyatini tizimlashtiradi [5]:

1. Muammoni ko‘ra olish qobiliyati. Ko‘pchilik testlarda bu qobiliyat kreativlik uchun asosiy hisoblanadi.
2. Fikrlash originalligi.
3. Fikrlash dialektikligi.
4. Oson uyg‘unlashtirish va tasavvur qilish.
5. Fikrlash epchilligi.
6. Fikrlash antikonformizmi.
7. G‘oyalarni osonlikcha o‘ylab topish va rivojlantirish malakasi.
8. Fikrlash kreativligi (kelib tushayotgan ma’lumotlarga va o‘ziga).
9. Bahor berish va tanlash qobiliyati.
10. Ko‘chirib o‘tkazish qobiliyati.
11. Xotiraning tayyorligi (zarur hajmdagi va sifatli bilimlar to‘plamini ta’minlash: tizimiylilik, dinamiklik, umumlashtirilganlik darajasi)

Rus olimlarining ijodkorlik qobiliyatlarini klassifikatsiyalashga uchinchi yondoshuvidagi fikrlariga qaramasdan, ko‘pchilik Rossiyalik psixologlarni aynan shu, rivojlangan kreativ hodisalarga ega insonlarning kognitiv qobiliyatlarini hamda shaxsga oid xususiyatlarini birlashtiruvchi yo‘nalishga tegishli deyish mumkin (D.B.Bogoyavlenskaya, V.N.Kozlenko, A.N.Luk, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponamarev va b.).

Ijodkorlik qobiliyatları tushunchasiga oid chet el tadqiqotlarini umumlashtirib, quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- 1.Yagona konsepsiyaning yo‘qligi
2. Har bir yondoshuvda biror ratsional ildizning mavjudligi:

Kreativlikni tavsiflashda fikrlash, tasavvur qilish operatsiyalari, ijodkorlik faoliyatida ishtirok etuvchi perceptiv sohaning o‘ziga xos tomonlari ajratib ko‘rsatilgan.

Sintetik yondoshuv ijodkorlik qobiliyatlarining barcha muammolarini hal qiladigandek tuyuladi. Haqiqatan ham, ijodkorlik yutuqlariga ham ruhiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ham shaxs tavsifnomalari, ham motivatsiya ta’sir ko‘rsatadi. Biroq psixologiyaga oid adabiyotlarda motivatsiya, xarakter va qobiliyatlarni bir-biriga aralashtirmaslik qabul qilingan. Kreativlik tushunchasiga ta’rif bera turib, tadqiqotchilar ijodkorlik qobiliyatlarining xususiy muammolaridan ijodkor shaxsning umumiyligi muammoiga chiqishdi. Bu holda shaxsning kreativligini belgilovchi tarkibiy tashkil etuvchilarining ustivor o‘ziga xos tomonlarini ajratib ko‘rsatish zarurati tug‘iladi.

Taklif etilgan yondoshuvlarni, shuningdek pedagogik ish tajribasini tahlil qilish asosida biz quyidagi o‘ziga xosliklarni ajratib ko‘rsatdik: xarakter (o‘z kuchiga ishonish; mustaqillik; aqlning ravshanligi; yangi va g‘ayri oddiy narsani qabul qilishi; noma’lum va hal qilinmagan holatlarga yuqori bag‘ri kenglik bilan munosabatda

bo‘lish, bu holatlarda konstruktiv faol bo‘lish; refleksiv nuqtayi nazar), qobiliyatlar (muammolarni ko‘rish, xotiraning tayyorligi, bilimlarni yangi hollarga qo‘llash, oson moslashtirish va tasavvur qilish, fikrlashning dialektikligi va originalligi, natijani avvaldan ko‘ra bilish, tanqidiy fikrlash), iroda (o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyat, qiyinchiliklarni yengishga intilish, g‘oyalarni oxirigacha yetkazish), his-tuyg‘ular (bilishga intilish, ajablanish, ilhom). Shubhasiz, ijodkor shaxs o‘ziga xos xususiyatlarining aytib o‘tilgan majmuasining namoyon bo‘lishiga shaxsning yo‘naltirilganligi qo‘zg‘atuvchi bo‘lib xizmat qiladi: tanlangan faoliyatga qiziqishi, bilishga intilishi, o‘z-o‘zini ishga jalb etishga intilishi.

Ko‘rsatilgan o‘ziga xosliklar shaxsning bilishga qiziqishidagi havaskorlikni amalga oshirish imkonini beradi.

Qobiliyatlarga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz. Qobiliyatlar ruhiyat umumiy tushunchasini miyaning obyektiv olamni aks ettirish xossasi sifatida aniqlashtirib, bu hossani konkret psixik funksiyalarga tabaqalashtirib, unga individual ifodalanganlik o‘lchovini kiritib, unga amaliylik xususiyatini bag‘ishlab, ruhiyatning tarkibiy tuzilishidagi o‘rnini egallaydi.

Bizning fikrimizcha, ijodkorlik qobiliyatlar psixologik tushunchasi mustaqil mavjud bo‘lish huquqiga ega, chunki:

- 1) ijodkorlik qobiliyatları asosan faoliyat – ijodkorlik inson faolligiga taalluqli, faoliyatning boshqa turlarida o‘zining qobiliyatları ajratib ko‘rsatilgan;
- 2) ma’lum qobiliyatları ajratib ko‘rsatish ularning bir maqsadda rivojlantirilishi uchun asos bo‘lishi mumkin.

Nazarimizda, ijodkorlik qobiliyatları so‘z birikmasi berilgan tushunchaga eng yaqin tur orqali va ijod qilish qobiliyati ko‘rinishida ta’rif beradi.

Kengaytirilgan variantda: ijodkorlik qibiliyatları – bu psixologik funksional tizimning individual xossasi bo‘lib, uning ijodkorlik jarayonining samaradorligini belgilaydi.

Bunda ijodkorlik qobiliyatalarini umumiy qobiliyatlar qatoriga kiritish kerak bo‘ladi, chunki ular ixtiyoriy kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishi mumkin, va intellekt bilan bir qatorda maxsus qobiliyatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. “Insonning barcha maxsus qobiliyatları – bu pirovard natijada uning umumiy qobiliyatining insoniyat madaniyati va uning keyingi rivojlanishini o‘zlashtirish qobiliyatining turli xil namoyon bo‘lishidir.

1. Ijodkorlikning namoyon bo‘lishi turlicha bo‘lishi mumkin, masalan san’atda va fanda. Bu narsa ijodkorlik mexanizmlardagi farqqa olib kelishi kerak. Biroq, reallik ba’zi ijodkorlik muolajalarining, shuningdek ijodkorlik jarayonini ochib berish izchilliginidan iborat bo‘ladi. Har qanday ijodkorlik jarayoni muammoning qo‘yilishi va hal qilinishi bilan bog‘liq. Ijodning bir turida (san’atda)

bu kamroq, boshqalarida (fanda) aniqroq – aniq berilgan ko‘rinishda ifodalangan bo‘ladi. Shuning uchun ham asosiy e’tiborimiz muammolar bilan ishlashga qaratilgan bo‘ladi. Ijodkorlik jarayonining bosqichlari sifatida biz muammoni aniqlashni; muammoni tushunishni; muammoni hal qilish bo‘yicha g‘oyalarni yaratish, g‘oyalarni tuzishni qarab chiqamiz.

Real ijodiy jarayonda ijodkorlik qobiliyatlarini integrallangan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, biroq alohida bosqichlarda eng muhim qobiliyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu ijodkorlik qobiliyatlarini tarkibiy tuzilishlarga ajratish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin, bu esa ularni tashxis qilish va rivojlantirish uchun juda muhim.

### **Adabiyotlar**

1. Теплов Б.М. Проблемы индивидуальных различий. М., 1961. - 535 с.
2. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии: В 2 т. Т. 2 М.: Педагогика, 1989. - 328 с.
3. Кулюткин Ю.Н. Эвристические методы в структуре решений. М., «Педагогика», 1970. 231 с
4. Шаршов И.А. Профессионально-творческое саморазвитие личности: сущность и технология: Учебное пособие. М.; Тамбов: Изд-во Тамб. унта, 2003. - 146 с.
5. Посталюк Н. Ю. Творческий стиль деятельности. Педагогический аспект.- Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. 200 с.

**Bosh muharrir:**

Umarov Alisher Yusubjanovich

**Bosh muharrir o‘rbinosari:**

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

**Tahrir hay’ati:**

Asqarov A.A., Djurayev R.X., Begimqulov U.Sh., Muslimov N.A.,  
Xaliqov A. A., Djamilova N.N., Mamarajabova Z.N., Masharipova U.A.,  
Ishquvvatov V.T., Xalilova N.I., Nurullayev M.E.,  
Djurakulova E.S., Axmedova N.M., Kurbanova Sh.I., Xo‘janazarov O‘.E.,  
Abdug‘aniyev O.T., Isakulova N.J.

**Tahriryat manzili:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy

**e-mail: tdpuiia@mail.ru**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tahrir va nashr”  
bo‘limida chop etildi. Adadi 10 nusxa. Hajmi 15 b/t. Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$   
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy